

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**ISHLAB CHIQARISH  
MUHANDISLIGI**

**2025**

**AVTOMATLASHTIRISHNING  
DOLZARB MUAMMOLARI VA  
ZAMONAVIY YUTUQLARI**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

TDTU,“Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” kafedrasi professori texnika fanlari doktori (DSc), dots. **Ruziev U.A.**

TDTU,“Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” kafedrasi dotsenti, PhD, dots. **Iskandarov Z.E.,**

TDTU,“Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” kafedrasi dotsenti, PhD, dots. **Shodiyev M.K.**

**Taqrizchi:**

TDTU “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish” kafedrasi mudiri, t.f.d., prof. **A.N.Yusupbekov**

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2024 yil 27-noyabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

## **MUNDARIJA**

I.	Ishchi dastur.....	5
II.	Modulni o‘qitishda foydalilaniladigan interfaol ta’lim metodlari	11
III.	Nazariy materiallar .....	22
IV.	Amaliy mashg‘ulot materiallari.....	51
V.	Keyslar banki .....	68
VI.	Glossariy .....	73
VII.	Adabiyotlar ro‘yxati .....	318

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamlı texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori hamda 2021 yil 28 yanvardagi “Intellektual mulk ob’ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4965-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida belgilangan belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoxda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb

masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlarda sanoat korxonalarida texnologik jarayonlari va ishlab chiqarishni modellashtirish, hamda avtomatlashtirish, va nazorat qilishda zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilish masalalarining nazariy va amaliy asoslarini bayon etilgan.

Bugungi kunga qadar sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlardan tortib maishiy hayotdagi jarayon va qurilmalar keng qamrovli avtomatlashtirishtirilib kelinmoqda. Endilikda esa sanoat ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini modellashtirish va avtomatlashtirishda zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari, ishlab chiqarishni boshqarishda qarorlarni qabul qilish, murakkab texnologik jarayonlarni bugungi zamonaviy matematik ifodalash usullarining qo'llanilishi istiqbolli bo'lib bormoqda.

Bu holatlar zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari, ishlab chiqarishda qarorlarni qabul qilish, murakkab texnologik jarayonlarni bugungi zamonaviy matematik ifodalash usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'risida ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** sanoat ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini modellashtirish va avtomatlashtirishda zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari, ishlab chiqarishni boshqarishda qarorlarni qabul qilish, murakkab texnologik jarayonlarni bugungi zamonaviy matematik ifodalash usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'risida ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

### **Modulning vazifalari:**

- "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish" yo'nalishida pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;
- mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovasion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;
- "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integrasiyasini ta'minlash.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

- “Ishlab chiqarish sohasidagi dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **- Tinglovchi:**

- o‘lhash turlarini;
- o‘lhash usullarini;
- o‘lhash xatoliklarini;
- muntazam xatoliklar va ularni kamaytirish usullarini;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning asosiy muammolari;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning rivojlanish tendensiyasi;
- avtomatlashtirish sohasidagi respublikamizdagи ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar natijalari, hududiy muammolar;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, kompyuter texnikasi orqali boshqarish, fan, texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning zamonaviy usullari;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning texnik va dasturiy ta’minoti;
- texnologik jarayonlarni modellashtirishning asosiy muammolari;
- texnologik jarayonlarni modellashtirishning rivojlanish tendensiyasi;
- texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish va model orqali jarayonlarni boshqarish usullarini;
- matematik model (MM) larni tuzishning umumiyl tamoyillarini;
- texnologik jarayonlarni tuzilgan modellari asosida asosiy parametrлarning qiymatlari va jarayon borishining optimal rejalarini aniqlashni;
- texnologik jarayonlarni identifikatsiyalash va modellashtirish usullarini bilimlarga ega bo‘lishi;
- avtomatik boshqarishning bugungi kundagi zamonaviy matematik apparat va usullarinihaqida **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- EHM da texnologik obyektlar va ularni boshqarish tizimlarini identifikatsiyalash va modellashtirish masalalari yechish;
- tipik texnologik jarayonlarning statik va dinamik modellarini tuzish;
- texnologik jarayonlar uchun optimal sharoitlarni aniqlash va ularni amaliyatda qo‘llay olish;
- obyektlar va boshqarish sistemalari modellarining parametrik va noperametrik identifikatsiyalash usullari va algoritmlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- baholash masalalarida qo‘llaniladigan optimallashtirishning asosiy mezonlarini hisoblash;
- chiziqli va nochiziqli dinamik sistemalar holatini baxolashning usullari va algoritmlarini hisoblash;
- texnologik jarayonlarni murakkab sharoitlarda adaptiv, robust va optimal boshqarish sistemalarini sintez qilish **ko‘nikmalarini egallashi**;
- o‘lhash usullarini tahlil qilish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish obyekti sifatida tahlil qilish;

- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning funksional sxemalarini tuzish;
- rostlash qonuni va rostlagichlarni tanlash va sozlash parametrlarining optimal qiymatlarini aniqlash;
- texnologik jarayonlarni matematik ifodalash;
- avtomatik rostlagichlarni hisoblash;
- avtomatik boshqarish sistemalarining sifatini baholash;
- zamonaviy boshqarish algoritmlarini qo'llay bilish;
- immitatsion modellashtirish usulari va dasturlarida ishslash **malakalariga** ega bo'lishi
- o'lhash xatoliklarini kelib chiqish sabalarin aniqlash va ularni bartaraf etish;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish;
- optimallashtirish masalalarini yechish usullarini amalda qo'llash;
- texnik o'lhashdagi xatoliklarning oldini olish;
- termoelektr materiallar va termoelektr o'zgartichchlarni tahlil qilish
- dinamik jarayonlarni matematik ifodalash;
- holat parametrleri fazosi unumidan foydalanish;
- boshqaruv obyektlarning dinamik modellarini ko'rish ;
- raqamli boshkaruv algoritmlari;
- texnologik jarayonlarni neyro-noqat'iy texnologiyalarga asoslangan usullarda modellashtirish;
- immitatsion modellashtirish usulari va dasturlarida ishslash **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Ishlab chiqarish sohasidagi dolzarb muammolar va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar hamda ko‘chma mashg‘ulot shaklida olib boriladi.

- kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;
- o'tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blits-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning oliv ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladila

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul tarkibi	Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	<b>Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilishning tarixi va rivojlanish tendensiyalari.</b> Avtomatik boshqarish tizimlarining tasnifi. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni tizimli tahlil qilish.	4	2		2
2.	<b>Sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan texnologik o‘lchashlar va asboblar. O‘lchash turlari va usullari.</b> O‘lchash xatoliklari va o‘lchash noaniqligi, ularning sinflanishi. Muntazam xatoliklar va ularni kamaytirish usullari. O‘lchash xatoligi va o‘lchash noaniqligi orasidagi bog‘liqlik.	6	2	2	2
3.	<b>Texnologik jarayonlarda haroratni nazorta qilish. Temperatura o‘lchash vositalarining tasnifi. Harorat shkalasi.</b> Harorat o‘lchash vositalarining tasnifi. Kengayish termometrlari. Suyuqlikli, dilatometrik va bimetalli termometrlar. Termoelektrik termometrlar. Potensiometrlar. Avtomatik potensiometrlar. Termoelektr materiallar va termoelektr o‘zgartkichlar.	8	2	4	2
4.	<b>Ishlab chiqarishdagi texnologik jihozlari, raqamlidasturiy boshqariladigan kontrollerlar, moslanuvchan ishlab chiqarish, montaj va sozlash, ishlab chiqarishni rejalashtirish.</b> Ishlab chiqarishda qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarishni tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish tashkilotlarish	4	2		2
5.	<b>Murakkab texnologik jarayonlarni bugungi zamonaviy matematik ifodalash usullari.</b> Holat fazosi usuli, matriksalar yordamida ifodalash. Uzatish funksiyasi matriksalari ko‘rinishida ifodalash. Noqat’iy to‘plamlar nazariyasidan foydalanish.	6	2	4	

	Noqat'iy mantiq usuli. Neyron turilaridan foydalanish.				
6.	<b>Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari.</b> Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari. Xolat rostlagichlari, adaptiv rostlagichlar, robast rostlagichlar, noqat'iy rostlagichlar, neyro-noqat'iy rostlagichlar, intellektual rostlagichlar.	8	2	4	2
7	<b>Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslarining tarixi va rivojlanish tendensiyalari.</b> Sanoat korxonalarida ishlatiladigan kompyuterli modellashtirish va optimallashtirish asoslari to‘g‘risida umumiyl ma’lumot. Tizimlarni modellashtirish turlarining klassifikatsiyasi. Kimyoviy-texnologik jarayonlarni tizimli tahlil qilish.	6	2	2	2
8	<b>Sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan kimyoviy-texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari va prinsiplari.</b> Kimiyoviy-texnologik jarayonlarning matematik ifodalarini fizik-kimiyoviy modellar yordamida ifodalash. Ideal aralashuv gidrodinamik modeli bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlari matematik ifodalari. Ideal o‘rin almashinuv gidrodinamik modeli bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlari matematik ifodalari. Bir va ikki parametrli diffuzion modeli bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlari matematik ifodalari.	4	2	2	
<b>Jami:</b>		<b>46</b>	<b>16</b>	<b>18</b>	<b>12</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: Texnologik jarayonlarni avtomatlashirish va nazorat qilishning tarixi va rivojlanish tendensiyalari.**

Avtomatik boshqarish tizimlarining tasnifi. Texnologik jarayonlarni avtomatlashirishni tizimli tahlil qilish.

**2-mavzu: Sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan texnologik o‘lchashlar va asboblar. O‘lchash turlari va usullari.**

O‘lchash xatoliklari va o‘lchash noaniqligi, ularning sinflanishi. Muntazam xatoliklar va ularni kamaytirish usullari. O‘lchash xatoligi va o‘lchash noaniqligi orasidagi bog‘liqlik.

**3-mavzu: Texnologik jarayonlarda haroratni nazorta qilish. Temperatura o‘lchash vositalarining tasnifi. Harorat shkalasi.**

Harorat o‘lhash vositalarining tasnifi. Kengayish termometrlari. Suyuqlikli, dilatometrik va bimetalli termometrlar. Termoelektrik termometrlar. Potensiometrlar. Avtomatik potensiometrlar. Termoelektr materiallar va termoelektr o‘zgartkichlar.

**4-mavzu: Ishlab chiqarishdagi texnologik jihozlari, raqamli-dasturiy boshqariladigan kontrollerlar, moslanuvchan ishlab chiqarish, montaj va sozlash, ishlab chiqarishni rejalashtirish.**

Ishlab chiqarishda qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarishni tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish tashkilotlarish

**5-mavzu: Murakkab texnologik jarayonlarni bugungi zamonaviy matematik ifodalash usullari.**

Holat fazosi usuli, matritsalar yordamida ifodalash. Uzatish funksiyasi matritsalari ko‘rinishida ifodalash. Noqat’iy to‘plamlar nazariyasidan foydalanish. Noqat’iy mantiq usuli. Neyron turilaridan foydalanish.

**6-mavzu: Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari.**

Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari. Xolat rostlagichlari, adaptiv rostlagichlar, robust rostlagichlar, noqat’iy rostlagichlar, neyro-noqat’iy rostlagichlar, intellektual rostlagichlar.

**7-mavzu: Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslarining tarixi va rivojlanish tendensiyalari.**

Sanoat korxonalarida ishlatiladigan kompyuterli modellashtirish va optimallashtirish asoslari to‘g‘risida umumiylumot. Tizimlarni modellashtirish turlarining klassifikatsiyasi. Kimyoviy-texnologik jarayonlarni tizimli tahlil qilish.

**8-mavzu: Sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan kimyoviy-texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari va prinsiplari.**

Kimyoviy-texnologik jarayonlarning matematik ifodalarini fizik-kimyoviy modellar yordamida ifodalash. Ideal aralashuv gidrodinamik modeli bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlari matematik ifodalari. Ideal o‘rin almashinuv gidrodinamik modeli bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlari matematik ifodalari. Bir va ikki parametrli diffuzion modeli bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlari matematik ifodalari.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg‘ulot: O‘lhash xatoliklari va o‘lhash noaniqligi. (2 soat)**

O‘lhash xatoliklari va o‘lhash noaniqligi, ularning sinflanishi. O‘lhash xatoliklarini ifodalash usullar. Tasodifiy xatoliklar. Muntazam xatoliklar va ularni kamaytirish usullari. O‘lhash xatoligi va o‘lhash noaniqligi orasidagi bog‘liqlik.

**2-amaliy mashg‘ulot: Texnologik jarayonlarda haroratni nazorta qilish. (4 soat)** Kengayish termometrlari, suyuqlikli, dilatometrik va bimetalli termometrlarni hisoblash. Termoelektrik va qarshilikli termometrlarni hisoblash.

**3-amaliy mashg‘ulot: Murakkab texnologik jarayonlarni matematik ifodalash usullari (4 soat).** Holat fazosi usuli, matriksalar yordamida ifodalash. Uzatish funksiyasi matriksalari ko‘rinishida ifodalash. Noqat’iy to‘plamlar nazariyasidan foydalanish. Noqat’iy mantiq usuli. Neyron turilaridan foydalanish.

**4-amaliy mashg‘ulot: Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari (4 soat).** Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari. Xolat rostlagichlari, adaptiv rostlagichlar, robust rostlagichlar, noqat’iy rostlagichlar, neyro-noqat’iy rostlagichlar, intellektual rostlagichlar.

**5- amaliy mashg‘ulot: Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari (2 soat).** Texnologik jarayonlarni tizimli tahlil qilish. Optimallashtirish masalasining qo ‘yilishi.

**6- amaliy mashg‘ulot: Kimyoviy-texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari va prinsiplari. (2 soat).** Ideal aralashuv gidrodinamik modeli, ideal o‘rin almashinuv gidrodinamik modeli hamda diffuzion model bilan ifodalanuvchi jarayonlarning dinamik va statik rejimlarini matematik ifodalash.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

- Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 б.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари.

4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

## **II. Normativ-huquqiy hujatlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–Т.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

## **III. Maxsus adabiyotlar:**

1. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. 2-chi nashr: qayta ishlangan va to‘ldirilgan. –Т.: Fan va texnologiya, 2019.
2. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va identifikatsiyalash. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. –Т.: Fan va texnologiya, 2019.
3. Luigi Bocola Identifying Neutral Technology Shocks. University of

Pennsylvania, 2014

4. Gartman T.N., Klushin D.V. Osnovы kompyuternogo modelirovaniya ximiko-texnologicheskix protsessov: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M.:IKS “Akademkniga”, 2006. 416s.
5. Richard C. Dorf,. Robert H. Bishop Modern Control Systems , Twelfth edition 2010. – 890 s.
6. Cecil L. Smith. Practical Process Control: Tuning and Troubleshooting. USA: Wiley, 2009. - 448 p.
7. Alan S. Moris, Reza Langari. Measurement and Instrumentation. -UK: Academic Press, 2016. -697p.
8. De Silva, Clarence W., Sensors and actuators : Engineering System Instrumentation, Taylor & Francis, 2015, 831p.ISBN 13: 978-1-4665-0682-4.
9. Nathan Ida, Sensors, Actuators, and Their Interfaces: A Multidisciplinary Introduction, SciTech Publishing, 2014, 784p, ISBN 13: 978-1-6135-3006-1
10. K. Iwansson, G. Sinapius, W. Hoornaert, S. Middelhoek, Measuring Current Voltage and Power Handbook of Sensors and Actuators Vol 7, Elsevier Science, 1999, 233p, ISBN 13: 978-0-4447-2001-6.
11. Stefan Johann Rupitsch, Piezoelectric Sensors and Actuators, Springer Berlin, 2019, 566p, ISBN 13: 978-3-662-57534-5.

#### **IV. Internet saytlar:**

16. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
17. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
18. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
19. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET.
20. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**


“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalani ganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda -yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

#### “Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalari ma’lum belgilari bo‘yicha guruhanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g’ri javob tanlab olinadi.

#### “Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


#### “Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g’ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

**“Kichik guruhlarda ishslash” metodi** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi  
“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“Davra suhbati” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

## **“Davra suhbati” metodining tuzilmasi**

### **“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergen savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergen javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

#### **“Davra suhbati” metodining afzalliklari:**

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtiroy etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

#### **“Davra suhbati” metodining kamchiliklari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Bundan tashqari

- Insert usuli
- Klasterli tahlil
- SWOT-tahlil
- T-jadval
- Venn diagrammasi

- BBB jadvali
- FSMU jadvali
- Sinkveyn usuli
- Interfaol testlar
- Aqliy hujum
- Kichik guruhda ishlash
- Rolli o‘yin
- va h.k. faoliyat turlaridan foydalaniladi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1- Mavzu: Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslarining tarixi va rivojlanish tendensiyalari.**

**Reja:**

- 1. Kirish**
- 2. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning dastlabki bosqichlari**
  - Mexanizatsiya davri
  - Birinchi avtomatlashtirish tizimlari
- 3. Avtomatlashtirishning rivojlanish bosqichlari**
  - Sanoat inqilobidan keyingi davr
  - Kompyuterlashtirish va dasturlashtirilgan boshqaruv
  - Zamonaviy avtomatlashtirish tizimlari
- 4. Nazorat qilish tizimlarining rivojlanishi**
  - An'anaviy nazorat vositalari
  - Elektron va raqamli nazorat tizimlari
- 5. Kelajak tendensiyalari va istiqbollari**
  - Sun'iy intellekt va mashinasozlikning rivoji
  - IoT va aqlii ishlab chiqarish tizimlari
- 6. Xulosa**


#### **Kirish**

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilish insoniyat faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayonlar ish unumdorligini oshirish, sifatni yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu ma'ruzada avtomatlashtirishning tarixi, rivojlanish bosqichlari va kelajakdagi tendensiyalari haqida so'z yuritamiz.

#### **Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning dastlabki bosqichlari**

##### **Mexanizatsiya davri**


Mexanizatsiya davri insoniyat tarixida texnik taraqqiyotning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu davrda asosiy e'tibor inson mehnatini yengillashtirishga qaratilgan mexanik qurilmalarni yaratishga qaratilgan edi. Mexanizatsiya asosan qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va oddiy mexanik asbob-uskunalarini ishlab chiqarishga qaratilgan.



**Illyustratsiya 1:** Mexanizatsiya davrini aks ettiruvchi dastlabki tegirmonlar va oddiy mexanizmlar tasviri.

### **Birinchi avtomatlashtirish tizimlari**

Birinchi avtomatlashtirish tizimlari XIX asrning o'rtalarida sanoat inqilobi davrida paydo bo'lgan. Ushbu davrda to'qimachilik sanoati va bug' dvigatellari avtomatlashtirishning asosiy yo'nalishlari hisoblangan. To'qimachilik dastgohlari va birinchi mexanik soatlar bu davrda keng qo'llanilgan.



**Illyustratsiya 2:** Birinchi bug' dvigateli va mexanik dastgohlarning tasviri.


**Jadval 1:** Mexanizatsiya va bиринчи avtomatlashtirish tizimlarining taqqoslanishi

Ko'rsatkich	Mexanizatsiya	Bиринчи автоматласhtирish
Nazorat	Qo'lда boshqaruv	Mexanik tizimlar
Asbob- uskunalar	Oddiy mexanizmlar	Murakkab mexanizmlar
Unumdorlik	Past	O'rtacha

### Avtomatlashtirishning rivojlanish bosqichlari

#### Sanoat inqilobidan keyingi davr


Sanoat inqilobi texnologik rivojlanishda ulkan sakrash bo'ldi. Bug' dvigatellari va dastlabki mexanik tizimlar ishlab chiqarishda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlar sezilarli o'rIN egalladi.



**Illyustratsiya 3:** Sanoat inqilobi davrida fabrikalar va bug' dvigatellarining ko'rinishi.

### Kompyuterlashtirish va dasturlashtirilgan boshqaruv


XX asrda elektronika va dasturiy ta'minotning rivoji avtomatlashtirishni yangi bosqichiga olib chiqdi. PLC (Programmable Logic Controller) kabi qurilmalar paydo bo'ldi. Bu qurilmalar ishlab chiqarish jarayonlarini dasturlashtirish va optimallashtirish imkoniyatini berdi.



**Illyustratsiya 4:** PLC tizimlarining ishlash printsipini ko'rsatuvchi diagramma.

## Zamonaviy avtomatlashtirish tizimlari

Hozirgi davrda avtomatlashtirish aqlii tizimlar va sun'iy intellekt yordamida boshqarilmoqda. Robototexnika va IoT tizimlari ishlab chiqarishda keng qo'llanilmoqda. Bular yuqori aniqlik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi.



**Illyustratsiya 5:** Robototexnika va aqlii ishlab chiqarish tizimlari tasviri.

## Nazorat qilish tizimlarining rivojlanishi

### An'anaviy nazorat vositalari

Dastlabki nazorat qilish tizimlari mexanik va gidravlik qurilmalardan iborat bo'lgan. Bular asosan qo'lda boshqariladigan tizimlar edi. Ish jarayonlari ko'p hollarda inson tajribasiga bog'liq bo'lган.

## Elektron va raqamli nazorat tizimlari

Elektron nazorat vositalarining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini yanada aniq va samarali boshqarish imkonini berdi. Raqamli texnologiyalar orqali jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish mumkin bo'ldi.

## **Jadval 2: An'anaviy va zamonaviy nazorat tizimlarining taqqoslanishi**

Ko'rsatkich	An'anaviy tizimlar	Zamonaviy tizimlar
Nazorat aniqligi	Past	Yuqori
Texnologiyalar	Mexanik va gidravlik	Elektron va raqamli
Moslashuvchanlik	Cheklangan	Yuqori

Turli texnologik uskunalar va sistemalar talab etilgan vazifalarni bajarishi uchun biron bir boshqarish jarayonini tashkillashtirish lozim. Boshqarish jarayoni “qo‘l” usulida yoki umumiy xolda avtomatlashtik boshqarish sistemalari deb ataluvchi texnik vositalar birligi orqali amalga oshiriladi.

Avtomatik boshqarish sistemalarini tadbiq etish va rivojlantirishning zarurligi o‘z ichiga elementar bazani, taxlil va sintezning nazariy masalalarini, loyixalashtirish va talab etilgan ishonchlilikni ta’minlovchi alohida ilmiy-texnik yo‘nalishning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga bu alohida yo‘nalish elektronika, matematika shuningdek fan va texnikaning boshqa bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqidir. Taxlil etilayotgan masalalar eng umumiy bo‘lib avtomatik boshqarish va rostlash sistemalarida kechayotgan jarayonlarni yagona nuqtai nazardan xarakteristikalaraydi.

Sanoat ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish texnik progressning ishlab chiqarish madaniyatining yuksalishiga, maxsulot sifatini oshishiga, uskuna unumdorligiga, maxsulotni ishlab chiqarishda xom ashyoning umumiy sarfini, energiya va mexnat sarfini kamaytirishga, atrof muhit himoyasini yaxshilashga, insonni ishlab chiqarishning zararli sharoitlaridan ozod qilishga shu bilan birga qator sotsial, iqtisodiy va texnik ko‘rsatgichlarni yaxshilashga qaratilgan asoslaridan biridir.

Xozirgi vaqtda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish soxasidagi asosiy urunishlar boshqaruvchi hisoblash mashinalari va mikroprotsessorni qo‘llash asosida texnologik jarayonlarni optimallashtiruvchi avtomatik sistemalarini yaratishga qaratilgan. Kun tartibida ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari va xolatlarini boshqarishni avtomatlashtirish haqidagi masala, texnologik jarayon va uskunalarni avtomatik tashxizlash sistemalarini yaratish, ishlab chiqarish avtomatlari va apparatlarini yaratish turadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan avtomatlashtirish sistemalarining rivojlanishi texnologik parametrlar va jarayonlarni yuqori samarali avtomatik rostlash sistemalarining mavjudligi orqali ta’milanadi. Bunday sistemalar texnologik parametrlar va jarayonlarning avtomatik stabilligini ta’minlaydi va ko‘p xollarda ierarxik (supervizor) usulda texnologik jarayonlarni optimallashtirish sistemalarini qurish uchun ijro etuvchi uskuna sifatida xizmat qiladi. Bu xolda avtomatik optimallash sistemalarining chiqishi stabillashtirish sistemalari uchun o‘zgaruvchan vzifa sifatida xizmat qiladi. Stabillashtirish sistemalari esa rostlanayotgan

o‘zgaruvchi kattaliklarni vazifaga mos kelishini ta’minlagani holda ierarxiyaning yuqori satxi sistemalari uchun ijro etuvchi sistema vazifasini bajaradi.

“Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish” fani kimyo, neft-kimyo, oziq ovqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning asosiy o‘ziga xosliklarini, texnologik jarayonlarni avtomatik rostlash va boshqarish sistemalarini, ularning ishonchliligi va samaradorligini o‘rganishga qaratilgan.

Texnologik jarayonlarni rostlash va boshqarish ob’ektlari va sistemalarining uziga xosliklarini tadqiq qilishda “Avtomatik boshqarish nazariyasi”, “Texnologik o‘lchashlar va asboblar” va boshqa umumtexnik va kasbga yo‘naltirilgan fanlardan foydalaniadi.

Uzluksiz texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish sistemalari ko‘rib chiqilganda katta e’tibor ishlab chiqarishning yordamchi tartiblari va bosqichlari: ishga tushirish va to‘xtatish tartibi, avariya oldi va avariya sharoitlari, qattiq fazali maxsulotlarni tushirish va yuklash bosqichlarini avtomatlashtirish darajasining oshirilishiga qaratiladi.

Avtomatlashtirish – texnologik jarayonlarni odam ishtiokisiz boshqaradigan texnik vositalarni joriy etish demakdir. Avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonidagi odam ishtiok etmagan sanoatning yangi bosqichi bo‘lib, bunda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish funksiyasini avtomatik qurilmalar bajaradi. Avtomatlashtirishni joriy etish ishlab chiqarishning asosiy texnik – iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga, ya’ni ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori va sifatining oshishi hamda tannarxining kamayishiga olib keladi.

Avtomatika fan va texnikaning avtomatik boshqarish nazariyasi va amaliyoti, avtomatik sistemalarni qurish prinsiplari va texnik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Avtomatlashtirish – bu texnik jihozlarning qo‘llanilishi, matematik usullar va boshqarish sistemalarida, buning natijasida inson qisman yoki butunlay informatsiya olishda o‘zgartirish, uzatish va energiyani ishlatalishdan ozod bo‘ladi.

Avtomatlashtirishning maqsadi – mehnat unumidorligi va ishlab chiqarishning sifatini oshirish rejalarini avtomatlashtirish, optimallashtirish va boshqarish, insonni zararli sharoitlarda ishlashdan ozod qilishdir. U fan va texnikani umumiyl rivojlantirish natijasidir. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning rivojlanishi asosan 50-60 - yillarda boshlangan. Texnika siyosatini maqsad sari yo‘naltirilganligi hisobiga kimyoviy ishlab chiqarishning turli sohalarida avtomatlashtirishning darajasi oshdi. Texnologik jihozlanishning yaxlitligi va undagi o‘zlashtirilgan texnologik jarayonlarni boshqarishni texnologik jarayonda amalga oshirilishi, texnologik ob’ektni boshqarishni tashkil qiladi. Axborotlarni avtomatlashtirilgan holda yig‘ish va qayta ishlashni ta’minlovchi hamda inson faoliyatining turli sohalardagi optimal boshqarish uchun zarur bo‘lgan inson-mashina sistemasiga – avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasi (ABS) deyiladi.

«Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish» kursining asosiy maqsadi: avtomatikaning zamonaviy texnik vositalari hamda EHM bilan boshqariladigan mikroprotsessorli texnika bazasi asosida ARSlarni qurish usullari va prinsiplarini to‘lato‘kis o‘rganishdan iborat. Kursning amaliy mohiyati mamlakatimiz xalq xo‘jaligi taraqqiyotidagi ustuvor vazifalar bilan bog‘langan.

Texnik jarayonlarda odamning ishtirok etishiga ko'ra avtomatlashtirishni quyidagilarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik rostlash va avtomatik boshqarish.

Avtomatik nazorat – texnologik jarayonlarda tezkor ma'lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va uni qayta ishlash uchun kerakli bo'lgan sharoitlarni ta'minlaydi.

Avtomatik rostlash – texnologik jarayonlarning tegishli parametrlarini avtomatik rostlovchi asboblar yordamida talab qilingan sathda saqlanishini nazarda tutadi. Bu holda odam faqat avtomatik rostlash sistemaining (ART) to'g'ri ishlashini nazorat qiladi.

Avtomatik boshqarish – texnologik operatsiyalarni belgilangan ketma-ketlikda avtomatik ravishda bajarilishini va boshqaruv ob'ektiga nisbatan bo'ladigan ta'sirlarning muayyan muttasilligini ishlab chiqishdan iborat.

Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi asosan uch bosqichdan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich- bunda asboblarni mashina va apparatlar yaqiniga joylashtirish deyarli qiyinchiliklar tug'dirgan. Avtomatlashtirishning bu davrida shkalasi yaxshi ko'rindigan yirik o'lchamli asboblar ishlatiladi. Bunda bir korpusga o'lhash asbobi, rostlagich va topshiriq beruvchi qurilma joylashtiriladi.

Ikkinci bosqich- ayrim jarayonlarning kompleks avtomatlashtirilishidir. Bunda rostlash alohida shchitga o'rnatilgan asboblar bo'yicha olib boriladi. Yirik o'lchamli asboblardan foydalanish bu shchitning bir necha metrga cho'zilib ketishiga olib keladi va shchitni nazorat qilish qiyinlashadi, avtomatlashtirishning bu davrida shchitdagি asboblarning hajmini kichiklashtirish zarurati paydo bo'ladi. Bu masalani hal qilish uchun kichik o'lchamli ikkilamchi asboblar ishlatiladi.

Uchinchi bosqich (to'liq avtomatlashtirish bosqichi) – agregat va sexlarni yalpisiga avtomatlashtirish bilan xarakterlanadi. Bu davning xarakterli xususiyati shundaki, boshqarish yagona nazorat punktiga markazlashtiriladi. Shu bilan birga, mitti ikkilamchi asboblarni ishlatish ehtiyoji paydo bo'ladi. Doimiy nazoratni talab qilinadigan o'lhash va rostlash asboblari (yirik o'lchamli) shchitdan tashqariga o'rnatiladi.

Har bir texnologik jarayon *texnologik jarayon parametrlari* deb ataluvchi o'zgaruvchan fizikaviy va kimyoviy kattaliklar (bosim, sarf, harorat, namlik, konsentratsiya va hokazo) bilan xarakterlanadi. Texnologik apparatura jarayonning turli oqib o'tishini ta'minlashi uchun muayyan jarayonni xarakterlovchi parametrlarni berilgan qiymatda saqlashi lozim.

Qiymatini barqarorlash – yoki bir tekisda o'zgarishini ta'minlash zarur bo'lgan parametrga *rostlanuvchi kattalik* deb ataladi. Rostlanuvchi kattalikning qiymatini barqarorlash yoki ma'lum qonun bo'yicha o'zgarishini amalga oshirish uchun mo'ljallangan asbob *avtomatik rostlagich* deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning ayni paytda o'lchanan qiymati, rostlanuvchi kattalikning *hozirgi qiymati* deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning texnologik reglament bo'yicha ayni vaqtida doimiy saqlanishi shart bo'lgan qiymati rostlanuvchi kattalikning *berilgan qiymati* deyiladi. Texnologik reglament rostlanuvchi kattalikning hozirgi va berilgan qiymatlarini vaqting har bir onida teng bo'lishini talab qiladi. Ammo ichki yoki tashqi sharoitlarning o'zgarishi sababli rostlanuvchi kattalikning hozirgi qiymati berilgan qiymatidan chetga chiqishi mumkin. Shu paytda hosil bo'lgan qiymatlar farqini *xato* yoki *nomoslik* deyiladi.


Xato yoki nomoslik nolga teng bo‘lgan texnologik jarayon *turg‘unlashgan rejim* deyiladi. Turg‘unlashgan rejimda moddiy va energetik balanslar qat’iy saqlanadi.

Har qanday texnologik jarayon uchun maxsulotning eng yaxshi sifati va eng kam sarf-xarajatlarda talab etilgan samaradorlikni ta’minlovchi optimal sharoitlar mavjud. Ush bu sharoitlarning birligi *normal texnologik sharoit* deb ataladi. Texnologik jarayon avtomatik tarzda rostlanayotgan sanoat uskunasi *rostlash ob’ekti* deyiladi. Har qanday texnologik jarayon rostlash ob’ekti sifatida quyidagi o‘zgaruvchilarning asosiy guruxi orqali xarakteristikalanadi (1. rasm).

1) Jarayon holatini xarakteristikakovchi o‘zgaruvchilar (ularning birligini  $Y(t)$  vektori orqali belgilaymiz). Bu o‘zgaruvchilarni rostlash jarayonida bir holatda ushlab turish yoki berilgan qonun bo‘yicha o‘zgartirish lozim. O‘zgaruvchilarni stabillashtirish aniqligi texnologiya va rostlash sistemasining imkoniyatlari taqozo etadigan talablarga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Odatda  $Y(t)$  vektoriga kiruvchi o‘zgaruvchilar bevosita o‘lchanadi, lekin ba’zi holatlarda ularni boshqa bevosita o‘lchanuvchi o‘zgaruvchilar bo‘yicha ob’ekt modelini qo’llab hisoblash mumkin.  $Y(t)$  vektori odatda *rostlanuvchi kattaliklar vektori* (yoki ishchi parametr) deb ataladi. Ko‘p hollarda ishchi parametrlari tezlik (chiziqli va aylanuvchan), harorat, bosim, chiziqli va burchak siljish kabi fizik kattaliklarni ko‘rsatadi.

2) O‘zgarishi orqali rostlash sistemasi ob’ektni boshqarish maqsadida unga tasir etishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchilar. Ush bu o‘zgaruvchilar birligi  $U(t)$  vektori orqali belgilanadi va *rostlovchi ta’sirlar vektori* deb yuritiladi. Odatda rostlovchi ta’sirlar sifatida moddiy oqim sarflari yoki energiya oqimi o‘zgarishi xizmat qiladi.

3) Amalda ko‘pincha xom-ashyoning sarfi va tarkibi, apparatlardagi harorat, bosim va hokazolarning o‘zgarishi kuzatiladi. Texnologik jarayonning maqsadga muvofiq ravishda oqib o‘tishiga teskari ta’sir ko‘rsatuvchi hamda sistemalardagi moddiy va energetik balansi buzuvchi o‘zgaruvchilar *g‘alayonlanishlar* deb ataladi. G‘alayonli ta’sirlar o‘z o‘rnida o‘lchanadigan va o‘lchanmaydigan o‘alayonlarga bo‘linadi. G‘alayonlanishlar ta’sirida xato paydo bo‘ladigan texnologik jarayon rejimi *turg‘unlashmagan rejim* deyiladi.



1-Rasm. Rostlash ob’ektiga ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchilar


Shunday qilib, sanoatning eng muhim talablaridan biri – texnologik jarayonning turg‘unlashgan rejimini saqlashdan iborat. Moddiy va energetik balansga rioya qiladigan mashina yoki apparat *rostlanuvchi ob’ekt* deyiladi.

Texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarishning vazifasi rostagich yordamida rostlanuvchi ob’ektdagi kerak bo‘lgan texnologik sharoitni avtomatik ravishda saqlash, agar bu sharoit buzilsa, uni qayta tiklashdan iboratdir. Avtomatik rostlash vaqtida

(rostlanuvchi ob'ektga rostlagichning ta'siri tufayli) rostlanuvchi kattalikning hozirgi qiymati berilgan qiymatiga teng yoki shunga yaqin bo'ladi.

Avtomatik sistemalar bir-birlari bilan ma'lum ketma-ketlikda bog'langan bo'lib, har biri tegishli vazifani bajaruvchi alohida elementlardan iborat. Mustaqil funksiyani bajaruvchi avtomatik sistema tarkibining biror qismi *avtomatika elementi* deyiladi. Avtomatika elementlarini ularning funksional vazifasiga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir. Avtomatik sistema elementlarining tarkibiga kiruvchi funksional bog'lanishni ifodalovchi sxema esa *funksional sxema* deb ataladi. Bundan tashqari, shu avtomatik sistemaning turli dinamik xususiyatlarga ega bo'lgan va bir – birlari bilan bog'langan sodda zvenolar shaklida tasvirlash ham mumkin. Bu holda avtomatik sistemaning sxemasi zvenolarning bog'lanishini aks ettiradi va *sistemaning tuzilish sxemasi* deyiladi (2 rasm).

Rostlanuvchan ob'ekt va avtomatik rostlagich birligi ARSni tashkil qilib, rostlash *konturi* nomli tutash zanjirni hosil qiladi. Bu zanjir ARSning tuzilish sxemasiga emas, balki funksional sxemasiga tegishli bo'ladi.



*Ris. 2. ARSning struktura sxemasi.*

### Kelajak tendensiyalari va istiqbollari


#### Sun'iy intellekt va mashinasozlikning rivoji

Sun'iy intellektning rivoji avtomatlashtirish sohasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarining moslashuvchanligini oshiradi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida murakkab muammolarni hal qilish mumkin.

#### IoT va aqlli ishlab chiqarish tizimlari

Narsalar interneti (IoT) va aqlli tizimlar kelajak avtomatlashtirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Bu tizimlar ishlab chiqarishni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. IoT qurilmalari yordamida barcha tizimlar bir-biri bilan bog'langan holda ishlaydi.

# IoT Architecture



**Illyustratsiya 6:** IoT va aqlli tizimlar arxitekturasi tasviri.

## Xulosa

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilish inson faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayonlar yordamida samaradorlik oshirilib, yangi texnologiyalar yaratildi. Kelajakda sun'iy intellekt va IoT kabi innovatsiyalar avtomatlashtirishning rivojlanishida muhim rol o'yynashi kutilmoqda.

## Glossariy

**Model** - ob'ekt yoki sistemaning real mavjudligidan farqli ravishda boshka bir qancha ko'rinishdagi tasvirlanishidir

**Matematik model** - tadqiq etilayotgan ob'ektda bo'layotgan jarayonni qo'yilgan aniqlik bo'yicha ko'rsatib beruvchi matematik ifoda ko'rinishida bo'ladi

**Grafik model** - Ob'ekt va sistemalarning xususiyatlarini ifodalash uchun sonli tablitsa va grafikalardan xam foydalilanildi

**Analitik model** - Bir muncha murakkabroq xollarda matematik model ob'ekt kirish va chiqish o'zgaruvchilari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi va aniq tenglama ko'rinishida beriladi

**Fizik model** -real ob'ektning xususiyatlarining yoki xarakterini o'zida mujassam etgan fizik qurilma yoki maketga aytildi

### O'z-o'zini tekshirish uchun nazorat savollari

1. Avtomatlashtirishga ta'rif bering.
2. Avtomatlashtirishning maqsadi nimalardan iborat?
3. ARSning ta'rifi.
4. Avtomatik nazorat, rostlash va boshqarish tshunchalari.
5. Avtomatlashtirish qanday bosqichlardan iborat?
6. Rostlanuvchi, boshqaruvchi va g'alayonli o'zgaruvchilarga ta'rif bering.
7. Texnologik jarayon parametrлari tshunchasiga ta'rif bering.
8. Avtomatik rostlagich nima?
9. Hozirgi qiymat, berilgan qiymat va xatoliq tshunchalari nima?
10. Turg'unlashgan va turg'unlashmagan rejimlar tshunchalari.
11. Qanday ob'ekt rostlanuvchi ob'ekt deyiladi?
12. Avtomatika elementi deganda nimani tshunasiz?
13. Sistemaning funkqional va struktura sxemalari nima?

**2-Mavzu: O‘lhash to‘g‘risidagi umumiylumotlar. Sanoat korxonalarida qo‘llaniladigan texnologik o‘lhashlar va asboblar. O‘lhash xatoliklari. O‘lhash vositalarining strukturaviy sxemasi to‘g‘risida umumiytushunchalar.**

**Reja:**

1. O‘lhashlar.
2. O‘lhash turlari.
3. O‘lhash usullari.
4. Metrologiya haqida tushuncha.
5. Halqaro (SI) birliklar tizimi.
6. Birliklarning karrali va ulushli qiymatlar.
7. O‘lhash xatoliklari, ularning tabaqalanishi.
8. Muntazam xatoliklar va ularni kamaytirish usullari.

**Kalit so‘zlar: o‘lhash, texnologiya, o‘lhash natijasi, bevosita o‘lhash, bilvosita o‘lhash, birlashtirib o‘lhash, mutlaq o‘lhash, nisbiy o‘lhash.**

### **2.1. O‘lhashlar.**

Sanoat qurilmalarini zamonaviy darajasining rivojlanishi katta birlik quvvatlimalmualar qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarning jadallahuviga bilan tavsiflanadi. Masalan, issiqlik energetikasida birlik quvvat 30 yil mobaynida o‘n barobar, atom energetikasida esa yuz barobar oshib ketdi. Texnologik jarayonlarning yuz berish tezligi kam taxminan shunchaga o‘sdi. Bugungi kunda bitta majmuada minglab sondagi o‘lchanadigan parametrlarni aniqlash mumkin. Ko‘pgina kollarda o‘lhash vositalari va informatsion – boshqaruv tizimlarining ishonchliligi butun aggregatning ishonchliligi bilan belgilanadi. Avtomatik nazorat va parametrlarning ishonchli qiymatlarini bilmasdan turib ular orqali jarayonlar va aggregatlarni boshqarib bo‘lmaydi. Jarayon va aggregatlarni avtomatlashtirish va ular ustida ilmiy izlanishlar olib borishda o‘lhashlar muxim rol o‘ynaydi.

Oxirgi o‘n yillik mikroprotsessorli texnika nafaqat ikkilamchi o‘zgartirgichlarga balki bevosita texnologik obyektlarga o‘rnatalgan birlamchi o‘zgartirgichlarga xam jadal o‘rnatalayotganligi bilan tavsiflanadi. Mikroprotsessorli (intellektual) o‘lhash vositalari orqali o‘lhash natijalariga ishlov berish, o‘zgartirish va ularni aks ettirish usullarining funksional imkoniyatlari o‘zgartirilmoqda. Ushbu asboblar asosan sanoatning mikroprotsessorli boshqaruv tizimlari va ilmiy tadqiqotlarning informatsion – boshqaruv tizimlarini yaratish uchun xizmat qiladi. Mikroelektron texnologiya asosida bir qator sezgir elementlar (sensorlar) ishlab chiqilgan bo‘lib, ular sanoat sharoitlarida eritma va gazlarning tarkibidagi moddalarning mikrokonsentratsiyalarini nazorat qilish imkonini beradi. Ulardan foydalanib texnologik obyektlarning kolatini tezkor diagnostika va ta‘kkil qilish uchun turli ko‘rinishli asboblar yaratilgan.

Darslikda sertifikatsiyalangan o‘lhash vositalarining ishlashi asos qilib olingan fizik kodisa va o‘lhash prinsiplari ko‘rib chiqilgan va o‘lhash o‘zgartirgichlari va ikkilamchi o‘lhash asboblarining prinsipial sxemalari, ularning texnik tavsiflarini reglamentlashtiruvchi standartlar keltirilgan. Sanoatda

qo'llaniladigan o'lchov va boshqaruv tizimlari ko'rib chiqilgan va ular yordamida informatsion funksiyalarni amalga oshirilish usullari va sifati ta'lil qilingan. O'lhash turli tashqi faktorlar ta'sir qiluvchi sezgir elementlar, o'zgartirgichlar va ikkilamchi o'lhash qurilmalarining birgalikda ishlashini aks ettiruvchi yagona jarayon ko'rinishida ifodalangan.

So'nggi yillardagi o'lhash vositalarining ishlash prinsiplarini evolyutsiyasiga nisbatan zamonaviy o'lhash vositalarining konstruksiyasini uzlusiz takomillashish tezligini yuqoriligidan kelib chiqqan kolda darslikda ma'lumotlarni bayon qilish uslubi o'lhash vositalarining ishlash prinsipi va ularning prinsipial sxemalarini ta'lil qilishni o'z ichiga olgan. Shundan kelib chiqqan kolda o'quvchi o'lhash vositalarining konstruksiysi, ularni o'rnatish va sozlash qoidalarini tajriba ishlarini bajarish davomida, shuningdek avtomatlashtirish vositalarini loyi'kalash, o'rnatish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan fanlarni o'zlashtirish davomida o'rganadi.

**O'lhash** — fizik kattaliklar qiymatlarini tajribada maxsus texnik vositalar yordamida aniqlash.

Ko'p hollarda o'lhash jarayonida o'lchanayotgan kattalikni shunday fizik kattalik bilan takqoslanadiki, unga 1 ga teng bo'lgan qiymat beriladi va u fizik kattalik birligi yoki *o'lchov birligi* deyiladi.

**O'lhash natijasi** — kattalikning o'lhash usuli bilan, masalan, kattalikni o'lchov birligi bilan taqqoslash yordamida topilgan qiymatidan iborat. O'lhash natijasini tenglama ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin:

$$U = \frac{Q}{q} \quad \text{ëku} \quad Q = U * q \quad (2.1)$$

bu yerda,  $Q$ —*o'lchanayotgan fizik kattalik*,  $U$  — *o'lhash natijasi yoki o'lchanayotgan kattalikning son qiymati*,  $q$  — *fizik kattalik birligi*.

(2.1) tenglama o'lhashning asosiy tenglamasi deyiladi. Uning o'ng tomoni o'lhash natijasi deb yuritiladi. O'lhash natijasi doimo o'lchamli kattalik bo'lib, u o'z nomiga ega bo'lgan q birlikdan hamda ayni birlikdan o'lchanayotgan kattalikda nechta borligini anglatadigan  $U$  sondan tashkil topgan.

O'lchanayotgan kattalikning son qiymati bevosa, bilvosita, birlashtirib va birgalikda o'lhash usullari yordamida topiladi. Laboratoriya amaliyotida va ilmiy tekshirishlarda birlashtirib va birgalikda o'lhash usullaridan foydalaniladi.

## 2.2. O'lhash turlari.

**Bevosita o'lhash** deb shunday o'lhashga aytildiği, unda o'lchanayotgan kattalikning izlanayotgan qiymati tajriba ma'lumotlaridan bevosita aniqlanadi. Masalan, haroratni termometr bilan, bosimni manometr bilan, uzunlikni chizg'ich bilan o'lhash va hokazo bevosita o'lhashdan iborat.

Bevosita o'lhash tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Q_{\text{bev.}} = C * n \quad (2.2)$$

bu yerda,  $Q_{\text{bev}}$  — *o'lchanayotgan kattalikning uning uchun qabul qilingan o'lchov birliklaridagi qiymati*;  $S$ —raqamlı hisoblash qurilmasi shkalasi bo'linmalarining

yoki bir marta ko'rsatishining o'lchanayotgan kattalik birliklaridagi qiymati; n — shkala bo'linmalarining hisobida indikatorli qurilma bo'yicha olingan sanoq.

**Bilvosita o'lhash** deb shunday o'lhashga aytildiki, unda o'lhash natijasi o'lchanayotgan kattalik bilan ma'lum munosabat yordamida bog'langan kattaliklarni bevosita o'lhashga asoslangan bo'ladi. Bilvosita o'lhash tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Q_{\text{ou}} = f(Q_1, Q_2, \dots, Q_{\text{oe}}^n) \quad (2.3)$$

bu yerda, Qbil. — o'lchanayotgan kattalikning izlangan qiymati; Q1, Q2, ..., Qnbev — bevosita o'lchanadigan kattaliklarning son qiymatlari.

Bilvosita o'lhashga o'tkazgichning solishtirma elektr qarshilagini uning qarshiligi, uzunligi va kundalang kesimini yuzi bo'yicha topish; modda zichligini uning massasi va xajmini o'lhash natijasi bo'yicha topish va boshqalar misol bo'la oladi. Bilvosita o'lhashlar bevosita o'lhashlarning iloji bo'lмаган ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda keng qo'llanadi.

**Birlashtirib o'lhash** bir necha bir nomli kattaliklarni bir vaqtida o'lhashdan iboratki, unda izlangan kattaliklarning qiymatlari bevosita o'lhashda hosil qilingan tenglamalar tizimidan topiladi.

Bir vaqtida ikki yoki bir necha nomli turli kattaliklarni, ularning orasidagi funksional munosabatlarni topish uchun olib borilgan o'lhashlar birgalikda o'lhash deyiladi. Jumladan o'lhash rezistorining  $20^{\circ}\text{S}$  dagi elektr qarshiligi va harorat koeffitsiyentlari uning qarshilagini turli haroratlarda bevosita o'lhash ma'lumotlari bo'yicha topiladi.

### 2.3. O'lhash usullari.

O'lhashlar yana mutlaq va nisbiy o'lhashlarga bo'linadi.

Bitta yoki bir necha asosiy kattaliklarni fizik konstantalar qiymatlaridan foydalanib yoki foydalanmasdan bevosita o'lhash **mutlaq o'lhash** deb ataladi. Masalan, shtangensirkul yordamida bajarilgan o'lhashlar mutlaq o'lhashdir, chunki unda o'lchanayotgan kattalik qiymatini bevosita olinadi.

Biror kattalikning shu ismli birlik vazifasini bajarayotgan kattalikka nisbatini o'lhash yoki kattalikni shu ismli birlik kattalik deb qabul qilingan kattalik bo'yicha o'lhash **nisbiy o'lhash** deb ataladi. Masalan, haroratni termoelektr effektdan foydalanishga asoslangan o'lhash yoki massani tortish usuli bilan, ya'ni massaga mutanosib bo'lgan og'irlik kuchidan foydalanish usuli bilan o'lhash nisbiy o'lhashdan iborat. Nisbiy o'lhashdan katta aniqlik zarur bo'lgan hollarda foydalilanadi.

### 2.4. Metrologiya haqida tushuncha.

**Metrologiya** — o'lhashlar, uni ta'minlash usullari va vositalari hamda talab etilgan aniqlikka erishish yullari haqidagi fan. Metrologiyaning asosini o'lhashning umumiyligi masalalari, fizik kattaliklar birligi va ularning tizimlari haqidagi ma'lumotlar, o'lhashning usul va vositalari, o'lhash natijasining to'g'riligini aniqlash usullari va hokazolar hosil qiladi. O'lhashga doir fizik kattaliklar mexanik, elektr, issiqlik, optik, akustik bo'lishi mumkin. Bu kattaliklarning bir turi texnologik

jarayon rivojlanishining bevosita ko‘rsatkichi bo‘lsa, boshqalari shu jarayon bilan funksional bog‘langan bo‘ladi.

Fizik hodisalarini o‘rganish va ulardan amalda foydalanish turli fizik kattaliklarni o‘lchash, ya’ni ma’lumot olish bilan bog‘lik. Ma’lumot qancha to‘la va xolisona bo‘lsa, fizik xodisalarining tub ma’nosini tushunish shunchalik chuqr bo‘ladi. Fizik kattalikning muayyan qiymati texnologik jarayonning rivojlanishi hakidagi ma’lumotning muhim qismidir. Turli usul va asboblar orqali ifodalangan texnologik jarayonning holati haqidagi axborotlarni *ma’lumot*, ya’ni *informatsiya* deb bilamiz. Informatsiyalar, asosan, o‘lchash asboblari va qurilmalari yordamida olinadi.

Fizik obyektning sifat jihatdan umumiy, lekin miqdor jihatdan har bir obyekt uchun alohida xususiyati *fizik kattalik*deb ataladi. Shunday qilib, har bir fizik kattalik aynan shu kattalikning sonli qiymati birligiga kupaytmasidan iborat bo‘lgan individual qiymati bilan ifodalanganadi.

Bir-biriga muayyan erksizlik bilan bog‘langan kattaliklar yig‘indisi *fizik kattaliklar tizimi* deyiladi. Fizik kattaliklar tizimi asosiy, qo‘sishimcha va hosila kattaliklardan iborat. Tizimga kirgan va boshqa tizimlarga nisbatan shartli ravishda erkin hisoblangan fizik kattalik *asosiy fizik kattalik* deb ataladi.

## 2.5. Halqaro (SI) birliklar tizimi.

**Xalqaro birliklar tizimi** — SI (Sisteme International - SI) fan va texnikaning barcha sohalari uchun fizik kattaliklarning universal tizimi bo‘lib, 1960 yilning oktabr oyida O‘lchov va tarozilar XI Bosh konferensiyasida qabul qilingan.

SI ning joriy etilishi shu tizimda nazarda tutilgan va uning tarkibiga kirmaydigan (ammo hozir o‘lchov birliklari sifatida qo‘llanilayotgan) birliklarning ilmiy-tadqiqot natijalarini hisoblashda, ishlab chiqarish vositalari va asbob uskunalarini loyihalashda, qurilish hamda qurilgan obyektlardan foydalanishda, shuningdek o‘quv-ta’lim ishlarida ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirayotgan o‘lchov birliklaridagi turli hillikka barham beradi. SI ning hozirgi qo‘llanilayotgan ayrim o‘lchov tizimlariga nisbatan muhim afzalligi shundaki, u —universal; o‘lchov birliklarini birxillashtirgan; asosiy, qo‘sishimcha va o‘z hosilaviy birliklarini amaliyot uchun qulay o‘lchamlarga mujassamlashtirgan; kogerent, ya’ni hosilaviy birliklar o‘lchamlarini aniqlovchi fizik tenglamalardagi mutanosiblik koeffitsiyentlarini tugatgan tizimidir. Uning tatbiqi bilan hisoblash tenglamalarining yozilishi ancha soddalashdi.

Xalqaro birliklar tizimi (SI) da yetta asosiy va ikkita qo‘sishimcha kattalik qabul qilingan. Shuningdek, ular asosida ko‘pgina hosilaviy kattaliklar va ularning birliklari ham tasdiqlangan. 1.1-jadvalda xalqaro birliklar tizimi (SI) da ifodalangan asosiy va qo‘sishimcha hamda o‘quv jarayonida tez-tez uchrab turadigan muhim hosilaviy kattaliklarning o‘lchov birliklari, belgilari keltirilgan.

## Halqaro (SI) birliklar tizimi

Tartib №	Kattaliklar	O'lchov birligi	Qisqartirilgan belgilari		Hosila birliklar o'lchovi
			O'zbekcha	halqaro	
<b>Asosiy birliklar</b>					
1	Uzunlik	Metr	M	m	-
2	Massa	Kilogramm	Kg	kg	-
3	Vaqt	Sekund	S	S	-
4	Tok kuchi	Amper	A	A	-
5	Termodinamik	Kelvin gradusi	K	K	-
6	Yorug'lik kuchi	Kandela	Kd	cd	-
7	Modda miqdori	mol	Mol	mol	-
<b>Qo'shimcha birliklar</b>					
1	Yassi burchak	radian	Rad	rad	-
2	Fazoviy burchak	steradian	Sr	sr	-
<b>Hosila birliklar</b>					
1	Yuza	metr kvadrat	$m^2$	$m^2$	$i(m)^2$
2	Hajm	metr kub	$m^3$	$m^3$	$I(m)^3$
3	Chastota	Gers	Gs	Hz	I:(c)
4	Zichlik	Kilogramm taqsim metr kub	$kg/m^3$	$kg/m^3$	$(1kg):(1m^3)$
5	Tezlik	metr taqsim sekund	m/s	m/s	$(1m):(1s)$
6	Burchak tezlik	radian taqsim sekund	rad/s	rad/s	$(1rad):(1s)$
7	Tezlanish	metr taqsim sekund kvadrat	$m/s^2$	$m/s^2$	$(1m):(1s)^2$
8	Burchak tezlanish	radian taqsim sekund kvadrat	rad/s <sup>2</sup>	rad/s <sup>2</sup>	$(1rad):(1s)^2$
9	Kuch	Nyuton	N	N	$(1kg):(1m):$ $(1s)^2$
10	Bosim	nyuton taqsim metr kvadrat	$N/m^2$	$N/m^2$	$(1N):(1m)^2$
11	Dinamik qovushoqlik	Nyuton ko'paytirilgan sekund taqsim metr	$N\cdot s/m^2$	$N\cdot S/m^2$	$(1N)\cdot(1s):(1m)^2$
12	Kinematik qovushoqlik	metr kvad. taqsim sekund	$m^2/s$	$m^2/s$	$(1m)^2:(1s)$
13	Ish, energiya, issiqlik miqdori	joul	J	J	$(1J):(1s)$
14	Quvvat	vatt	Vt	W	$(1J):(1s)$
15	Elektr miqdori	kulon	Kl	G	$(1A):(1c)$
	Elektr kuchlanish,				

16	jlektr potensiallar ayirmasi, elektr yurituvchi kuch	volt	V	V	(1Bt):(1A)
17	Elektr maydoni nuchlanganligi	volt taqsim metr	V/m	V/m	(1V):(1m)
18	Elektr qarshilik	Om	Om	$\Omega$	(1Vt):(1A)
Tartib №	Kattaliklar	O'lchov birligi	Qisqartirilgan belgilari		Hosila birliklar o'lchovi
			O'zbekcha	halqaro	
19	Elektr sig'im	Farada	F	F	(1K):(1V)
20	Magnit induksiyasi oqimi	Veber	VB	Wb	(1k):(1Om)
21	Induktivlik	genri	Gn	N	(1Vb):(1A)
22	Magnit induksiyasi	tesla	Tl	T	(1Vb):(1m) <sup>2</sup>
23	Magnit maydoni kuchlanganligi	amper taqsim metr	A/M	A/m	(1A):(1m)
24	Magnit yurituvchi kuch	Amper	A	A	(1A)
25	Yorug'lik oqimi	Lyumen	Lm	Lm	(1qd):(1sr)
26	Ravshanlik	kandela taqsim metr kvadrat yoki nit lyuks	kd/m <sup>2</sup>	cd/m <sup>2</sup>	(1kA):(1m) <sup>2</sup>
27	Yoritilish darjası	Lyuks	LK	Lk	(1lm):(1m) <sup>2</sup>

### 1.6.Birliklarning karrali va ulushli qiymatlar.

Shunday soxalar borki, unda SI birliklarini ishlatish hisoblashlarda bir oz qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, SI ga binoan massani doimo kilogrammlarda o'lhash noqulay. U goh gramm (g) larda ifodalansa, gox tonna (t) larda o'lchanadi. Shu sababli massani gramm (g), milligramm (mg), tonna (t) kabi birliklarda ifodalash qulay. Ular asosida massa hisobini shu birliklarda olib borish xato hisoblanmaydi.

Shuning uchun, ba'zi hisoblashlarda qulaylik yaratish maqsadida birliklarning o'nlik karrali va ulushli qiymatlaridan foydalaniladi.

Birliklarning unlik karrali va ulushli qiymatlari barcha birliklardan emas, balki amaliy hisoblarda qulaylik yaratadigan birliklardangina hosil qilinadi. Shunday sohalar ham borki, ularda doimo karrali yoki ulushli birliklardangina ishlatiladi (masalan, chizmachilikda ularning o'lchamlari faqat millimetr — mm da ifodalanadi).

1.2-jadval.

### Birliklarning karrali va ulushli qiymatlar

№	Kattalik nomi	Belgilari		
		SI birliklari	SI ning karrali va ulushli birliklari	SI ga kirmagan birliklar
1	Uzunlik	m (metr)	km; sm; mm; mkm; nm.	
2	Yuza	$m^2$ (metr kvadrat)	$km^2$ ; $dm^2$ ; $sm^2$ $mm^2$	
3	Hajm va sig‘im	$m^3$ (metr kub)	$dm^3$ ; $sm^3$ ; $mm^3$	l (litr)
4	Yassi burchak	rad (radian)	mrad; mkrad	$\dots^0$ , (gradus) $\dots'$ (minut) $\dots''$ (sekund)
5	Vaqt	s (sekund)	ks; ms; mks;	Sut (sutka) Soat (soat, min)
6	Tezlik	m/s	-	km/soat
7	Aylanishlar takrorligi	$s^{-1}$	-	$min^{-1}$
8	Massa	kg (kilogramm)	Mg; g; mg; mkg	t (tonna)
9	Kuch, og‘irlik	N (nyuton)	MN; kN; mkN	
10	Kuch momenti	N·m	MN·m; kN·m; mkN·m	
11	Bosim	Pa (paskal)	GPa; MPa; kPa; mkPa	
12	Dinamik qovushqoqlik	Pa·s	MPa·s	
13	Kinetik qovushqoqlik	$m^2/s$	$mm^2/s$	
14	Energiya, ish	J (joul)	TJ; GJ; MJ; kJ; mJ	EV (elektron volt)
15	Quvvat	Vt (vatt)	GVt; MVt; kVt; mkVT	
16	Harorat	K (kelvin)	MK; kK; mkK	
17	Elektr toki (elektr tokining kuchi)	A (amper)	kA; MA; mA; nA; pA	
18	Elektr miqdori, edektr zaryad	Kl (Kulon)	mKl; mkKl; nKl; pKl	
19	Modda miqdori	mol	kmol; mmol; mkmol	
20	Molyar massa	kg/mol	g/mol	

1.1 va 1.2- jadvallarda fan, texnika va xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng qo‘llaniladigan birliklarning o‘nlik karrali va ulushli qiymatlari keltirilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** o‘lchash xatoliklari, absolyut xatolik, o‘lchash asboblarining xatoligi, statistik va dinamik xatoliklar, muntazam xatoliklar.

### **1. O‘lchash xatoliklari, ularning tabaqalanishi.**

O‘lchash natijasida, odatda, o‘lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatidan farq qiladigan qiymati topiladi. Qo‘pincha, fizik kattalikning haqiqiy qiymati noma‘lum bo‘ladi va shu kattalikning qiymati o‘rnida uning tajriba yordamida topilgan qiymatlaridan foydalaniladi. Bu qiymat kattalikning haqiqiy qiymatiga shuncha yakin bo‘ladiki ko‘zda tutilgan maqsad uchun undan foydalanish mumkin. Kattalikning o‘lchash usuli bilan topilgan qiymati ***o‘lchash natijasi*** deyiladi. O‘lchash natijasi bilan o‘lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati orasidagi farq ***o‘lchash xatoligi*** deyiladi. O‘lchanayotgan kattalik birliklarida ifodalangan o‘lchash xatoligi o‘lchashning ***mutlaq xatoligi*** deyiladi:

$$\Delta X = X - X_h \quad (2.1)$$

bu yerda,  $\Delta X$  — mutlaq xatolik;  $X$  — o‘lchash natijasi;  $X_h$  — o‘lchanayotgap kattalikning xaqiqiy qiymati.

O‘lchash mutlaq xatoligining o‘lchanayotgan kattalikning hakiqiy qiymatiga nisbati o‘lchashning ***nisbiy xatoligi*** deyiladi.

O‘lchash xatoliklari ularning kelib chiqishi sabablariga ko‘ra muntazam, tasodifiy va qo‘pol xatoliklarga bo‘linadi.

**Muntazam xatolik** deyilganda faqat bitta kattalikni qayta-qayta o‘lchaganda o‘zgarmas bo‘lib qoladigan yoki biror qonun bo‘yicha o‘zgaradigan o‘lchash xatoligi tushuniladi. Ular aniq qiymat va ishoraga ega bo‘ladi, ularni tuzatmalar kirtish bilan yo‘qotish mumkin.

Kattalikni o‘lchash natijasida olgan qiymatga muntazam xatolikni yo‘qotish maqsadida qo‘shiladigan qiymat tuzatma deb ataladi. Odatda, muntazam xatoliklar instrumental (o‘lchash asboblari), o‘lchash usullari, subyektiv (noaniq o‘qish), o‘rnatish, uslubiy xatoliklarga bo‘linadi.

**Instrumental xatolik** deyilganda qo‘llanayotgan o‘lchov asboblari xatoliklariga bog‘liq bo‘lgan o‘lchash xatoliklari tushuniladi. Yuqori aniqlikda o‘lchaydigan asboblar qo‘llanganda o‘lchov asboblarining takomillashmaganli orqasida kelib chiqadigan instrumental xatoliklar tuzatma kiritish usuli bilan yo‘qotiladi. Texnik o‘lchov asboblarining instrumental xatoliklarini yo‘qotib bo‘lmaydi, chunki bu asboblarni tekshirilganda tuzatmalar bilan ta’minlanmaydi.

**O‘lchash usuli xatoligi** deyilganda usulning takomillashmaganligi orqasida kelib chiqadigan xatolik tushuniladi. Ular, ko‘pincha, yangi usullar qo‘llaganda, qiymatlar orasidagi haqiqiy bog‘lanishni taxminiy apporoksimatsiya qiluvchi tenglamalardan foydalanilganda paydo bo‘ladi. O‘lchash usuli xatoligi o‘lchov vositasi, xususan, o‘lchash qurilmasi, ba’zida esa, o‘lchash natijasi xatoliklarini baholashda e’tiborga olinishi lozim.

**Subyektiv xatoliklar** kuzatuvchining shaxsiy xususiyatlaridan masalan, biror signal berilgan paytni kayd qilishda kechikish yoki shoshilishdan, shkala bir bo‘limi

chegarasida ko'rsatuvni noto'g'ri yozib olishdan, parallaksdan va hokazodan kelib chiqadi. Parallaksdan hosil bo'lgan xatolik deyilganda sanash xatoligiga kiramadigan, shkala sirtidan biror masofada joylashgan strelka shu sirtga perpendikulyar bo'lmagan yo'naliishda vizirlash (belgilash) natijasida kelib chikadigan xatolik tushuniladi.

**O'rnatish xatoligi** o'lchov asbobi strelkasining shkala boshlang'ich belgisiga noto'g'ri o'rnatilishi natijasida yoki o'lhash vositasini e'tiborsizlik bilan, masalan, vertikal yoki gorizontal bo'yicha o'rnatilmasligi natijasida kelib chiqadi.

**O'lhash uslubi xatoliklari** kattaliklarni (bosim harorat va b. ni) o'lhash uslubi bilan bog'liq bo'lgan va qo'llanayotgan o'lhash asboblariga bog'liq bo'lmagan xatoliklaridan iborat.

O'lhashlarni, ayniqsa, aniq o'lhashlarni bajarishda o'lhash natijasini muntazam xatoliklar anchagina buzishi mumkin. Shuning uchun, o'lhashlarni bajarishga kirishishdan avval bu xatoliklarning barcha manbalarini aniqlash va ularni yo'qotish choralarini ko'rish zarur. Ammo muntazam xatoliklarni topish va yo'qotish uchun uzil-kesil qoidalar berish amalda mumkin emas, chunki turli kattaliklarni o'lhash usullari g'oyatda turli-tumandir.

**Tasodifiy xatolik** deyilganda faqat bitta kattalikni qayta-qayta o'lhash mobaynida tasodifiy o'zgaruvchi o'lhash xatoligi tushuniladi. Tasodifiy xatolikning borligini faqat bitta kattalikni bir xil sinchkovlik bilan qayta-qayta o'lchangandagina sezish mumkin. Agar xar bir o'lhash natijasi boshqalardan farq qilsa, u holda tasodifiy xatolik mavjud bo'ladi. Shu xatoliklarni baholash ehtimollar nazariyasi va matematik statistika nazariyasiga asoslangan bo'lib, ular o'lhash natijasi o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga yaqinlashish darajasini baxolash usullarini, xatolikning ehtimoliy chegarasini baholash imkonini beradi, ya'ni natijani aniqlash, boshqacha aytganda, o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga anchagina yaqin qiymatini topish va kuzatish natijasini topish imkonini beradi.

**O'lhashning qo'pol xatoligi** deyilganda berilgan shartlar bajarilganda yuz beradigan, kutilgan natijadan tubdan farq qiladigan o'lhash xatoligi tushuniladi.

O'lhashdan ko'zda tutilgan maqsad va o'lhash aniqligiga qo'yiladigan talablarga qarab o'lhashlar *aniq* (*laboratoriya*) va *texnik o'lhashlarga* bo'linadi. O'lhash natijasining o'lcha-nayotgan kattalik haqiqiy qiymatiga yaqinligini ifodalovchi o'lhash sifati o'lhash aniqligi deb ataladi. Aniqlikni oshirishga intilib, biz o'lhash xatoligini kamaytirishimiz lozim. Ammo aniqlikni oshirish usullari, ko'pincha, murakkab bo'ladi va qimmat turadi. Shuning uchun, avval o'lhashning konkret shart-sharoitlari va maqsadlarga bog'liq bo'lgan maqbul aniqlikni baholab olish va zarur bo'lsa, so'ngra aniqlikni oshirish choralarini ko'rish lozim. O'lhashni bajaruvchi asboblarning ko'rsatishi o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatidan farq qiladi. Shuning uchun, o'lchov asbobining ko'rsatishi va haqiqiy ko'rsatishi degan tushunchalar mavjud.

Kattalikning sanoqqa ko'ra topilgan qiymati o'lchov asbobining ko'rsatishi deyiladi. Bu kattalikning namuna asboblar orqali aniqlangan ko'rsatishi haqiqiy ko'rsatishi deyiladi.

Axbobning ko'rsatishi va o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati orasidagi farq o'lchov asbobining xatosi deyiladi. Kattalikning haqiqiy qiymatini aniqlash mumkin bo'limgani sababli, o'lchov texnikasida namuna asbobning ko'rsatishi shu kattalikning haqiqiy kiymati deb qabul qilinadi.

Agar X<sub>k</sub> bilan sanoq ko'rsatishidagi qiymatni, X<sub>h</sub> bilan haqiqiy qiymatni belgilasak, quyidagi ifodadan  $\Delta X$  mutlaq xatolikni topamiz:

$$\Delta X = X_k - X_h \quad (2.2)$$

**O'lchov asbobining mutlaq xatoligi** deb, shu asbobning ko'rsatishi bilan o'lchanayotgan kattalikning hakiqiy qiymati oradagi farqqa aytildi. Bu yerda, xatoliklar plus minus ishorasi bilan kattalikning birliklarida ifodalanadi. Mutlaq xatolik kattaligining haqiqiy qiymatiga nisbati nisbiy xatolik deb ataladi. Nisbiy xatolik orqali o'lchashning aniqlik darajasini ifodalash juda qulay.

$$b = \pm \frac{\Delta X}{X_h} \cdot 100\% = \pm \frac{X_k - X_h}{X_h} \cdot 100\% \quad (2.3)$$

Odatda, hakiqiy qiymat — X<sub>q</sub> va topilgan qiymatlar X<sub>k</sub> ga nisbatan  $\Delta X$  juda kichik bo'ladi, ya'ni

$$\Delta X \leq X_h \quad \text{ba} \quad \Delta X \leq X_k$$

Shuning uchun, quyidagi ifodani yozish mumkin:

$$b = \pm \frac{\Delta X}{X_h} \cdot 100\% \approx \pm \frac{\Delta X}{X_k} \cdot 100\% \quad (2.4)$$

Shunday qilib, nisbiy xatolikni hisoblashda mutlaq xatolikning asbobning ko'rsatishiga nisbatini olish mumkin. Nisbiy xatolik % larda ifodalanadi.

Kattalikning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun o'lchov asbobinnng ko'rsatishiga tuzatish kiritiladi. Uning son qiymati teskari ishora bilan olingan mutlaq qiymatga teng:

$$T = X_h - X_k \quad \text{yoki} \quad T = -\Delta X \quad (2.5)$$

bu yerda, T-tuzatma.

Asbobning xatoligi shkala diapazonining foizlarida ifodalanadi. Bunday xatoliklar keltirilgan xatolik deyiladi va mutlaq xatolikning asbob o'lchash chegarasiga nisbatiga teng, ya'ni

$$j = \frac{\Delta X}{N} \cdot 100\% \quad (2.6)$$

bu yerda, N — asbobning o'lchash chegarasi.

Misol. Yuqorigi o'lchash chegarasi 3000 S bo'lgan potensiometrning ko'rsatishi X<sub>k</sub> = 2400S va o'lchanayotgan haroratning haqiqiy qiymati X<sub>h</sub> = 241,2°S bo'lganidagi mutlaq, nisbiy, keltirilgan xatoliklari topilsin.

Mutlaq xatolik (2.2) ifoda bo'yicha  $\Delta X = -1,2^{\circ}\text{S}$ , nisbiy xatolik (2.4) ifoda bo'yicha  $b = -0,5\%$ , keltirilgazn xatolik (2.6) ifoda bo'yicha  $j = 0,4\%$ .

Xatolik qiymati o'lchash asbobi aniqligini, demak, o'lchash natijasini xam xarakterlaydi. O'lchash aniq bo'lishi uchun xatosi kichik bo'lgan asboblardan foydalanish lozim. Ammo xatosiz asboblardan tayyorlash mumkin emas. Xatosi kichik bo'lgan asboblardan ishlashda katta ehtiyojkorlik talab etiladi. Texnik o'lchashlar

uchun belgilangan qiymatdan oshmaydigan yo‘l qo‘yiladigan xatosi bor asboblardan foydalaniadi.

Asbob ko‘rsatishining standart yo‘l qo‘yadigan eng katta xatoligi yo‘l qo‘yiladigan xatolik deyiladi. Xatolik miqdori o‘lchashlar olib borilayotgan tashqi muhitga (atrof muhit harorati, atmosfera bosimi, tebranish va boshqalarga) bog‘liq bo‘lgani sababli asosiy va qo‘shimcha xatoliklar tushunchalari kiritiladi.

O‘lhash asbobi uchun texnik sharoitlar imkon bergan, maxsus yaratilgan normal ish sharoitida yo‘l qo‘ylgan xato asosiy xatolik deyiladi. Atrof-muhiting normal holati deb  $20^{\circ}\text{S}$  harorat va  $101325 \text{ N/m}^2$  ( $760 \text{ mm sim. ust}$ ) atmosfera bosimi qabul qilingan. Tashqi sharoit o‘zgarishining asboblarga bo‘lgan ta’siridan kelib chiqqan xato qo‘shimcha xatolikdir. O‘lchov asboblarining sifati ularning xatoliklaridan tashqari asboblar variatsiyasi, sezgirlik chegarasi bilan xarakterlanadi.

Bir kattalikni ko‘p marta takroriy o‘lchashlar natijasida asbob ko‘rsatishlari orasidagi eng katta farq o‘lchov asbobining variatsiyasi deyiladi. Variatsiya o‘lchanayotgan kattalikni ma’lum bir miqdorgacha asta-sekin oshirib va kamaytirib aniqlanadi. Variatsiya o‘lchov asbobining mexanizmi, oraliqlari, gisterezisi va boshqa qismlardagi ishqalanishi sababli kelib chiqadi. Variatsiya (V) o‘lchov asbobi shkalasi maksimal qiymatining foizi hisobida ifodalanib, asosiy yo‘l qo‘yiladigan xatolik qiymatidan oshib ketmasligi lozim:

$$V = \frac{\Delta N}{N_{\max} - N_{\min}} \cdot 100 \% \quad (2.7)$$

bu yerda,  $\Delta N$  — asbob ko‘rsatishidagi eng katta farq;  $N_{\max}$  va  $N_{\min}$  — asbob shkalasining yuqori va quyi qiymatlari.

O‘lhash vositalari o‘lchashlarda ishlatiladi va ular normallashgan metrologik xossalarga, ya’ni kattaliklarning ma’lum sonli qiymatlariga hamda o‘lhash natijalarining aniqligi va ishonchliliginu ifodalovchi xossalari ega bo‘ladi.

O‘lhash vositalarining asosiy turlariga o‘lchovlar, o‘lhash asboblari, o‘lhash o‘zgartkichlari va o‘lhash qurilmalari kiradi.

*O‘lchov* — berilgan o‘lchamdagи fizik kattalikni qayta o‘lhash uchun mo‘ljallangan o‘lhash vositasi. Masalan, qadoqtosh — massa o‘lchovi; o‘lchov rezistori — elektr qarshilik o‘lchovi; yoritish lampasi — yorug‘lik o‘lchovi va hokazo.

Bir xil o‘lchamli turli fizik kattalikni kayta o‘lchaydigan bir qiymatli hamda turli o‘lchamdagи qator bir nomli kattaliklarni qayta o‘lchaydigan ko‘p qiymatli o‘lchovlar bor. Ko‘p qiymatli o‘lchovlarga bo‘linmali chizg‘ichlar, induktivlik variometri va boshqalar misol bo‘la oladi. Maxsus tanlangan, faqat alohidagina emas, balki turli birikmalarda turli o‘lchamli qator bir nomli kattaliklarni qayta o‘lhash maqsadida qo‘llaniladigan o‘lchovlar komplekti o‘lchovlar to‘plamini tashkil etadi. Masalan, qadoqtoshlar to‘plami, uchlikli uzunlik o‘lchovlari to‘plami, o‘lchov kondensatorlari to‘plami va hokazo. O‘lchovlar magazini—sanoq qurilmalari bilan bog‘langan maxsus qayta ulagichlarga ega bo‘lgan bitta konstruktiv butun qilib birlashtirilgan o‘lchovlar to‘plami. O‘lchovlar magazini

elektrotexnikada keng qo'llaniladi: qarshilik magazini, sig'imir magazini, induktivliklar magazini.

O'lchovlarga standart namunalar va namuna moddalar ham kiradi.

Standart namuna — modda va materialarning xossalarni yoki tarkibini xarakterlovchi kattaliklarning birligini qayta tiklash uchun o'lchov. Masalan, tarkibidagi kimyoviy elementlari ko'rsatilgan ferromagnit materiallar xossalarning standart namunasi.

Namuna modda — tasdiqlangan spetsifikatsiyada ko'rsatilgan, tayyorlash shartlariga rioya qilinganda tiklanadigan ma'lum xossalarga ega bo'lган moddadan iborat o'lchov. Masalan, «toza» gazlar, «toza» metallar, «toza» suv.

Kuzatuvchi idrok qilishi uchun qulay shakldagi o'lchov axboroti signalini ishlab chiquvchi o'lhash vositasi o'lchov asbobi deyiladi. O'lchov asbobida kuzatuvchi o'lchanayotgan kattalikning son qiymatini o'qiydi yoki sanaydi. O'lchov asboblari analog va raqamli bo'lishi mumkin. Analog o'lchov asboblari asbobning ko'rsatishi o'lchanayotgan kattalik o'zgarishining uzluksiz funksiyasidan iborat bo'ladi, raqamli o'lchov asboblari esa ko'rsatishlar o'lchov axboroti signalini diskret o'zgartirish natijasidan iborat bo'lган raqamli shaklda ifodalangan bo'ladi.

Keyingi vaqtarda raqamli asboblар borgan sari kengroq qo'llana boshlandi, chunki ularning ko'rsatuvlari osongina qayd qilinadi, ularni EHM ga kiritish qulay. Raqamli asboblarning tuzilishi o'lhashda analog asboblarga qaraganda katta aniqlikka erishishga imkon beradi. Shu bilan birga raqamli asboblар qo'llanganda o'qish xatoligi bo'lmaydi. Ammo analog asboblар raqamli asboblarga qaraganda anchagina sodda va arzondir.

O'lchov asboblari ko'rsatuvchi, qayd qiluvchi, kombinatsiyalangan, integrallovchi va jamlovchi asboblarga bo'linadi. Ko'rsatuvchi asboblarda raqamli qiymatlar shkala yoki raqamli tablodan o'qiladi. Qayd qiluvchi asboblarda ko'rsatuvlarni diagramma qog'ozida yozib olish yoki raqamli tarzda chop etish ko'zda tutiladi. Kombinatsiyalangan asboblар o'lchanayotgan kattalikni bir vaqtning o'zida ko'rsatadi hamda qayd qiladi. Integralovchi asboblarda o'lchanayotgan kattalik vaqt bo'yicha yoki boshqa erkli o'zgaruvchi bo'yicha integrallanadi. Jamlovchi asboblarda ko'rsatishlar turli kanallar bo'yicha unga keltirilgan ikki yoki bir necha kattalikning yig'indisi bilan funksional bog'langan bo'ladi.

O'lhashga doir axborotni uzatish, o'zgartish, ishlov berish va saqlash uchun qulay bo'lган, ammo kuzatuvchi bevosita idrok qilishi mumkin bo'lmaydigan shakldagi signalni ishlab chiquvchi o'lhash vositasi o'lhash o'zgartkichi deb ataladi. Inson o'zining sezgi organlari bilan o'lhash o'zgartkichi signallarini qabul qila olmaydi. O'zgartiriladigan fizik kattalik — kirish kattaligi, uning o'zgartirilgani esa chiqish kattaligi deyiladi. Kirish va chiqish kattaliklari orasidagi bog'lanishni o'zgartkich funksiyasi qaror toptiradi. O'lhash o'zgartkichlari o'lchov asboblарining, turli o'lchov tizimlarining, biror jarayonlarni avtomatik nazorat qilish yoki boshqarish tizimlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'lchanayotgan kattalik berilgan o'lhash o'zgartkichi birlamchi o'zgartkich deyiladi. Birlamchi o'lhash o'zgartkichlari, ko'pincha, datchik deb yuritiladi. Uning bevosita o'lchanayotgan fizik kattalik ta'siridagi qismi sezgir element deyiladi. Masalan, termoelektrik termometrda termojuft, manometrik termometrda tarmoballon ana shunday

elementlardir. O‘lchov asboblari va o‘zgartkichlari o‘lchanayotgan kattalikning turiga qarab tegishli nomlarga ega bo‘ladi, masalan, termometrlar, manometrlar, difmanometrlar, sarf o‘lchagichlar, sath o‘lchagichlar, gaz analizatorlari, konsentratometrlar, nam o‘lchagichlar va hokazo.

Ayrim o‘lchov vositalari va o‘lchov tizimlaridan tashqari murakkab axborot-o‘lchov tizimlari ham qo‘llanadi. Ular ko‘plab texnologik uskunalarda avtomatik o‘lchashni amalga oshirishnigina ta’minlab qolmay (o‘lchov kanallari soni ming-minglab bo‘lishi mumkin), balki o‘lchash natijalarini berilgan algoritmlar bo‘yicha zarur qayta ishslashni ham bajaradi. Shu munosabat bilan o‘lchash o‘zgartkichlarining axborot-hisoblash mashinalari va qurilmalari kirishiga keladigan signallarini unifikatsiyalashtirish (bir xillashtirish) zarurati tug‘iladi. Signallarni unifikatsiyalashtirish o‘lchov asboblari turlarini minimumga keltirish imkonini beradi.

O‘lchov vositalari o‘lchash jarayonidagi bajarayotgan vazifasiga qarab ish, namuna va etalon o‘lchov asboblariga bo‘linadi.

Ish o‘lchov asboblari xalq xo‘jalingining barcha tarmoqlarida amaliy o‘lchashlar uchun mo‘ljallangan. Ular anikligi orttirilgan o‘lchov asboblariga va texnik o‘lchov asboblariga bo‘linadi.

Namuna o‘lchov asboblari ish o‘lchov asboblarini tekshirish va ularni o‘zlari bo‘yicha darajalashga xizmat qiladi.

Etolon asboblari fizik kattalik biriklarini qayta tiklash va saqlash, ularning o‘lchamlarini namuna o‘lchov asboblari orqali xalq xo‘jalingida qo‘llanadigan ish o‘lchov vositalariga o‘tkazishga xizmat qiladi. Fizik kattaliklarning birliklari o‘lchami shu usul bilan etalonlardan namuna o‘lchov asboblari yordamida boshqa o‘lchov asboblariga o‘tkaziladi.

O‘lchash vositalarining ko‘rsatishlaridagi xatoliklarni aniqlash yoki ularning ko‘rsatishlariga tuzatish kiritish maqsadida o‘lchov vositalari ko‘rsatishlarini namuna o‘lchov asboblarining ko‘rsatishlariga taqqoslash deb ataladi.

Shkala asbobni tekshirish bo‘linmalariga qabul qilingan o‘lchov birliklarida ifodalangan qiymatlar berish operatsiyasi darajalash deb ataladi.

O‘lchash vositalari yordamida o‘lchanayotgan fizik kattaliklar o‘lchash axboroti signali foydalaniladigan biror chiqish kattaligiga o‘zgartiriladi.

Fizik kattalikni o‘lchashda o‘lchov qurilmasi (asbob) fizik kattalikni ko‘rsatkichning mutanosib siljitudi:


$$\varphi = f(B) \quad (2.8)$$

bu yerda,  $\varphi$  — asbob ko‘rsatkichining burchakli yoki chiziqli siljishi,  $V$  — o‘lchanayotgan fizik kattalik.

(2.8) bog‘lanish asbob shkalasining tenglamasi yoki xarakteristikasi deyiladi.

Har qanday o‘lchov asbobining ishi oqibat natijada o‘lchanadigan kattalikni ko‘rsatkichning siljishiga moslab o‘zgarishiga keltiriladi. Shu sababli o‘lchash asbobini sxematik ravishda, o‘lchanayotgan fizik kattalik  $V$  ni ko‘rsatkichning mexanik siljish miqdori  $\varphi$  ga o‘zgartiradigan o‘zgartkich deb qarash mumkin.

Oraliq o'zgartishlar soniga qarab asbobni bo'g'inlarga bo'lish mumkin, bu bo'g'inlarning har biri asbob ichida V miqdorni ma'lum tarzda o'zgartiradi. Ana shu bo'g'inlar majmuasi o'lchanayotgan kattalikning talab etilgan o'zgarishini ko'rsatkichning siljishi φ ga o'zgartiradi.




2.1– rasm. O'lchov asbobining umumlashgan strukturasi sxemasi

Istalgan o'lchov asbobining struktura sxemasi, uning ishslash, prinsipidan qat'i nazar, ketma-ket ulangan o'lchash bo'g'inlari O'B<sub>1</sub>, O'B<sub>2</sub>, O'B<sub>3</sub>,...,O'B<sub>n</sub>, (2.1-rasm) qatoridan tuzilgan zanjir kabi tasvirlanishi mumkin. Birinchi bo'g'in O'B<sub>1</sub>uchun kirish qiymati bo'lib V kattalik xizmat kiladi. Har bir bo'g'inning chikish qiymati keyingi bo'g'in uchun kirish qiymati bo'lib xizmat qiladi. Oxirgi O'B<sub>n</sub> bo'g'inning chikish qiymati ko'rsatkichning V<sub>n</sub>= φ siljishini anglatadi.

Umumiyl holda o'lchov vositalarining struktura sxemasini qurish prinsipiqa qarab ikki guruhg'a bo'lish mumkin: to'g'ri o'zgartiradigan o'lchash sxemasi va signali moslashtiriladigan o'lchash sxemalari. To'g'ri o'zgartirish prinsipi bo'yicha qurilma o'lchov vositalarida o'lchanayotgan kattalik dastlabki o'zgartkichga yoki uning o'lchash zanjiri qismidan iborat bo'lgan sezgir elementga keladi. O'lchash zanjirida, odatda, o'lchanayotgan kattalikni axborotning biror eltuvchisi (elektr toki kuchi yoki kuchlanishi. siqilgan havo bosimi va boshqalar) signaliga o'zgartirish kiritish bo'yicha amalga oshiriladi. So'ngra mazkur signal kuchaytiriladi va sanash qurilmasiga uzatiladi. Eng sodda variantda shu sxemadan faqat sezgir element va sanash qurilmasi qolishi mumkin. To'g'ri o'zgartkich sxemalari sodda, ishonchli, yetarli tezkorlikka ega hamda uncha qimmatga tushmaydi. Ammo ulardan, amalda, kichik signallarini o'lchashda foydalanib bo'lmaydi. Defferensial o'zgartkichlar va ular bilan o'lchash sxemalari signali to'g'ri o'zgartkich sxemalari turlaridan biridir.

Signalni muvozanatlashtiradigan o'lchash sxemalari strukturasi 2.2-rasmida keltirilgan. O'lchanayotgan kattalik X dastlabki o'zgartkich DO' ga yoki uning sezgir elementi SE ga keladi va Rx signalga aylantiriladi, bu signal kompensatsiya kurilmasi KQ dan chiqqan R signal bilan moslashtiriladi. Kompensatsiya kurilmasi KQ chiqish signali φ ni kompensatsiya qiluvchi R<sub>k</sub> signalga o'zgartiradi.



2.2– rasm. Signalni muvozanatlashtiruvchi o'lchov asboblarining struktura sxemasi.

Nobelans signali  $\Delta R$  nomuvofiqlashtirish indikatori NI orqali kuchaytirgich K kirishiga beriladi. Kuchaytirgichning chiqish signali integrallovchi kurilma IQ ga (masalan, reversiv dvigateliga) ta'sir qiladi yoki chiqish signali  $\varphi$  kuchaytirgich chiqishidan olinadigan signal yo'q bo'lganda o'zgarmay qolaveradi. Signal asbob ko'rsatkichi AK va kompensatsiya qurilmasi KQ ga beriladi. Shunday qilib, chiqish signali  $\varphi$  o'lchanayotgan X kattalik qiymatini aniqlaydi. Signalni muvozanatlashtiruvchi asboblar yuqori aniqlikka ega bo'lib, kichik signallarni o'lhash imkonini beradi, ammo ularning tezkorligi kam, bahosi yuqori, ishonchliligi esa to'g'ri o'zgartkich asboblarinikiga qaraganda past.

### 3-Mavzu: Haroratni nazorat qilish. Umumi tushunchalar. Harorat shkalasi. Harorat o‘lhash vositalarining tasnifi

**Reja:**

1. Umumi tushunchalar.
2. Harorat shkalasi.
3. Harorat o‘lhash vositalarining tasnifi.

*Temperatura* – texnologik jarayonlarning muhim parametri bo‘lib, amalda ham past, ham yuqori temperaturalar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

*Jismning temperaturasi* molekulalarning issiqlik harakatida hosil bo‘ladigan ichki kinetik energiyasi bilan belgilanadigan qizdirilganlik darajasi bilan xarakterlanadi. Temperaturani o‘lhash amalda ikkisidan birining qizdirilish darajasi ma’lum bo‘lgan ikki jismning kizdirilishini taqqoslash yordamidagina mumkin bo‘ladi. Jismalarning qizdirilganlik darajasini taqqoslashda ularning temperaturaga bog‘liq bo‘lgan va osongina o‘lchanadigan fizik xossalaridan birortasini o‘zgartishdan foydalaniadi.

Molekulalarning o‘rtacha kinetik energiyasi va ideal gaz temperaturasi orasidagi bog‘lanish quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$E = \frac{3}{2} KT \quad (3.1)$$

bunda  $K = 1,380 \times 10^{-25}$  J. K<sup>-1</sup> — Bolsman doimiysi; T — jismning absolyut temperaturasi, K.

Agar jismning temperaturasi turlicha bo‘lsa, ular bir-biriga tegib turganida energiyalarning tenglashuvi ro‘y beradi; yuqoriroq temperaturaga, ya’ni molekulalari ko‘proq o‘rtacha kinetik energiyasiga ega bo‘lgan jism o‘z issikligini (energiyasini) kamrok temperaturaga, ya’ni molekulalari kamroq o‘rtacha kinetik energiyasiga ega bo‘lgan jismga beradi. Shunday kilib, temperatura issiqlik almashish, issiqlik o‘tkazish jarayonlarining ham sifat, ham miqdoriy tomonlarini xarakterlaydigan parametrdir. Ammo temperaturani bevosita o‘lhash mumkin emas, uni jismning temperaturaga bir qiymatli bog‘liq bo‘lgan qandaydir boshqa fizik parametrlari bo‘yichagina aniqlash mumkin. *Temperaturaga bog‘liq parametrlerarga masalan, hajm, uzunlik, elektr qarshilik, termoelektr yurituvchi kuch, nurlanishning energetik ravshanligi* va hokazolar kiradi.

Temperatura o‘lchaydigan asbobni 1598 yilda Galiley birinchi bo‘lib tavsiya etgan. So‘ngra M.V. Lomonosov, Farengeytlar termometr ishlab chiqishdi.

O‘lchanayotgan temperaturaning son qiymatini topish uchun temperaturalar shkalasini o‘rnatish, ya’ni sanoq boshini va temperatura oralig‘ining o‘lchov birligini tanlash lozim.

Kimyoviy toza moddalarning oson tiklanadigan (asosiy reper va tayanch) qaynash va erish nuqtalari bilan chegaralangan temperatura oralig‘idagi qator belgilar temperatura shkalasini hosil qiladi. By temperaturalarga  $t'$  va  $t''$  qiymatlar berilgan. U holda o‘lchov birligi

$$1 \text{ gradus} = \frac{t'' - t'}{n}. \quad (3.2)$$

bu yerda  $t'$  va  $t''$  — oson tiklanadigan o‘zgarmas temperaturalar;  $p$  —  $t''$ ,  $t'$  tayanch nuqtalar orasidagi temperatura oralig‘i bo‘linadigan butun son.

Temperatura shkalasining tenglamasi

$$t = t' + \frac{v - v'}{v'' - v'} \cdot (t'' - t'), \quad (3.3)$$

bu yerda  $t'$  va  $t''$  — moddaning tayanch nuqtalari (760 mm sim. ust. bosimida va og‘irlik kuchining 980,665 sm/s<sup>2</sup> tezlanishida muzning erish va suvning qaynash temperaturalari);  $v'$  va  $v'' - t'$ ,  $t''$  temperaturalardagi moddaning (suyuqlikning) hajmi;  $v - t$  temperaturadagi moddaning (suyuqlikning) hajmi.

Tabiatda hajmiy kengayishi va temperaturasi chiziqli bog‘langan suyuqliklar bo‘lmaydi. Shuning uchun temperaturalarning ko‘rsatishi termometrga solinadigan moddaning (simob, spirt va boshqalar) tabiatiga bog‘liq. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan yagona termometrga solinadigan moddaning birorta xususiyati bilan bog‘lanmagan temperatura shkalasini yaratish zaruriyati paydo bo‘ladi. 1848 yilda ingлиз fizigi Kelvin termodinamikaning ikkinchi qonuni asosida yangi temperatura shkalasini tuzishni taklif qildi. Termodinamik temperaturalar shkalasining tenglamasi:

$$T = \frac{Q}{Q_{100} - Q_0} \cdot 100 \% \quad (3.4)$$

bu yerda  $Q_{100}$  va  $Q_0$  — suvning qaynashi va muzning erish temperaturalariga mos issiqlik miqdorlari;  $Q$  —  $T$  temperaturaga mos issiqlik mikdori.

O‘lchov va vaznlar bo‘yicha 1960 yil o‘tkazilgan XI xalqaro konferensiya qarorlarida, GOST 8550 – 61 da ikki temperatura shkala; Kelvin gradusi (K) o‘lchov birligi bilan o‘lchanadigan termodinamik shkala va Selsiy gradusi (°C) o‘lchov birligi bilan o‘lchanadigan xalqaro amaliy shkalalarning qo‘llanishi ko‘zda tutilgan. Kelvin termodinamik shkalasidagi pastki nuqta — absolyut nol nuqta (A) bo‘lib, yagona eksperimental asosiy nuqta esa suvning uchlik nuktasidir. Bu nuqtaning son qiymati 273,15 K. Suvning muz, suyuq va gaz fazalaridagi muvozanat nuqtasi bo‘lgan suvning uchlik nuqtasi muz erish nuqtasidan 0,01 K yuqoriroq turadi. Termodinamik temperatura  $T$  harfi bilan, son qiymatlari esa K bilan ifodalanadi.

Amaliy o‘lhashlarda ishlataladigan xalqaro amaliy temperatura shkalasi termodinamik shkala ko‘rinishida ishlangan. Bu shkala kimyoviy toza moddalarning bir qadar oson tiklanadigan o‘zgarmas qaynash va erish nuqtalari asosida tuzilgan. Ularning sonli qiymati gazli termometrlar orqali aniqlangan bo‘lib, Xalqaro amaliy temperatura shkala o‘lchov va vaznlar bo‘yicha o‘tkazilgan XI umumiyl konferensiyada qabul qilingan.

Xalqaro amaliy shkala bo‘yicha o‘lchanadigan temperatura  $t$  harfi bilan, sonli qiymati esa °S belgisi bilan ifodalanadi. Absolyut termodinamik shkala bo‘yicha ifodalangan temperatura bilan shu temperaturaning xalqaro shkala bo‘yicha ifodasi orasidagi munosabat quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$T = t + 273,15; \quad (3.5)$$

bu yerda  $T$  — absolyut termodinamik shkaladagi  $K$  temperatura;  $t$  — xalqaro amaliy shkaladagi °C temperatura.

Angliya va AQSH da 1715 yilda taklif qilingan Farengreyt shkalasi ( ${}^{\circ}G$ ) qo'llanadi. Bu shkalada ikki nuqta: muzning erish nuqtasi ( $32^{\circ}G$ ) va suvning qaynash nuktasiga ( $212^{\circ}G$ ) asoslangan Xalqaro amaliy shkala, absolyut termodinamik shkala va Farengreyt shkalasi bo'yicha hisoblangan temperatura munosabati quyidagicha:

$$t^{\circ}C = T^{\circ}K - 273,15 = 0,556 (n^{\circ}F - 32), \quad (3.6)$$

bu yerda  $n$  — Farengreyt shkalasi bo'yicha graduslar soni.

Hozir 1968 yilda qabul qilingan va 1971 yil 1 yanvardan majburiy joriy egilgan Xalqaro amaliy temperatura shkalasi (MPTSH-68) qo'llaniladi. U absolyut termodinamik temperatura shkalasining amalda qo'llanishidan iborat. Bu shkala shunday tanlanganki, u bo'yicha o'lchangan temperatura termodinamik temperaturaga yaqin bo'ladi va ular orasidagi ayirma zamonaviy o'lhash aniqligi chegaralarida bo'ladi. MPTSH-68 o'zgarmas, aniq tiklanadigan turg'unlik temperaturalari sistemasiga asoslangan bo'ladi. Ularning son qiymatlari berilgan bo'ladi. MPTSH-68 ning eng muhim o'zgarmas nuktalari (temperaturalari) 3.1-jadvalda berilgan.

**MPTSH-68 ning eng muhim ўзгармас нуқталари**

Мувозанат ҳолатлари	Халқаро амалий температураларга берилган киймат	
	2	3
Водороднинг қаттиқ, суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат (водороднинг учламчи нуқтаси)	13,81	— 259,34
33330,6 Па (25/76 нормал атмосфера босими) босимда водороднинг суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат	17,042	— 256,108
Водороднинг суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат (водороднинг қайнаш нуқтаси)	20,28	— 252,87
Неоннинг суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат (неоннинг қайнаш нуқтаси)	27,102	— 246,048
Кислороднинг қаттиқ, суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат (кислороднинг учламчи нуқтаси)	54,361	— 218,789
Кислородниг суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат (кислороднинг қайнаш нуқтаси)	90,188	— 182,962
Сувнинг қаттиқ, суюқ ва газсимон фазалари орасидаги мувозанат (сувнинг учламчи нуқтаси)	273,16	0,01
Сувнинг суюқ ва бугсимон фазалари орасидаги мувозанат (сувнинг қайнаш температураси нуқтаси)	373,15	100
Миснинг қаттиқ ва суюқ фазалари орасидаги мувозанат (рухнинг қаттиқлашиш нуқтаси)	692,73	419,58
Кумушнинг қаттиқ ва суюқ фазалари орасидаги мувозанат (кумушнинг қаттиқлашиш нуқтаси)	1235,08	961,93
Олтиннинг қаттиқ ва суюқ фазалари орасидаги мувозанат (олтиннинг қаттиқлашиш нуқтаси)	1337,58	1064,43

MPTSH-68 temperaturani 13,81 dan 6300 K gacha oraliqda o'lhashni ta'minlaydi.

MDHda MPTSH-68 dan tashqari temperaturani 0,01 dan 100 000 K chegarada bir xil o‘lhashni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan amaliy temperatura shkalalari (GOST 8.157 – 75) ishlataladi.

### **Temperatura o‘lhash vositalarining tasnifi**

Zamonaviy termometriya o‘lhashning turli usul va vositalariga ega. Har bir usul o‘ziga xos bo‘lib, universallik xususiyatiga ega emas. Berilgan sharoitda optimal o‘lhash usuli o‘lhashga qo‘yilgan aniqlik sharti va o‘lhashning davomliligi sharti, temperaturani kayd qilish va avtomatik boshqarish zarurati yordamida belgilanadi.

Eng qulay, aniq va ishonchli o‘lhash usullari temperaturaniig birlamchi datchiklari sifatida qarshilikning termoo‘zgartkichi va termoelektr o‘tgartkichlardan foydalanadigan kontaktli usullardan iborat.

Nazorat qilinadigan muhitlar tashqi sharoitni o‘zgartirganda fizik xossalarining turli agressivligi va turg‘unligi darajasi bilan suyuq, sochiluvchan, gazsimon yoki qattiq bo‘lishi mumkin.

Temperaturani nazorat qilish vositalarining mavjudligi nazorat qilinayotgan muhit, obyekt, ishlatalish sharoitlari va texnik talablarning turli tumanligidadir.

GOST 13417– 76 bo‘yicha **tyemperaturani o‘lhash asboblarining ishlash prinsipi** qarab ularni quyidagi gruppalarga bo‘linadi:

1. *Kengayish termometrlari*. Bu termometrlar temperatura o‘zgarishi bilan suyuqlik yoki qattiq jismlar hajmi yoxud chiziqli o‘lchamlarning o‘zgarishiga asoslangan;

2. *Manometrik termometrlar*. Bu asboblar moddalar hajmi o‘zgarmas bo‘lganda temperatura o‘zgarishi bilan bosimning o‘zgarishiga asoslangan;

3. Temperatura ta’sirida o‘zgargan termoelektr yurituvchi kuchning o‘zgarishiga asoslangan *termoelektr termometrlar*;

4. O‘tkazgich va yarim o‘tkazgichlarning temperaturasi o‘zgarishi sababli elektr karshilikning o‘zgarishiga asoslangan *qarshilik termometrlari*;

5. *Nurlanish termometrlari*. Ular orasida eng ko‘p tarqalganlari: a) optik pirometrlar – issiq jismning ravshanligini o‘lhash asbobi; b) rangli pirometrlar (spektral nisbat pirometrlari), jismning issiqlikdan nurlanish spektridagi energiyaning taqsimlanishini o‘lhashga asoslangan; v) radiatsion pirometrlar – issiq jism nurlanishining quvvatini o‘lhashga asoslangan.

3.2-jadvalda sanoatda eng ko‘p tarqalgan o‘lhash vositalari keltirilgan va seriyali o‘lhash vositalarining qo‘llanish chegaralari ko‘rsatilgan.

3.2-jadval

O‘lhash vositasi turi	O‘lhash vositalarining turli tumanligi	Davomli foydalanish chegarasi, °S	
1	2	3	4
<b>Kengayish termometrlari</b>	Suyuqlikka oid shisha termometrlar	-200	600

	Dilatometrik va bimetalli termometrlar	-150	700
<b>Manometrik termometrlar</b>	Gazli	-150	1000
	Suyuqlikli	-150	600
	Bug‘-suyuqlikli(kondensatsion)	-50	300
<b>Termoelektrik termometrlar</b>	Termoelektrik termometrlar	-200	2500
<b>Qarshilik termometrlari</b>	Metall (o‘tkazgichli) qarshilik termometrlari	-260	1100
	Yarim o‘tkazgichli qarshilik termometrlari	-272	600
<b>Pirometrlar</b>	Kvazimonoxromatik priometrlar	700	6000
	Spektral nisbatli priometrlar	300	2800
	To‘liq nurlanish pirometrlari	-50	3500

## **KENGAYISH TERMOMETRLARI. SUYUQLIKLI, DILATOMETRIK VA BIMETALLI TERMOMETRLAR**

**Suyuqlikli termometrlar.** Suyuqlikli termometrlar  $-200^{\circ}\text{S}$  dan  $+600^{\circ}\text{S}$  gacha oraliqdagi temperaturani o‘lchash uchun ishlataladi. Shisha termometrlarning ishlatalish usuli sodda, aniqligi yetarli darajada yuqori va arzon bo‘lgani sababli laboratoriya va sanoatda keng tarqalgan. Suyuqlikli termometrlarning ishlash prinsipi termometr ichiga o‘rnatilgan termometr suyuqligining hajmi temperatura ko‘tarilishi yoki pasayishida o‘zgarishiga asoslangan. Shisha termometrlarning suyuqligi sifatida simob, toluol, etil spirt (etanol), kerosin, petroleyn efir, pentan va boshqalar ishlataladi. Ularning qo‘llanilish chegaralari 3.2-jadvalda keltirilgan.

Suyuqlikli termometrlar orasida eng ko‘p tarqalgani simobli termometrlardir.

3.2-jadval

Termometrlarga solinadigan suyuqliklar

Suyuqlik	Qo‘llanilish chegaralari, $^{\circ}\text{S}$ da	
	pastki	yuqori
Simob	-35	600
Toluol	-90	200
Etil spirti (etanol)	-80	70
Kerosin	-60	200
Petroleyn efir	-120	25
Pantan	-200	20

Simobning kengayish koeffitsiyentini kichikligi termometriya nuqtai nazardan uning kamchiligi hisoblanadi. Suyuqliknинг issiqlikdan kengayishi hajmiy

kengayish koeffitsiyenti bilan xarakterlanadi. Bu koeffitsiyent quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\beta_{t_1 t_2} = \frac{v_{t_2} - v_{t_1}}{v_0(t_2 - t_1)}, \quad 1 / \text{zpa}\delta, \quad (3.1)$$

bu yerda  $v_{t_1}$  va  $v_{t_2}$  — suyuqlikning  $t_1$  va  $t_2$  temperaturalardagi hajmi;  $v_0$  — shu suyuqlikning  $0^\circ\text{S}$  dagi hajmi.

$\beta$  koeffitsiyent qancha katta bo'lsa, hajmiy kengayish temperaturasining  $1^\circ\text{S}$  ga o'zgarishiga shuncha ko'proq moslashadi. Termometrlarda hajmiy kengayish temperatura koeffitsiyenti yuqori bo'lgan suyuqliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. O'lchashning maqsadi va diapazoniga qarab termometrlar kengayish koeffitsiyenti kichik bo'lgan turli markali (GOST 1224 —71) shishalardan tayyorланади. Texnikada qo'llaniladigan suyuqlikli shisha termometrlar quyidagi **xillarga** bo'linadi:

1. Ko'rsatishlariga tuzatish kiritilmaydigan termometrlar (keng miqyosda qo'llaniladigan termometrlar): **a**) simobli termometrlar ( $-35$  dan  $+600^\circ\text{S}$  gacha); **b**) organik suyuqlikli termometrlar ( $-200$  dan  $+200^\circ\text{S}$  gacha);

2. Ko'rsatishlariga pasportga binoan tuzatish kiritiladigan termometrlar: a) aniqlik darjasini yuqori simobli termometrlar ( $-35$  dan  $+600^\circ\text{S}$  gacha); b) aniq o'lchovlarga mo'ljallangan simobli termometrlar ( $0$  dan  $+500^\circ\text{S}$  gacha); v) organik suyuqlikli termometrlar ( $-80$  dan  $+100^\circ\text{S}$  gacha).

Konstruksiyalarining xilma-xilligiga qaramay barcha suyuqlikli termometrlar ikki asosiy turning biriga: *tayoqcha shaklidagi* yoki *shkalasi ichiga o'rnatilgan termometrlar* turiga tegishli bo'ladi. Tayoqcha shaklidagi termometr (3.1-rasm, a) qalin devorli, tashqi diametri 6 ... 8 mm ga teng qilib tayyorlangan kapillyar naychadan iborat. Naychaning pastki qismi suyuqlik saqlanadigan rezervuar hosil qiladi. Ularning shkalasi bevosita kapillyarning sirtida darajalanadi.


Shkalasi ichiga o'rnatilgan termometrlarda (3.1-rasm, b) kapillyar naychasi ingichka devorli bo'lib, simob rezervuari kengaytirilgan. Shkala darajalari sut rang yassi shisha plastinkada joylashgan va kapillyar bilan birqalikda rezervuarga yopishgan shisha qobiq ichiga olingan. Hozirgi vaqtda shkalasi ichiga o'rnatilgan yoki burchakli (termometrning pastki kismi 90°, 120° va 135° li burchak hosil qiladi) texnik termometrlar tayyorlanadi. Yuqori darajali termometrlarda kapillyardagi suyuqlik ustidagi bo'shliq inert gaz bilan to'ldiriladi. Temperaturaning ma'lum darajada saqlanishini avtomatik ravishda ta'minlash va uning ma'lum qiymatini signalizatsiya qilish uchun kontaktli termometrlar qo'llaniladi. Bunday termometrlar ikki yoki undan ko'proq kontaktli bo'lib, yuqoridagi kontakt o'rni o'zgaruvchan bo'ladi. Temperaturani suyuqlikli shisha termometr bilan o'lhash aniqligidagi yo'l qo'yiladigan xatolar bir qator faktorlarga bog'liq: tekshirilmagan shkala bo'linmalari uchun kiritiladigan tuzatish qiymatining noaniqligi; nol nuqtasining o'zgarishi; termometrning o'lchanayotgan muhitga kirish chuqurligining har xilligi, tashqi bosimning o'zgarishi; termometr inersiyasining va rezervuar bilan atrof-muhit issiqligining muvozanati.

Xatolarga sabab bo'ladigan keltirilgan faktorlardan eng ahamiyatlisi nol nuqtasining o'zgarishi hamda termometrning o'lchanayotgan muhitga kirish chuqurligining har xilligidir.

Agar to'liq kiritilganda darajalangan termometrni ishlatilish sharoitlariga ko'ra o'lchanayotgan muhitga to'liq kiritib bo'lmasa, unda uning rezervuari va suyuqlik ustuni turli temperaturada bo'ladi. Chiqib turgan ustunga tuzatma quyidagi formula bo'yicha kiritiladi:

$$\Delta t = n\beta_{t_1 t_2}(t_2 - t_1), \quad (3.2)$$

bunda  $n$  — chiqib turgan ustundagi darajalar (graduslar) soni,  $\beta_{t_1 t_2}$  — shishadagi suyuqlikning kengayish koeffitsnenti (simob uchun 0,00016, spirt uchun 0,001),  $\frac{1}{^{\circ}\text{C}}$ ;  $t_2$  — termometr ko'rsatayotgan temperatura °S;  $t_1$  — rezervuar chiqib turgan



4.1- расм. Термометрлар:

ustunning o'rtasiga biriktirilgan yordamchi termometr orqali o'lchanadigan chiqib turgan ustunning o'rtacha temperaturasi.

Agar chiqib turgan ustun temperaturasi o'lchanayotgandan kam bo'lsa, unda  $\Delta t$  tuzatma ishorasi musbat, ortiq bo'lsa, “-” manfiy bo'ladi. Chiqib turgan ustun hisobiga paydo bo'ladigan xatolik ancha katta bo'lishi mumkin va shuning uchun uni e'tiborga olmaslikning iloji yo'q.

Shuni ta'kidlash lozimki, chiqib turgan ustun hisobiga simob uchun xatolik suyuqliklarnikiga qaraganda temperatura kengayish koefitsiyentlari qiymatining katta farq qilishiga ko'ra bir tartibga past.

Hozir shishali **termometrlarning** quyidagi **turlaridan** foydalaniladi:

1. Ichiga shkala joylashtirilgan texnik simobli termometrlarning (to'g'ri chiziqli va burchakli) 11 xili chiqariladi:

-90 ... +30; -60 ... +50; -30 ... +50; 0 ... 100; 0...160; 0...200; 0... 300; 0.... 350, 0.... 450; 0.... 530 va 0....600°S.

Shkala bo'linmasining qiymati 0,5°S (shkalasi -30... +50°S) dan 5 va 10°S gacha (shkalasi 0 ... 600°S).

2. Tayoqli, ichiga shkala joylashtirilgan laboratoriya simobli termometrlari -30 dan +600°S gacha temperaturani o'lhashga muljallangan, shkala bo'linmasining qiymati 0,1 va 2°S;

3. Suyuqlikli (simobli emas) termometrlar (GOST 9177 — 74) tayoqli, o'lhash chegaralarini -200 dan + 200°S gacha qilib chiqariladi. Shkala bo'linmasining qiymati 0,2 dan 5°S gacha.

4. Simobli yuqori aniqlikdagi va namunaviy (GOST 13646—68) termometrlar o'lhash chegarasi tor (4 dan 59°S gacha) va shkala bo'linmasining qiymati 0,01 dan 0,1°S gacha qilib chiqariladi.

5. Simobli elektr kontaktli (GOST 9871 —75) termometrlar -30 dan 300°S gacha o'lhashga mo'ljallab chiqariladi.

6. Maxsus termometrlar: meditsina (maksimal), meteorologik (maksimal, minimal, psixometrik, tuproqqa oid va x.,.) va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan.

Suyuqlikli shisha termometrlarning kamchiligiga shkala bo'yicha hisoblash noqulayligi, ko'rsatishlarni qayd qilib, ularni masofaga uzatib bo'lmashigi, issiqlik inersiyasining kattaligi (ko'rsatishlarning kechikishi) va asboblarning mexanik nuqtai nazardan mustahkam emasligi kiradi.

**Dilatometr va bimetalli termometrlarning** ishslash prinsipi temperatura o'zgarishida qattiq jism chiziqli mikdorining o'zgarishi asoslangan. Temperatura o'zgarishiga bog'liq bo'lgan qattiq jism chiziqli miqdorining o'zgarishi formula orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$l_t = l_0(1 + \beta_{r,t}), \quad (3.3)$$

bu yerda  $l_t$  —  $t$  temperaturada qattiq jismning uzunligi;  $l_0$  — shu jismning  $0^\circ\text{S}$  dagi uzunligi;  $\beta_r$  — o'rtacha chiziqli kengayish koeffitsiyent ( $0^\circ\text{S}$  dan  $t^\circ\text{S}$  gacha bo'lgan temperaturalar oralig'ida).


5.2- rasmida dilatometrik termometrning tuzilish sxemasi tasvirlangan. Bu asbobda sezgir element sifatida katta chiziqli kengayish koeffitsiyentiga ega bo'lgan materialdan (jez va mis) tayyorlangan naycha 2 qo'llanilgan. Korpus 3 ga kavsharlangan naycha ichida sterjen 1 joylashgan. Sterjen chiziqli kengayish koeffitsiyenti kichik bo'lgan material (masalan, invar) dan ishlangan. O'lchanayotgan muhitning temperaturasi ko'tarilishi bilan naycha 2 uzayadi. Bu hol sterjen 1 ning siljishiga olib keladi. Shunda prujina 9 shayn 4 ning bo'sh tomonini pastga tushiradi, o'z navbatida u tortqi 8 va tishli sektor 7 orqali strelka 6 ni uning o'qi atrofida aylantiradi. Strelka esa shkala 5 da o'lchanayotgan temperatura qiymatini ko'rsatadi.


Dilatometrik termometrlar suyuqliklar temperaturasini o'lchashda hamda temperaturani ma'lum darajada avtomatik ravishda saqlash uchun va signalizatsiyada qo'llanadi. Dilatometrik termometrlar 1,5 va 2,5 aniqlik klasslarida chiqariladi, ularning yuqorigi o'lchash chegarasi  $500^\circ\text{S}$  gacha.  $150^\circ\text{S}$  dan oshmagan temperaturalar uchun naycha jezdan, sterjen esa invardan ishlanadi, undan yuqori temperaturalar uchun naycha zanglamas po'latdan, sterjen esa kvarsdan ishlanadi.

Afzalliklari: ishonchliligi va sezgirligi yuqori.

Kamchiliklari: asbob o'lchamlarining kattaligi, temperaturaning bir nuqtada emas, balki hajmda o'lchanishi, issiklik inersiyasining kattaligi, ko'rsatkichlarni masofaga uzatish mumkin emas.

**Bimetall termometrlarning** sezgir elementi kavsharlangan ikkita plastinkadan tayyorlangan prujinadan iborat. Bu plastinkalar issiqlikdan kengayish temperatura koeffisiyenti turlicha bo'lgan metallardan tayyorlanadi. Temperatura o'zgarganda plastinkalar uzayadi. Plastinkalar bir-biriga nisbatan siljiy olmaganligi sababli prujina issiqlikdan kengayish temperatura koeffitsiyenta kam bo'lgan plastinka tomonga og'adi. Plastinkalar uzayishining temperatura koeffitsiyenti farqi qancha katta bo'lsa, prujinaning temperatura o'zgarishidagi og'ishi shuncha ko'p bo'ladi. 4.3-rasmida yassi plastinkali bimetall termometrning tuzilish sxemasi ko'rsatilgan. Temperatura o'zgarishi bilan bimetall prujina 1 pastga egiladi. Tortqi 2 strelka 4 ni o'q 3 atrofida aylantiradi.





**5.3-rasm.** Yassi plastinkali bimetall termometrning tuzilish sxemasi.

Strelka shkala 5 da o‘lchanayotgan temperatura qiyamatini ko‘rsatadi.

Bimetall plastinka qo‘llanilganda o‘lchashning yuqorigi chegarasi pastki plastinka tayyorlangan materialning qayishqoqligi chegarasi bilan chegaralanadi. Sezgir elementlar sifatida yoysimon yoki vintsimon spirallar qo‘llaniladi. Bimetall termometrlar bilan temperaturani o‘lhash chegarasi  $-150^{\circ}\text{S}$  dan  $+700^{\circ}\text{S}$  gacha, xatosi 1...1,5%. Bu turdagи termometrlar temperaturani ma’lum darajada avtomatik ravishda saqlash va signalizatsiya uchun qo‘llaniladi.


**Termoelektrik termometrlar. Magnitoelektrik millivoltmetrlar.**

**Potensiometrlar. Avtomatik potensiometrlar.**

### Nazariy asoslar va termoelektr zanjirlar

Temperaturani o‘lchashning termoelektr usuli termoelektr termometr (termopara) termo EYUK ining uning temperaturasiga bog‘liqligiga asoslangan. Bu asbob —  $200^{\circ}\text{S}$  dan  $+2500^{\circ}\text{S}$  gacha bo‘lgan temperaturalarni o‘lchashda texnikaning turli sohalari va ilmiy-tekshirish ishlarida keng qo‘llaniladi.

Termoelektr termometrlar yordamida temperaturani o‘lhash 1821 yilda Zeyebek kashf etgan termoelektr hodisasiga asoslangan. Bu hodisaning temperaturalarni o‘lchashda qo‘llanilishi ikki xil metall simdan iborat zanjirda ularning kavsharlangan joyida temperaturalar farqi hisobiga hosil bo‘ladigan EYUK effektiga asoslangan. Har xil A va V o‘tkazgichlardan iborat zanjirni ko‘rib chiqamiz (6.1-rasm). Termoparaning o‘lchanayotgan muhitga tegib turgan joyi kavsharlangan uchi 1 (issiq ulanma), o‘zgarmas  $t_0$  temperaturali muhitdagi joyi 2 esa erkin uchi (sovuv ulanma) deyiladi. A va V o‘tkazgichlar termoelektrodlar deyiladi. Bunday kavsharlangan o‘tkazgichlar esa termopara deb ataladi, ularda hosil bo‘ladigan elektr yurituvchi kuch termoetektr yurituvchi kuch (TEYUK) deyiladi. TEYUK hosil bo‘lishining sababi erkin elektronlar zichligiko‘proq metallning erkin elektronlar zichligi kamroq metallga diffuziyasi bilan izohlanadi. Shu paytda ikki xil metallning birikish joyida paydo bo‘ladigan elektr maydon diffuziyaga qarshilik ko‘rsatadi. Elektronlarning diffuzion o‘tish tezligi elektr maydon ta’sirida ularning qayta o‘tish tezligiga teng bo‘lganda harakatlari muvozanat holati qaror topadi. Bu muvozanatda A va V metallar orasida potensiallar ayirmasi paydo bo‘ladi.



6.1- расм. Иккни хил ўтказгичли термометрик зanjир.

Elektronlar diffuziyasining jadalligi o'tkazgichlar birikkan joyning temperaturasiga ham bog'lik bo'lgani sababli bиринчи va иккинчи уланмаларда hosil bo'lgan EYUK ham turlicha bo'ladi.

Agar kavsharlangan o'tkazgichlar bir xil bo'lsa va ularning ikki uchi turlicha temperaturada qizdirilsa, u holda o'tkazgichning issiqroq qismidan sovuqroq qismiga bo'sh elektronlarning diffuziyalanishi teskari yo'nalishdagi diffuziyasi jadalroq bo'ladi. Potensiallar ayirmasi elektronlarning issiqlik diffuziyasiga teskari yo'nalishda ta'sir qiladi, buning natijasida muvozanat holati qaror topguncha o'tkazgichning issiqroq uchi musbat ishorada zaryadlanadi. Binobarin, har xil  $A$  va  $V$  o'tkazgichlardan tashkil topgan eng sodda termoelektr zanjirda to'rtta turlicha TEYUK hosil bo'ladi. Ya'ni ikkita TEYUK  $A$  va  $V$  o'tkazgichlarning kavsharlangan uchida; bitta TEYUK  $A$  o'tkazgichning uchida; bitta TEYUK  $V$  o'tkazgichning uchida. Shuni nazarda tutib, 6.1-rasmda tasvirlangan zanjirdagi TEYUK kattaligipi aniqlash mumkin. Zanjirni soat strelkasi harakatiga teskari yo'nalishda kuzatsak, quyidagi natija chiqadi:

$$E_{AB}(t_1 t_0) = e_{AB}(t) + e_{BA}(t_0), \quad (6.1)$$

br yerda  $E_{AB}(t_1 t_0)$  — ikkala faktor ta'siridagi jamlangan TEYUK;  $e_{AB}(t)$  va  $e_{BA}(t_0)$  —  $A$  va  $V$  o'tkazgichlar uchndagi potensiallar hamda temperaturalar ayirmasi natijasmda hosil bo'lgan TEYUK.

Agar kavsharlangan uchlarining temperaturasi bir xil bo'lsa .TEYUK nolga teng bo'ladi, chunki ikkala kavsharda ham hosil bo'lgan TEYUK ning qiymati bir-biriga teng bo'lib, o'zaro karama-qarshi tomonga yo'nalgan bo'ladi. Demak,  $t - t_0$  bo'lsa,

$$E_{AB}(t_1 t_0) = e_{AB}(t) + e_{BA}(t_0) = 0, \quad (6.2)$$

$$e_{BA}(t_0) = -e_{AB}(t_0).$$

(6.3) natijani (6.1) ga qo'ysak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$E_{AB}(t, t_0) = e_{AB}(t) - e_{AB}(t_0), \quad (6.4)$$

(6.4) tenglamadan ko'rinish turibdiki, TEYUK ikkita o'zgaruvchan  $t$  va  $t_0$  temperaturaning murakkab funksiyasidan iborat ekan.

Ulanmalardan birining temperaturasi o'zgarmas, masalan,  $t_0 = \text{const}$  bo'lsa, unda

$$E_{AB}(t, t_0) = f(t). \quad (6.5)$$

(6.5) ifoda mazkur termopara uchun darajalash yo'li bilan TEYUK va temperatura nisbatini topish, temperaturani o'lhash masalasini teskari yechish kerakligini, ya'ni termoparaning TEYUK ni o'lhash bilan temperaturaning qiymatini aniqlash mumkinligini bildiradi.


O'lhash asbobini ularash uchun ulanmalardan biridagi zanjirni (6.2- rasm,  $a$ ) yoki termoelektrodlardan birini uzish (6.2-rasm,  $b$ ) kerak.

Termopara zanjiriga uchinchi  $S$  o'tkazgichni ularash variantlaridagi jamlangan TEYUK ni ko'rib chiqamiz. 6.2-rasm,  $a$  dagi variant uchun:

$$E_{ABC}(t, t_1, t_0) = e_{AB}(t) + e_{BC}(t_0) + e_{CA}(t_0), \quad (6.6)$$

$t = t_0$ , ya'ni ulanmalarining temperaturasi teng bo'lsa,

$$E_{ABC}(t_0) = e_{AB}(t_0) + e_{BC}(t_0) + e_{CA}(t_0) = 0, \quad (6.7)$$



bu teiglamadan ma'lumki,

$$e_{BC}(t_0) + e_{CA}(t_0) = -e_{AB}(t_0). \quad (6.8)$$

(6.8) tenglama natijasini (6.6) ga qo'yib chiqsak, (6.4) tenglama kelib chiqadi.

6.2- rasm, b dagi variant uchun:

$$E_{ABC}(t, t_1, t_0) = e_{AB}(t) + e_{BC}(t_1) + e_{CB}(t_1) + e_{BA}(t_0). \quad (6.9)$$

Agar  $e_{BC}(t_1) = -e_{CB}(t_1)$  va  $e_{BA}(t_0) = -e_{AB}(t_0)$  hisobga olinsa, (6.9) tenglama (6.4) tenglamaga aylanadi.

Bundan quyidagi muhim xulosani chiqarish mumkin: termoparaning zanjiriga uchlariagi temperaturasi bir xil bo'lgan uchinchi o'tkazgich ulanganda ham TEYUK o'zgarmaydi. Demak, termopara zanjiriga ularash simlari, o'lchov asboblari va qarshiliklarni ularash mumkin ekan.



Temperaturani termoelektr termometr yordamida o'lchash uchun termometr hosil qiladigan termo EYUK ni va erkin uchlarning temperaturasini o'lchash kerak. Agar temperaturani o'lchashda termometr uchlarning temperaturasi  $0^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lsa, unda o'lchanayotgan temperatura darajalash xarakteristikasidan (jadvallar, grafiklardan) (6.3-rasm) darhol topiladi. Bu darajalash xarakteristikasi termo EYUK bilan ish ulanmasi (rabochiy spay) temperaturasi orasida munosabat o'rnatadi. Termoelektr termometrlarning darajalash xarakteristikasi, odatda, erkin uchlarning temperaturasi  $0^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lganda aniqlanadi. Agar erkin uchlarning temperaturasi amalda  $0^{\circ}\text{S}$  dan farq qilsa-yu, ammo o'zgarmas bo'lsa, unda ish ulanmasi temperurasini darajalash xarakteristikasidan topish uchun termoelektr termometr hosil qiladigan termo EYUK nigina emas, balki erkin uchlari temperaturasi  $t_0$  ni ham bilish zarur. Erkin uchlari temperaturasi  $t_0$  ga  $t_0 \neq 0$  bo'lganda tuzagish kiritish uchun termoelektr termometr hosil qiladigan termo EYUK  $E(t, t_0)$  ga uchun  $E(t_0, 0)$  ni qo'shish lozim; shunda termo EYUK  $E(t, 0)$  qiymatini topiladi:

$$E(t, t_0) + E(t_0, 0) = E(t, 0). \quad (6.10)$$

Termoelektr termometr ish ulanmasi temperaturasi  $t$  va erkin uchlari temperaturasi  $0^{\circ}\text{C}$  bo'lganda, ya'ni darajalash sharti bajarilganda shunday  $E(t_0, 0)$  EYUKni hosil qiladi.

Agar o'lchash jarayonida erkin uchlari temperaturasi biror yangi  $t_0$  qiymat qabul qilsa, unda termometr hosil qiladigan termo EYUK  $E(t, t'_0)$  ga (6.3-rasm) va erkin uchlari temperurasiga kiritiladigan tuzatish  $E(t'_0, 0)$  ga, darajalash shartiga mos termo EYUK esa

$$E(t, t'_0) + E(t'_0, 0) = E(t, 0). \quad (6.11)$$

ga teng bo'ladi.

Termoelektr termometrnning erkin uchlari temperurasiga kiritiladigan tuzatma qiymati termometrnin darajalash xarakteristikasiga bog'liq bo'ladi, u esa termoelektr termometr tayyorlanadigan o'tkazgich materiallar bilan belgilanadi.


Tuzatmani kiritish usulidan qat'i nazar (hisobiy yoki avtomatik) tuzatma kiritish uslubi o'zgarmay qoladi: qaysi usul bilan tuzatma (hisobiy yoki avtomatik)

kiritilganidan qat'i nazar, sxemada  $E(t, 0)$  qiymat olinadi, bu qiymat keyin termopara termo EYUK iga qo'shiladi. Yig'indi termo EYUK  $E(t, 0)$ . darajalash kiymatiga mos keladi.

Temperaturani o'lhashga oid alohida masalalarni yechish uchun termoelektr termometrlarni o'lhash asbobi bilan ulashning turli usullari qo'llaniladi (6.4-rasm). 6.4-rasmda termoelektr termometrii o'lhash asbobiga ulash sxemasi ko'rsatilgan. Termometr komplektiga termopara 1 ulash simi 2 va o'lchov asbobi 3 kiradi.

Termoelektr termometrnii o'zgartish koeffitsiyentini orttirish uchun bir necha termoparalarni (termobatareyalarni) ketma ket ulashdan foydalaniladi (6.4-rasm, b). Bunda termoparalar hosil qiladigan termo EYUK qo'shiladi, ya'ni  $n$  ta termoparadan tuzilgan termobatareyalar termo EYUK i alohida olingan termopara termo EYUK idan katta. Bunday ulashdan kam farq qiluvchi ish temperaturasi  $t$  ni va erkin uchlari  $t_0$  ni o'lhashda foydalaniladi.

Ikki nuqta orasidagi temperatura farqini o'lhash uchun differensial termoelektr termometr qo'llaniladi. U ikkita qarama-qarshi ulangan bir xil termometrdan tuzilgan (6.4-rasm, v). Agar temperaturalari farqi o'lchanayotgan nuqtalarning temperaturasi o'zaro teng bo'lsa, unda o'sha nuqtalarda



6.4- rasm. Termoelektr zanjirlar: a - termometrnii o'lchov asbobiga ulash; b - termobatareya; v - differensial termometr.

termometr hosil qiladigan TEYUK lar ham teng bo'ladi. Bunday holda termometrdagi zanjir toki nolga teng bo'ladi, chunki qarama-qarshi ulanganda bir termoparaning TEYUKi boshqa termoparaning TEYUKi bilan kompensatsiya qilinadi va o'lchov asbobi nolni ko'rsatadi. Agar  $t_1$  va  $t_2$  temperaturalar turlichay bo'lsa, u holda qaysi temperatura yuqori bo'lishiga qarab, temperaturalar farqiga proporsional bo'lgan zanjir toki biror yo'nali shda oqadi, buni o'lchov asbobi ko'rsatadi.

### Termoelektr materiallar va termoelektr o'zgartkichlar

Turli o'gakazgichlarning ixtiyoriy jufti termoelektr o'zgartkichni tashkil etishi mumkin, ammo har bir juftlik ham amalda qo'llanishga yarayvermaydi. Zamonaviy o'lhash texnikasi termoelektr o'tkazgichlar tayyorlanadigan materiallarga ko'pdan-ko'p talablar qo'yadi, ammo bu talablarni juda kam sonli matershllargina kondiradi. Asosiy talablar quyidagilardan iborat: yuqori temperaturalar ta'siriga chidamlilik, TEYUK ning vaqt bo'yicha o'zgarmasligi, uning iloji boricha katta qiymatga ega bo'lishi va temperaguraga bir qiymatli bog'liqligi, qarshilik temperatura koeffitsiyentining katta bo'lmashligi va katta elektr o'tkazuvchanlik.

Barcha materiallar va qotishmalar uchun TEYUK ning temperaturaga funksional bog'liqligi murakkab bo'lib, uni analitik ifodalash ancha qiyin. Platinorodiy-platina jufti bundan istisnodir. Bu juftlik uchun TEYUK bilan temperatura orasidagi bog'lanish  $300^{\circ}$  dan  $1300^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan oraliqda sovuq ulanma temperaturasi  $0^{\circ}\text{C}$  bo'lganda yetarlicha aniqlikda parabolaga mos keladi:

$$E(t, t_0) = a + bt + ct^2, \quad (6.12)$$

bunda  $a$ ,  $b$  va  $s$  surma ( $630,5^{\circ}\text{S}$ ), kumush ( $960,8^{\circ}\text{S}$ ) va oltin ( $1063,0^{\circ}\text{S}$ ) larning qotish temperagurasi bo'yicha aniqlanadigan doimiylar.

Metall termoelektrodli termoelektr termometrlarning quyidagi turlari qo'llanadi. Ularning xarakteristikalari 6.1-jadvalda keltirilgan.

Xromel-kopelli ( $56\% \text{Cu} + 44\% \text{Ni}$ ) termoelektr termometrlar standart termometrlar orasida eng katta o'zgartish koefitsiyentiga ega ( $70 - 90 \text{ mK}/^{\circ}\text{S}$ ). Termoelektrod diametri 1 mm dan kam bo'lgan termometrlar uchun chegaraviy qo'llanish davri  $600^{\circ}\text{S}$  dan kam va, masalan, diametri  $0,2...0,3\text{mm}$  bo'lgan termoelektrodlar uchun faqat  $400^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etadi. Yuqorigi o'lhash chegarasi kopelli elektrodlar xarakteristikalarining barqarorligiga bog'liq.

Термоэлектр термометр термопараси тури	Даражалаш белгиси, янгиси (якиси)	Улчаш чегараси, $^{\circ}\text{C}$	Юқориги ўлчаш чегараси, $^{\circ}\text{C}$	
			узоқ вақт кўлланишда	қисқа вақт кўлланишда
Мис-копелли	—	-200	100	600
Мис-мис-никелли	T	-200	400	600
Темир-мис-никелли	J	-200	700	900
Хромель-копелли	(ХК)	-50	600	800
Никельхром-мис-никелли	E	-100	700	900
Никельхром-никель	-K			
Алюминийли (хромель алюмелли)	(ХА)	-200	1000	1300
Платинородий (10%) — платинали	S(ПП)	0	1300	1600
Платинородий (30%) — платинородийли (6%)	B(ПР)	+300	1600	1800
Вольфрамрений (5%) — вольфрамренийли (20%)	(ВР)	0	2200	2500

Nikelxrom-nikel alyuminiyli ( $94\% \text{Ni} + 2\% \text{Al} + 2,5\% \text{Mn} + 1\% \text{Si} + 0,5\% \text{qo'shilma}$ ) termometrlar turli muhit temperaturalarini keng chegaralarda o'lhash uchun qo'llaniladi. Ular avval xromel-alyumelli termometrlar deb yuritilar edi. Nnkel-alyuminiy simdan tayyorlangan termoelektrod oksidlanishga nikel-xromga nisbatan kamroq chidamli. Qo'llanishning yuqorigi chegarasi termoelektrod diametriga bog'liq. Diametri  $3-5\text{ mm}$  bo'lgan termoelektrodlar uchun qo'llanishning yuqorigi chegarasi nikel-xrom-nikel-alyuminiyli termometrlarda  $1000^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etadi.  $0,2 - 0,3\text{ mm}$  diametr uchun  $600^{\circ}\text{S}$  dam ortiq emas.

Platinorodiy (90% platina 10% rodiy)-platinali termoelektr termometrlar uzoq vaqt davomida 0 dan  $1300^{\circ}\text{S}$  temperatura oralig'ida, qisqa vakt davomida  $1600^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lgan oraliqda ishlashi mumkin. Mazkur termometrlar oksidlanadigan va neytral muhitlarda darajalash xarakteristikasining barqarorligini saqlaydi. Tiklanadigan atmosferada platinorodiy-platinali termometrlar ishlay olmaydi,

chunki termometr termo EYUKining keskin o'zgarishi yuz beradi. Bular ulardan foydalanish maksadiga qarab etalon, namuna va ish termometrlari a bo'linadi. To'g'ri ishlatalganda darajalash uzok vaqt davomida o'zgarmaydi. Kamchiliklariga termoelektr termometrlarning boshqa turlarinikiga nisbatan TEYUK kamligini kirlitsa bo'ladi. Termoelektrod simi diametri 0,3 yoki 0,5 mm ni tashkil etadi.

Platinorodiy (30% rodiyli)-platinorodiyli (6% rodiyli) termoelektr termometrlar uzoq vaqt davomida temperaturalarning  $+300^{\circ}$  dan to  $1600^{\circ}\text{S}$  gacha oralig'ida, qisqa vaqt davomida  $1800^{\circ}\text{S}$  gacha qo'llaniladi. Musbat elektrod —30% rodiy va 70% platina qotishmasidan, manfiy elektrod —6% rodiy va 94% platina qotishmasidan tashkil topgan. Mazkur termometrlar platinorodiy-platinali termometrlarga qaraganda darajalash xarakteristikalarining barqarorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi, ammo bu termoelektrodlar ham tiklanadigan muhitda yomon ishlaydi. Platinorodiy-platino-rodiyli termometrlarda termo EYUK temperaturalarning  $0... \pm 3100^{\circ}\text{C} \pm 1000^{\circ}\text{C}$  intervalida ozgina hosil bo'ladi, bu hol esa sovuq ulanmalar temperaturasiga tuzatish kiritishni talab etmaydi.

Volframreniy-volframreniyli (TVR — 5/20 va TVR — 10/20) termoelektr termometrlar uzoq vaqt davomida  $0^{\circ}$  dan  $2200^{\circ}\text{S}$  gacha temperaturalarni va qisqa vaqt davomida  $2500^{\circ}\text{S}$  gacha, shuningdek, vakuumda, neytral va tiklanadigan muhitlarda temperaturalarni o'lchashga mo'ljallangan. Musbat termoelektrod 95% volframdan va 5% reniydan yoki 90% volframdan va 10% reniydan tashkil topgan qotishma, manfiy elektrod 80% volframdan va 20% reniydan tashkil topgan qotishma.

Termoparalarning ba'zi turlari (mis-kopelli, xromel kopelli, volframreniy-volframreniyli BP 5/20 yoki BP 10/20) uchun avvalgi nomlari va darajalash xarakteristikalari ham qoldi. SEV standarti bu termoparalar uchun hech qanday belgilashlar kiritmadni. Boshqa tur termoparalar uchun yangi nomlar va belgilashlar kirititildi: nikelxrom-nikelalyuminiyli termopara, K turi, avvalgi nomi xromel-alyumelli va belgilanishi XA; darajalash xarakteristikasi o'zgarmay qoldi. Platinorodiy-platinali va platinorodiy-platinorodiyli termoparalar uchun belgilashlar o'zgaradi (PP o'rniga S, PR o'rniga V kiritiladi) va darajalash xarakteristikasi o'zgaradi. Bundan tashqari, avvalda seriyali ishlab chiqarilmagan qator yangi termoparalar joriy qilinadi:

Mis—mis-nikelli (mis-konstantan termoparasiga yaqin) T turi, temir-mis-nikelli (temirkonstantan termoparasiga yaqin) J turi va nikal-xrom-mis nikelli, Ye turi.

6.5-rasmda ba'zi standartlashtirilgan termoelektr termometrlarining EYUKi bilan temperatura orasidagi bog'lanish ko'rsatilgan. TXK turidagi termopara boshqa standart termoparalarga qaraganda ancha katta TEYUK hosil qila oladi.

Termoelektr generator, termoelektr sovitgich va turli o'lchov asboblarida yarim o'tkazgichli termoparalar ishlataladi. Ularning TEYUKi metall va metall qotishmalaridan ishlangan oddiy termoparalar




6.5-расм. Стандарт термоэлектр термометрлариниң характеристикалари.

TEYUKidan 5—10 marta katta. Bu termoparalarda termoelektrod materiallar sifatida  $ZnSb$  va  $CdSb$  qotishmalari ishlatiladi.

Turli muhitlar temperaturasini o‘lchaydigan termoparaning sxemasi 6.6- rasmida ko‘rsatilgan. U g‘ilof 1, qo‘zg‘almas yoki qo‘zg‘aluvchan shtutser 2, qo‘zg‘almas shtutser bilan naycha 6 orqali, shtutser harakatda bo‘lganda esa g‘ilof bilan bevosita ulangan kallak 3 dan iborat. Qopqoqda izolyatsion materialdan ishlangan rozetka 4 joylashgan. Bu rozetkaning termoparani o‘lchov asbobi bilan ulaydigan termoelektrodi 5 va simlar uchun qisqichlari bor.

Himoya g‘iloflari ko‘pincha  $+1000^{\circ}S$  gacha temperaturalar uchun po‘latning turli markalaridan tayyorlanadi. Bundan ham yuqoriqoq temperaturalarda qiyin eriydigan birikmalardan (GOST 13403-77) tayyorlangan maxsus g‘iloflar ishlatiladi.



Termoelektr termometrlarning himoya armaturasining ko‘pgina loyihasi hozirgi vaktda bir shaklga keltirilgan. Ular asosan turli bosimga mo‘ljallangan himoya giloflari loyihasi va shtutserlar loyihasi bilan farq qiladi. Oxirgi vaqtida kabelli turdag'i termoelektr termometrlar keng tarqalmoqda. Ular bosim 40 MPa bo‘lganda  $-50^{\circ}$  dan  $+1100^{\circ}S$  gacha bo‘lgan temperaturalar oraliq‘ida qo‘llaniladi. Kabelli turdag'i termometrlarning muhim afzalligi ularning AESlarning energetik reaktorlarida ishlashga imkon tug‘diradigan radiatsion chidamliligi, shuningdek, issiqlik zarbalariga tebranishga va mexanik nagruzkalarga nisbatan oshirilgan chidamliligidan iborat.

Sirt temperaturalarini o‘lchashga mo‘ljallangan termoelektr termometrlar maxsus konstruksiyaga ega. Bunday termoparalardan ximiya sanoatida keng foydalilanadi, ular turli apparat, truboprovod, mashinalarning aylanuvchi jo‘vasi va hokazolarning sirt temperurasini o‘lchashga xizmat qiladi.

Maxsus termoelektr termometrlardan vertikal apparatlarda (ammiak sintezi kolonnalarida, metanol va h.) temperaturani o‘lchash uchun ishlatiladigan ko‘p zonali termometrlarni ko‘rsatish mumkin.

Termoparalarning asosiy kamchiligi sifatida ularning inersionligining kattaligini ko‘rsatish mumkin (1,5 minutdan ham oshadi).

#### UZATUVCHI TERMOELEKTROD SIMLARI

Termoelektr termometri o‘lchov asbobi bilan ulaydigan simlar shunday materiallardan tayyorlanadiki, ular o‘zaro juft bo‘lib, o‘zlarini ulangan termoelektr termometrlar hosil kiladigan

EYUK ni (o‘sha temperaturalarda) hosil qiladi. Bunday talab taxminan  $100^{\circ}S$  temperatura bilan chegaralanadi, bundan yuqori temperaturada termoelektr termometr va ulaydigan simlarning xarakteristikalari biriridan farq qilishi mumkin. Bunday bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi, chunki ulaydigan simlarning temperaturasi, odatda, yuqori bo‘lmaydi. Ko‘rsatilgan talablar bajarilganda termokompensatsion simlar termoelektr termometrii (termoparani) ulaydigan simlar uzunligi qadar

uzaytiradi, termoparaning erkin uchlari esa TEYUK ni o'lhashga mo'ljallangan asbobning klemmalarida bo'lib qoladi. Yuqorida ko'rsatilgan talabga rioya qilmaslik termoparaning erkin uchlarni o'lhash simlari bilan ulaydigan joylarda ulanmalarining paydo bo'lishi natijasida „parazit“ TEYUK hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Agar uzaytiruvchi simlar termometrni kabi darajalash xarakteristikasiga ega bo'lsa, „parazit“ TEYUK hosil bo'lishidan xalos bo'liadi.

Uzaytiruvchi termoelektr simlar bir va ko'p simli qilib, izolyatsiyada va tashqi qoplama yoki qobiqlik qilib ishlab chiqariladi, bu montaj qilish va yotqizishda qulay. Izolyatsiyalash uchun polivinilxlorid, polietillentereftalat va ftoroplast plynkalardan foydalilanadi. Izolyatsiyadan tashqari simlar ko'pincha polivinilxlorid qobiq yoki lavsan ip yoxud shisha ip bilan chirmab o'raladi.

Agar tashqi elektr magnit maydondan va mexanik ta'sirdan saqlanish talab etilsa, unda mis, po'lat simli (GOST 24335-80) qoplama yoki ekranlar qo'llaniladi.

Har bir sim materiali izolyatsiyaning o'z rangiga yoki simlarning o'ramasida va qoplamasini rangidagi simlarga ega bo'ladi. 6.2-jadvalda termoparalar, tavsiya etiladigan uzaytiruvchi termoelektr simlar, ularning belgilari va ranglari keltirilgan.


## 6.2- jadval

### Tavsiya etiladigan uzaytiruvchi termoelektr simlari

Termopara	Uzaytiruvchi termoelektr simlari		
	belgilar	Juft — simlar	rangi
Mis- kopelli	MK	Mis-kopel	Qizil (pushti)-sariq (to'q sariq)
Mis-misnikelli Xromel-kopelli	M XK	Mis-konstantan	Qizil (pushti)-jigarrang
		Xromel-kopel	binafsha (qora)-sariq (to'q sariq)
Nikelxrom-nikel alyuminiyli Platinorodiy-platinali	M MT-NM P	mis-konstantan, mis-titan — nikel mis	Qizil (pushti)-jigarrang Qizil-yashil qizil-ko'k
		mis qotishma TP	Qizil (pushti)-yashil
Volframreniy-volframreniyli	M-MN	mis-qotishma MN, 2,4	Qizil (pushti) — ko'k(zangori)

### Millivoltmetrlar

Hozir termoelektr termometrlar (termoparalar) dagi TEYUK ni o'lhash uchun magnitoelektr millivoltmetrlar, potensiometrlar va o'zgartgichlar keng qo'llanilmoqda.



6.8- расм. Милливольтметрнинг тузилиши.

Millivoltmetr — magnitoelektr o‘lhash asbobi bo‘lib, ularning ishlash prinsipi uning qo‘zg‘aluvchan ramkasidan o‘tayotgan tokning o‘zgarmas magnit maydoni bilan o‘zaro ta’siriga asoslangan.

Millivoltmetrning tuzilishi 6.8- rasmda ko‘rsatilgan. Doimiy magnit 1 ning qutb uchlari 2 va tayanch tovonostlari 8 da aylanadigan o‘qlarda joylangan o‘zak 3 orasidagi havo oralig‘ida ramka 5 bor. Ramkaning uchlari o‘qlar 7 ga ulangan Ramkaga kronshteyn 9, strelka 10 ulangan. Strelkaning uchi shkala 11 bo‘ylab siljiydi. Ramka termopara zanjiriga ulanganda spiral-prujina 6 orqali keladigan tok ramkadan o‘tadi. Ramkaning chulg‘ami orqali tok o‘tganda hosil bo‘lgan magnit maydoni bilan doimiy magnit maydon

o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida aylantiruvchi moment hosil bo‘ladi, shu sababli ramka strelka 10 bilan birga aylanadi. Spiral 6 bu aylanishga teskari ta’sir qiladi. Ramkada qaror topgan har bir tokning qiymatiga, ya’ni termopara TEYUKiga strelkaning muayyan bir vaziyati to‘g‘ri keladi. Tok o‘tmagan paytda elastik prujinalar 6 ramkani boshlang‘ich vaziyatga qaytaradi, strelkaning shkala 11 bo‘yicha ko‘rsatishi esa nolga teng bo‘ladi. Kronshteyn 9 strelkani muvozanat holatida saqlash uchun posangi 4 bilan ta’minlangan. Asbob shkalasi °S da darajalangan. Ramkadan o‘tayotgan tok bilan doimiy magnit maydon orasidagi o‘zaro ta’sir tufayli paydo bo‘lgan aylantiruvchi moment quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$M_{ayl} = C_1 \cdot B \cdot J, \quad (6.13)$$

bu yerda  $M_{ayl}$  — aylantiruvchi moment;  $S_1$  — ramkaning geometrik hajmi va chulg‘amlari soni bilan aniqlanadigan doimiy koeffitsiyent,  $V$  — zazordagi magnit induksiyasi;  $J$  — ramkadagn tok.

Aylanishga teskari ta’sir etuvchi moment

$$M_{tes} = C_2 \cdot E \cdot \varphi, \quad (6.14)$$

bu yerda  $S_2$  — elastik element (spiral-prujina yoki cho‘zilgan tolalar) hajmidan aniqlanadigan doimiy koeffitsiyent;  $Ye$  — spiral prujinalarning elastiklik moduli yoki cho‘zilgan tolalarning siljish moduli;  $\varphi$  — elastik elementning burilish burchagi. Agar  $M_{ayl} = M_{tes}$  ya’ni muvozanat holati bo‘lsa,

$$C_2 \cdot E \cdot \varphi = C_1 \cdot B \cdot J. \quad (6.15)$$

U holda

$$\varphi = \frac{C_1}{C_2} \cdot \frac{B}{E} \cdot J = C \cdot \frac{B}{E} \cdot J. \quad (6.16)$$

Asbob konstruksiyalari parametrlariga bog‘liq bo‘lgan  $S$ ,  $V$ ,  $Ye$  kattaliklar o‘lhash jarayonida o‘zgarmaydi, shuning uchun

$$\varphi = K \cdot J, \quad (6.17)$$

Bu yerda

$$K = C \cdot \frac{B}{E}.$$

(6.17) ifodadan piometrin millivoltmetr shkalasi chiziqli ekanligini ko‘rish mumkin.

Asbob ko‘zg‘aluvchan sistemasining burilish burchagi ramkadan o‘tayotgan tok kuchidan tashqari yana termopara, ulaydigan simlar va millivoltmetrlarning ichki qarshiligiga ham bog‘liq:

$$\varphi = KJ = K \cdot \frac{E_T}{R_T + R_C + R_M} \quad (6.18)$$

bu yerda  $Y_{E_t}$  — TEYUK;  $R_T$  — termopara karshiliği;  $R_S$  — ulaydigan simlar qarshiliği;  $R_M$  — millivoltmetrning ichki qarshiliği.

(6.18) ifodadan asbob strelkasining chetga chiqishi TEYUK ning o‘zgarmas qiymatida zanjirning turli qarshiliklariga bog‘liq ekanligi ko‘rinib turibdi. Shuning uchun asbobning darajalanishi zanjir tashqi qismining muayyan qarshiligidagi ( $R_{ash} = R_t + R_c$ ) bajariladi va qo‘shimcha xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun piometrik millivoltmetrni montaj qilish protsessida shu qarshilik aniq saqlanishi shart. Odatda, tashqi qarshilikning darajali miqdori 0,6; 1,6; 5; 15; 25 Omga teng bo‘lib, asbobning shkalasi va pasportida ko‘rsatiladi. Tashqi qarshilikni millivoltmetr shkalasida ko‘rsatilgan qarshilikka tenglashtirish uchun o‘zgaruvchi qarshilikdan foy-dalaniladi.

O‘lhash asbobi, sifatida ishlatiladigan millivoltmetrli termoelektrlar komplektining kamchiligi o‘lhash asbobida tok mavjudligidir. Tok miqdoriga, ya’ni millivoltmetrning ko‘rsatishiga TEYUKdan tashqari zanjirning qarshiliği ham ta’sir qiladi:

$$\sum R = R_T + R_C + R_M .$$

Har bir qarshilikning o‘zgarishi o‘lhashda sodir bo‘ladigan xatoga olib keladi. Noqulay sharoitda bu xato assosiy xato miqdoridan (aniqlik klassidan) oshib ketishi mumkin.

Texnik millivoltmetrlarda ramka qarshiliginin millivoltmetr umumiyligi qarshiliga nisbati 1:3 dan ortiq emas. Millivoltmetrning umumiyligi qarshiliginin orttirib borilsa, uning temperaturali koeffitsiyenta kamayib boradi. Shu bilan atrof-muhit temperaturasi tebranishidan kelib chiqadigan xatolik ham kamayadi. Agar termopara erkin uchlaringin temperaturasi o‘lhash jarayonida keng chegaralarda o‘zgarsa, unda ko‘prik sxemasidan foydalangan holda sovuq ulanmalar temperaturasini kompensatsiya qilish usuli qo‘llaniladi.

Sanoatda va laboratoriyalarda qo‘llaniladigan millivoltmetrlar ko‘rsatuvchi, o‘zi yozuvchi va boshqariladigan bo‘lishi mumkin. Konstruksiyasining bajarilishi nuqtai nazaridan asboblar shchitda o‘rnataladigan va ko‘chma bo‘ladi. Ko‘chma asboblar uchun 0,2; 0,5 va 1,0 (GOST 9736 — 80), shchitda o‘rnataladigan 0,5; 1,0 va 1,5 aniqlik klasslari belgilangan.

Millivoltmetr shkalasida u bilan bir komplektda ishlaydigan termopara yoki to‘la nurlanish piometrning darajalanishi ko‘rsatiladi.


### Potensiometrlar

Asboblarga o‘lhash aniqligi nuqtai nazaridan qo‘yiladigan talablar oshganligi sababli hozir temperaturani termopara bilan o‘lhashda

millivoltmetrlardan foydalanishdagi kamchiliklardan holi bo‘lgan kompensatsion yoki potensiometrik usul tobora keng qo‘llanilmoqda.

Potensiometrik o‘lhash usuli millivoltmetr yordamida olib boriladigan o‘lhashdan ancha afzaldir: potensiometrning ko‘rsatishi tashqi zanjir qarshiliklarining o‘zgarishiga, asbob temperaturasiga bog‘lik emas. Potensiomegrda termopara erkin uchlari temperaturasining o‘zgarishiga avtomatik ravishda tuzatish kiritiladi, shuning uchun o‘lhash aniqligi yuqori bo‘ladi. Potensiometrik o‘lhash usuli o‘lchanayotgan termopara TEYUK ni potensiallar ayirmasi bilan muvozanatlashtirishga asoslangan. Bu potensiallar ayirmasi kalibrlangan qarshilikda yordamchi tok manbalaridan hosil bo‘ladi. Potensiallar ayirmasi termopara TEYUK ning teskari ishorali qiymatiga teng.

Temperatura yoki TEYUK ni o‘lhash uchun qo‘llaniladigan, qo‘l bilan muvozanatlashtiriladigan potensiometrning prinsipial sxemasi 6.9- rasmida ko‘rsatilgan. Tok yordamchi Ye manbadan zanjirga o‘tadi. Bu zanjirning  $b$  va  $s$  nuqtalari o‘rtasida  $R_R$  o‘zgaruvchan qarshilik — reoxord ulangan. Reoxord  $L$  uzunlikdagi kalibrlangan simdan iborat.  $b$  nuqta va oraliqdagi reoxordning sirpanuvchi kontaktli sirpang‘ichi joylashgan har kanday  $D$  nuqta o‘rtasidagi potensiallar ayirmasi  $R_{vd}$  qarshilikka to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. Ketma-ket ulangan



6.9- rasm. Qo‘l bilan muvozanatlashtiriladigan potensiometr sxemasi. termopara bilan pereklyuchatel  $P$  orqali sezgir millivoltmetra nol indikator  $NI$  ulanadi, termopara zanjirida tok borligi shu indikator orqali aniqlanadi. Termopara uning toki  $R_{vd}$  tarmoqda yordamchi manba toki bilan bir yo‘nalishda yuradigan qilib ulanadi. TEYUK ni o‘lhash uchun reoxord sirpang‘ichi nol indikator strelkasini nolni ko‘rsatguncha suradi. Ayni paygda  $R_{BD}$  qarshilikdagi kuchlanishning kamayishi o‘lchanayotgan TEYUK ga teng bo‘ladi. Quyidagi tenglama bu holatni xarakterlaydi:

$$E(t, t_0) - J \cdot R_{\text{BD}} = 0. \quad (6.19)$$

yoki

$$E(t, t_0) = J \cdot R_{\text{BD}}, \quad (6.20)$$

bu yerda  $JR_{VD} — E$  manba kuchlanishining tarmoqdagi tushuvi.

Zanjir tarmog‘idagi tok kuchi butun zanjirdagi tok kuchiga teng, demak:

$$\frac{U_{BD}}{R_{BD}} = \frac{F}{R_{BC}} \quad (6.21)$$

bundan

$$U_{BD} = E \cdot \frac{R_{BD}}{R_{BC}} \quad (6.22)$$

Kompensatsiya paytida  $U_{BD} = E(t, t_0)$  nazarda tutilsa,

$$E(t, t_0) = U_{BD} = E \cdot \frac{R_{BD}}{R_{BC}}. \quad (6.23)$$

Reoxord kalibrangan qarshilikka, ya'ni uning har bir uzunligining teng tarmog'i bir xil qarshilikka ega bo'lgani uchun

$$E(t, t_0) = E \cdot \frac{l}{L}. \quad (6.24)$$

Shunday qilib, Ye(t, t<sub>0</sub>) termoparaning TEYUK reoxord qarshiligi  $R_{BC}$  tarmog'idagi kuchlanish tushuvi miqdori bilan aniqlanib, qolgan qarshiliklarga bog'liq emas.  $R_{BS}$  reoxord shkala bilan ta'minlanishi va shkala bo'linmalari millivolt yoki temperatura graduslariga teng bo'lishi mumkin. TEYUK ni o'lchash aniqligi reoxord zanjiridati  $J$  tok kuchining o'zgarmasligiga bog'liq. Tok kompensatsion usul bilan beriladi va nazorat qilinadi. Buning uchun potensiometr sxemasiga normal elementli qo'shimcha kontur kiritiladi. Odatda, normal element (NE) vazifasini simobkadmiyli galvanik Veston elementa bajaradi. Bu elementning elektr yurituvchi kuchi 20°S da 1,0183 ga teng. NE pereklyuchatel  $P$  orqali qarshilik  $R_{NE}$  uchlariga ulanadi va uning EYUKi yordamchi tok manbai Ye ning EYUKi tomon yo'nalgan bo'ladi. Qarshilik  $R$  yordamida kompensatsion zanjirdagi tok kuchini rostlash bilan NI ning strelkasi nolni ko'rsatishiga erishiladi.

Bunday holda kompensatsion zanjirdagi tok kuchi quyidagicha ifodalanadi:

$$J = \frac{F_{H3}}{R_{H3}}. \quad (6.25)$$

Termoparaning TEYUK ini o'lchashda P pereklyuchatel K vaziyatdai O' vaziyatga o'tkaziladi. Reoxord  $R_p$  ning  $D$  sirfang'ichini siljitib B va  $S$  nuqtalar orasidagi potensiallar ayirmasini termopara TEYUK ga tenglashtiriladi. Shu paytda termopara zanjiridagi tok kuchi 0 ga teng, shuning uchun

$$E(t, t_0) = J \cdot R_{BD} = \frac{E_{H3}}{R_{H3}} \cdot R_{BD}. \quad (6.26)$$


$Ye_{ne}$  va  $R_{ne}$  larning miqdori o'zgarmas bo'lgani uchun TEYUK ni aniqlash karshilik tarmog'inining uzunligini aniqlash bilan baravardir.

EYUK ni kompensatsion usul bo'yicha o'zgaruvchan tok sharoitida ham o'lchash mumkin. Ammo bu holda o'lchash aniqligi birmuncha pastroq, o'zgaruvchan tokda ishlaydigan asboblar esa birmuncha murakkabroqdir. Ko'chma potensiometrlar sex va laboratoriya sharoitlarida tekshiruv va darajalash ishlarida EYUK ni kompensatsion usul bo'yicha o'lchash uchun qo'llaniladi; namuna potensiometrlar aniq o'lchashlarni bajarishda ishlatiladi. Bu asboblarning o'lchash sxemalari yuqorida ko'rilgan sxemaga o'xshash, faqat farqi shundaki, o'lchov reoxordi namuna qarshiliklardan tashkil topgan seksiyalar shaklida tayyorланади. Yuqorida ko'rilgan potensiometrlarda o'lchash zanjirining nobalans toki nol indikator

strelkasini harakatga keltiradi, avtomatik potensiometrlarda esa bu asbob yo‘q. Uning o‘rniga nol indikator ishlataladi.


Ko‘chma potensiometrlardan farqli o‘laroq avtomatik potensiometrlardagi reoxordning sirpang‘ichi qo‘l bilan emas, maxsus qurilma orqali avtomatik ravishda siljiydi. 6.10-rasmida elektron avtomatik potensiometrning tuzilish sxemasi ko‘rsatilgan.

*TP* termoparada TEYUK  $Ye_x$  ni o‘lhash uni kalibrlangan  $R_p$  reoxord kuchlanishining kamayishi bilan taqqoslash orqali bajariladi. Potensiometrning kompensatsion sxemasi sirpang‘ich  $K$  li reoxord o‘zgarmas. kuchlanish  $Ye_x$  ni o‘zgaruvchan kuchlanishga aylantirib beruvchi o‘zgartgichli elektron kuchaytirgich 1, reversiv elektr dvigatel 2 va tok manbai  $Ye_a$  dan iborat. Elektr dvigatel 2 reduktor 3 orqali sirpang‘ich  $K$  va strelka 4 bilan bog‘langan. Kompensatsion sxemaning ishi sirpang‘ichi reoxord bo‘ylab kuchlanish tushuvi tomon avtomatik siljiydi. Bu siljish reversiv elektr dvigatel *RD* yordamida bajariladi va nomuvozanat kuchlanish nolga teng bo‘lguncha davom etadi. Shunday qilib, sirpang‘ich  $K$  va unga biriktirilgan strelkaning vaziyati TEYUK ning qiymatini, demak, o‘lchaniyotgan temperaturaning miqdorini ko‘rsatadi. Qarshilik  $R$  kompensatsion zanjirdagi ish tokini rostlash uchun xizmat qiladi.



6.10- rasm. Elektron avtomatik potensiometrning tuzilish sxemasi.

6.11-rasmida zamonaviy elektron avtomatik potensiometr (KSP-4) o‘lchash qismining prinsipial sxemasi keltirilgan.



**6.11-rasm. Elektron avtomatik potensiometr o'lhash qisminiig principial sxemasi**

Potensiometr o'lhash ko'prining diagonallaridan biriga elektron kuchaytirgich *EK* va termopara *TP* ketma-ket ulangan. Termoparani ulash elektromagnit maydon ta'sirini kamaytirish uchun mo'ljallangan filtr (rasmida filtrning  $R_f$  —  $S_f$  sodda sxemasi ko'rsatilgan) orqali bajariladi. O'lhash ko'prining ikkinchi diagonaliga stabillashgan tok manbai *STM* ulanadi. Bu manba o'lhash zanjiridagi ish tokining o'zgarmasligini ta'minlaydi.

Termopara *TP* dan (yoki biron boshqa datchikdan) olingan o'lhash axboroti signalining o'zgarishi bilan elektron kuchaytirgichning kirishiga nobalanslik signali beriladi. Bu signal ma'lum bir o'zgartgich orqali o'zgaruvchan tokka aylanib, reversiv dvigatel *RD* aylanish holatiga kelguncha kuchayadi. Reversiv dvigatelning aylanish yo'nalishi nobalanslik ishorasiga bog'liq. Bu aylanish natijasida mexanik uzatma (shkiv yoki tros) yordamida  $R_p$  reoxord sirpang'ichi nobalanslik signali o'chguncha siljiydi.

Bulardan tashqari potensiometr o'lhash sxemasiga qurilmaning umuman normal ishini ta'minlovchi bir qator elementlar kiradi.  $R_{sh}$  qarshiliklar  $R_k$ ,  $r_k$  reoxord qarshiliqi  $R_p$  ni rostlash uchun xizmat qiladi: bunda asbobning darajalanish va o'lhash diapazoni, ya'ni o'lhash chegaralari nazarda tutilishi lozim. Qarshilik  $R_n$  va  $r_n$  lar yordamida shkala boshlanishi rostlanadi.  $R_d$  ballastli qarshilik  $R_{rt}$ ,  $R_{rt}$  va  $R_s$  rezistorlar STM ta'minlash manbaining ish tokini cheklash va rostlash uchun qo'llaniladi.  $R_m$  rezistor termopara erkin uchlari ulangan joy, ya'ni asbobning kirish panelida joylashgan.  $R_m$  dan tashqari hamma rezistorlar manganindan,  $R_m$  rezistor esa mis yoki nikeldan tayyorlanadi.

Potenspometrlar 4 xil gabaritda chiqariladi: to'la gabaritli (KSP 4), kichik gabaritli (KSP 3 va KSP juda kichik gabaritli ko'rsatuvchi KPP1, aylanma shkalali ko'rsatuvchi KVP 1 va ko'rsatuvchi, o'ziyurar KSP 1. Asbobning o'rtacha remont

qilishgacha bo‘lgan xizmat qilishi vaqtiga 10 yildan kam emas. Asbob ichiga signal beruvchi va boshqaruvchi qurilmalar joylashpirilishi mumkin.

Avtomatik potensiometrlarning texnik xarakteristikalari 6.3- jadvalda keltirilgan.

Termoparaning TEYUK ini aniq o‘lchash va magnitoelektr millivoltmetr hamda avtomatik potensiometrlarni tekshirish uchun o‘zgarmas tokda ishlaydigan laboratoriya potensiometrlaridan foydalaniлади: ko‘chma PP-63 va PP-70; namuna R330, R 371 va boshqa potensiometrlar. Namuna asboblarning annqlik sinfi 0,002 va 0,005 ni tashkil etadi.

### 6.3- жадвал

АВТОМАТИК ПОТЕНЦИОМЕТРЛарНИНГ ТЕХНИК ХАРАКТЕРИСТИКАСИ

Потенциометрлар түри (ўлчаш нуқталари сони)	Шкала характеристикиси Босган йўли вақти, с узунлик, мм	Кувватга ВА чиқиши	Асбобнинг габарит ўлчамлари, мм	Диаграмманинг сияжин тезлиги, мм/соат	Хатолик %	
					ўлчаш ёзувлар	масаси, кг
КСП-4 (1, 3, 6 ва 12)	1, 2, 5 ва 10 250	40	400 × 400 × 367	20; 60, 180; 240, 600; 720; 1800; 2400; 5400, 7200;	0,5 1,0	22
КСП-3/ (бир нуқтани)	5 ва 16 600	60	320 × 320 × 380	24 соатда бир айланиш	0,5 1,0	15
КСП-2 (1, 3, 6 ва 12)	2,5 ва 10 160	30	240 × 320 × 450	20; 40; 60; 120; 240; 600; 1200; 2400;	0,5 1,0	17
КСП-1 (бир нуқтани)	2,5 ва 5,0 100	15	160 × 200 × 500	10; 20; 40; 60 ёки 120	1,0 1,0	12
КПП-1 (бир нуқтани, кўрсатувчи)	2,5 ва 5,0 300	12	160 × 200 × 500	—	0,5	12
КБП-1 кўрсагувчи (1, 6 ва 12)	2,5 ва 10 500	20	240 × 160 × 535	—	0,5 1,0	15

## **5-mavzu: Murakkab texnologik jarayonlarni bugungi zamонавиј математик ifodalash usullari.**

### **Reja:**

1. Texnologik jarayonlarni boshqarishning asosiy prinsiplari.
2. Ochiq konturni boshqarish
3. G‘alayon bo‘yicha boshqarish prinsipi, yopiq boshqarish prinsipi.

### **Kalit so‘zlar:**

Ochiq kontur, g‘alayon, texnologik jarayonlarni boshqarish, rostlovchi parametrlar, boshqariluvchi parametr, asosiy prinsip.

#### **2.1.Texnologik jarayonlarni boshqarishning asosiy prinsiplari.**

Texnologik protsessni tegishli parametrlarini avtomatik rostlovchi priborlar yordamida talab qilingan xolatda ushlab turish **avtomatik-rostlash** deyiladi.

Doimiy yoki ma’lum bir konuniyatda o‘zgaruvchi fizik parametr rostlanuvchi kattalik yoki- parametr deb yuritiladi.

Protsessni boshqarishda chekinishlarni rostlash uchun doimiy ta’sir ko‘rsatilib turiladi, bunday ta’sir boshqaruvchi yoki rostlovchi ta’sir-deyiladi.

Rostlanuvchi parametrni berilgan qiymatidan chetlashtiruvchi va muvozanat xolatini buzuvchi ta’sir, chetlantiruvchi – to‘ydiruvchi ta’sir deyiladi. Bu xolatda ASR da o‘tkinchi beqaror xolat yuzaga keladi. Texnologik protsessi xarakterlovchi o‘zgaruvchilar uchta gruppaga bulinadi.

1.Rostlovchi parametrlar-protsessni o‘tishini xarakterlaydi va uni ma’lum bir mikdorda ushlab turish talab etiladi, (temperatura, satx, va x.k.).

2. Boshqariluvchi parametrlar-bu parametrlar protsessni o‘tishi davomida rejorashtirilgan konuniyatda o‘zgartirib boriladi, (bug sarfi, suvni sarfi, elektro energiya va x.k.).

3.CHetlashtiruvchi ta’sir- bu parametrlar o‘zgarganda texnologik protsessni normal o‘tishib uziladi. Bu aniqlangan parametrlarni bir-biri bilan statik bog‘lanishini aniqlash talab etiladi. Avtomatik boshqariluvchi protsesslar nominal (asosiy) parametrlardan tashkari, ularning parametrlari statik va

dinamik xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Boshqariluvchi (chiqishdagi) parametrlarning boshqaruvchi (kirishdagi) ta'siriga (turgunlashgan) barqaror rejimda bog'liqligi, ob'ektning-statik xaraktristikasi deyiladi.

Masalan:  $U = f(X)$

U-boshqariluvchi (chiqish) parametr

X-boshqaruvchi (kirish) parametr

Boshqarilayotgan ob'ektning boshqaruvchi parametrini o'tkinchi rejimda vaqt ga bog'liq ravishda o'zgarishi, uni dinamik xarakteristikasi deyiladi.

Har bir texnologik jarayon (texnologik jarayon parametrlari deb ataluvchi) o'zgaruvchan fizikaviy va kimyoviy kattaliklar (bosim, sarf, temperatura, namlik, konsentratsiya va xokazo) bilan xarakterlanadi. Texnologik apparatura jarayonning to'g'ri o'tishini ta'minlashi uchun muayyan jarayonni xarakterlovchi parametrlarni berilgan qiymatda saklashi lozim.

Qiymatini stabillash yoki bir tekisda o'zgarishini ta'minlash zarur bo'lgan parametrga *rostlanuvchi kattalik* deb ataladi. Rostlanuvchi kattalikning qiymatini stabillash ma'lum konun bo'yicha o'zgarishini amalga oshirishuchun muljallangan asbob *avtomat rostagich* deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning ayni paytda o'lchanigan qiymati *rostlanuvchi kattalikning ayni qiymati* deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning texnologik reglament bo'yicha ayni vaqt da doimiy saklanishi shart bo'lgan qiymati rostlanuvchi kattalikning berilgan qiymati deyiladi. Texnologik reglament rostlanuvchi kattalikning xozirgi va berilgan qiymatlarini vaqt ning xar bir onida teng bo'lishni talab qiladi. Ammo ichki yoki tashki sharoitlarning o'zgarishi sababli rostlanuvchi kattalikning ayni qiymati berilgan qiymatidan chetga chiqishi mumkin. SHu paytda xosil bo'lgan qiymatlar farqini *xato yoki nomoslik* - deyiladi.

Xato yoki nomoslik nolga teng bo'lgan texnologik jarayon *turg'unlashgan rejim* deyiladi. Turg'unlashgan rejimda moddiy va energetik balanslar kat'iy saklanadi.

Amalda ko'pincha xom ashyoning sarfi va tarkibi, apparatlardagi

temperatura, bosim va xokazolarning o‘zgarishi kuzatiladi. Texnologik jarayonning maqsadga muvofik ravishda okib o‘tishiga teskari ta’sir ko‘rsatuvchi xamda tizimlardagi moddiy va energetik balansini buzuvchi o‘zgaruvchilar G‘alayonlanishlar deb ataladi. G‘alayonlanishlar ta’sirida xato paydo bo‘ladigan texnologik jarayon rejimi turg‘unlashmagan rejim deyiladi. Har bir boshqarish tizimida kirish va chiqish parametrlari (o‘zgaruvchilari) bo‘ladi. Kirish parametrlariga xom ashyoning boshlangich xolatini xarakterlovchi o‘zgaruvchi xamda vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan uskuna parametrlari, texnologik jarayonning okib o‘tishini aniqlovchi o‘zgaruvchilar kiradi. Kirish o‘zgaruvchilari rostlanadigan va rostlanmaydigan bo‘lish mumkin.

Chiqish parametrlariga chiqarilgan maxsulot sifatini (kimyoviy tarkib, zichlik va boshqalar) xarakterlovchi ko‘rsatkichlar, shuningdek, xisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan texnika-iqtisodiy (uskunalarning ishlab chiqarish unumдорligi, maxsulotning tan narxi) ko‘rsatkichlar kiradi.

Tizimning ishlash vaqtida rostlanuvchi kattalikning xozirgi qiymati berilgan qiymatiga mos kelishi uchun tizimga ta’sir ko‘rsatish kerak (boshqariladigan o‘zgaruvchi orqali). Boshqariladigan o‘zgaruvchi tizim boshqaruv ta’sirining (xom ashyoning sarfi, tarkibi va boshqalar) sonli xarakteristikasidir.

Shunday qilib, sanoatning eng muxim talablaridan biri- texnologik jarayonning turg‘unlashgan rejimini saklashdan iborat. Moddiy va energetik balansga rioya qiladigan mashina yoki apparat ***rostlanuvchi ob’ekt*** deyiladi.

Texnologik jarayonlarni avtomatik Boshqarishning vazifasi rostlagich yordamida rostlanuvchi ob’ektdagi kerak bo‘lgan texnologik sharoitni avtomatik ravishda saklash, agar bu sharoit buzilsa, uni qayta tiklashdan iboratdir. Avtomatik rostlash vaqtida (rostlanuvchi ob’ektga rostlagichning ta’siri tufayli) rostlanuvchi kattalikning ayni qiymati berilgan qiymatga teng yoki shunga yaqin bo‘ladi.

Avtomatik tizimlar bir-birlari bilan ma’lum ketma-ketlikda bog‘langan bo‘lib, xar biri tegishli vazifani bajaruvchi aloxida elementlardan iborat. Mustakil funksiyani avtomatik tizim tarkibining biror qismi *avtomatika elementi* deyiladi.

Avtomatika elementlarini ularning funksional vazifasiga kura tasniflash maqsadga muvofik. Avtomatik tizim elementlarining tarkibiga kiruvchi funksional boshlanishni ifodalovchi sxema ***funktional sxema*** deb ataladi. Bundan tashkari, shu avtomatik tizimni turli dinamik xususiyatlariga ega bo‘lgan va bir-birlari bilan bog‘langan soda bug‘inlar shaklida tasvirlash xam mumkin. Bu xolda avtomatik tizimning sxema bug‘inlarning bog‘lanishini aks ettiradi va tizimning tuzilish sxemasi deyiladi.

Rostlanuvchi ob’ekt va avtomatik rostlagich birligi avtomatik rostlash tizimni (ART) tashkil kilib, rostlash konturi nomli berk zanjirni xosil qiladi. Bu zanjir ARTning tuzilish sxemasiga emas, balki funksional sxemasiga tegishli.

## **2.2. Ochiq konturni boshqarish**

O‘zgarilayotgan yoki boshqarilayotgan kattalikni talab qilinayotgan qonuniyat asosida boshqarishni ta’minalash ABT ning uch xil turlicha bo‘lgan tuzilishi asosida: **ochiqssikl bo‘yicha, yopiqssikl bo‘yicha va mujassamlashgansikl bo‘yicha** amalga oshiriladi.


1. Ochiqssikl bo‘yicha boshqarilishning tartibi belgilangan qonuniyat asosida sozlash boshqarish ta’sirlarini bevosita o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshirishdan iborat.

2. YOpiqssikl bo‘yicha boshqarilganda. Teskari bog‘lanishdan foydalanilgan holda, boshqaruvchi ta’sir bilan o‘zgarayotgan kattalikning haqiqiy qiymatini solishtirilib, belgilangan qonuniyat asosida bajariladi.


3. Mujassamlangansiklida esa ochiq va yopiqssikl boshqarish qonuniyatları o‘zaro moslashgan holatda amalga oshiriladi.

Xuddi shu uch xil qonuniyatdagи boshqarish faoliyatini aniq misollarda ko‘rib chiqaylik (5-rasm). Har uchala tizim ham berilgan signalni ma’lum bir masofadan uzatishga mo‘ljallangandir. (a, b, v,). (a) rasmda ko‘rsatilgan ochiqssikl tizimida1 potensiometr siljiganda, (qandaydir kattalikka) elektron kuchaytirgich 2- ning chiqishida U kuchlanish paydo bo‘ladi. Kuchaytirilgan kuchlanish U generatorning qo‘zg‘atish cho‘lg‘amida qo‘zg‘atish toki  $i_b$  ni hosil qiladi. Generato 4


elektordvigatel 5 orqali xarakatga keltirilib, tokning qiymatini  $i_g$ - gacha oshiradi. Generator kuchlanishi U 6 solenoidning cho'lg'amiga kelib, uni yakorini tepaga ko'taradi.



a)



b)



v)


a) ochiqssikldagi tizim; b) yopiqssikldagi tizim; v) mujassamlanganssikldagi tizim.

Bunday yakorni ko'tarilishi toki elektromagnit maydon kuchi prujina kuchiga teng bo'lgunga qadar davom etadi. SHunda potensiometr 7 ning cho'tkasi ham kattalikka siljib, 8 lineyka yordamida o'lchanishi yoki chiqishdagi kuchlanish U<sub>chiq</sub>

ni qiymatini ko'rsatuvchi grafik orqali chiqishdagi potensiometrdan olinadi  $=f(U_{\text{chiq}})$ .

Dinamik xatolarni kamaytirish maqsadida mujassamlashgansiklida ishlovchi ABT lardan foydalilanadi (v-rasm). Bunda reduktor 9- taxogenerator 10 tizimning ochiqssiklini tashkil etadi, qolgan elementlarni esa yopiqssiklini beradi. Taxogenerator 10 koorreksiyalovchi zanjir bilan birligida chiqishdagi signal  $I_{\text{chiq}}$  ni fazasidan jihatdan kech qolishini – kompensatsiyalaydi. Bunda  $I_{\text{kir}}$  va  $I_{\text{chiq}}$  signallar amplituda jihatidan deyarli teng bo'lganliklari sababli 1 xatolik nisbatan kamdir (b-rasm).

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, avtomatik boshqarish tizimi deb shunday dinamik tizimga aytildiği, ularda enerjiya manbaları ustidan boshqarish boshqaruvchi ta'sir signali hamda boshqarilayotgan kattalikning haqiqiy qiymatlari soolishtirilib shu yordamida amalga oshiriladi.



Bu chizmada: 1-topshiriq (signal) beruvchi qurilma; 2,4,5 – kuchaytirish elementlari; 6 – bajaruvchi element; 3 – ketma-ket faoliyat ko'rsatuvchi qurilma; 7- boshqarish ob'ekti; 9-o'lchash elementi

**Chetga chiqishlar bo'yicha rostlash.** CHetga chiqishlar bo'yicha rostlash prinsipidan birinchi marta (1765yili) I.I. Polzunov uzi yaratgan buF mashinasi kozonidagi suv satxini rostlash tizimida foydalangan. 1784 yilda J.Uattxam buF mashinasi valining aylanish tezligini-rostlash tizimida shu prinsipni qo'llagan.

Polzunovning kalkovichli rostlagichi va Uattning markazdan qochma rostlagichida bir-biridan mustakil ravishda bir prinsip kullanilgan va bu prinsip Polzunov-Uatt rostlash prinsipi (yoki chetga chiqishlar bo'yicha rostlash prinsipi) nomini olgan. Bu prinsipning moxiyati shundaki, rostlash jarayonida rostlagich

rostlanuvchi ob'ektga rostlanuvchi kattalikning xozirgi va berilgan qiymatlari orasida tengsizlik xosil bo'lgandagina uz ta'sirini ko'rsatadi. Bu prinsipni amalgamoshiruvchi avtomatik tizim berk tizimdir, chunki signal rostlanuvchi ob'ektning chiqish qismidan tengsizlikni qayta ishlab ob'ektning kirishiga ta'sir ko'rsatuvchi avtomatik rostlagichning kirish qismiga keladi. O'lchovning chetga chiqish qiymatini kuchaytirish tizimni murakkablashtirishga olib keladi. Xatoning kanday G'alayonlanishlar ta'sirida paydo bo'lishdan kat'iy nazar, avtomatik rostlagichning bu xatoni qayta ishlashi ushbu tizimning afzalligi xisoblanadi. Bu xususiyat muxim axamiyatga ega, chunki sanoatdagi rostlanuvchi ob'ektlarga kanday G'alayonlanishlar ta'sir qilishini avvaldan bilish mumkin.

Chetga chiqishlar bo'yicha rostlash prinsipini amalgamoshiruvchi ARTlarning yana bir afzalligi bitta rostlovchining ta'sirida bir nechta G'alayonlanishlarning zararli okibatini yoqotish mumkinligidadir. Bu prinsipning kamchiligi shundaki, G'alayonlanish paydo bo'lish bilan ular boshqariluvchi parametrga ta'sir qilmay, balki rostlanuvchi ob'ektning dinamik xususiyatlariga bog'lik bo'lgan vaqt o'tgandan so'ng ta'sir ko'rsatsa, avtomatik rostlagich biroz kechikib ta'sir ko'rsatadi, shu sababli rostlanuvchi parametr belgilangan qiymatidan anchagini chetga chiqishga ulguradi. Bu xollarda rostlovchining ta'sirini jadallashtiruvchi avtomatik rostlagichlar yaratish yo'lidan borish mumkin. Ammo bunday rostlagichlar tengsizlikni butunlay kompensatsiya kilibgina kolmay, balki uning teskari yo'nalishda rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli chetga chiqishlar bo'yicha ishlaydigan ARTlari uchun rostlanuvchi parametr qiymatining berilgan qiymatga nisbatan tebranishlari bilan ifodalanuvchi oralik jarayonlar xarakterlidir. Chetga chiqishlar bo'yicha ishlaydigan ARTlarni shunday loyixalash kerakki, bu tebranishlar sunuvchi xususiyatga ega bo'lib, xatoning qiymati nolga (yoki minimumga) etsin.

### **2.3. G'alayon bo'yicha boshqarish prinsipi, yopiq boshqarish prinsipi.**

**G'alayonlanish bo'yicha rostlash.** 1830 yilda fransuz matematigi Ponsele G'alayonlanish (yuk) bo'yicha rostlash prinsipini (Ponsele prinsipi) ta'riflab bergan. Ijro etuvchi mexanizm rostlovchi organining ob'ekt yuki ta'sirida xarakatga

keladigan rostlash tizimi ***g‘alayonlanish bo‘yicha*** ART deyiladi.

G‘alayonlanish bo‘yicha rostlash sezilarli tengsizlik paydo bo‘lishdan avvalrok G‘alayonlanishning zararli ta’sirini yo‘kotishga imkon beradi. Avtomat rostlagich bunday tizimlarda fakat konkret G‘alayonlanish ta’siriga javoban xarakatga keladi. Rostlanuvchi ob’ektga esa bir necha G‘alayonlanishlar ta’sir qilishi mumkin. Rostlanuvchi ob’ektga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan G‘alayonlanishlar soni nechta bo‘lsa, bu ob’ekt shuncha avtomat rostlagichlar bilan ta’minlanishi kerak degani.

Rostlanuvchi ob’ekt xaqida aniq ma’lumotlarsiz uni g‘alayonlanish bo‘yicha rostlash mumkin bo‘lmaydi.

Agar xom ashyo xossalaring o‘zgarishi avvaldan ma’lum bo‘lsa, xom ashyo zaxirasi va turli aralashtirgichlardan foydalanib ta’minalashning tarkibi saklanadi, yoki xom ashyo xossalaring o‘zgarishiga yo‘l quyib, jarayonga berilgan vazifani o‘zgartirish yo‘li bilan chiqish parametrlarining oimiyligi saqlanadi. G‘alayonlanish bo‘yicha rostlash tizimida rostlash sifati jarayon parametrlarining avvaldan berilgan ma’lumotlarning aniqligiga bog‘liq. Bu tizimlar asosiy g‘alayonlanishlari ma’lum va o‘lchovli bo‘lgan ob’ektlar uchun kulay. YUK bo‘yicha rostlashda vaqt ning xar bir onida uzatish va iste’mol qilish o‘rtasidagi tenglikni ta’minalash juda qiyin.

ART bilan G‘alayonlanish kompensatsiyasining xususiyati-ular ochiq rostlash tizimlaridan iborat ekanligidir. Bu tizimlarda rostlanuvchi parametr bilan avtomat rostlash o‘rtasida aloqa yo‘q. Bunda yopiq rostlash tizimlarining kamchiligi rostlagich ishi va natija orasida aloka yo‘kligida. Vaqt o‘tishi bilan tizimda paydo bo‘lgan eng kichik xato xam rostlanuvchi kattalikning chetga chiqishiga olib keladi. SHuning uchun, yuqori darajada aniqlikka ega bo‘lgan rostlagichlar yaratish zarur bo‘lib, buni amalga oshirish katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq.

### **Nazorat savollari**

1. Rostlash ob’ektlarining o‘tish xarakteristikalariga ta’rif bering;;
2. O‘tish xarakteristikalarini qanday usullar orqali olinadi?
3. O‘z-o‘zini to‘g‘irlovchi bir sig‘imli rostlash ob’ektlarining o‘tish

xarakteristikasining taxlilini aytib bering;

4. O‘z-o‘zini to‘g‘irlamaydigan bir sig‘imli rostlash ob’ektlarining o‘tish xarakteristikasning taxlilini aytib bering;
5. Ko‘p sig‘imli rostlash ob’ektlarining o‘tish xarakteristikalarini taxlilini aytib bering;
6. Rostlash ob’ektining impuls xarakteristikalariga ta’rif bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Wolfgang Altmann, Practical Process Control for Engineers and Technicians: Jordan Hill, Oxford 2005, 304 p.
2. Ad Damen Modern Control Theory Prentice Hall 2002 460 s.
3. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish: Darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2011.-576 b.
4. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G‘ulomov SH.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari: Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015- 704 b.
5. Иванова Г.В. Автоматизация технологических процессов основных химических производств. Методические материалы по курс лекций.-С.Пб.: Петербургский ГТУ, 2008.- 238с.
6. Шувалов В.В. Огаджанов Г.А., Голубятников В.А. Автоматизация производственных процессов в химической промышленности: Учебное пособие.- М.: Химия, 2011.-480с.
7. Кафаров В.В., Макаров В.В. Гибкие автоматизированные системы в химической промышленности: Учебник.- М.: Химия, 2016.- 320с.

## **Zamonaviy avtomatik boshqarishning nazariy va algoritmik asoslari va amalga oshirish usullari.**

### **Reja:**

1. Nazoratning asosiy tushinchalari.
2. Avtomatlashirish bosqichlari.
3. ABSlarning klassifikatsiyasi.
4. Ishlab ish jarayonlarini nazorat qilish va vizuallash tizimlari

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

Texnologik operatsiya, element, mashina yordamisiz, qo‘l operatsiyalari, tikuv mashinalari, jarayon, yordamchi jarayonlar, asosiy jarayon, sintetik jarayon, analitik jarayon, chiziqli jarayon, parallellik, proporsionallik prinsipi, avtomatlashgan operatsiyalar.

#### **1. Nazoratning asosiy tushinchalari.**

Har qanday korxona faoliyatining asosiy ishlab ish jarayoni tashkil etadi. SHu sababdan, korxona muvaffaqiyati ana shu jarayonni qanday tashkil etilishiga bog‘liqdir. Ishlab ish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uning samaradorligini oshiradi, moddiy xarajatlarni kamaytiradi, mehnat sarfini qisqartirib, tannarxini pasaytiradi. SHu o‘rinda ishlab ish jarayoni haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab ish jarayoni - mahsulot ishlab ish uchun mazkur korxonalar va mehnat qurollari harakatlarining majmuidir yoki boshqacha qilib tarif berilsa, ishlab ish jarayoni insonning mehnat qurollari yordamida mehnat buyumlariga maqsadga muvofiq ta’siridir.

Ishlab chiqarish jarayoni uch elementdan tashkil topadi. 1. Mehnat buyumlari (xom ashyo, materiallar).

2. Mehnat vositalari (jihozlar va uskunalar). 3. Mehnat (inson faoliyati).

Ishlab ish jarayoni texnologik jarayonlar va yordamchi jarayonlardan tashkil topadi.

Texnologik jarayon buyumlar xolatini o‘zgartirishga qaratilgan ishlab ish jarayoni bir qismidir. Texnologik jarayon texnologik operatsiyalar yiindisidan iborat.

Texnologik operatsiya ish o‘rnining ishlov berilayotgan mahsulotning va ishchining o‘zgarmasligi bilan xarakterlanadi. Ana shu elementlardan birontasining o‘zgarishi bir operatsiya tugab ikkinchisi boshlanganidan dalolat beradi.

**Qo‘llaniladigan jihozlarga ko‘ra texnologik operatsiyalarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:**

1. Qo‘l operatsiyalari (mashina yordamisiz qo‘lda bajariladi).
2. Mashina qo‘l operatsiyalari (ishchi va mashinalar yordamida bajariladi. Masalan: tikuv mashinalarida bajariladigan operatsiyalar).
3. Mashina operatsiyalari (jarayon ishchining ishtirokisiz bajariladi, ishchining funksiyasi jihozni ishga tayyorlashdan iboratdir. Masalan: tokorlik stanoklarida bajariladigan operatsiyalar).
4. Avtomatlashgan operatsiyalar (ishchining ishtirokisiz amalga oshiriladi). Ishlab ish jarayoni turli xil ko‘rinish va xarakterga ega bo‘lgan qismiy jarayonlardan tashkil topadi. Barcha qismiy jarayonlar asosiy va yordamchi jarayonlarga bo‘linadi.

Xom ashyoning shakli va xolatini bevosita o‘zgartirib, yangi mahsulot yaratadigan jarayon asosiy ishlab ish jarayonidir (kiyimlarni bichish, tikish, dazmol bosish; avtomobilp qismlarini yiish va h.k.). O‘z navbatida asosiy jarayonlar mehnat va tabiiy jarayonlarga bo‘linadi.

Ishlov berilayotgan buyumlarning shakl, o‘lcham, fizikaviy - ximiyaviy xususiyatlarining o‘zgarishi bevosita insonning maqsadga muvofiq ta’sirida ro‘y bersa ushbu jarayon mehnat jarayoni hisoblanadi.

Tabiiy kuchlar ta’sirida amalga oshiriladigan jarayonlar tabiiy jarayonlardir. Masalan, tabiiy qurish, ko‘pish;

Asosiy jarayonlar bilan bir qatorda ishlab ish jarayonida yordamchi jarayonlar ham mavjud. YOrdamchi jaaryonlar asosiy jarayonlarning uzlucksizligini ta’minlash uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. YOrdamchi jarayonlarga texnologik asbob - uskunalar tayyorlash, jihozlarni ta’mirlash, mahsulot sifatini nazorat qilish, transportirovka, moddiy boyliklarni saqlash

jarayonlarini misol qilish mumkin. SHuni esda to‘tish kerakki, ishlab ish xarakteri bilan korxona tashkiliy tuzilmasi orasida chiziqli bo‘linish yo‘q. CHunki asosiy sexlardan nafaqat asosiy jarayonlar, balki yordamchi jarayonlar ham bajariladi va aksincha.

### **Xarakteriga ko‘ra ishlab ish jarayoni sintetik, analitik, chiziqli jarayonlarga bo‘linadi.**

1. Sintetik jarayonlarda turli xil xom ashyo va materiallardan bir turdag'i mahsulot ishlab chiqiladi (kostyum tikish- asosiy mato, astarlik mato, ip, tugma va h.k.).
2. Analitik jarayonlarda bir turdag'i materiallardan turli xildagi mahsulot ishlab chiqariladi (paxtadan-paxta ip, chigit; neftidan- turli xil yonilg'i mahsulotlari).
3. CHiziqli jarayonlarda bir xil xom ashyodan bir xil maxsulot ishlab bo‘ladi (doskalar tayyorlash).

Korxona faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan ishlab ish jarayonini qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Ishlab ishni tashkil etishga quyidagi talablar qo‘yiladi.

- xususiy jarayonlar o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlash,
- ishlab ish quvvatlarida zaruriy proporsionallikni ta’minlash. – mehnat buyumlarini samarali harakatini yo‘lga qo‘yish,
- mahsulot ishlab ish muddatini qisqartirish,
- ishlab ish vositalaridan va ishchi kuchidan samarali foydalanib bir maromda mahsulot ishlab ishni ta’minlashga erishish,
- ishlab ish jarayonida xarajatlar iqtisodiga erishish.

Ana shu talablarni bajarishda ishlab ishni samarali tashkil etishning prinsiplariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:**

1. **Parallelilik** (texnologik jarayonlarni parallel bir vaqtda bajarish). Bunda barcha texnologik jarayonlar kichik qismlarga bo‘linib ish o‘rinlariga taqsimlanadi

va bir vaqtda birdaniga bajariladi.

**2. Uzluksizlik.** Ushbu prinsip barcha texnologik operatsiyalarni uzliksiz ravishda amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Bu shart quyidagi shartlarda bajariladi:

- barcha ish o‘rinlarida bir xil turdag'i ya’ni unumdorligi teng bo‘lgan mashina va jihozlarning mavjudligi,
- operatsiyalardan uzatishning uzluksizligini ta’minlash, - moddiy texnika ta’mintonini yaxshilash.

Uzluksizlik prinsipiga amal qilish ishlab ish vositalari, ishchi kuchi va ish vaqtidan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

### **3. Proporsionallik prinsipi.**

Ushbu prinsip ishlab ish bo‘limlarini ishlab ish quvvatiga moslashtirish, qismiy ishlab ish jarayonlarini texnologik marshrutga moslashtirishni ko‘zda tutadi va ishlab ishning barcha bosqichlarida zaruriy hajmdagi mahsulotlarni bir vaqtda ishlab ishni ta’minlaydi.

SHarti - ishlab ish jarayonining barcha qismlarining proporsionalligiga erishishidir.

Ushbu shartssehdagi ish o‘rinlariga ham,ssex va uchastkalari uchun ham birdek tegishli. Masalan: ikki ketma-ket operatsiyaning mehnat siqimi  $T_1=10$  min, $T_2=20$  min.ssex bo‘yicha operatsiyalarni bajarish o‘rtacha vaqt 5 min. U holda 1-operatsiyada 2 ish o‘rni (10:5), 2-operatsiyada esa (20:5) 4 ish o‘rnini tashkil etish lozim.

Ishlab ish jarayonining orasida korporatsyanallikning buzilishi korxona faoliyati maromiyligining buzilishiga; jihozlarning to‘xtab qolishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ishlab ish samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

**4. Aniqlilik prinsipi** detal, mahsulotlarning ish o‘rinlari bo‘yicha qisqa, aniq xarakatini tanlashni ko‘zda tutadi.

Ish o‘rinlarini texnologik jarayon ketma-ketligida joylashtirish orqali yuqori aniqlikka erishish kerak.

Maromiylik prinsipini ma’lum bir xil vaqt oralig‘ida bir maromda mahsulot

ishlab ishni ta'minlashni ko'zda tutadi.

### **3.2.Avtomatlashtirish bosqichlari.**

Kibernetika fanining asoschisi, amerikalik matematik N.Viner X asr soatlar asri, XXasr bug' mashinalari asri, hozirgi payt esa aloqa va boshqarish asri deb ta'kidlagan edi. «Zamonamiz texnikasi murakkab kompleks tizimlardan foydalanish bilan tavsiflanib, ularda inson diqqati va xotirasi erisha olmaydigan tezlik va aniqlik bilan muvofiqlashtirish, boshqarish va tartibga solishni talab qiluvchi juda ko'p sonli va xilma xil moddiy, energetik va axborot oqimlari chirmashib ketgan.

Boshqarishning bunday masalalarini amalga oshirish hisoblash texnikasi negizida faqat avtomatlashtirishning texnik vositalaridan foydalanibgina bo'lishi mumkin. Sanoat avtomatlashtirishi kompyuter tizimlarining texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari (TJABT) rivojlanishini uchta yirik bosqichga ajratish mumkin. TJABTni yaratishning birinchi bosqichi birinchi avlod EHM lardan foydalanish bilan bog'liq, masalan, «Ural», «UM-1», «Minsk» kabi EHM lar.

Ikkinchi bosqichda IBM, EC EHM, mini kompyuterlar (DEC, CM EHM va b.) turidagi meynfreymlar qo'llanilgan edi. Bu bosqichlarda boshqarish tizimlari markazlashgan tuzilishga ega bo'lib, ko'pincha real vaqt rejimida etarlicha tezkorlik va ishslashni ta'minlay olmasdi. O'sha vaqt dagi kompyuterlar element bazasi va dasturiy ta'minoti mukammal bo'limgani sababli ishonchliligi past edi, shu sababli ko'pincha ishdan edi. Mikro elektronikadagi muvaffaqiyatlar, mikroprosessorlarning paydo bo'lishi 80-yillarning boshlarida boshqarish tizimining tuzilish texnikasida inqilobi o'zgarishlarni amalga oshirdi, sanoat ishlab chiqadigan kompyuterlashtirishning va avtomatlashtirishning mutlaqo yangi texnik vositalarini yaratishning uchinchi bosqichini ochib berdi. Mikroprosessorlar avtomatlashtirish va nazoratning ayrim vositalari tarkibiga kira boshladи. Ayrim qurilmalar o'rtasida ma'lumotlarni raqamli uzatish hisoblash tarmog'ini boshqarish tizimlarini qurishga asos qildi. Ma'lumotlarga ishlov berishning ayrim qurilmalari orasidagi raqamli aloqani ko'zda tutuvchi yangi tuzilishdagi texnologik jarayonni

boshqarish tizimi markazlashtirilmagan- MTJABT yoki taqsimlangan – TTJABT degan nomni oldi.

XX asrning 70- va 80-yillarida etakchi jahon avtomatlashtirish vositalari ishlabuvchilari TJABTni qurish uchun dasturli-apparaturali vositalar to‘plamini ishlab boshladilar. Bunday to‘plamlarning asosiy belgilari ularning moslashuvchanligi, yagona tizimda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyatiga egaligi, interfeyslarning standartlashtirilishi butun TJABTni faqat mazkur to‘plash vositalaridan qurishga imkon beruvchi funksional to‘lalik. Bunday vositalar to‘plami dasturiy-texnik majmualar (DTM) nomini oldi. Zamonaviy TJABTni yaratishda jahon integratsiyasi va texnik echimlarni unifikatsiyalash kuzatilmoqda. Ishlabuvchi firmalar o‘z imkoniyatlarini boshqalardan yaxshiroq qila olishlariga qaratmoqdalar, boshqa so‘zlarda eng yaxshi jahon yutuqlarini o‘zlashtirib, shu bilan tizimli integratorlar bo‘lib qolmoqdalar.

Zamonaviy boshqarish tizimlarining asosiy talabi-bu tizimning ochiqligidir. Agar tizim uchun foydalaniladigan ma’lumotlar formatlari va tadbirlar (proseduralar) interfeysi aniqlangan va tavsiflangan bo‘lsa, bunday tizim ochiq deb hisoblanadi, bo‘lsa unga «tashqi» mustaqil ishlab chiqilgan komponentlarni ularash imkonini beradi. IBM PC arxitekturasi avtomatlashtirish soxasida etakchi o‘rinni egallaydi. Keyingi yillarda avtomatlashtirishning texnik vositalari bozori tubdan o‘zgardi. Avtomatlashtirish vositalari va tizimlarini ishlab chiquvchi juda ko‘p firmalar yaratildi. Mashhur asbobsozlik zavodlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari nomenklaturasini o‘zgartirdi. Avtomatlashtirishning texnik vositalari bozorida ishlovchi tizimli integratorlar-ko‘pgina mas’ul firmalar paydo bo‘ldi. 90-yillarning boshidan avtomatlashtirishning texnik vositalarini ishlabuvchi etakchi xorijiy firmalar o‘z vakolatxonalari, firmalari, qo‘shma korxonalari, firma dilerlari orqali ko‘p mamlakatlariga o‘z mahsulotlarini keng joriy qila boshladilar. Zamonaviy boshqaruva texnikasi bozorining jadal rivoj va tez harakati avtomatlashtirishning texnik vositalarining zamonaviy holatini aks ettiruvchi adabiyotlar paydo bo‘lishini talab etadi. Hozirgi vaqtida firmalarni avtomatlashtirish vositalari to‘g‘risidagi zamonaviy tarqoq xarakterga ega va asosan davriy matbuotda

yoki I global INTERNET tarmog‘ida zavodlar va ishlabuvchilarning saytlarida yoki maxsus axborot portallarida, masalan, [www.asupt.ru](http://www.asupt.ru), [www.mka.ru](http://www.mka.ru), [www.industrialauto.ruda](http://www.industrialauto.ruda) taqdim etilgan. Hozirgi paytda ko‘pchilik texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish universal mikroprosessorli kontroller vositalari negizida amalga oshirilmoqda, ularni dasturiy-texnik majmua (DTM) deb ataladi.

Dasturiy-texnik majmular avtomatlashtirishning mikroprosessorli vositalari yig‘indisidan (mikroprosessorli kontrollerlar, ob’ekt bilan aloqani o‘rnatuvchi moslamalari OAO‘M), operatorning displayli pulbtlari va turli vazifalarni bajaruvchi serverlar, sanoat tarmoqlaridan iborat bo‘lib, ular kontrollerlarning dasturiy ta’mnotinining va operator displayli pulbtlarining sanab o‘tilgan komponentlarini bog‘lashga imkon beradi. DTM birinchi navbatda, sanoatning eng xilma-xil soxalarida turli axborot quvvatiga ega (o‘nlab kiruvchi-chiquvchi signallardan yuz mingtasigacha) texnologik jarayonlarning taqsimlangan boshqarish tizimlarini yaratish uchun mo‘ljallangan. Kichik o‘lchamli va tez ishlovchi mikro kontrollerlarni yaratish uchun element asosining yaxshilanishi, boshqaruvchi hisoblash tarmoqlari puxtaligining ortishi, sanoat kontrollerlari va operatorlar stansiyalari uchun samarali dasturiy ta’mnotinning ishlab chiqilishi DTM ning keng tarqalishiga ko‘p jihatdan imkoniyat yaratdi. Hozirgi paytda Rossiya bozorida, shu erda va xorijda ishlab chiqilgan yuzdan ortiq DTM tarqalgan.

Barcha universal mikroprosessorli DTM lar sinflarga ajratilib, ularning har biri bajariladigan vazifalarning ma’lum to‘plamiga va boshqarish ob’ekti to‘g‘risida olinayotgan va ishlov berilayotgan axborotning tegishli hajmiga mo‘ljallangan.

**Bu yo‘nalish keyingi paytda tubdan rivojlandi, bu birinchi navbatda quyidagi sabablar bilan izohlanadi:**

- RS ning ishonchlilikni oshirish;
- odatdagи va sanoatda ishlabilgan shaxsiy kompyuterlarning ko‘p modifikasiyalari mavjudligi bilan;
- ochiq arxitekturadan foydalanish;
- uchinchi firmalar ishlabayotgan istagan kirish/chiqish (OAO‘M modullari) bloklarini ularni osonligi;

- ishlab tayyorlangan dasturiy ta'minotning keng nomenklaturasidan foydalanish mumkinligi (real vaqt operatsion tizimlari, ma'lumotlar bazasi, nazorat qilish va boshqarishning tatbiqiy dasturlari paketlari).

RS negizidagi kontrollerlar, odatda, sanoatda uncha katta bo'lmagan berk ob'ektlarni boshqarish uchun, tibbiyotda mahsus avtomatlashtirish tizimlarida, ilmiy laboratoriyalarda, kommunikatsiya vositalarida foydalilanadi. Bunday kontrollerning kirish-chiqishlari umumiyligi soni odatda bir necha o'nlikdan oshmaydi, vazifalari to'plami esa bir nechta boshqaruvchi ta'sirlarni hisobga olgan holda o'lchash axborotiga murakkab ishlov berishni ko'zda tutadi. RS negizidagi kontrollerlarning rasional qo'llanish soxasini quyidagi shartlar bilan izoxlash mumkin:

- boshqarish ob'ektining kirish va chiqishlari uncha ko'p miqdorda bo'lmaganda etarlicha kichik vaqt oralig'ida katta hajmdagi hisoblash bajariladi (qayta hisoblash quvvati zarur);
- avtomatlashtirish vositalari ofisdagi shaxsiy kompyuterlarning ishlash sharoitidan ko'p farq qilmaydigan atrof muhitda ishlaydi;
- kontroller amalga oshiradigan vazifalarni (ular nostandard bo'lgani sababli) maxsus texnologik tillarning birida emas, balki yuqori darajadagi odatdagи dasturlash tilida, S++, PASKAL va h.k. da dasturlash maqsadga muvofiqdir; oddiy kontrollerlar ta'minlaydigan kiritik sharoitlarda ishni amalda kuchli apparat qo'llab-quvvatlash talab qilinmaydi. Bunday qo'llab-quvvatlashning vazifalariga quyidagilar kiradi: hisoblash qurilmalariishni chuqur tashxisi, avtomat zaxiralash choralar, shu jumladan kontrollerlarishni to'xtatmasdan nosozliklarni bartaraf etish; avtomatlashtirish tizimi ishlagan vaqtida dasturiy komponentlar modifikatsiyasi va hokazo.

RS negizida kontroller bozorida O'zbekistonda quyidagi kompaniyalar ishlamoqda: Honeywell, Siemens, emerson elektric, ABB, Alien Bradley, Ge Fanuc va boshqalar.

Hozirgi paytda sanoatda lokal kontrollerlarni bir necha turlari foydalilanadi:

- qurilma ichiga o'rnatiladigan va uning ajralmas qismi bo'lib hisoblangan. Bunday

kontroller Sonli Dasturiy Boshqarish SDB li stanokni boshqarish, zamonaviy intellektual analitik asbobni, avtomashinasini va boshqa qurilmani boshqarish mumkin.

- avtonom (aloxida), uncha katta bo‘lman etarlicha izolyasiyalangan texnologik ob’ektni, masalan, tuman qozonxonalarini, elektr kichik stansiyalarini nazorat va boshqarish vazifalarini amalga oshirish. Avtonom kontrollerlar atrof muhitning turli xil sharoitlarini mo‘ljallangan himoyalangan korpusga joylashgan. Deyarli doim bu kontrollerlar «nuqta-nuqta» rejimida boshqa apparatura va interfeyslarga ulanish uchun portlarga ega bo‘lib, ular tarmoq orqali ularni boshqa avtomatlashtirish vositalari bilan bog‘lashi mumkin.

Kontrollerlarga alfavit-raqamli display va funksional klavishalar to‘plamidan iborat maxsus interfeys paneli operatori bilan o‘rnatiladi yoki unga ulanadi. Mazkur sinf kontrollerlari, odatda, uncha katta bo‘lman yoki o‘rtacha hisoblash quvvatiga ega. Quvvat prosessoring xonaliligiga va chastotasiga, shuningdek, operativ, doimiy hotirasi hajmiga bog‘liq bo‘lgan kompleks tavsifdan iborat.

Lokal kontrollerlar ko‘pincha datchiklardan va ijrochi mexanizmlardan kelayotgan o‘nlab kirish-chiqishlarga ega. Kontrollerlar o‘lhash axborotga ishlov berish, blokirovkalash, rostlash va dasturiy-mantiqiy boshqarish kabi eng oddiy umumiy vazifalarni amalga oshiradi. Ularning ko‘pchiligida axborotni boshqa avtomatlashtirish tizimlariga uzatish uchun bitta yoki bir nechta tabiiy portlari bo‘ladi. Bu sinfda avariyyaga qarshi himoyalash tizimi uchun mo‘ljallangan loalkontrollerlarning maxsus turini ajratib ko‘rsatish lozim. Ular ayniqsa yuqori puxtaligi, to‘liqligi va tez ishlashi bilan ajralib turadi. Ularda nosozliklarni aloxida platalarga lokallashtirish bilan to‘la joriy tashxis qilishning turli xil variantlari, ayrim komponentlarini ham, umuman butun qurilmani ham zaxiralash ko‘zda tutiladi.

### **Zahiralashning quyidagi usullari eng ko‘p tarqalgan:**

- ayrim komponentlar va yoki umuman kontrollerlarni issiq zaxirasi (test ishchi kontrollerdan o‘tmaganda boshqaruv ikkinchi kontrollerga o‘tadi);
- guruhni tashkil qiluvchi barcha kontrollerlarning signallarga ishlov berish

natijalariga ko‘ra, asosiy komponentlarning yoki umuman kontrollerning «ovoz berish» bilan o‘lchanishi (chiqish signali uchun guruhdagi ko‘pchilik kontrollerlar bergen signal qabul qilinadi, boshqacha natija bergen kontroller esa nosoz deb e’lon qilinadi);

- «juft va zaxira» tamoyili bo‘yicha ishlash. Bir juft kontroller natijalarga «ovoz berish» bilan parallel ishlaydi va xuddi shunga o‘xhash juft qaynoq zaxirada turadi. Birinchi juftlikning ish natijalarini farq aniqlansa, boshqaruv ikkinchi juftga o‘tadi; birinchi juft test sinovidan o‘tkaziladi va yoki tasodifiy buzilish mavjudligi aniqlanadi va boshqaruv birinchi juftga qaytariladi, yoki nosozlik tashxis qilinadi (tekshiriladi) va boshqaruv ikkinchi juftlikda qoladi.

Tarmoq DTM lari barcha sanoat tarmoqlaridan ishlab ish jarayonlarini boshqarish uchun juda keng miqyosida qo‘llaniladi. Mazkur sinfdagi **DTMning minimal tarkibi quyidagi komponentlarning bo‘lishini nazarda tutadi:**

- kontrollerlar to‘plash;
- bir nechta operatorlarning displayli ishchi stansiyalari; kontrollerlarni bir-biri bilan va kontrollerlarni ishchi stansiyalar bilan biriktiruvchi tizimli(sanoat) tarmog‘i.

Har bir tarmoq majmuidagi kontrollerlar, odatda bir-biridan tez ishlashi, xotira hajmi, zaxiralash bo‘yicha imkoniyatlari, atrof muhitning turli xil sharoitlarida ishlash qobiliyati, kirish-chiqish kanallari soni bilan farq qiluvchi bir qator modifikatsiyaga ega. Bu tarmoq majmuasidan turli xil texnologik ob’ektlar uchun foydalanishni engillashtirishda, chunki kontrollerlarni avtomatlashtirilgan ob’ektning ayrim elementlariga va nazorat xamda boshqarishning turlari va zifalariga moslab yanada aniq tanlab olishga imkon beradi. Displayli ishchi stansiyalar (operatorpulbtlari) sifatida deyarli har doim odatdagisi yoki sanoatda ishlab chiqilgan, ko‘pincha ikki xildagi klaviaturalar (an’anaviy alfavitli-raqamlar va maxsus vazifali) hamda katta ekranga ega bo‘lgan bir yoki bir nechta monitorlar bilan jixozlangan shaxsiy kompyuterlardan foydalaniladi.

Sanoat tarmog‘i turli xil tuzilishga ega bo‘lishi mumkin: umumiy shinali, xalqasmon, yulduzcha, u ko‘pincha o‘zaro takrorlagich va marshrutizatorlar bilan

bog‘langan segmentlarga bo‘linadi. Xabarlarni uzatishga qat’iy talab qo‘yiladi: ular kafolatlangan holda adresatga etkazib berilishi, yuqori ustuvorlikdagi xabarlar uchun esa, masalan, avariylar to‘g‘risida ogoxlantiruvchi xabarlar uchun ham xabarlarni uzatishning ko‘rsatilgan muddatini ta’minalash lozim. DTMning bu sinfida fazoning katta soxasida taqsimlangan ob’ektlarni avtomatlashtirish uchun mo‘jallangan kontrollerlarning tarmoq majmuasining telemexaniq turi ajratib olinadi.

O‘ziga xos tuzilmaga ega bo‘lgan sanoat tarmog‘i va alovida fizik (jismoniy) aloqa kanallari (radio kanallar, ajratilgan telefon simlari, tolali kabellar) bir-biridan ko‘plab o‘nlab kilometr masofada turgan ob’ekt uzellarini integratsiyalashga (birlashtirishga) imkon beradi. Kontrollerlar tarmoq majmualarining qurilayotgan sinfi bajarayotgan vazifalarining murakkabligi bo‘yicha ham (o‘lchashlar, nazorat, hisobga olish, tartibga solish va blokirovka), avtomatlashtirilayotgan ob’ektning hajmi bo‘yicha ham (o‘lchanayotgan va nazorat qilinayotgan mingta kattalik doirasida) yuqorida cheklashlarga ega. Ko‘pincha tarmoq majmualari mashinasozlik zavodlarissexlari, neftni qayta ishlovchi, neftkimyosi va kimyo sanoati agregatlari, shuningdek oziq-ovqat sanoati korxonalarissexlari doirasida qo‘llaniladi. Kontrollerlarning telemexaniq tarmoq majmualari gaz va neft quvurlarini, elektr tarmoqlarini, transport tizimlarini boshqarish uchun foydalaniadi.

### **3.3. ABSlarning klassifikatsiyasi.**

Hozirgi paytda sanoat avtomatlashtirishi bozorida ham mamlakatimiz, ham xorijiy ishlab chiquvchilarning bir necha yuzdan ortiq eng xilma-xil DTMlari mavjud. Ularning barchasi o‘z tuzilishi, axborot quvvati, foydalanish tavsiflari (haroratlar, namlik oralig‘i, portlash va yong‘in chiqish havfi bo‘lgan ishlab ishda foydalanish imkoniyati), qiymati va boshqalar bilan farqlanadi. Mavjud DTMlarning xilma-xilligiga qaramay, ularning ko‘pchiligidagi xos bo‘lgan bir qancha funksional elementlarni ajratib ko‘rsatishi mumkin:

sanoat tarmoqlari; dasturlanuvchi mantiqiy kontrollerlar yoki RS negizidagi kontrollerlar, ob’ekli intellektual aloqa qurilmalari; turli xil vazifani bajaruvchi ishchi stansiyalar va serverlar; amaliy (tatbiqiy) dasturiy ta’milot.

DTM tuzilmasi birinchi navbatda majmuuning aloxida komponentlari (kontrollerlar, operator pul'tlari), uzoqlashtirilgan kiritish-ish bloklarining o'zaro aloqasi vositalari va tavsiflari bilan, ya'ni tarmoq imkoniyatlari bilan belgilanadi. DTM tuzilmalarining qulayligi va xilma-xilligi quyidagilarga bog'liq: mavjud tarmoq sathlari soni; tarmoqning har bir sathida imkon bo'lgan aloqa turlari (topologiyalar): umumiy shina, yulduzcha, halqasimon; har bir sath parametrlari: kabel turlari, yo'l qo'yiladigan masofalar, har bir tarmoqka ulanuvchi uzellar (majmua komponentlari)ning maksimal miqdori, axborotni uzatish tezligi, komponentlarning tarmoqqa kirishi usullari (xabarlarni etkazish vaqtini bo'yicha tasodifiy, yoki ularni eltid berish vaqtini kafolatlovchi).

DTM ning ko'rsatib o'tilgan xossalari ishlab ishssexlarida apparaturalarni taqsimlash imkonini ifodalaydi, mazkur DTM da amalga oshirilgan avtomatlashtirish tizimi qamrab olishi mumkin bo'ladigan ishlab ish hajmini kiritish-ish bloklarini bevosita datchiklarga va ijrochi mexanizmlarga ko'chirish imkoniyatini ifodalaydi.


Tizimning hamma funksional imkoniyatlari ikkita sathga aniq bo'lingan. Birinchi sathni kontrollerlar, ikkinchisini-operator pul'ti tashkil etib, u ishchi stansiya yoki sanoat kompyuteri bilan ifodalanishi mumkin.

Bunday tizimda kontrollerlar sathi boshqarish ob'ektida o'rnatilgan datchiklardan kelayotgan signallarni yig'ish (to'plash) ishini bajaradi, sinallarga dastlabki ishlov berish (filtrlash va masshtablash), boshqarish algoritmlarini amalga oshirish va boshqaruvchi signallarni boshqarish ob'ektining ijrochi mexanizmlariga shakllantirish, sanoat tarmog'idan axborot qabul qilish va uzatish ishlarini bajaradi.

Operator pul'ti quyi sath kontrollerlariga tarmoq so'rovlarini shakllantiradi, ulardan texnologik jarayonning kechishi to'g'risidagi tezkor axborotni oladi, monitor ekranida texnologik jarayonning kechishini operatorga qulay bo'lgan ko'rinishda aks ettiradi, jarayonning ketishi to'g'risidagi dinamik axborotni (arxivni yuritish) uzoq vaqt saqlashni amalga oshiradi, boshqarish algoritmlarining zaruriy parametrlarining va quyi sath kontrollerlarida regulyatorlar ustavkalarining

korreksiyasini amalga oshiradi.

Boshqarish ob'ektining axborot quvvatining (kiruvchi-chiquvchi o'zgaruvchilar miqdorining) ortishi, boshqarishning yuqori sathida hal etiladigan masalalar doirasining kengayishi, puxtalik ko'rsatkichlarining ortishi dasturiy-texnik majmualarning yanada murakkab tuzilmalarining paydo bo'lishiga olib keladi (1-rasm).



1.2-rasm.DTMtuzilishi

Mikrosoft firmasining Windows oilasidagi operatsion tizimlar(OT) ofis

kompyuterlari bozorini deyarli to‘liq egallab oldi va sanoat avtomatlashtirish darajasini faol o‘zlashtirmokda. Ko‘pchilik serverlar va ishchi stansiyalar Windows NT/2000/XPOT boshqaruvi ostida ishlamokda.

Mikrosoftning ayrim texnologiyalari hozirga keliboq sanoat standarti bo‘lib qoldi. «Mijoz-server» arxitekturasidan foydalanish butun tizimning samaradorligini va ishlash tezligini oshirishga, serverlarni ishchi stansiyalarini zaxiralash hisobiga, hal qilinayotgan masalalarni hududiy taqsimlash bilan tizimning puxtaligini va yashovchanligini oshirishga imkon beradi.

Serverlar, odatda, sanoat kompyuterlari negizida bajariladi va zaxiralanuvchi hisoblanadi. Turli xil DTM larda serverlarning nomi farqlanadi: real vaqt ma’lumotlari bazasi serveri, kiritish-ish serveri va boshq. Asosiy vazifalari: ob’ekt va kontroller bilan aloqa qurilmalaridan kelayotgan tezkor ma’lumotlarni to‘plash, ishlov berish;

kontrollerlarga boshqarishning yuqori sathidan boshqarish buyruqlarni uzatish; berilgan o‘zgaruvchilar to‘g‘risidagi axborotni saqlash va aks ettirish; talab qilinayotgan axborotni mijoz ishchi stansiyalariga taqdim etish; trendlar, bosma xujjatlari va voqealar bayonnomalarini arxivlashtirish.

Zamonaviy DTMLar, odatda, ofis ijrosidagi shaxsiy kompyuterlar negizida ishlangan injenerining stansiyalarini o‘z ichiga oladi. Ular yordamida kontrollerga injelerlik xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladi: dasturlash, sozlash, moslash. Ayrim DTMLarda injenerining stansiyalari, shuningdek, ishchi stansiyalariga injelerlik xizmatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Zamonaviy DTMLarning yana bir tomoni Internet- texnologiyalarining sanoat avtomatlashtirish darajasiga faol singib borish bilan bog‘liq. Bugun ham xorijiy, ham mamlakatimizdagi texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlari uchun instrumental dasturiy ta’minotni barcha etakchi ishlab chiquvchilari o‘z maxsulotlariga mazkur texnologiyalarni o‘rnatmoqdalar.

Internet-texnologiyalarning TJABTda eng keng qo‘lanilishiga Web-serverlarda TJning kechishi to‘g‘risidagi axborotning va boshqa har qanday hisobotlarning bosimini misol bo‘ladi. Web-serverlar ma’lumotlar ba’zasi (MB)

serverlar bilan o‘zaro aloqa qilish imkoniga ega bo‘lib, u jarayon to‘g‘risida zarur axborotni o‘zida saqlaydi. (Internet-sharhlovchi) orqali ma’lumotlar bazasiga zarur so‘rovlар berishga imkon beradi. Bunday yondashuv yana xarajatlarni kamaytiradi, chunki mijoz tomonida odatdagi dastur-brouzerlar (Internet explorer, Netspae Naigator va boshqalar.)dan tashqari birorta qo‘srimcha dasturiy ta’milotni o‘rnatishni jalb etmaydi.

### **3.4.Ishlab ish jarayonlarini nazorat qilish va vizuallash tizimlari.**

Zamonaviy TJABT (texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi) ko‘p sathli inson-mashinali boshqarish tizimidan iboratdir. Murakkab texnologik jarayonlarni ABT ning yaratilish ma’lumotlarni to‘plashning avtomatik axborot tizimlaridan va xisoblash majmualaridan foydalangan holda amalgalashiriladi, ular texnik vositalar va dasturiy ta’milot evolyusiyasi darajasiga ko‘ra doimo takomillashtirib boriladi.

TJABT rivojlanishining vaqt bo‘yicha uzluksiz bo‘lgan manzarasini sifat jihatidan yangi ilmiy g‘oyalar va texnik vositalarning paydo bo‘lishi bilan shart qilingan uchta bosqichga bo‘lish mumkin. Tarix davomida zamonaviy boshqarish tizimining mazmunini tashkil etuvchi ob’ektlar va boshqarish uslublari, avtomatlashtirish vositalari va boshqa komponentlarning tavsifi o‘zgaradi.

Bu bosqichda boshqarish vositalari sifatida ayrim parametrlar, qurilmalar, agregatlar hisoblanadi; stabillashtirish, dasturiy boshqarish, kuzatish masalalarini echish odamdan ART ga o‘tadi. Insonda topshiriqni hisoblab chiqish vazifalari va regulyatorlarni sozlash parametrlari paydo bo‘ladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Avtomatlashtirishga ta’rif bering.
2. Avtomatlashtirishning maqsadi nimalardan iborat?
3. ARSning ta’rifi.
4. Avtomatik nazorat, rostlash va boshkarish tushunchalari.
5. Avtomatlashtirish kanday boskichlardan iborat?
6. Rostlanuvchi, boshkaruvchi va g‘alayonli o‘zgaruvchilarga ta’rif bering.

7. Texnologik jarayon parametrlari tushunchasiga ta’rif bering.
8. Avtomatik rostlagich nima?
9. Xozirgi qiymat, berilgan qiymat va xatolik tushunchalari nima?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Wolfgang Altmann, Practical Process Control for Engineers and Technicians: Jordan Hill, Oxford 2005, 304 p.
2. Ad DamenModern Control Theory Prentice Hall 2002 460 s.
3. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G’ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish: Darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2011.-576 b.
4. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G‘ulomov SH.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari: Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015- 704 b.
5. Иванова Г.В. Автоматизация технологических процессов основных химических производств. Методические материалы по курс лекций.-С.Пб.: Петербургский ГТУ, 2008.- 238с.
6. Шувалов В.В. Огаджанов Г.А., Голубятников В.А. Автоматизация производственных процессов в химической промышленности: Учебное пособие.- М.: Химия, 2011.-480с.
7. Кафаров В.В., Макаров В.В. Гибкие автоматизированные системы в химической промышленности: Учебник.- М.: Химия, 2016.- 320с.

## **7-Mavzu: Kimyoviy-texnologik jarayonlarni kopyuterli model-lashtirish prinsiplari. Kimyoviy-texnologik jarayonlarning matematik ifodalarini fizik-kimyoviy modellar yordamida ifodalash**

**Reja:**

- 2.1. Oqimlar strukturasining tadqiqot usullari**
- 2.2. Apparatda bo‘lish vaqt bo‘yicha oqim elementlari taqsimlanishining asosiy tavsiflari**
- 2.3. Ideal aralashtirish va ideal siqib chiqarish modellari**
- 2.4. Diffuziyali model**
- 2.5. Yacheykali model**

Real apparatlarda oqimlarning xulqi shu qadar murakkabki, hozirgi vaqtida ularning qat’iy matematik tavsifini tuzishga ko‘p hollarda imkon bo‘lmaydi. Shu bilan bir vaqtida oqimlar tizimi kimyo-texnologik jarayonlar samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum bo‘lib, buning uchun ular jarayonlarni modellashtirishda hisobga olinishi kerak. Bunda oqimlar strukturasining matematik modellari qurilayotgan kimyo-texnologik jarayonni matematik tavsifining asosi sifatida qabul qilinadi. Real oqimlarni aniq tavsiflash (massalan, Nave-Stoks tenglamasi yordamida) yechilishi o‘ta qiyin masalalarga olib kelishi oldinroq ko‘rsatib o‘tilgandi. Shuning uchun shu vaqtgacha ishlab chiqilgan apparatlarda oqimlar strukturasining modellari ancha sodda va yarim empirik xarakterga ega. Shunga qaramay, ular real fizik jarayonlarni yetarli darajada aniq aks ettiruvchi modellar (obyektga monand modellar) ni qurishga imkon beradi.

Kimyo-texnologik jarayonlarni o‘tkazishda ko‘pincha ularni yakunlash to‘liqligi darajasini bilish muhimdir, bu esa o‘z navbatida apparatda oqim zarralarini vaqt bo‘yicha taqsimlanishiga bog‘liq, modomiki apparatda oqimning ayrim ulushlari turib qolishi mumkin, boshqalari esa, aksincha, o‘tib ketadi, bu esa kontakt vaqt va diffuziyaga bevosita bog‘liq.

Apparatda oqim zarralarini vaqt bo‘yicha taqsimlanishi (VBT) stoxastik tabiatga ega va statistik taqsimlanish bilan baholanadi.

Sanoat apparatlarida oqim zarralarini vaqt bo‘yicha taqsimlanish notekisligining eng muhim manbalari quyidagilardir:

1) tizim tezliklar profilining notekisligi; 2) oqimlarning turbulizatsiyasi; 3) oqimda turg‘unlik sohalar mavjudligi; 4) tizimda baypasli va kesishuvchi oqimlar kanallarining hosil bo‘lishi; 5) harakatlanuvchi muhitlarning harorat gradiyentlari; 6) fazalar orasida issiqlik va modda almashuvi va shunga o‘xshashlar.

Shunday bo‘lib chiqishi mumkinki, diffuziya jarayonini bajarish uchun apparatda oqim zarralarini real bo‘lish vaqt yetarli bo‘lmay qoladi, bunga esa butun diffuziyali jarayonning samaradorligi bog‘liq. Shuning uchun oqimlarning ichki strukturasi haqidagi modelli ifodalar yordamida apparatdagi (shuningdek, bo‘lib o‘tish vaqt bo‘yicha) fazalar oqimining real strukturasini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Modda almashuv jarayonlari uchun oqimlar strukturasini tavsiflash yana shu ma’noga egaki, u shu oqimlarda moddalarni joyini o‘zgartirish va taqsimlanishini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun barcha oqimlarning gidrodinamik

modellari ko‘pincha oqimda modda konsentratsiyasini o‘zgarishini ifodalovchi tenglamalar ko‘rinishida yoziladi.


Keyinroq real apparatlarda oqimlar strukturasini tadqiqlashning tajriba usullari, oqimlar strukturasini eng ko‘p tarqagan matematik modellar va modellar parametrlarini aniqlash usullari ko‘rib chiqiladi.

## 2.1. Oqimlar strukturasining tadqiqot usullari

Ko‘rsatilgan usullarning mohiyati oqimning apparatga kirishida unga qandaydir vosita bilan indikator kiritiladi, oqimning apparatdan chiqishida esa indikator konsentratsiyasini vaqtning funksiyasi sifatida o‘lchashdan iborat. Bu chiqish egri chizig‘i oqim tarkibi bo‘yicha namunaviy g‘alayonga tizimning javob funksiyasi deb ataladi. Indikatorlar sifatida bo‘yoqlar, tuzlar va kislota eritmalari, izotoplар va boshqa moddalardan foydalanadilar.

Indikatorga qo‘yiladigan asosiy talab – apparatda indikator zarralarining xulqi oqim zarralarining xulqiga o‘xhashi shart. Bu nuqtayi nazardan eng yaxshisi izotoplardir, chunki xossalari bo‘yicha ular asosiy oqimdan kam farqlanadi. Amalda ko‘pincha asosiy oqim bilan o‘zaro ta’sirga tushmaydigan va oson o‘lchanishi mumkin bo‘lgan indikatorlar qo‘llaniladi. Bunday indikatorlarga tuz eritmalari tegishlidir. Apparatga indikator oqimning kirishidagi standart signallar ko‘rinishida quyidagicha kiritiladi: impulsli, pog‘onali va sikllik. G‘alayonlovchi signalning ko‘rinishiga muvofiq oqimlar strukturasini tadqiq qilishning quyidagi usullari farqlanadi: impulsli, pog‘onali va sikllik. Odatta oxirgi signal amaliyotda sinusoida shakliga ega bo‘ladi.

**Impulsli usul.** Bu usulga muvofiq oqimning apparatga kirishida amaliy bir onda indikatorning delta funksiya shaklidagi ma’lum miqdori kiritiladi. Faraz qilaylik, ixtiyoriy murakkablik apparatga oqimni kirishiga amaliy bir onda indikator kiritdik va 2.1-rasmda tasvirlangan bu g‘alayonga javob funksiyasini aniqladik.



**2.1-rasm.** Impulsli g‘alayonga tizimning tipik javob funksiyasi.

Apparat hajmini  $V$  deb va oqimning hajmli tezligini –  $v$  deb belgilaymiz.

Apparatda bo‘lish vaqtini  $t$  dan  $t + dt$  gacha o‘zgaradigan indikatorning miqdori quyidagini tashkil etadi

$$dg = vC_E(t)dt. \quad (2.1)$$

$dg$  ning indikatorning umumiy miqdori  $g$  ga nisbati indikatorning apparatdan  $t$  dan  $t + dt$  vaqtida chiqqan ulushini ifodalaydi:

$$\frac{dp}{g} = \frac{dg}{g} = \frac{vC_E(t)dt}{g}. \quad (2.2)$$

Asosiy oqim xulqi apparatdagи indikatorning xulqiga o‘xshash bo‘lganligi uchun, (2.1) tenglama  $t$  dan  $t + dt$  bo‘lgan vaqtida oqimning ulushini ifoda etadi.

$C(\theta)$  o‘lchamsiz konsentratsiyani quyidagi formula bo‘yicha kiritamiz:

$$C(\theta) = \frac{C_E(t)}{C_0^E}, \quad (2.3)$$

bunda,  $C_0^E$  – oqimdagи boshlang‘ich konsentratsiya:

$$C_0^E = \frac{g}{V} \quad (2.4)$$

Shu vaqtning o‘zida  $\theta$  o‘lchamsiz vaqtini quyidagi formula bo‘yicha kiritamiz:

$$\theta = \frac{t}{\bar{t}}, \quad (2.5)$$

bunda,  $\bar{t}$  – oqim zarralarining apparatda o‘rtacha bo‘lish vaqtini:

$$\bar{t} = \frac{V}{v} \quad (2.6)$$

Endi (2.2) tenglamani quyidagi ko‘rinishga keltirish mumkin:

$$\begin{aligned} dp &= \frac{vC_E(t)dt}{g} = v \frac{C_0^E C_E(t)}{C_0^E} \cdot \frac{1}{g} \cdot \frac{\bar{t}dt}{\bar{t}} = \\ &= \frac{vC_0^E \bar{t}}{g} C(\theta) d\theta = \frac{vC_0^E V}{g} C(\theta) d\theta = C(\theta) d\theta \end{aligned} \quad (2.7)$$

Kiritilgan indikatorning umumiy miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$g = \nu \int_0^{\infty} C_E(t) dt. \quad (2.8)$$

U vaqtda (2.2), (2.7) tenglamalardan quyidagi ifoda kelib chiqadi


$$C(\theta) = \frac{\nu C_E(t) dt}{gd\theta} = \nu \frac{C^E(t)\bar{t}}{g} = \frac{C_E(t)}{\int_0^{\infty} C_E(t) dt}, \quad (2.9)$$

unda ifoda  $C(t) = \frac{C_E(t)}{\int_0^{\infty} C_E(t) dt}$  (2.10)

me'yorlangan  $S$ -egri chiziqlini beradi.

$(\theta)$  koordinatalarda tajriba egri chizigini quramiz (2.2-rasm.). Bunday egri chiziq  $S$ -egri chizig'i deb ataladi. Uni ostidagi shtrixlangan maydon quyidagiga teng va 0 dan  $\theta$  gacha o'zgarish vaqtida apparatdagi oqim ulushini belgilaydi. Tabiiyki

$$\int_0^{\infty} C(\theta) d\theta \quad (2.11)$$



**2.2-rasm.** Tipik  $S$ -egri chiziqli.

$$\int_0^{\theta} C(\theta) d\theta = 1 \quad (2.12)$$

Shunday qilib,  $S$ -egri chizig‘i apparatda vaqt bo‘yicha oqim elementlarining taqsimlanishining tavslifidir.

Oqimning apparatda o‘rtacha bo‘lish vaqtini quyidagini tashkil etadi

$$\bar{t} = \int_0^{\infty} tdp . \quad (2.13)$$

Bu tenglamaga (3.2) tenglamadagi  $dp$  ni qo‘yamiz va  $g = v \int_0^{\infty} C_E(t)dt$  dan foydalansak, unda quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$\bar{t} = \frac{v \int_0^{\infty} tC_E(t)dt}{v \int_0^{\infty} C_E(t)dt} = \frac{\int_0^{\infty} tC_E(t)dt}{\int_0^{\infty} C_E(t)dt} . \quad (2.14)$$

**1-misol.** Apparatdagi oqimlarning gidrodinamikasini tadqiq qilishda impulsli usul qo‘llaniladi. Impulsli g‘alayonni berish (indikatorni impuls shaklida kiritish) natijasida apparat chiqishidagi indikatorning quyidagi konsentratsiya qiymatlari olindi (2.1-jad.).

2.1-jadval								
Vaqt, min	0	5	10	15	20	25	30	35
Indekatorning konsentratsiyasi, g/m <sup>3</sup>	0	3	5	5	4	2	1	0

$S$ -egri chiziqning taqsimlanishini qurish kerak.

**Yechim.**  $S(\theta)$  funksiyani aniqlash uchun dastlab (2.9) tenglamadagi  $C(t)$  qiymatlarini topamiz. Buning uchun probalar (tahlil uchun namuna) olish vaqtining intervalini  $\Delta t = 5$  daqiqa deb faraz qilib,  $\sum_i C_E(t)\Delta t$  qiymatlar yig‘indisini hisoblaymiz:

$$\int_0^{\infty} C_E(t)dt \approx \sum_i v \int_0^{\infty} C_i^E(t)\Delta t = (3 + 5 + 5 + 4 + 2 + 1) \cdot 5 = 100 \frac{g \cdot daq}{m^3}$$

$$C(t) = C_i^E(t) / \sum_i C_i^E(t)\Delta t \quad \text{me’yorlangan funksiyani vaqtga bog‘liq}$$

qiymatlarini 2.2-jadval shakliga keltiramiz.

### C (t) me’yorlangan funksiyaning qiymatlari

2.2-jadval							
t, daq.	0	5	10	15	20	25	30

$C(t)$ min $^{-1}$	0	0,03	0,05	0,05	0,04	0,02	0,01
min,							

$C(\theta)$  funksiyani olish uchun, vaqtni  $\theta$  va  $S$  ni o'lchamsiz ko'rinishga keltiramiz, ya'ni  $C(\theta)$  ko'rinishga. Buning uchun apparatda o'rtacha bo'lish vaqtini (2.14) tenglamadan topamiz.

o'lchamsiz vaqt quyidagini tashkil etadi:

$$\theta = \frac{t}{\bar{t}} = \frac{t}{15}$$

(2.9) tenglamadan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz

$$C(\theta) = \bar{t} C(t) \approx \frac{15 C_i^E(t)}{\sum_i C_i^E(t) \Delta t}$$


va  $t_i$ ,  $C_i^E$  qiymatlarni qo'ygandan keyin,  $S(\theta)$  muvofiq qiymatlarini olamiz (2.3-jad.).

2.3-jadval

### $S(\theta)$ o'lchamsiz funksiyaning qiymatlari

$\theta$	0	1/3	2/3	1	4/3	5/3	2	7/3
$C(\theta)$	0	0,45	0,75	0,75	0,60	0,03	0,15	0


Bu ma'lumotlar bo'yicha taqsimlanishning  $S$ -egri chizig'ini quramiz (2.3-rasm).



2.3-rasm. O'lchamsiz  $S$ -egri chiziq.

**Pog‘onali g‘alayon usuli.** Bu usuldan foydalanishda apparatga kirayotgan va indikator bo‘limgan suyuqlik oqimiga indikatorning ma’lum miqdori shunday kiritiladiki, kirayotgan oqimda uning konsentratsiyasi sakrab noldan  $C_0$  ning ma’lum qiymatigacha o‘zgaradi va shu sathda ushlab turiladi.

Signalning pog‘onali shakliga mos keluvchi javob egri chizig‘i 2.4-rasmida tasvirlangan ko‘rinishga ega. Agar vaqt o‘lchamsiz birliklarda ifodalangan bo‘lsa, unda apparatdan chiqayotgan oqimdagagi indikator konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarish bog‘liqligi  $F$ -egri chiziq deb ataladi. Kirayotgan oqimdagagi  $F / F(\infty)$  nisbatga teng miqdor 0 dan 1 gacha o‘zgaradi.



**2.4-rasm.** Tipik tajribaviy  $F$  – egri chiziq.

Oqim elementlarining apparatda bo‘lish vaqtি  $\theta$  dan  $\theta + d\theta$  gacha oraliqda bo‘lsa, oqim elementlarining ulushi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$dF(\theta) = C(\theta)d\theta \quad (2.15)$$

Oqim elementlarining apparatda bo‘lish vaqtি  $\theta$  dan kichik bo‘lsa, oqim elementlarining ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$F(\theta) = \int_0^\theta C(\theta)d\theta \quad (2.16)$$

Apparatdagi suyuqlikning barcha ulushlarini yig‘indisi 1 ga tengligi bo‘lganligi uchun  $S$ -egri chiziq tagidagi maydon 1 ga teng va  $\theta \rightarrow \infty$  da  $f(\theta) \rightarrow 1$ , ya’ni

$$\int_0^1 \theta dF(\theta) = \int_0^\infty \theta C(\theta)d\theta = 1 \quad (2.17)$$

Oqimning apparatda o‘rtacha bo‘lish vaqtি quyidagini tashkil etadi:

$$\bar{t} = \frac{\int_0^\infty t C_E(t) dt}{\int_0^\infty C_E(t) dt} = \int_0^\infty t C_E(t) dt = \int_0^\infty t dF = - \int_0^\infty t d(1 - F). \quad (2.18)$$

(2.18) ifodada oxirgi integralni topish uchun bo‘laklab integrallashdan foydalanamiz:

$$\int_0^\infty t d(1 - F) = t(1 - F) - \int_1^\infty = (1 - F)td \quad (2.19)$$

(2.19) tenglamadagi birinchi qo‘siluvchi nolga teng. Bunda oqimning apparatda o‘rtacha bo‘lish vaqt vaqtidan chiqishdagi oqim elementlarining taqsimlanish funksiyasi qiymatlari  $F(t) = F_E(t) / F_E(\infty)$  orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{t} = \int_0^\infty (1 - F)td \quad (2.20)$$


Quyidagi funksiyani kiritib

$$I(t) = 1 - F(t), \quad (2.21)$$

o‘rtacha bo‘lish vaqtini quyidagicha ifodalash mumkin

$$\bar{t} = \int_0^\infty I(t)dt. \quad (2.22)$$

Geometrik jihatdan o‘rtacha bo‘lish vaqt F(t) egri chiziq ustidagi maydonga mos keladi (2.5-rasm).



**2.5-rasm.** O‘rtacha bo‘lish vaqtining geometrik talqini.

**Muvozanat holati usuli.** Bu usul bilan apparatda oqimlar strukturasini tadqiq qilganda apparatdan chiqish oqimiga doimiy tezlik bilan indikator kiritiladi va indikator konsentratsiyasining oqim harakatining teskariga yo‘nalgandagi o‘zgarishi aniqlanadi. Indikator zarrachalari apparatga oqimning teskari aralashtirishi hisobiga tushadi. Apparatning uzunligi bo‘yicha indikator konsentratsiyasining taqsimlanishi muvozanat rejimda aniqlanadi.

Diffuziyali model parametri - bo‘ylama aralashtirish koeffitsiyenti ( $D_1$ ) ni baholash uchun muvozanat holati usullaridan foydalanish misolini ko‘rib chiqamiz.

Diffuziyali modelning tenglamasi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$\frac{d^2 C}{dz^2} - Pe \frac{dC}{dz} = 0 \quad (2.23)$$

bunda,  $z$  – o‘lchamsiz koordinata;  $S$  – konsentratsiya;  $Pe$  – Pekle soni. Quyidagi chegaraviy shartlarni yozamiz:

$$z = 1 \text{ da } C_k = 0, \quad C \frac{1}{Pe} \cdot \frac{dC}{dz} \quad (2.24)$$

$$z = 1 \text{ da } C = C_k \quad (2.25)$$

(2.23) tenglananing umumiyligi yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$C = A_1 + A_2 e^{Pe z}, \quad (2.26)$$

bundan quyidagi kelib chiqadi:

$$\frac{dC}{dz} = A_2 Pe * e^{Pe z}. \quad (3.27)$$

$z = 0$  lagi chegaraviy shartdan foydalanib,  $A_x$  qiymatini topamiz:

$$A_1 + A_2 e^0 = \frac{1}{Pe} * A_2 Pe * e^0; \quad A_1 = 0 \quad (2.28)$$

$z = 1$  lagi shartdan esa quyidagiga ega bo‘lamiz:


$$C_k = A_2 e^{Pe}; \quad A_2 = C_k e^{-Pe} \quad (2.29)$$

Shuning uchun ushbu ko‘rilayotgan holda diffuziyali model tenglamasining yechimi quyidagicha bo‘ladi:

$$C = C_k e^{Pe(z-1)}. \quad (2.30)$$

Apparatning qandaydir kesimida indikatorning konsentratsiyasini aniqlab,  $Re$  ni topish mumkin va apparatning bir necha kesimlarida konsentratsiyani o‘lchab, model monandligini tekshirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni olamiz. Agar oqimda bo‘ylama aralashtirish koeffitsiyenti apparatning uzunligi bo‘yicha bir xil bo‘lsa, unda turli nuqtalarda olingan  $R_e$  ning qiymatlari bir-biriga mos keladi.


**Sinusoidal g‘alayonlash usuli.** Kiruvchi oqimga sinusoidal g‘alayon ta’sir ettirilsa, chiqishda o‘zida sinusoidani ifodalaydigan, lekin boshqa amplitudaga ega va fazaga bo‘yicha siljigan javob funksiyasi olinadi. Kirishdagi sinusoidal g‘alayon  $A_0$  amplituda va chastota  $\omega = 2\pi/T$  (rad/s) bilan aniqlanadi, bunda,  $T$  – tebranishlar davri. Chiqish sinusoidada amplituda o‘zgaradi va  $\varphi$  fazaga siljishi paydo bo‘ladi (2.6-rasm).



**2.6-rasm.** Trasserni sinusoidal berishda kirish va chiqish signallarning ko‘rinishi.

Bir obyekt uchun  $\varphi$  qiymat va amplitudaning o‘zgarishi g‘alayonlovchi signalning chastota funksiyalaridir. Kirish va chiqish sinusoidalarini solishtirish natijasida amplituda-chastota va faza-chastota tavsiflari olinadi (2.7-rasm).

Amplitudalar nisbati *kuchaytirish koeffitsiyenti*  $\Delta(\omega)$  deb ataladi.



**2.7-rasm.** Tizim javobining amplituda-chastota (a) va faza-chastota (b) tavsiflari.

Kirishga sinusoidal signal berilgandagi diffuziyali modelning bo‘ylama aralashtirish koeffitsiyenti  $D$ , [2.87] formulaga qarang] ni aniqlanishini ko‘rib chiqamiz. Chegaraviy shartlar quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$C(t,0) = C_0 A_0 \sin \omega t , \quad (2.31)$$

$$C(t, \infty) = C_0 . \quad (2.32)$$

bunda,  $S_0$  – indikatorning o‘rtacha konsentratsiyasi;  $A_0 - z = 0$  dagi (apparatga kirishda) tebranishlar amplitudasi.

Diffuziyali model tenglamasi uchun Laplas o‘zgartirishini qo‘llab, (2.31), (2.32) chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda apparat chiqishdagi indikator konsentratsiyasi uchun quyidagi ifodani olish mumkin:

$$C(t,1) = C_0 + A_0 e^{-B} \sin(\omega t - \varphi), \quad (2.33)$$

Bunda

$$B = \ln \frac{A_0}{A_l} = \frac{ul}{2D_l} \left\{ \sqrt[4]{1 + \left( \frac{4\omega D_l}{u^2} \right)^2} \cos \left[ \frac{\operatorname{tg}^{-1} \left( \frac{4\omega D_l}{u^2} \right)}{2} \right] \right\} - 1, \quad (2.34)$$

$l$  —apparatning uzunligi;  $A_l$  — apparat chiqishdagi tebranishlar amplitudasi.

Ildiz ostidagi ifodani va trigonometrik funksiyani qatorga yoyib, yuqori darajali a’zolarini inobatga olmasak, (2.34) tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin:

$$B = \frac{l\omega^2 D_l}{u^3} - \frac{5l\omega^2 D_l^3}{u^7} \quad (2.35)$$

(2.35) tenglananing ikkinchi a’zosini inobatga olmasak, quyidagi ifodani olamiz:

$$B = \ln \frac{A_0}{A_l} = \frac{l\omega^2 D_l}{u^3} \quad (2.36)$$

Fazalar siljishini aniqlovchi tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\varphi = \frac{ul}{2D_l} \sqrt{\sqrt{\frac{1}{4} + \left( \frac{2D_l\omega}{u^2} \right)^2} - \frac{1}{2}} \quad (2.37)$$

Qatorga yoyib, yuqori darajali a’zolarni chiqarib tashlagandan so‘ng, oxirgi tenglama quyidagi sodda ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\varphi = \frac{\omega L}{u} \quad (2.38)$$

Endi fazalar siljishining tajriba qiymati  $f$  va  $A_0 / A$  amplitudalar nisbati bo'yicha (2.36), (2.37) tenglamalar asosida bo'ylama aralashtirish koeffitsiyenti  $D$ , ning qiymatini baholash qiyin emas.

## 2.2. Apparatda bo'lish vaqtini bo'yicha oqim elementlari taqsimlanishining asosiy tavsiflari

Oqim zarralarining apparatda bo'lish vaqtini taqsimlanishining hisobi momentlarning statistik tushunchasiga asoslangan va zichlik ehtimolligining taqsimlanishiga bog'liq. Taqsimlanishning eng muhim xossalarini aniqlaydigan tasodifiy kattalikni taqsimlanishining asosiy xossalarini bir necha sonli tavsiflar bilan tavsiflash mumkin. Bunday tavsiflar tizimi – tasodifiy kattalikni taqsimlanish momentlari hisoblanib, ular quyidagi uchta alomat bo'yicha tizimlanadi: moment  $r$  tartibi bo'yicha; tasodifiy kattalikni hisoblashning boshlanishi bo'yicha; tasodifiy kattalikning ko'rinishi bo'yicha.

$r$  momentning tartibi ixtiyoriy butun son bo'lishi mumkin. Amaliyotda esa nolinchchi, birinchchi, ikkinchchi, uchinchchi va to'rtinchchi tartibli momentlar ko'rildi, ya'ni  $\beta = 0, 1, 2, 3, 4$ . Tasodifiy kattalik hisobini boshlashdan kelib chiqib, boshlang'ich va markaziy momentlar ajratiladi. Taqsimlash funksiyaning *boshlang'ich momentlarini* umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$M_\beta = \int_0^\infty t^\beta C(t) dt. \quad (2.39)$$

Momentlarning har biri ma'lum fizik mazmunga ega. Nolinchi moment – egrichiziq ostidagi maydonni; birinchchi moment - o'rta miqdorni (bo'lishning o'rta vaqtini), yoki bo'lish vaqtining tasodifiy kattaligining matematik kutilmasini tavsiflaydi. Matematik kutilmalardan hisoblanadigan tasodifiy kattaliklar *markazlashtirilgan* deb ataladi. Markazlashtirilgan kattalik momentlari *markazlashgan* deb ataladi. Markazlashgan momentlarning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$M_\beta = \int_0^\infty (t - \bar{t})^\beta C(t) dt. \quad (2.40)$$

Ikkinchchi markazlashgan moment tasodifiy kattalikning o'rtacha bo'lish vaqtiga nisbatan yoyilishini tavsiflaydi va u *dispersiya* deb ataladi hamda  $\sigma_t^2$  orqali belgilanadi:

$$\sigma_t^2 = \mu_2 = \int_0^\infty (t - \bar{t})^2 C(t) dt. \quad (2.41)$$

Uchinchchi markazlashgan moment *asimetrik* taqsimlanishni tavsiflaydi va quyidagiga teng:

$$\mu_3 = \int_0^{\infty} (t - \bar{t})^3 C(t) dt. \quad (2.42)$$

To‘rtinchi markazlashgan moment o‘tkir cho ‘qqili taqsimlanishni ifodalaydi:

$$\mu_4 = \int_0^{\infty} (t - \bar{t})^4 C(t) dt. \quad (2.43)$$

Apparatda oqim elementlarining harakatlari stoxastik tabiatga ega bo‘lganligi sababli, ularni o‘rtacha bo‘lish vaqtini ma’lum taqsimlanish zichligiga ega tasodifiy kattalik hisoblanadi. Apparatda bo‘lish vaqtini bo‘yicha oqim elementlarini taqsimlash zichligi funksiyasining bahosi bo‘lib, impulsli g‘alayon ta’sirida apparatning chiqishida olinayotgan  $C$  – egri chiziq xizmat qilishi mumkin. Unda  $C$  – egri chiziqning momentlari oqim elementlarining apparatda bo‘lish vaqtini bo‘yicha taqsimlashining asosiy tavsiflari hisoblanib, shu oqim strukturasini aniqlab beradi.

Endi me’yorlangan va o‘lchamsiz  $C$  – egri chiziqning momentlar bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz. Me’yorlangan  $S$  – egri chiziqning qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$C(t) = \frac{C_E(t)}{\int_0^{\infty} C_E(t) dt} \quad (2.44)$$

Me’yorlangan  $S$  – egri chiziqning  $\beta$  tartibli boshlang‘ich momenti:

$$\mu_{\beta}^t = \int_0^{\infty} t^{\beta} C(t) dt \quad (2.45)$$

o‘lchamsiz konsentratsiya  $C(\theta)$  va vaqt  $\theta$  ni kiritib,  $C(\theta) = C(t)t$  va  $\theta = \frac{t}{t}$  ni hisobga olgan holda (2.45) tenglamaga qo‘yib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\mu_{\beta}^t = \int_0^{\infty} (\theta \bar{t})^{\beta} \frac{C(\theta)}{t} \bar{t} d\theta = t^{-\beta} \int_0^{\infty} \theta^{\beta} C(\theta) d\theta \quad (2.46)$$

(2.46) tenglamaning o‘ng qismidagi integral o‘lchamsiz bo‘lish vaqtining  $\beta$  tartibli boshlang‘ich momenti  $M_3^{\theta}$  bo‘yicha olinadi. Bundan  $\beta$  tartibli o‘lchamli va o‘lchamsiz boshlang‘ich momentlar orasidagi quyidagi bog‘lanish olinadi:

$$\mu_{\beta}^t = t^{-\beta} M_{\beta}^{\theta} \quad (2.47)$$


Shunga o‘xshash holda me’yorlangan  $S$  – egri chiziqning  $\beta$  tartibli markaziy momenti  $\mu_{\beta}^t$  ning ifodasiga  $C(t) = C(\theta)/t$  va  $t = t(\theta)$  larni qo‘yib, o‘lchamli va o‘lchamsiz markaziy momentlar orasida bog‘lanishni olamiz:

$$\mu_{\beta}^t = t^{-\beta} M_{\beta}^{\theta} \quad (2.48)$$

**Momentlar usuli yordamida eksperimental S – egri chiziqlarni qayta ishlash.** Obyektni tadqiq qilish natijasida tajribaviy  $C$  – egri chiziq olingan bo‘lsin (2.8-rasm). Tahliliy trapetsiyalar formulasidan foydalanib, berilgan  $C$  – egri chiziqning boshlang‘ich momentlarni hisoblashni ko‘rib chiqamiz. Tajribaviy  $C$  – egri chiziqning nolinchi tartibli boshlang‘ich momenti egri chiziq tagidagi maydon bilan aniqlanadi:

$$M_0^t = \int_0^{\infty} C_E(t) dt \approx \frac{1}{2} \sum_{j=1}^{n-1} (C_j^E + C_{j+1}^E) \Delta t \quad (2.49)$$

bunda,  $n$  — tajribaviy  $C$  – egri chiziqning bo‘linish nuqtalar soni.



**2.8-rasm.** Tajribaviy  $C$  – egri chiziq.

Me’yorlangan  $C$  – egri chiziqning birinchi tartibli boshlang‘ich momenti o‘rtacha bo‘lish vaqtini aniqlaydi. Me’yorlangan  $C$  – egri chiziqning ta’rifini hisobga olib, qo‘yidagiga ega bo‘lamiz:

$$M_1^t = \int_0^{\infty} t C(t) dt = \bar{t} \approx \frac{\sum_{j=1}^{n-1} (t_{j+1} C_{j+1}^E + t_j C_j^E)}{\sum_{j=1}^{n-1} (C_{j+1}^E + C_j^E)} \quad (2.50)$$

Umumiy holda me’yorlangan  $C$  – egri chiziqning  $s$  – tartibli boshlang‘ich momenti  $M_s^t$  quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\begin{aligned}
M_1^t &= \int_0^\infty t^s C(t) dt = \frac{1}{(s+1)} \int_0^\infty C(t) d(t^{s+1}) \approx \\
&\approx \frac{1}{s+1} \cdot \frac{\sum_{j=1}^{n-1} (C_{j+1}^E + C_j^E) \Delta t}{\sum_{j=1}^{n-1} (t_{j+1}^{s+1} - t_j^{s+1})}
\end{aligned} \tag{2.51}$$

Markaziy momentlarni hisoblashda to‘xtalamiz. Momentlar ta’rifidan foydalanib, quyidagi tenglamalarning haqqoniyligiga ishonch hosil qilamiz:

$$\mu_0^t = \int_0^\infty (t - \bar{t})^0 C(t) dt = 1, \tag{2.52}$$

$$\mu_0^t = \int_0^\infty (t - \bar{t})^0 C(t) dt = 0, \tag{2.53}$$

Ikkinci tartibli markaziy moment  $\mu_2^t$   $C$  – egri chiziqning *dispersiyasi* deb ataladi va  $C$  o‘rta qiymatga nisbatan bo‘lish vaqtini taqsimlashining yoyilish tavsifi bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinci markaziy moment  $\mu_2^t$  ikkinchi boshlang‘ich moment  $M_2^t$  va o‘rtacha bo‘lish vaqtini  $t$  larning qiymatlari orqali ifodalanishi mumkin:

$$\begin{aligned}
\mu_2^t &= \int_0^\infty (t - \bar{t})^2 C(t) dt = \int_0^\infty t^2 C(t) dt - 2\bar{t} \int_0^\infty t C(t) dt + \\
&+ \bar{t}^2 \int_0^\infty C(t) dt = M_2^t - 2\bar{t} M_1 + \bar{t}^2 = M_2^t - \bar{t}^2.
\end{aligned} \tag{2.54}$$

Umumiy holda me’yorlangan  $C$  – egri chiziqning  $s$  – tartibli markaziy momenti quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$\begin{aligned}
\mu_2^t &= \int_0^\infty (t - \bar{t})^s C(t) dt = \frac{1}{s+1} \int_0^\infty C(t) d(t - \bar{t})^{s+1} \approx \\
&\approx \frac{1}{s+1} \cdot \frac{\sum_{j=1}^{n-1} (C_{j+1}^E + C_j^E) [(t - \bar{t})_{j+1}^{s+1} - (t - \bar{t})_j^{s+1}]}{\sum_{j=1}^{n-1} (C_{j+1}^E + C_j^E) \Delta t}
\end{aligned} \tag{2.55}$$

**Tajribaviy  $F$  – egri chiziqlarga ishlov berish.** Agar  $C$  – egri chiziq bo‘lish vaqtini bo‘yicha oqim elementlarini taqsimlanish zichligi funksiyasining bahosi bo‘lib xizmat qilsa, unda  $F$ - egri chiziq (pog‘onali g‘alayonga tizimning javobi)

taqsimlanish funksiyasining bahosidir. Amalda tajribaviy  $F$ - egri chiziqdan  $F_e(t)$  me'yorlangan  $F(t)$  ga o'tish qulay bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$F(t) = F_e / F(\infty). \quad (2.56)$$

Me'yorlangan  $F$  – egri chiziqning nolinchi boshlang'ich momenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_0^t = \int_0^\infty C(t)dt = F(\infty). \quad (2.57)$$

Birinchi, ikkinchi, ... ,  $s$  –tartibli momentlar uchun ifodalarni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\begin{aligned} M_1^t &= \int_0^\infty tC(t)dt = \int_0^\infty t dF = - \int_0^\infty td(1-F) = \int_0^\infty (1-F)dt \approx \\ &\approx \sum_{j=1}^{n-1} \frac{2 - F_{j+1} - F_j}{2} \Delta t, \end{aligned} \quad (2.58)$$

$$\begin{aligned} M_2^t &= \int_0^\infty t^2 C(t)dt = \int_0^\infty t^2 dF = 2 \int_0^\infty t(1-F)dt \approx \\ &\approx \sum_{j=1}^{n-1} [t_{j+1}(1-F_{j+1}) + t_j(1-F_j)] \Delta t, \\ M_s^t &= s \int_0^\infty t^{s-1} (1-F)dt = \int_0^\infty (1-F)dt^s \approx \sum_{j=1}^{n-1} \frac{2 - F_{j+1} - F_j}{2} (t_{j+1}^s - t_j^s). \end{aligned} \quad (2.59)$$

Markaziy momentlar quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$M_0^t = \int_0^\infty (t - \bar{t})^0 C(t)dt = 1, \quad (2.60)$$

$$M_1^t = \int_0^\infty (t - \bar{t})^0 C(t)dt = 0, \quad (2.61)$$

$$M_2^t = \int_0^\infty (t - \bar{t})^2 C(t)dt = M_2^t - \bar{t}^2, \quad (2.62)$$

$$M_s^t = \int_0^\infty (t - \bar{t})^s C(t)dt = 2 \int_0^\infty (1-F)d(t - \bar{t})^s + (-1)^s (\bar{t})^s \approx$$

$$\approx \sum_{j=1}^{n-1} (2 - F_{j+1} - F_j) [(t_{j+1} - \bar{t})^s - (t_j - \bar{t})^s] + (-1)^s (\bar{t})^s \quad (2.63)$$

**Bo‘lish vaqtি bo‘yicha oqim elementlarining taqsimlanish momentlarini obyektning uzatish funksiyasi orqali aniqlash.** Murakkab gidrodinamikali apparatlar uchun vaqt bo‘yicha bo‘lishning taqsimlanish funksiyasining momentlarini baholash o‘ta ko‘p mehnat talab qiladigan masalani ifodalaydi. Ko‘pincha bunday hollarda ko‘rilayotgan kanal bo‘yicha apparatning uzatish funksiyasidan foydalanish qulay. Umumiy holda uzatish funksiyasi chiqishdagi Laplas bo‘yicha o‘zgartirilgan signalni  $C(p)$  kirishdagi Laplas bo‘yicha o‘zgartirilgan signalga  $C_{kir}$  nisbati sifatida topish mumkin:

$$W(p) = \frac{\tilde{C}(p)}{\tilde{C}_{kir}(p)} \quad (2.64)$$

bu yerda Laplas o‘zgartirishi quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$L[C(t)] = \int_0^{\infty} e^{-pt} C(t) dt, \quad (2.65)$$

$$P = \sigma + i\omega \quad (2.66)$$

Impulsli kirish funksiyasi uchun ( $\delta(t)$  delta funksiya) Laplas o‘zgartirishi quyidagini beradi:

$$C_{kir}(p) = L[\delta(t)] = 1. \quad (2.67)$$

Unda apparatning impulsli kirish g‘alayoni ta’siridagi uzatish funksiyasi quyidagicha bo‘ladi:

$$W(p) = \tilde{C}(p) \quad (2.68)$$

Impulsli g‘alayon ta’sir etayotgan apparatning uzatish funksiyasini ko‘rib chiqamiz:

$$W(p) = L[C(t)] = \int_0^{\infty} e^{-pt} C(t) dt. \quad (2.69)$$

(2.69) ifodada  $r = 0$  deb, quyidagini olamiz:

$$W(0) = \int_0^{\infty} C(t) dt = M_0^t. \quad (2.70)$$

Shunday qilib,  $r = 0$  ga teng bo‘ganda apparatning uzatish funksiyasi impulsli g‘alayonga javob bo‘lgan funksianing nolinchi boshlang‘ich momentiga tengdir.

$r$  o‘zgaruvchi bo‘yicha  $W(r)$  uzatish funksiyasini differensiallaymiz va  $r = 0$  nuqtada hosilaning qiymatini ko‘rib chiqamiz:

$$\begin{aligned} \frac{dW(p)}{dp} \Big|_{p=0} &= \left[ \int_0^{\infty} e^{-pt} C(t) dt \right]_p \Big|_{p=0} = \\ &= \int_0^{\infty} \frac{d}{dp} [e^{-pt} C(t) dt] \Big|_{p=0} = \int_0^{\infty} -t C(t) dt = -M_1. \end{aligned} \quad (2.71)$$

Shunday qilib, quyidagini olamiz:

$$W_p'(0) = -M_1. \quad (2.72)$$

Shunga o‘xshash holda,  $r$  bo‘yicha uzatish funksiyasi  $W(p)$  dan olingan ikkinchi tartibli hosilani ko‘rib chiqamiz:

$$\frac{d^2 W(p)}{dp^2} \Big|_{p=0} = \int_0^{\infty} t^2 C(t) dt = M_2 \quad (2.73)$$

yoki

$$W_p''(0) = -M_2. \quad (2.74)$$

Nihoyat, umumiy holda  $n$  – tartibli hosila uchun quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$W_p^n(0) = (-1)^n M_n^t. \quad (2.75)$$

### 2.3. Ideal aralashtirish va ideal siqib chiqarish modellari

Bo‘lib o‘tishning vaqt bo‘yicha taqsimlashini hisobga olib, barcha o‘zaro ta’sirlashuvchi diffuziyali va issiqlik oqimlarning xilma-xilligini quyidagi tipik matematik modellar ko‘rinishida shakllantirish mumkin: ideal aralashtirish, ideal siqib chiqarish, diffuziyali, yacheykali, sirkulyatsion va kombinatsiyalangan. Sanab o‘tilgan tipik modellar quyidagi talablarga javob beradi:

- 1) ko‘rilayotgan sharoitlarda real oqimning asosiy fizik qonuniyatlarini aks ettiradi;
- 2) yetarlicha soddadir;
- 3) tajribaviy yoki nazariy model parametrlarini aniqlashga imkon beradi;
- 4) konkret jarayonlarni hisoblash uchun ulardan foydalanishga imkon beradi.

Bu paragrafda ideal aralashtirish va ideal siqib chiqarish modellari ko‘rib chiqiladi.


Ideal aralashtirish modeli apparatga kirayotgan modda uning butun hajmi bo‘yicha bir onda taqsimlanadigan apparatga muvofiq keladi. Apparatning istalgan nuqtasida moddaning konsentratsiyasi uning chiqishdagi konsentratsiyasiga teng. Ideal aralashtirish modelining tenglamasi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$V \frac{dC}{dt} = v(C_{kir} - C), \quad (2.76)$$

bunda,  $C_{kir}$  — moddaning kirishdagi konsentratsiyasi;  $C$  — moddaning apparatdagi va chiqishdagi konsentratsiyasi;  $V$  — apparatning hajmi;  $v$  — apparatdan o‘tayotgan oqimning hajmiy sarfi.

Yuvib ketish usuli uchun kirish g‘alayonga ideal aralashtirish modelining javobi  $C_n$  boshlang‘ich konsentratsiyali kamayuvchi eksponensial bog‘liqlikka muvofiqdir (2.9-rasmida 1-egri chiziq):

$$C(t) = C_n e^{-t/\bar{t}} \quad (2.77)$$



**2.9-rasm.** Ideal aralashtirish modeli uchun javob funksiyalari:

- 1- yuvib ketish usuli (indikatorni impulsli kiritish usuli);
- 2- indikatorni pog‘onali kiritish usuli.

Impulsli g‘alayonda tenglama o‘xshash ko‘rinishga ega, chunki  $g$  miqdorda kiritilgan indikator butun hajm bo‘yicha bir onda taqsimlanadi va uning yuvib ketilishi boshlanadi. Unda boshlang‘ich konsentratsiya  $C_n = g / V$  ga teng. Mos ravishda uning appartdan chiqishdagi konsentratsiyasining o‘zgarishi (2.77) tenglama bilan tavsifланади (2.9-rasmagi 1-egri chiziq).

Indikatorning pog‘onali kiritilganda konsentratsiyaning  $t = 0$  vaqt momentida  $C = 0$  dan  $C = C_{kir}$  gacha sakrash ko‘rinishdagi o‘zgarishiga bo‘lgan javob funksiyasi quyidagi ko‘rinishni qabul qiladi (2.9-rasmida 2-egri chiziq):

$$C(t) = C_{kir} (1 - e^{-t/\bar{t}}). \quad (2.78)$$

Ideal aralashtirish apparatining uzatish funksiyasi modelning kirish tenglamasini Laplas bo‘yicha o‘zgartirish yordamida aniqlanadi va quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W(p) = \frac{1}{1 + tp} \quad (2.79)$$

Ideal aralashtirish modeli ancha soddaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qator hollarda uning qo'llanishi to'la asoslangan. Bu birinchi navbatda akslantiruvchi to'siqlari bor jadal aralashtiruvchi apparatlarga tegishlidir (aralashtirgichli apparatlar, aralashtirish tezliklari katta bo'lgan sharoitlardagi osti sferalisilindrik apparatlar va h.k.).

Ideal siqib chiqarish modelining asosida harakatga perpendikular yo'nalishda bir maromda taqsimlangan moddaning aralashtirishsiz porshenli oqish farazi yotadi. Tizimda barcha zarralarning bo'lish vaqtini bir xil va tizim hajmini suyuqlikning hajmiy sarfiga nisbatiga teng. Bunday oqim, masalan, quvurli apparatda suyuqlikning turbulentli oqish rejimida bo'lishi mumkin. Bu holda tezliklar profilini bir maromli, ya'ni oqimning ayrim elementlarini bo'lishi vaqtini bir xil deb hisoblasak bo'ladi. Ideal siqib chiqarish modelining tenglamasi quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\frac{dC}{dt} + u \frac{dC}{dx} = 0, \quad (2.80)$$

bunda,  $t$  — vaqt,  $x$  —  $i$  tezlik bilan bo'ylama bo'yicha ko'chayotgan moddaning koordinatasi.

Quyidagi boshlang'ich


$$t = 0, \quad 0 < x \leq 1 \text{ da } C(0, x) = C_b(x) \quad (2.81)$$

va chegaraviy  $x = 0, \quad t > 0$  da  $C(t, 0) = C_{kir}(x)$  (2.82)  
shartlarni qanoatlantiradigan (2.80) tenglananining yechimi quyidagicha:


$$C(t, l) = \begin{cases} C_n(l - tu), & t < \frac{l}{u}, \\ C_{kir}(t - \frac{l}{u}), & t \geq \frac{l}{u}. \end{cases} \quad (2.83)$$

(2.83) tenglananining yechimidan kelib chiqadiki, ideal siqib chiqarish apparati kirishidagi konsentratsiyaning ixtiyoriy o'zgarishi uning chiqishida o'rtacha bo'lish vaqtini  $\bar{t} = l / i$  (bunda,  $l$  - apparat uzunligi) ga teng vaqtidan keyin sodir bo'ladi.

(2.83) tenglananining yechimiga muvofiq ideal siqib chiqarish modeli uchun impulsli va pog'onali g'alayonlarga javoblar mos ravishda 2.10 va 2.11-rasmlarda ko'rsatilgan:



**2.10-rasm.** Ideal siqib chiqarish modeli uchun impulsli g‘alayonga javob.



**2.11-rasm.** Ideal siqib chiqarish modeli uchun pog‘onali g‘alayonga javob.

Ideal siqib chiqarish apparatlari uchun uzatish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W(p) = e^{-pt}. \quad (2.84)$$

Ideal siqib chiqarish modeliga birinchi yaqinlashish quvur uzunligining diametriga bo‘lgan nisbati katta bo‘lgan quvurli apparatlarda yuz beradigan jarayonlarga mos keladi.

#### 2.4. Diffuziyali model

*Bir parametrli diffuziyali modelning asosiy tenglamasi.*

Diffuziyali model asosida oqimning strukturasi, molekular diffuziya tenglamasiga o‘xshash tenglama bilan tavsiflanadi degan taxmin yotadi. Model parametri – bo‘ylama aralashtirish koeffitsiyenti bo‘lib, u yana turbulent diffuziya koeffitsiyenti deb ham ataladi (yoki teskari aralashtirish koeffitsiyenti).

Model tenglamasini chiqarish uchun apparatning  $\Delta x$  elementi uchun material balans tenglamasini tuzamiz (2.12-rasmida ko‘rsatilganidek). Quyidagi

belgilanishlar qabul qilinadi:  $F$  – apparatning kesimi,  $m^2$ ;  $i$  - oqimning tezligi,  $m/s$ ;  $t$  — vaqt, sek;  $S$ —indikatorning konsentratsiyasi,  $kg/m^3$ ;  $D_l$ —bo‘ylama aralashtirish ko‘effitsiyenti  $m^2 /s$ .

Ko‘rilayotgan elementga konvektiv oqim  $uFC$  va turbulent diffuziyasi hosil qiladigan oqim  $D_l F \frac{d}{dx} (C + \frac{dC}{dx} \Delta x)$  kelib tushadi, ko‘rilayotgan elementni esa konvektiv oqim  $uF (C + \frac{dC}{dx} \Delta x)$  va turbulent diffuziya hosil qiladigan oqim  $D_l F \frac{dC}{dx}$  lar tark etadi.

Moddaning saqlash qonuniga muvofiq kirish va chiqish oqimlari orasidagi ayirma ko‘rilayotgan elementda modda (indikatorni) to‘plashini tashkil qilishi kerak. U  $F \Delta x \frac{dC}{dt}$  ga teng. Endi moddaning saqlashni tenglamasini yozamiz:


**To‘plash = Moddaning kelishi – Moddaning sarflanishi** (2.85)

Yoki

$$F dx \frac{dC}{dt} = uFC + D_l F \frac{d}{dx} (C + \frac{dC}{dx} \Delta x) - uF (C + \frac{dC}{dx} \Delta x) - D_l F \frac{dC}{dx} \quad (2.86)$$

Oxirgi tenglamani o‘zgartirgan holda  $\Delta x \rightarrow 0$  limitga o‘tib, quyidagini olamiz:

$$\frac{dC}{dt} = D_l \frac{d^2 C}{dx^2} - u \frac{dC}{dx}. \quad (2.87)$$




**2.12-rasm.** Diffuzion modeli tenglamasini chiqarishga oid.

**2.13-rasm.** Apparatning chap chegarasidagi oqimlar sxemasi.

(2.87) tenglama diffuziyali modelning asosiy tenglamasıdır. (2.87) tenglama uchun boshlang‘ich va chegaraviy shartlariga to‘xtalib o‘tamiz. Ko‘rinib turibdiki, bitta boshlang‘ich va ikkita chegaraviy shartlar berilishi kerak. Boshlang‘ich shart sifatida odatda vaqtning boshlang‘ich momentida apparat bo‘yicha konsentratsiyalar profili beriladi:

$$t = 0 \text{ da } S(0, x) = C_b(x). \quad (2.88)$$

Chegaraviy shartlar apparatning chegaralaridagi material balans shartlaridan (Dankverts bo‘yicha shartlar) kelib chiqib berilishi mumkin. Apparatning oqim qandaydir o‘rtacha tezlik bilan keladigan chap chegarasini ko‘rib chiqamiz (2.13-rasm).



**2.14-rasm.** Apparatning o‘ng chegarasidagi oqimlar sxemasi.

$x = 0$  chegaraga yaqinlashayotgan modda oqimlarining yig‘indisi chegaradan chiqayotgan moddaning oqimiga teng bo‘lishi kerak. Unda quyidagini olamiz:

$$uC_{kir} + D_l \frac{dC}{dx} = uC \quad (2.89)$$

yoki

$$u(C_{kir} - C) + D_l \frac{dC}{dx} = 0. \quad (2.90)$$

Apparatning o‘ng chegarasi uchun (2.14-rasm) quyidagi ifodaga egamiz:

$$uC = uC_{chiq} + D_l \frac{dC}{dx}. \quad (2.91)$$

Amalda ko‘pincha  $S \approx S_{chiq}$  deb qabul qilinadi. Buni hisobga olib (2.91) chegaraviy shart quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\frac{dC}{dx} = 0. \quad (2.92)$$

(2.90), (2.92) shartlar *Dankverts bo'yicha chegaraviy shartlar* deb ataladi.

Ko'rilgan bir parametrli diffuziyali model bilan bir qatorda gohida ikki parametrli diffuziyali model ham ishlataladi. Uning farqi shundaki, oqimning aralashtirilishi nafaqat bo'ylama, balki radial yo'nalishida hisobga olinadi. Shunday qilib, ikki parametrli diffuziyali model ikki parametr bilan tavsiflanadi: bo'ylama  $D_l$  va radial  $D_r$  aralashtirish koeffitsiyentlari. Bo'ylama va radial aralashtirish koeffitsiyentlari apparatning uzunligi va kesimi bo'yicha o'zgarmaydi deb qabul qilinadi. Silindrik shaklli apparatda oqimning harakati bir o'lchamli va o'rtacha tezligi  $u$  uzunlik va kesim bo'yicha o'zgarmas bo'lganda diffuziyali modelning ikki parametrli tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\frac{dC}{dt} + u \frac{dC}{dx} = D_l \frac{d^2 C}{dx^2} + \frac{D_r}{r} \frac{d}{dr} \left( r \frac{dC}{dr} \right). \quad (2.93)$$

Agar boshlang'ich va chegaraviy shartlar quyidagi ko'rinishda berilgan bo'lsa

$$S(0, x, r) = 0 \quad t = 0 \text{ da}, \quad (2.94)$$

$$r = 0, \quad C(t, 0, 0) = C_0 \delta(0) \quad x = 0 \text{ da}, \quad (2.95)$$

$$r = R \text{ da } \frac{dC(t, x, R)}{dr} = 0 \quad (2.96)$$

$$x = 0 \text{ da } uC(t, 0, r) - D_l \frac{dC(t, 0, r)}{dx} = 0 \quad (2.97)$$

$$x = l \text{ da } \frac{dC(t, l, r)}{dx} = 0 \quad (2.98)$$

unda ikki parametrli diffuziyali model tenglamasining yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$C(z, p, \theta) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{C_0 (k_0 - \frac{1}{2D_z})}{2k_0} e^{-\lambda_n^2 \theta} j_0(x_n p) * \\ * \left[ e^{(\frac{1}{2D_z} - k_0)^z} + \frac{k_0 + D_z / 2}{k_0 - D_z / 2} e^{(\frac{1}{2D_z} - k_0)^z} \right]. \quad (2.99)$$

Bu yerda  $z = x/l$ ;  $p = r/R$ ;  $\theta = t/\bar{t}$ ;  $t = l/u$ ;  $D_z = D_l \bar{t}/l$ ;  $J_0$  birinchi turdagি nolinchi tartibli Bessel funksiyasi;  $X_n$  – birinchi turdagи birinchi tartibli

Bessel funksiyasining ildizi;  $k_0$  ildiz  $e^k = \frac{1/2 D_z + k}{1/2 D_z - k}$  tenglamani qanoatlantiradi ;

$R$  – apparatning radiusi.

Ikki parametrli diffuziyali model uzunligining diametrga nisbatli katta bo‘lmagan va oqimlar tezligining ko‘ndalang notejisligi katta bo‘lgan kolonna tipidagi apparatlarda qo‘llaniladi. Yechilishining murakkabligi tufayli bunday model bir parametrliga nisbatan ancha kam ishlatiladi, shuning uchun keyinchalik faqat bir parametrli diffuziyali modellarni ko‘rib chiqamiz.

Diffuziyali modelning o‘lchamsiz yozilish shakli. Quyidagi o‘lchamsiz o‘zgaruvchilarni kiritamiz:

$$z = x / l, \quad (2.100)$$

$$\theta = t / \bar{t} \quad (2.101)$$

va (2.87) tenglamani quyidagi ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$\frac{\bar{t}}{t} \frac{dC}{dt} + \frac{u}{l} l \frac{dC}{dx} = \frac{D_l}{l^2} l^2 \frac{d^2 C}{dx^2}. \quad (2.102)$$

Kiritilgan o‘zgaruvchilarni hisobga olib, quyidagini olamiz:

$$\frac{1}{\bar{t}} \frac{dC}{d\theta} + \frac{u}{l} \frac{dC}{dz} = \frac{D_l}{l^2} \frac{d^2 C}{dz^2} \quad (2.103)$$

yoki

$$\frac{ul}{D_l} \frac{dC}{d\theta} + \frac{ul}{D_l} \frac{dC}{dz} = \frac{d^2 C}{dz^2}. \quad (2.104)$$

(2.104) tenglananing chap qismidagi ko‘paytuvchi  $(ul) / D_l$  Pekle ( $Re$ ) o‘lchamsiz sonni ifoda etadi. Unda oxirgi tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozishimiz mumkin:

$$Pe \frac{dC}{d\theta} + Pe \frac{dC}{dz} = \frac{d^2 C}{dz^2}. \quad (2.105)$$

(2.91), (2.92) chegaraviy shartlarni o‘lchamsiz shaklga keltiramiz va quyidagilarni olamiz:

$$z = 0 \text{ da } (C_{kir} - C) + \frac{1}{Pe} \frac{dC}{dz} = 0 \quad (2.106)$$

$$z = 1 \text{ da } \frac{dC}{dz} = 0 \quad (2.107)$$

Impulsli va pog'onali g'alayonlarga diffuziyali modelning javob funksiyasi. Avval impulsli g'alayonga diffuziyali modelning javob funksiyasini ko'rib chiqamiz.

Foydalani layotgan chegara shartlaridan kelib chiqib, cheksiz, yarim cheksiz apparatlar va cheklangan uzunlikdag'i apparatlar uchun yechimlar olingan.

Oxirgi holatda yechim cheksiz sekin yaqinlashayotgan qator ko'rinishida ifodalanadi:

$$C(\theta) = \sum_{i=1}^{\infty} \frac{2\lambda_i^2 \exp\left(\frac{Pe}{2} - \frac{Pe}{4}\theta - \lambda_i^2 \frac{4\theta}{Pe}\right)}{\left(1 + \frac{Pe}{2}\right)\lambda_i \sin 2\lambda_i - \left[\frac{Pe}{4} + \left(\frac{Pe}{4}\right)^2 - \lambda_i^2\right] \cos 2\lambda_i}, \quad (2.108)$$


bunda,  $\lambda$  – transendent tenglamalarning ildizlari

$$\frac{\lambda_i}{2} \operatorname{tg} \frac{\lambda_i}{2} = \frac{Pe}{4} \quad (i = 1, 3, 5, \dots); \quad (2.109)$$


$$\frac{\lambda_i}{2} \operatorname{ctg} \frac{\lambda_i}{2} = -\frac{Pe}{4} \quad (i = 2, 4, 6, \dots). \quad (2.110)$$

(2.15-rasmda bu tenglamalar grafiklari ko'rsatilgan).


$v > 0,01$  va  $Pe < 10$  sohada (2.108) ni yechimi qoniqarli natijalarni beradi. Ko'rsatilgan limitlardan tashqarida approksimatsiyalangan yechimdan foydalanish kerak (2.16 va 2.17 rasmlar).



**2.15-rasm.** (2.109), (2.110) transendent tenglamalar ildizlarining grafik talqini.



**2.16rasm.** Diffuziyali model uchun impulsli g‘alayonga javob.



**2.17-rasm.** Diffuziyali model uchun pog‘onali g‘alayonga javob.

Endi pog‘onali g‘alayonga javob funksiyasini ko‘rib chiqamiz. Chekli o‘lchamli apparat uchun Dankverts chegaraviy shartlariga muvofiq keluvchi javob funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$F(\theta) = 1 - 2Pe \cdot \exp\left(-\frac{Pe}{2}\right) \sum_{i=1}^{\infty} \frac{(-1)^{i+1} \lambda_i^2 \left(-\frac{Pe}{4}\theta\right)}{\left(\lambda_i^2 + \frac{Pe^2}{4}\right)\left(\lambda_i^2 + \frac{Pe^2}{4} + Pe\right)}. \quad (2.111)$$

Oldingi holdagidek, (2.111) tenglamaning yechimi sekin yaqinlashayotgan qator ko‘rinishga ega. Qoniqarli yechimga  $\theta > 0,01$  va  $Pe < 10$  sohada erishish mumkin.  $\lambda$  – qiymatlar (2.109), (2.110) tenglamalarning ildizlaridir.

**Diffuziyali modelning uzatish funksiyasi.** Diffuziyali modelning uzatish funksiyasini olish uchun boshlang‘ich modelga ((2.105), (2.106), (2.107) tenglamalari) Laplas o‘zgartirishini qo‘llaymiz. Bunda, impulsli g‘alayon sodir bo‘lmoqda deb taxmin qilamiz.

Natijada quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$Pep \tilde{C} + Pe \frac{d\tilde{C}}{dz} = \frac{d^2\tilde{C}}{dz^2} \quad (2.112)$$

yoki

$$\frac{d^2\tilde{C}}{dz^2} - Pe \frac{d\tilde{C}}{dz} - Pep \tilde{C} = 0. \quad (2.113)$$

Chegaraviy shartlar mos ravishda quyidagi ko‘rinishlarda yoziladi:

$$z = 0 \text{ da } 1 - \tilde{C} + \frac{1}{Pe} \frac{d\tilde{C}}{dz} = 0, \quad (2.114)$$

$$z = 1 \text{ da } \frac{d\tilde{C}}{dz} = 0. \quad (2.115)$$

Vaqt bo'yicha yig'ishtirilgan (2.113) diffuziyali modelning tenglamasi ikkinchi tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglamani ifodalaydi. Uni Laplas bo'yicha o'zgartirilib  $\tilde{C}(p)$ , izlanayotgan konsentratsiyaga nisbatan yechamiz. Xarakteristik tenglamani yozamiz

$$k^2 - Pek - Pep = 0. \quad (2.116)$$

Xarakteristik tenglamaning ildizlari quyidagicha:

$$k_{1,2} = \frac{Pe}{2} \pm \sqrt{\frac{Pe^2}{4} + Pep}. \quad (2.117)$$

Bundan, quyidagilarni belgilab,

$$\beta = \frac{Pe}{2}, \quad (2.118)$$

$$\alpha = \sqrt{\frac{Pe^2}{4} + Pep}, \quad (2.119)$$

quyidagi ifodalarni olamiz:

$$k_1 = \beta + \alpha, \quad (2.120)$$

$$k_2 = \beta - \alpha, \quad (2.121)$$

Demak, (2.113) tenglamaning umumiylarini yechimi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\tilde{C} = A_1 e^{k_1 z} + A_2 e^{k_2 z} = A_1 e^{(\beta + \alpha)z} + A_2 e^{(\beta - \alpha)z} \quad (2.122)$$

(2.114),(2.115) chegaraviy shartlardan foydalanib,  $A_1$  va  $A_2$ , konstantalarni baholaymiz. Oldin  $\frac{d\tilde{C}}{dz}$  hosilaning qiymatini topamiz:

$$\frac{d\tilde{C}}{dz} = A_1(\beta + \alpha)e^{(\beta+\alpha)z} + A_2(\beta - \alpha)e^{(\beta-\alpha)z}. \quad (2.123)$$

$z = 0$  da birinchi chegaraviy shart bo‘yicha quyidagi kelib chiqadi:

$$1 - A_1 - A_2 + \frac{1}{Pe}(A_1(\beta + \alpha) + A_2(\beta - \alpha)) = 0, \quad (2.124)$$

Bundan  $a = \frac{\alpha}{\beta}$  deb faraz qilib, quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$1 - A_1 - A_2 + A_1 \frac{1}{2}(1+a) + A_2 \frac{1}{2}(1-a) = 0. \quad (2.125)$$

Ikkinci chegaraviy shartga muvofiq  $z = 1$  da quyidagi kelib chiqadi:

$$A_1(1+a)e^{(\beta+\alpha)} + A_2(1-a)e^{(\beta-\alpha)} = 0. \quad (2.126)$$

(2.126) tenglamadan  $A_1$  konstantani aniqlaymiz:

$$A_1 = \frac{(a-1)e^{-a}}{(a+1)e^a} A_2. \quad (2.127)$$

uni (2.125) tenglamaga qo‘yib, quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$1 + \frac{1}{2} \frac{(a-1)^2}{(a+1)} e^{-2a} A_2 - A_2 \frac{1}{2}(a+1) = 0. \quad (2.128)$$

bu yerda

$$A_2 = \frac{2(a+1)e^a}{(a+1)^2 e^a - (a-1)^2 e^{-a}}. \quad (2.129)$$

(2.129) ni (2.127) ga qo‘yib,  $A_1$  ni topamiz:

$$A_1 = \frac{2(a-1)e^{-a}}{(a+1)^2 e^a - (a-1)^2 e^{-a}}. \quad (2.130)$$

Endi (2.113) tenglananing yechimini quyidagicha yozish mumkin:

$$\tilde{C}(p) = \frac{4ae\beta}{(a+1)^2 e^a - (a-1)^2 e^{-a}}. \quad (2.131)$$

Impulsli g‘alayon uchun uzatish funksiyasi  $W(p)$  ning ifodasi  $S(r)$  yechim bilan mos keladi. Unda diffuziyali modelning uzatish funksiyasi uchun quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lamiz:

$$W(p) = \frac{4ae\beta}{(a+1)^2 e^a - (a-1)^2 e^{-a}}. \quad (2.132)$$

**Diffuziyali modelning Re parametr bahosi.** Oqim tarkibi bo‘yicha tipik g‘alayonga tizim javobining tajribaviy funksiyalari bo‘yicha Re sonni aniqlash masalasini ko‘rib chiqamiz. Aniqlash usullarini ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) (2.105) tenglamaning yechimidan foydalanuvchi usullar; 2) javob funksiyasining statistik parametrlari va modelning parametrlari orasida aloqa tenglamalari asosida ifodalanuvchi usullar  $Pe$  ni aniqlash uchun birinchi guruh usullari yordamida (2.105) tenglamaning yechimini bilish kerak. Bunda yechimlar mavjud ((2.108)-(2.110) tenglamalarga qarang). Bu echimlar sekin yaqinlashuvchi qator ko‘rinishiga ega bo‘lganligi sababli, bu yechimlardan amaliy foydalanish qiyin. Keyingi bosqichda analitik yechimdan foydalanib,  $Pe$  ning quyidagi mezонни qanoatlantiradigan qiymati tanlanadi:

$$\sum_i (C_i^E - C_i^H)^2 = \min, \quad (2.133)$$

bu yerda  $C_i^E$  va  $C_i^H$  – mos ravishda tajriba va (2.105) tenglama bo‘yicha hisoblangan konsentratsiya qiymatlari.

Ikkinci guruh usullari eng ko‘p tarqalgan, shularni ko‘rib chiqishga kirishamiz.

Oqim elementlarining apparatda bo‘lish vaqtiga taqsimlanishini tajribaviy egri chiziqlarining momentli tavsiflari va diffuziyali model parametrlari orasida aloqa tenglamalarini keltirib chiqaramiz.

Faraz qilamizki, bo‘ylama aralashtirish bo‘lib o‘tuvchi yopiq apparatdan oqim oqib o‘tadi. Sinovlar impulsli g‘alayon usuli bilan olib borilmoqda. Oqimning tezligi (chiziqli)  $i$  ga ( $m/s$ ); apparatning ko‘ndalang kesimining yuzasi  $F$  ( $m^2$ ) ga ; apparat uzunligi  $l(m)$  ga teng. Apparatning kirishiga impulsli g‘alayon berilmoqda, javob esa uning chiqishi(mos ravishda nuqtalar  $x = 0$  va  $x = 1$ ) da aniqlanadi. Apparatga kiritiluvchi indikator miqdori  $g$  ga teng.

Diffuziyali modelning tenglamasini yozamiz:

$$\frac{d^2 C}{dx^2} - \frac{u}{D_l} \frac{dC}{dx} = \frac{1}{D_l} \frac{dC}{dt}. \quad (2.134)$$

$x = 0$  da chegaraviy shartlarni material balans tenglamasidan shu kesim uchun aniqlaymiz:

$$FuC_{kir} + g\delta(t) + FD_l \frac{dC}{dt} = FuC. \quad (2.135)$$

Kirayotgan oqimdagи indikator konsentratsiyasi  $C_{kir} = 0$  bo‘lganligi uchun, (2.135) tenglamaning chap qismidagi birinchi a’zo ham nolga teng, unda

$$uC - D_l \frac{dC}{dx} = \frac{g}{F} \delta(t). \quad (2.136)$$

$x = 1$  da material balansi tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$uC F = uC_{chiq} F + FD_l \frac{dC}{dx}. \quad (2.137)$$

$x = 1$  da  $C = C_{chiq}$  bo‘lganligi uchun:

$$D_l \frac{dC}{dx} \text{ va } \frac{dC}{dx} = 0 \quad (2.138)$$

Diffuziyali model tenglamasini o‘zgartiramiz, buning uchun (2.134) tenglamaning ikkala qismini  $t$  ga ko‘paytiramiz va 0 dan  $\infty$  gacha bo‘lgan oraliqda  $t$  bo‘yicha integrallaymiz:

$$\int_0^\infty t \frac{d^2 C}{dx^2} dt - \frac{u}{D_l} \int_0^\infty t \frac{dC}{dx} dt = \frac{1}{D_l} \int_0^\infty t \frac{dC}{dx} dt. \quad (2.139)$$

$\int_0^\infty t C dt$  ni  $J$  deb belgilaymiz.  $\int_0^\infty t^n C dt$  qiymat  $n$ -tartibli boshlang‘ich momentdir. Unda (2.139) tenglama quyidagi ko‘rinishga o‘tadi:

$$\frac{d^2 J}{dx^2} - \frac{u}{D_l} \frac{dJ}{dx} = - \frac{1}{D_l} I \quad (2.140)$$

Haqiqatan ham,

$$\int_0^\infty t \frac{d^2 C}{dx^2} dt = \frac{d^2}{dx^2} \int_0^\infty t C dt = \frac{d^2 J}{dx^2}. \quad (2.141)$$

$$\frac{u}{D_l} \int_0^\infty t \frac{dC}{dx} dt = \frac{u}{D_l} \frac{d}{dx} \int_0^\infty t C dt = \frac{u}{D_l} \frac{dJ}{dx}. \quad (2.142)$$

$$\int_0^\infty t \frac{dC}{dt} = dt = \int_0^\infty t dC = I. \quad (2.143)$$

Bo'laklab integrallab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\int_0^\infty dt C = tC \Big|_0^\infty - \int_0^\infty Ctdt = \int_0^\infty Ctdt, \quad (2.144)$$

Chunki indikatorning konsentratsiyasi vaqtning oxirgi momentida nolga teng. O'xshash tarzda (2.136) va (2.138) chegaraviy shartlarni o'zgartiramiz.  $x = 0$  da quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\int_0^\infty tCdtdt - \frac{D_l}{u} \int_0^\infty t \frac{dC}{dx} dx = \frac{g}{Fu} \int_0^\infty t\delta(t)dt. \quad (2.145)$$

Bu yerda  $\int_0^\infty t\delta(t)dt$   $\delta$ -funksiyaning xossasi hisobiga  $\int f(t)\delta(t)dt = f(t)$  teng. G'alayon  $t \rightarrow 0$  vaqt mobaynida bo'lib o'tganligi uchun, bu nuqtada  $f(t) = 0$  bo'ladi. Shuning uchun

$$J - \frac{D_l}{u} \frac{dJ}{dx} = 0. \quad (2.146)$$

$x = l$  da

$$\frac{dJ}{dx} = 0 \quad (2.147)$$

Endi (2.140) tenglanaming yechimini topamiz. Buning uchun uning tartibini pasaytiramiz.

Faraz qilaylik

$$z = \frac{dJ}{dx} \quad (2.148)$$

Unda (2.140) tenglama quyidagi ko'rinishga o'tadi:

$$\frac{dz}{dx} - \frac{u}{D_l} z = -\frac{u}{D_l}. \quad (2.149)$$

(2.149) tenglama bir jinsli emasligi uchun, avval quyidagi bir jinsli mos keluvchi tenglanaming yechimni topamiz:

$$\frac{dz}{dx} - \frac{u}{D_l} z = 0. \quad (2.150)$$

O‘zgaruvchilarni bo‘lish usulini qo‘llab, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{dz}{z} = \frac{u}{D_l} dx. \quad (2.151)$$

yoki

$$\int \frac{dz}{z} = \int \frac{u}{D_l} dx + \ln C_1, \quad (2.152)$$

$$\ln z = \frac{u}{D_l} x + \ln C_1. \quad (2.153)$$

Bundan kelib chiqib

$$z = C_1 e^{\frac{u}{D_l} x}. \quad (2.154)$$

Endi  $C_1$  ni o‘zgaruvchi  $C_1(x)$  sifatida qaraymiz. Topilgan bir jinsli tenglama (2.150) ning yechimini boshlang‘ich (2.149) tenglamaga qo‘yib, quyidagini topamiz:

$$C_1(x) e^{\frac{u}{D_l} x} \frac{u}{D_l} + C_1(x) e^{\frac{u}{D_l} x} - \frac{u}{D_l} C_1(x) e^{\frac{u}{D_l} x} = -\frac{I}{D_l}, \quad (2.155)$$

$$[C_1(x)]_x e^{\frac{u}{D_l} x} = -\frac{I}{D_l}. \quad (2.156)$$

(2.156) tenglamani izlanayotgan funksiya  $C_1(x)$  ga nisbatan yechamiz:

$$\frac{dC_1(x)}{dx} = -\frac{I}{D_l} e^{\frac{u}{D_l} x}, \quad (2.157)$$

$$\int dC_1(x) = \int -\frac{I}{D_l} e^{\frac{u}{D_l} x} dx + C, \quad (2.158)$$

$$C_1(x) = \frac{I}{D_l} e^{\frac{u}{D_l} x} + C. \quad (2.159)$$

Endi bir jinsli bo‘lmagan (2.149) tenglamaning umumiy yechimi (2.154) quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$z = \left( \frac{I}{u} e^{-\frac{u}{D_l}x} + C \right) e^{-\frac{u}{D_l}x}. \quad (2.160)$$

Izlanayotgan funksiya  $J$  uchun (2.160) yechimini yozamiz.

$$dJ = zdx, \quad (2.161)$$

bo‘lganligi sababli

$$\int dJ = \int \left( \frac{I}{u} + Ce^{\frac{u}{D_l}x} \right) dx + C_2, \quad (2.162)$$

$$J = \frac{I}{u}x + C \frac{D_l}{u} e^{\frac{u}{D_l}x} + C_2 \quad (2.163)$$

Chegaraviy shartlardan foydalanib (2.163) yechimda  $S$  va  $S_2$  konstantalarni aniqlaymiz.

$$x = 0 \text{ da } J - \frac{D_l}{u} \frac{dJ}{dx} = 0 \quad (2.164)$$

ya’ni

$$C \frac{D_l}{u} + C_2 - \frac{D_l}{u} \left( \frac{I}{u} + C \right) = 0, \quad (2.165)$$

bu yerdan

$$C_2 = \frac{D_l I}{u^2} \quad (2.166)$$

O‘xshash tarzda quyidagi shartdan foydalanib, (2.168) dagi ifodani topamiz:

$$x = l \text{ da } \frac{dJ}{dx} = 0 \quad (2.167)$$

$$\frac{I}{u} + Ce^{\frac{u}{D_l}l} = 0, \quad (2.168)$$

Bundan quyidagi ifoda hosil bo‘ladi:

$$C = -\frac{I}{u} e^{\frac{u}{D_l}l} = 0. \quad (2.169)$$

Unda (2.163) yechim quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$J = \frac{I}{u}x + \left(-\frac{I}{u}\right)e^{-\frac{u}{D_l}l} \frac{D_l}{u} e^{\frac{u}{D_l}l} + \frac{D_l I}{u^2} = \frac{I}{u}x + \frac{D_l I}{u^2} - \frac{D_l I}{u^2} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)}. \quad (2.170)$$

$x = l$  da

$$J = \frac{I}{u}l + \frac{D_l I}{u^2} - \frac{D_l I}{u^2} e^0 = \frac{I}{u}l. \quad (2.171)$$

Bu yerdan

$$\frac{J}{I} = \frac{\frac{1}{0} \int_{-\infty}^{\infty} t C dt}{\frac{1}{0} \int_{-\infty}^{\infty} C dt} = \frac{l}{u} = \bar{t}. \quad (2.172)$$

Agar javobning tajribaviy funksiyasi faqat apparatdan chiqish oqimidan aniqlansa, u holda (2.172) tenglama bo'yicha apparatda oqimning o'rtacha bo'lish vaqtini topish mumkin va bundan tashqari apparatning uzunligi ham ma'lum bo'lsa, undagi oqimning tezligini topish mumkin. Agarda javobning egri chiziqlarini ikki nuqtada, chiqishda va ixtiyoriy  $x$  nuqtada aniqlansa, u holda, (2.170), (2.172) tenglamalardan foydalanib, ham  $i$  ham  $D_l$  ni topish mumkin. Nihoyat, agar javob funksiyasi apparatning bir nechta kesimlarida aniqlansa, u holda (2.170) tenglamani

model monandligini tekshirish uchun qo'llash mumkin.  $J = \int_0^\infty t C dt$  kattalikni

tajribaviy taqsimlanishi (2.170) tenglamadagi statistik mezonlardan biriga muvofiq bo'lsa, model monanddir.  $D_l$  yoki  $Pe$  ni apparatdan oqimning chiqishida olingan bitta tajribaviy egri chiziqdan aniqlash mumkin. Javob funksiyadan ikkinchi tartibli moment va modelning parametri orasidagi aloqa tenglamasini topamiz. Buning uchun diffuziyali model tenglamalarining va chegaraviy shartlar  $w$   $t^2$  ning barcha a'zolarini ko'paytiramiz va 0 dan  $\infty$  gacha oraliqda  $t$  bo'yicha integrallaymiz. U vaqtda diffuziyali model tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\frac{d^2 J_\sigma}{dx^2} - \frac{u}{D_l} \frac{d J_\sigma}{dx} = - \frac{2}{D_l} J, \quad (2.173)$$

bu yerda

$$J_\sigma = \int_0^\infty t^2 C dt. \quad (2.174)$$

(2.173) tenglamaning o'ng qismi quyidagi tarzda olingan:

$$\int_0^{\infty} t^2 \frac{dC}{dt} dt = \int_0^{\infty} t^2 dt = t^2 C \Big|_0^{\infty} - \int_0^{\infty} 2tC dt = -2J. \quad (2.175)$$

$l$  uchun ilgari topilgan ifodani qo‘yib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{d^2 J_{\sigma}}{dx^2} - \frac{u}{D_l} \frac{dJ_{\sigma}}{dx} = -\frac{2D_l I}{u^2 D_l} - \frac{2D_l I}{D_l u^2} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + \frac{2I}{D_l u} x. \quad (2.176)$$

O‘xhash tarzda chegaraviy shartlarni yozamiz:

$$x = 0 \text{ da } J_{\sigma} - \frac{D_l}{u} \frac{dJ_{\sigma}}{dx} = 0, \quad (2.177)$$

$$x = 1 \text{ da } \frac{dJ_{\sigma}}{dx} = 0. \quad (2.178)$$

(2.176) tenglamani noma’lum moment  $J_{\sigma}$  nisbatan yechamiz. Bu uchun oldin quyidagi belgini kiritib uning tartibini pasaytiramiz:

$$\frac{dJ_{\sigma}}{dx} = z. \quad (2.179)$$

Unda (2.176) tenglama quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\frac{dz}{dx} - \frac{u}{D_l} z = -\frac{2D_l I}{u^2 D_l} + \frac{2D_l I}{u^2 D_l} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{2I}{uD_l} x. \quad (2.180)$$

(2.180) tenglama birinchi tartibli differensial tenglamani ifodalaydi. Oldin bir jinsli tenglamaning yechimini topamiz:

$$\frac{dz}{dx} - \frac{u}{D_l} z = 0. \quad (2.181)$$

O‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan bu tenglamani yechib, quyidagi ifodani olamiz:

$$z = C_1(x) e^{\frac{u}{D_l}x}. \quad (2.182)$$

Endi bir jinsli bo‘lmagan tenglama (2.180) yechimini topamiz.  $S_1$  konstantani  $x$  ning funksiyasi sifatida qaraymiz. Keyin (2.182) ning yechimini bir jinsli bo‘lmagan tenglama (2.180) ga qo‘yib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$[C_1(x)]_x e^{\frac{u}{D_l}x} + C_1(x) \frac{u}{D_l} e^{\frac{u}{D_l}x} - \frac{u}{D_l} C_1(x) e^{\frac{u}{D_l}x} = \frac{2I}{u^2} + \frac{2I}{u^2} e^{\frac{u}{D_l}x} - \frac{2I}{uD_l} x \quad (2.183)$$

Bu yerdan

$$[C_1(x)]_x = -\frac{2I}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} + \frac{2I}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} - \frac{2Ix}{uD_l} e^{-\frac{u}{D_l}x}, \quad (2.184)$$

$$C_1(x) = -\frac{2I}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} - \frac{2I}{uD_l} \int xe^{-\frac{u}{D_l}x} + \frac{2I}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} - x + C, \quad (2.185)$$

$$\begin{aligned} \int xe^{-\frac{u}{D_l}x} dx &= -\frac{u}{D_l} xe^{-\frac{u}{D_l}x} - \int -\frac{u}{D_l} xe^{-\frac{u}{D_l}x} dx = \\ &= -\frac{D_l}{u} xe^{\frac{u}{D_l}x} + \frac{D_l}{u} \left(-\frac{D_l}{u}\right) e^{-\frac{u}{D_l}x} = -\frac{D_l x}{u} e^{-\frac{u}{D_l}x} - \frac{D_l^2 x}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} \end{aligned} \quad (2.186)$$

$$\begin{aligned} C_1(x) &= \frac{2ID_l}{u^3} e^{-\frac{u}{D_l}x} - \frac{2I}{uD_l} \left(-\frac{D_l x}{u} e^{-\frac{u}{D_l}x} - \frac{D_l^2 x}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x}\right) + \\ &\dots + \frac{2I}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} + C = \frac{2Ix}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} + \frac{2Ix}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} + \frac{4ID_l}{u^3} e^{-\frac{u}{D_l}x} + C. \end{aligned} \quad (2.187)$$

Bu yerdan

$$z = \left( \frac{2Ix}{u^2} + \frac{2Ix}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}(x-l)} + \frac{4ID_l}{u^3} + Ce^{\frac{u}{D_l}l} \right). \quad (2.188)$$

$J_\sigma$  noma'lum funksiya uchun quyidagi yechimni olamiz:

$$J_\sigma = \int \left[ \frac{2Ix}{u^2} + \frac{2I}{u^2} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + \frac{4ID_l}{u^3} + Ce^{\frac{u}{D_l}l} \right] dx + C_2, \quad (2.189)$$

$$\begin{aligned} J_\sigma &= \frac{Ix^2}{u^2} + \frac{2I}{u^2} \left( \frac{D_l x}{u} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{D_l^2}{u^2} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} \right) + \\ &\quad + \frac{4ID_l}{u^3} x + C \frac{D_l}{u} e^{\frac{u}{D_l}x} + C_2. \end{aligned} \quad (2.190)$$

So'nggi tenglamadagi  $C_2$  va  $C$  konstantalarni aniqlaymiz. Buning uchun chegaraviy shartlardan foydalanamiz. Ulardan birinchisi quyidagini beradi:

$$x = 0 \text{ da } J_{\sigma} - \frac{D_l}{u} \frac{dJ_{\sigma}}{dx} = 0 \quad (2.191)$$

ya'ni

$$\begin{aligned} & \frac{Ix^2}{u^2} + \frac{2ID_l x}{u^3} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + C \frac{D_l}{u} e^{\frac{u}{D_l}} + \\ & + \frac{4ID_l x}{u^3} + C_2 - \frac{D_l}{u} \left[ \frac{2Ix}{u^2} + \frac{2Ix}{u^2} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + Ce^{\frac{u}{D_l}x} + \frac{4ID_l}{u^3} \right] = 0. \end{aligned} \quad (2.192)$$

$$\frac{Ix^2}{u^2} - \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + \frac{2ID_l x}{u^3} + C_2 - \frac{4ID_l^2}{u^2} = 0 \quad (2.193)$$

Bu yerdan

$$C_2 = \frac{4ID_l^2}{u^4} + \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{Ix^2}{u^2} - \frac{2ID_l x}{u^3} \quad (2.194)$$

$x = 0$  tengligini hisobga olib, quyidagi ifodani olamiz:

$$C_2 = \frac{4ID_l^2}{u^4} + \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{ul}{D_l}}. \quad (2.195)$$

Ikkinci chegaraviy shart quyidagini beradi:

$$x = l \text{ da } \frac{dJ_{\sigma}}{dx} = 0 \quad (2.196)$$

ya'ni

$$\frac{2Ix}{u^2} + \frac{2Ix}{u^2} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + Ce^{\frac{u}{D_l}} + \frac{4ID_l}{u^3} = 0. \quad (2.197)$$

Bu yerdan

$$C = -\frac{4ID_l}{u^3} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + Ce^{\frac{u}{D_l}x} + \frac{4ID_l}{u^3} = 0 \quad (2.198)$$

Oxirgi tenglamaga  $x = l$  qo'yib, quyidagini topamiz:

$$C = -\frac{4ID_l}{u^3} e^{-\frac{u}{D_l}l} - \frac{2Ix}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}x} - \frac{2Ix}{u^2} e^{-\frac{u}{D_l}l}. \quad (2.199)$$

Shundan kelib chiqib,

$$\begin{aligned}
J_{\sigma} = & \frac{Ix^2}{u^2} + \frac{2ID_l x}{u^3} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + \\
& + \frac{D_l}{u} e^{\frac{u}{D_l}x} \left[ -\frac{4ID_l}{u^3} e^{-\frac{ul}{D_l}} - \frac{2Il}{u^2} e^{-\frac{ul}{D_l}} \right] + \frac{4ID_l x}{u^3} + \frac{4ID_l^2}{u^4} + \\
& + \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{-\frac{ul}{D_l}} = \frac{Ix^2}{u^2} + \frac{2ID_l x}{u^3} e^{-\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \\
& - \frac{4ID_l^2}{u^4} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} - \frac{4ID_l}{u^3} e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + \frac{4ID_l x}{u^3} + \frac{4ID_l^2}{u^4} + \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{ul}{D_l}}. \quad (2.200)
\end{aligned}$$

Tugallovchi natija sifatida quyidagi ifodani olamiz:

$$\begin{aligned}
J_{\sigma} = & \frac{4ID_l^2}{u^4} + \frac{4ID_l x}{u^3} + \frac{Ix^2}{u^2} + \\
& + \left[ \frac{2ID_l x}{u^3} - \frac{6ID_l^2}{u^4} - \frac{4IlD_l}{u^3} \right] e^{\frac{u}{D_l}(x-l)} + \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{\frac{ul}{D_l}} \quad (2.201)
\end{aligned}$$

(2.201) tenglama tajribaviy kattalik  $J_{\sigma}$  ning o‘zgarishini apparat uzunligiga bog‘liqligini tavsiflaydi. (2.170) tenglamadek, u ham  $D_l$  ni aniqlash va modelning monandligini tekshirish uchun qo‘llanilishi mumkin.

$x = l$  da ikkinchi tartibli moment miqdori  $J_{\sigma}$  quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$J_{\sigma}^l = \frac{2ID_l}{u^3} l - \frac{2ID_l^2}{u^4} + \frac{Il^2}{u^2} + \frac{2ID_l^2}{u^4} e^{-\frac{ul}{D_l}}. \quad (2.202)$$

$\frac{J_{\sigma}^l}{I} - \left(\frac{l}{u}\right)^2 = \sigma_t^2$  ikkinchi markaziy moment va dispersiya deb ataladi. Unda

(2.202) tenglamani  $I$  ga bo‘lib va undan  $\left(\frac{l}{u}\right)^2$  ni ayirib, quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$\frac{J_{\sigma}^l}{I} - \left(\frac{I}{u}\right)^2 = \sigma_t^2 = \frac{2ID_l}{u^3} - \frac{2D_l^2}{u^4} + \frac{l^2}{u^2} + \frac{2D_l^2}{u^4} e^{-\frac{ul}{D_l}} - \left(\frac{l}{u}\right)^2 =$$

$$2 \left[ \frac{D_l l}{u^3} - \frac{D_l^2}{u^4} + \frac{D_l^2}{u^4} e^{\frac{ul}{D_l}} \right] \quad (2.203)$$

o‘lchamsiz dispersiya  $\sigma_\theta^2 = \frac{\sigma_t^2}{t^2}$  quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \sigma_\theta^2 &= \frac{\sigma_t^2}{t^2} = 2 \left[ \frac{D_l l u^2}{u^3 l^3} - \frac{D_l^2 u^2}{u^4 l^2} + \frac{D_l^2 u^2}{u^4 l^2} e^{\frac{ul}{D_l}} \right] = \\ &= 2 \left[ \frac{D_l}{ul} - \left( \frac{D_l}{ul} \right)^2 + \left( \frac{D_l}{ul} \right)^2 e^{-\frac{ul}{D_l}} \right] = \frac{2}{Pe^2} [Pe - 1 + e^{-Pe}] \end{aligned} \quad (2.204)$$

$Pe$  ning qiymati 10 dan katta bo‘lsa, quyidagini qabul qilish mumkin:

$$\sigma_\theta^2 \approx \frac{2}{Pe} \quad (2.205)$$

(2.204) tenglama tajribaviy ma’lumotlar bo‘yicha  $Pe$  sonini hisoblash uchun qo‘llanayotgan asosiy tenglamadir. Bunda hisoblashni quyidagi tartibi qo‘llaniladi. Avval mos ravishda  $\sum C \Delta t$ ,  $\sum t C \Delta t$ ,  $\sum t^2 C \Delta t$  yig‘indilar bilan almashtirish mumkin bo‘lgan tajribaviy ergi chiziq bo‘yicha  $\int_0^\infty C dt$ ,  $\int_0^\infty t C dt$ ,  $\int_0^\infty t^2 C dt$  lar aniqlanadi.

Keyin (2.172) tenglama yordamida quyidagi qiymat topiladi:

$$\bar{t} = \frac{\sum t C}{\sum C} \quad (2.206)$$

Keyin quyidagi aniqlanadi:

$$\sigma_t^2 = \frac{\sum t^2 C}{\sum C} - \bar{t}^2 \quad (2.207)$$

Bundan keyin  $\sigma_t^2$  topiladi va nihoyat, (2.204) tenglama bo‘yicha Re kattaligi hisoblanadi.

**Laplas o‘zgartirishi yordamida model parametrlari va bo‘lish vaqtining taqsimlanish egri chizig‘i orasidagi aloqa tenglamalarini olish.** Laplas o‘zgartirishi haqiqiy o‘zgaruvchining  $S(\theta)$  funksiyasiga kompleksli o‘zgaruvchi  $r$  ning  $S(r)$  funksiyasiga mos kelganda (2.208) dagi munosabat yordamida o‘tkaziladi:

$$\tilde{C}(p) = \int_0^{\infty} e^{-p\theta} C(\theta) d\theta \quad (2.208)$$

Integral ostidagi ifodada ko'rsatkichli funksiyani qatorga yoyish mumkin:

$$e^{-p\theta} = 1 - p\theta + \frac{p^2\theta^2}{2!} - \frac{p^3\theta^3}{3!} + \frac{p^4\theta^4}{4!} - \dots \quad (2.209)$$

Bu yoyilishdan foydalаниб,  $S(r)$  үчун ифодани quyidagi ко'ринишда оламиз:


$$\tilde{C}(p) = \int_0^{\infty} C(\theta) d\theta - p \int_0^{\infty} \theta C(\theta) d\theta + \frac{p^2}{2} \int_0^{\infty} \theta^2 C(\theta) d\theta - \dots \quad (2.210)$$

Aytib o'tish kerakki:

$$\left[ \frac{d\tilde{C}(p)}{dp} \right]_{p \rightarrow 0} = - \int_0^{\infty} \theta C(\theta) d\theta = -\bar{\theta} = -M_1, \quad (2.211)$$

$$\begin{aligned} \left[ \frac{d^2\tilde{C}(p)}{dp^2} \right] &= \left[ - \int_0^{\infty} e^{-p\theta} C(\theta) d\theta \right]_{p=0}' = \left[ - \int_0^{\infty} \theta^2 e^{-p\theta} C(\theta) d\theta \right]_{p=0} = \\ &- \int_0^{\infty} \theta^2 e^{-p\theta} C(\theta) d\theta = M_2 \end{aligned} \quad (2.212)$$

Bu yerdan kelib chiqadiki, agar  $\tilde{C}(p)$  funksiyasi topilib, ya'ni model tenglamasining Laplas bo'yicha o'zgartirilgan ko'rinishdagi tenglamasini yechib, keyin  $r \rightarrow 0$  da hosila olinsa, unda model parametrlari va bo'lish vaqtining taqsimlanish egri chizig'i orasidagi izlanayotgan bog'liqlikni topish mumkin. Bu usulni uzunligi yarim cheksiz apparat misolida ko'rib chiqamiz. Uzunligi yarim cheksiz apparatning ma'nosini tushuntirib o'tamiz (2.18 a-rasm).



**2.18-rasm.** Uzunligi yarim cheksiz apparat.

Bo‘ylama aralashtirish sababli indikator oqim harakatiga teskari yo‘nalishda tarqaladi. Faraz qilamizki, indikatorni kirish joyidan chapda istalgancha uzoq joylashgan nuqtalarda indikator konsentratsiyasi o‘lchanadi. Kirish joyidan  $a$  dan kattaroq masofada joylashgan nuqtalardagi probalarda indikator mavjud emas. Shunday qilib, indikatorning kiritish joyidan  $a$  dan kattaroq masofadagi apparatning bir qismi jarayonga ta’sir ko‘rsatmaydi. Indikatori oqimning kirishidan  $a$  dan kichik bo‘lmaidan masofada kiritiluvchi real apparatni uzunligi yarim cheksiz apparat deb qarash mumkin. O‘xshash fikrlar 2.18, b, d-rasmida ko‘rsatilgan apparatlar uchun ham adolatlidir.

Diffuziyali model tenglamasini o‘lchamsiz shaklda yozib olamiz (2.105) tenglamaga qarang):

$$\frac{d^2 C(\theta)}{dz^2} - Pe \frac{dC(\theta)}{d\theta} = Pe \frac{dC(\theta)}{d\theta} \quad (2.213)$$

Material balans tenglamasidan chegaraviy shartlarni aniqlaymiz. Apparat chekli uzunlikli bo‘lgan holda agar  $z = 0$  bo‘lsa (indikatorni kiritish nuqtasida, 2.18, b-rasm), unda

$$uC - D_l \frac{dC}{dx} = \frac{g}{F} \delta(t) \quad (2.214)$$

yoki o‘lchamsiz shaklda

$$C(\theta) = \frac{1}{Pe} \frac{dC}{dz} = \delta(\theta) \quad (2.215)$$

Agar  $z = \infty$  bo‘lsa, unda  $S(v)$  ma’lum qiymatga ega.

(2.213) va (2.215) chegaraviy shartlarga Laplas o‘zgartirishini qo‘llab quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{d^2 \bar{C}}{dz^2} - Pe \frac{d\bar{C}}{dz} - Pep \bar{C} = 0. \quad (2.216)$$

$z = 0$  da chegaraviy shart quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\bar{C} - \frac{1}{Pe} \frac{d\bar{C}}{dz} = 1 \quad (2.217)$$

va  $z = \infty$  da  $S$ - ma’lum kattalik bo‘ladi.

(2.216), (2.217) tenglamalarning umumiyligini yechimi quyidagicha:

$$\bar{C} = A_1 e^{r_1 z} + A_2 e^{r_2 z}, \quad (2.218)$$

unda  $r_1, r_2$ - xarakteristik tenglamaning ildizlari

$$r_2 = Per - Pep = 0, \quad (2.219)$$

ya'ni

$$r_{1,2} = \frac{Pe}{2} \pm \sqrt{\left(\frac{Pe}{2}\right)^2 + Pep}. \quad (2.220)$$

Chegaraviy shartlardan foydalanib,  $A_x$  va  $A_2$  konstantalarni topamiz. Agar  $z = \infty$  bo'lsa, unda  $S$  — chekli kattalik quyidagiga teng:

$$\bar{C} = A_1 e^{r_1 \infty} + A_2 e^{r_2 \infty}. \quad (2.221)$$

$r_1 = \frac{Pe}{2} \pm \sqrt{\left(\frac{Pe}{2}\right)^2 + Pep}$  musbat kattalik bo'lganligi uchun,  $A_1 = 0$  aks

holda  $S$  cheksizlikka teng bo'lar edi.

Shunday qilib, (2.218)ning yechimi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\bar{C} = A_2 e^{r_2 z} \quad (2.222)$$

Bu yerdan

$$\frac{d\bar{C}}{dz} = A_2 r_2 e^{r_2 z}. \quad (2.223)$$

$z = 0$  da

$$\bar{C} = \frac{1}{Pe} \frac{d\bar{C}}{dz} + 1 \quad (2.224)$$

va shu tenglamaga  $\frac{d\tilde{C}}{dz}$  ifodani qo'yib, quyidagilarni olamiz:

$$A_2 e^{r_2 z} = \frac{1}{Pe} A_2 r_2 e^{r_2 z} + 1, \quad (2.225)$$

$$A_2 = \frac{1}{Pe} A_2 r_2 + 1, \quad (2.226)$$

$$A_2 = \frac{Pe}{Pe - r_2}. \quad (2.227)$$

Natijada quyidagiga ega bo'lamic:

$$\bar{C} = \frac{Pe}{Pe - r_2} e^{r_2 z}. \quad (2.228)$$

$z = 1$  da, ya'ni javob funksiyasini aniqlash o'rnida:

$$\bar{C} = \frac{Pe}{Pe - r_2} e^{r_2}. \quad (2.229)$$

Belgilaymizki,  $S$  r ning murakkab funksiyasidir. Quyidagilarni belgilaymiz:

$$x = \left(\frac{Pe}{2}\right)^2 + Pep, \quad (2.230)$$

$$r_2 = \frac{Pe}{2} - \sqrt{x}. \quad (2.231)$$

Murakkab funksiyani differensiallash qoidasiga muvofiq quyidagilarni olamiz:

$$\frac{d\bar{C}}{dp} = \frac{d\bar{C}}{dr^2} \frac{dr_2}{dx} \frac{dx}{dp}, \quad (2.232)$$

$$\frac{d\bar{C}}{dp_2} = \frac{Pe e^{r_2} (Pe - r_2) + Pe e^{r_2}}{(Pe - r_2)^2}, \quad (2.233)$$

$$\frac{dx}{dp} = Pe; \quad \frac{dr_2}{dx} = -\frac{1}{2} \frac{1}{\sqrt{x}}, \quad (2.234)$$

$$\frac{d\bar{C}}{dp} \Big|_{p=0} = \left(1 + \frac{1}{Pe}\right) \left(-\frac{1}{Pe} Pe\right) = -1 - \frac{1}{Pe}. \quad (2.235)$$

(2.211) tenglamani inobatga olib quyidagini topamiz:

$$\theta = 1 + \frac{1}{Pe}. \quad (2.236)$$

Bu ifodaning fizik ma'nosini ochamiz.  $\theta = \frac{v}{V} t$  va  $C(\theta) = \frac{C(t)}{C_0}$  lardan foydalanim, quyidagini olamiz:

$$\bar{\theta} = \int \theta C(\theta) d\theta = \left(\frac{v}{V}\right)^2 \frac{\int_0^\infty t C(t) dt}{C_0} \quad (2.237)$$

Demak,  $C_0 = \frac{g}{V}$  quyidagi bilan teng kuchli:

$$C_0 = \frac{g}{V} \int_0^\infty C(t) dt. \quad (2.238)$$

Olingan qiymatlarni (2.235) ifodaga qo‘yib, quydagini topamiz:

$$\frac{\int_0^\infty t C(t) dt}{\int_0^\infty C(t) dt} = \frac{V}{v} + \frac{V}{v} \frac{1}{Pe}. \quad (2.239)$$

(2.239) ifodadan ko‘rinib turibdiki, indikatorni o‘rtacha bo‘lish vaqtiga (ifodaning chap qismi) tajribaviy seksiya  $V/v$  dagi oqimning haqiqiy bo‘lish vaqtiga teng emas.  $V$  – tajribaviy seksianing hajmi ekanligini belgilab o‘tamiz. Bunga bo‘ylama aralashtirish uchun indikatorning bir qismi tajribaviy seksianing tashqarisida tarqalayotganligi sabab bo‘lmoqda.

Agar  $V$  va  $v$  ma’lum bo‘lsa, (2.239) tenglamani  $Pe$  kattalikni aniqlash uchun qo‘llash mumkin.

$\sigma_\theta^2$  dispersiya va model parametrlari orasidagi aloqa tenglamasini topamiz. Buning uchun funksiya  $S$  ning  $r$  bo‘yicha ikkinchi tartibli hisoblab chiqamiz:

$$\frac{d}{dp} \left( \frac{d\bar{C}}{dr} \right) = \frac{d^2 \bar{C}}{dr^2} \frac{dr}{dp} = \frac{d^2 \bar{C}}{dr^2} \frac{dr}{dx} \frac{dx}{dp} \quad (2.240)$$

$$\frac{d}{dp} \left( \frac{dr}{dx} \right) = \frac{d^2 r}{dx^2} \frac{dx}{dp}, \quad (2.241)$$

$$\begin{aligned} \frac{d^2 \bar{C}}{dp^2} &= \frac{d\bar{C}}{dr} \frac{dr}{dx} \frac{d^2 x}{dp^2} + \frac{d\bar{C}}{dr} \frac{d}{dp} \left( \frac{dr}{dx} \right) \frac{dx}{dp} + \frac{d}{dp} \left( \frac{d\bar{C}}{dr} \right) \frac{dr}{dx} \frac{dx}{dp} = \\ &= \frac{d\bar{C}}{dr} \frac{dr}{dx} \frac{d^2 x}{dp^2} + \frac{d\bar{C}}{dr} \frac{d^2 r}{dx^2} \left( \frac{dx}{dp} \right)^2 + \frac{d^2 \bar{C}}{dr^2} \left( \frac{dr}{dx} \right)^2 \left( \frac{dx}{dp} \right)^2. \end{aligned} \quad (2.242)$$

Tenglamaga kiruvchi barcha hosilalar uchun ifodalarni topamiz.  $\frac{dC}{dr}$ ,  $\frac{dr}{dx}$  va  $\frac{dx}{dp}$  hosilalar ilgari olingan edi,  $\frac{d^2x}{dp^2}$  ning hosilasi esa 0 ga teng.  $\frac{dx}{dp} = Pe$  doimiy kattalik bo‘lganligi uchun:

$$\left(\frac{dx}{dp}\right)^2 = Pe^2; \quad \frac{d^2r}{dx^2} = \frac{1}{4x\sqrt{x}}; \quad \frac{dr}{dx} = \frac{1}{2\sqrt{x}}; \quad \left(\frac{dr}{dx}\right)^2 = \frac{1}{4x} \quad (2.243)$$

$r \rightarrow 0$  da  $x = \left(\frac{Pe}{2}\right)^2$  ga egamiz va bundan kelib chiqib:

$$\frac{d^2r}{dx^2} = \frac{1}{4} \frac{\frac{Pe^2}{2} \frac{Pe}{2}}{4} = \frac{2}{Pe^3} \quad (2.244)$$

va

$$\left(\frac{dr}{dx}\right)^2 = \frac{1}{4\left(\frac{Pe}{2}\right)^2} = \frac{1}{Pe^2}, \quad (2.245)$$

$$\begin{aligned} \frac{d^2\bar{C}}{Cr^2} &= \frac{\left[Pe^2e^{r_2} - Per_2e^{r_2} - Pee^{r_2} + Pee^{-r_2}\right](Pe - r_2)^2}{(Pe - e^{r_2})^4} - \\ &- \frac{[-2Pe + 2r_2][Pe^2e^{r_2} - Per_2e^{r_2} + Pee^{-r_2}]}{(Pe - e^{r_2})^2}. \end{aligned} \quad (2.246)$$

$r \rightarrow 0$  da  $r_2 = 0$  egamiz va bundan:

$$\frac{dC^2}{dr^2} = \frac{Pe^2Pe^2 + 2PePe^2 + 2PePe}{Pe^4} = \frac{Pe^4 + 2Pe^3 + 2Pe^2}{Pe^4}.$$

Natijada quyidagi ifodalarni olamiz:

$$\begin{aligned} \frac{d^2\bar{C}}{dp^2} \Big|_{p \rightarrow 0} &= \left(1 + \frac{1}{Pe}\right) \frac{2}{Pe^3} Pe^2 + \\ &+ \frac{Pe^4 + 2Pe^3 + 2Pe^2}{Pe^4} * \frac{1}{Pe^2} Pe^2 = \frac{4}{Pe^2} + \frac{4}{Pe} + 1, \end{aligned} \quad (2.248)$$

$$\frac{d^2\bar{C}}{dp^2} \Big|_{p \rightarrow 0} \int_0^\infty \theta^2 C(\theta) d\theta; \quad \sigma_\theta^2 = \int_0^\infty \theta^2 C(\theta) d\theta - \theta^2 \quad (2.249)$$

$$\sigma_{\theta}^2 = \frac{4}{Pe^4} + \frac{4}{Pe} + 1 - \frac{1}{Pe^2} - \frac{2}{Pe} - 1 = \frac{3}{Pe^2} + \frac{2}{Pe} = \frac{1}{Pe^2} (3 + 2Pe). \quad (2.250)$$

(2.250) ifoda tizim javobining tajribaviy egri chizig‘i bo‘yicha  $Pe$  kattaligini hisoblash uchun qo‘llaniladi. Pog‘onali g‘alayon usuli bilan oqimlar strukturasini tadqiq qilishda model parametrlari (2.204) va (2.250) tenglamalar bo‘yicha hisoblanadi. Pog‘onali g‘alayon ta’siriga javob funksiya dispersiyasi quyidagi tarzda aniqlanadi. Ko‘rinib turibdiki,

$$\sigma_{\theta}^2 = \int_0^{\infty} \theta^2 dF - \bar{\theta}^2. \quad (2.251)$$

Bu ifodadagi integralning qiymati F funksiya hosilasi bo‘yicha emas, balki  $1 - F$  kattalik bo‘yicha sodda va aniqroq aniqlanadi. Buning uchun integralni o‘zgartiramiz:

$$\int_0^1 \theta^2 dF = 1 \int_0^1 \theta^2 d(1 - F). \quad (2.252)$$

Bo‘laklab integrallab, quyidagini olamiz:

$$- \int_0^1 \theta^2 d(1 - F) = 2 \int_0^{\infty} (1 - F) d\theta. \quad (2.253)$$


Javob funksianing dispersiyasi quyidagiga teng:

$$\sigma_{\theta}^2 = 2 \int_0^{\infty} \theta (1 - F) d\theta - \bar{\theta}^2. \quad (2.254)$$

**O‘zgaruvchan bo‘ylama aralashtirish apparatlarida diffuziyali model parametrlarini baholash.** Kolonnali apparatlarni tadqiq qilishda odatda bo‘ylama aralashtirishning o‘rtalashtirilgan koeffitsiyenti aniqlanadi, real sharoitlarda esa u turli uchastkalarda har xil bo‘lish mumkin. Bu apparatning balandligi va uning fizik xossalari bo‘yicha oqim strukturalarining turg‘unmasligiga, strukturalarning mahalliy buzilishlariga olib kelishi mumkin. Oddiy diffuziyali model bu hollarda jarayonning fizik mohiyatini yetarli aniq aks ettirmaydi. Bu ayniqsa, jarayonni o‘tkazish uchun eng yomon gidrodinamik muhitli uchastkalarni aniqlash zarur bo‘lgan issiqlik va modda almashish apparatlari, kimyoviy reaktorlarni loyihalash va optimallahda muhimdir. Buning uchun apparatning ayrim uchastkalarida bo‘ylama aralashtirish parametrlari  $Pe$  ni aniqlash kerak.

2.19-rasmda ko‘rsatilgan modellarning sxemasi o‘zida bo‘ylama aralashtirishning turli jadalliklariga ega  $n$  zonadan tashkil topgan chegaralangan kanal (apparat)ni ifodalaydi. Impulslri g‘alayon birinchi zonaga kiritilmoqda deb faraz qilamiz.

Tanlangan zonalarning har biri uchun diffuziyali model tenglamalarini yozamiz:



**2.19-rasm.** Turli bo‘ylama aralashtirishli n zonalarni o‘z ichiga olib chegaralangan kanalning diffuziyali modelini grafik orqali tasvirlash.

$$\frac{l}{Pe_1} \frac{d^2 C}{dz^2} - \frac{dC}{dz} + \delta(t) = \frac{dC}{d\theta}, \quad 0 \leq z \leq z_1;$$

.....

$$\frac{l}{Pe_n} \frac{d^2 C}{dz^2} - \frac{dC}{dz} = \frac{dC}{d\theta}, \quad z_{n-1} \leq z \leq z_n;$$

.....

$$\frac{l}{Pe_k} \frac{d^2 C}{dz^2} - \frac{dC}{dz} = \frac{dC}{d\theta}, \quad z_{k-1} \leq z \leq z_k; \quad (2.255)$$

Bunda quyidagi muvofiq chegaraviy shartlar bajarilmoqda:

$$\frac{1}{Pe_1} \left( \frac{dC}{dz} \right)_0 - C_0 = 0,$$

$$\frac{1}{Pe_1} \left( \frac{dC}{dz} \right)_{z_1} - C_{\bar{z}_1} = \frac{1}{Pe_2} \left( \frac{dC}{dz} \right)_{z_1} - C_{z_1},$$

$$C_{\bar{z}_1} = C_{z_1},$$

.....

$$\frac{1}{Pe_k} \left( \frac{dC}{dz} \right)_{\bar{z}_k} - C_{\bar{z}_k} = \frac{1}{Pe} \left( \frac{dC}{dZ} \right)_{z_K} - C_{z_K},$$

$$C_{\bar{z}_k} = C_{z_K},$$

.....

$$\frac{1}{Pe_{n-1}} \left( \frac{dC}{dz} \right)_{\bar{z}_{n-1}} - C_{\bar{z}_{n-1}} = \frac{1}{Pe_n} \left( \frac{dC}{dz} \right)_{z_{n-1}} - C_{z_{n-1}},$$

$$C_{\bar{z}_{n-1}} = C_{z_{n-1}},$$

$$\left( \frac{dC}{dZ} \right)_{Z-1} = 0. \quad (2.256)$$

Apparatning boshlang‘ich kesimiga trassyorni impulsli kiritganda ( $z = 0$ ) ixtiyorliy  $k$ -zonada javob egri chizig‘ining birinchi boshlang‘ich momenti uchun tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$M_1 = A_K e^{\frac{Pe_{ek}z}{Pe_K}} + \frac{1}{Pe_K} + z, \quad z_{K-1} \leq z \leq z_k, \quad (2.257)$$

agar  $k=1,2,\dots,n-1$  bo'lsa, unda

$$A_K = \left( \frac{1}{Pe_{k+1}} - \frac{1}{Pe_k} + A_{K+1} e^{\frac{Pe_{K+1}z_k}{Pe_K}} \right); \quad (3.258)$$

agar  $k=n$  bo'lsa, unda

$$A_n = \frac{e^{-\frac{Pe_n}{Pe_n}}}{Pe_n}. \quad (2.259)$$

O'xshash tarzda ikkinchi boshlang'ich moment uchun quyidagi tenglama olinadi:

$$M_2 = \sum_{i=1}^K a_i + \frac{4z}{Pe_K} + \frac{4}{Pe_k^2} + z^2 - (2A_K z - B_K) e^{\frac{Pe_K z}{Pe_K}}, \\ z_{K-1} \leq z \leq z_k; \quad (2.260)$$

agar  $k = 1$  bo'lsa, unda

$$a_1 = -\frac{2A_1}{Pe_1};$$

agar  $k = 2, 3, \dots, p$  bo'lsa, unda

$$a_k = \frac{2z_{k-1}}{Pe_{k-1}} - \frac{2z_{k-1}}{Pe_k} + \frac{2A_{k-1}}{Pe_{k-1}} e^{\frac{Pe_{k-1}z_{k-1}}{Pe_{k-1}}} - \frac{2A_k}{Pe_k} e^{\frac{Pe_k z_{k-1}}{Pe_k}}; \quad (2.261)$$

agar  $k = 1, 2, \dots, p-1$  bo'lsa, unda

$$B_k = 2A_k z_k - (2A_{k+1} z_k - B_{k+1}) e^{z_k (\frac{Pe_{k+1}}{Pe_K} - \frac{Pe_K}{Pe_K})} + \\ + (a_{K+1} - \frac{4z_k}{Pe_k} - \frac{4}{Pe_k^2} + \frac{4z_k}{Pe_{k+1}} + \frac{4}{Pe_{k+1}^2}) e^{-\frac{Pe_K z_k}{Pe_K}}; \quad (2.262)$$

agar  $k = p$  bo'lsa, unda

$$B_p = -(\frac{4}{Pe_n} + \frac{6}{Pe_n^2}) e^{-\frac{Pe_n}{Pe_n}}. \quad (2.263)$$

(2.257) - (2.263) tenglamalar apparatning ayrim uchastkalarida qayd qilingan javobning tajribaviy egri chizig'i bo'yicha bo'ylama aralashtirish jadalligini aniqlash imkonini beradi. Masalan,  $z_1, z_2, \dots, z_n$  kesimlarda javob egri chiziqlarini qayd qilib, oxirgi uchastkadan boshlab ketma-ket har bir uchastka uchun  $\Delta\sigma^2 = \sigma_{Z_K}^2 - \sigma_{Z_{K-1}}^2$  dispersiyaning orttirmasi kattaligi bo'yicha,  $Pe_K$  ning barcha qiymatlarini hisoblash mumkin. Model parametrlari bo'yicha  $\Delta\sigma^2$  bog'liqliknini hisoblash uchun zaruriy ifoda (2.257) – (2.263) tenglamalardan kelib chiqadi.  $\Delta\sigma^2$  ning umumiy ifodasi apparatning ixtiyoriy  $k$ -uchastkasi uchun quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned}\Delta \sigma^2 &= \sigma_{z_K}^2 - \sigma_{z_{K-1}}^2 = \frac{2(z_K - z_{K-1})}{Pe_K} + (4A_K z_{K-1} + \frac{2A_K}{Pe_K} - B_K)^* \\ &\quad * e^{Pe_K z_{K-1}} - (4A_K z_K + \frac{2A_K}{Pe_K} - B_K) e^{Pe_K z_K} + A_K^2 (e^{2Pe_K z_{K-1}} - e^{2Pe_K z_K}).\end{aligned}\quad (2.264)$$

(2.264) tenglamaga tadqiq qilinayotgan uchastkaning  $Pe$  qiymatidan tashqari keyingi uchastkalar uchun  $Pe$  qiymatlari kiradi, shuning uchun ketma-ket hisoblash bilan  $Pe_K$  ning barcha qiymatlarini topish mumkin. (2.264) tenglamani yechish natijasida apparatning ayrim uchastkalar uchun  $Pe$  ning o‘rtacha qiymatlari topiladi. Oxirgi uchastka uchun (oqimning yo‘nalishi bo‘yicha) (2.264) tenglama quyidagi ko‘rinishga keltiriladi:

$$\begin{aligned}\Delta \sigma^2 &= \Delta \sigma_{z=1}^2 - \Delta \sigma_{n-1}^2 = \frac{2(1 - z_{n-1})}{Pe_n} - \frac{5}{Pe_n^2} + \\ &\quad + \left[ \frac{4(1 - z_{n-1})}{Pe_n} + \frac{4}{Pe_n^2} \right] e^{-Pe_n(1-z_{n-1})} + \frac{e^{-Pe_n(1-z_{n-1})}}{Pe_n^2}\end{aligned}\quad (2.265)$$

(2.265) tenglamaning oxirgi ikki a’zosi ko‘pincha juda kichik bo‘ladi. Unda quyidagi qabul qilinadi:

$$Pe_n = \frac{1 - z_{n-1}}{\Delta \sigma^2} + \sqrt{\left( \frac{1 - z_{n-1}}{\Delta \sigma^2} \right)^2 - \frac{5}{\Delta \sigma^2}}. \quad (2.266)$$

Bo‘ylama aralashtirish jadalligi turlicha bo‘lgan ikki uchastkadan iborat apparatlar uchun (2.257) - (2.263) tenglamalar asosida quyidagini olish mumkin:

$$\begin{aligned}\sigma_1^2 &= \frac{2(1 - z_1)}{Pe_2} - \frac{2}{Pe_2^2} + \frac{2}{Pe_1} \left( z_1 + \frac{1}{Pe_2} \right) - \frac{2}{Pe_1^2} + \left( \frac{1}{Pe_1} - \frac{1}{Pe_2} \right)^* \\ &\quad * \frac{2e^{-Pe_1 z_1}}{Pe_1} + \left( \frac{1}{Pe_2} - \frac{1}{Pe_1} + \frac{e^{-Pe_1 z_1}}{Pe_1} \right) \frac{2e^{-Pe_2(1-z_1)}}{Pe_2}.\end{aligned}\quad (2.267)$$

$Pe$  ning katta qiymatlarida (2.267) tenglamaning oxirgi ikki a’zosi e’tiborga olinmaydigan darajada kichik. Bu holda quyidagini hisoblash mumkin:

$$Pe_1 = \frac{z_1 + \frac{1}{Pe_2}}{C_1} + \sqrt{\left( \frac{z_1 + \frac{1}{Pe_2}}{C_1} \right)^2 - \frac{2}{C_1}}, \quad (2.268)$$

bu yerda


$$C_1 = \sigma_1^2 + \frac{2}{Pe_2^2} - \frac{2(1-z_1)}{Pe_2}. \quad (2.269)$$

$Pe_2$  bilgan holda, birinchi zonadan chiqishda qayd qilingan javob funksiyasining dispersiyasi bo'yicha (2.268) tenglama yordamida  $Pe_1$  ni topish mumkin.

## 2.5. Yacheykali model

**Modelning asosiy tenglamalarini keltirib chiqarish.** Aralashtirgichlar bilan reaktorlar kaskadi uchun ilk taklif qilingan model eng oddiyalaridan biridir. (2.20-rasm).

Quyidagi qo'yimlarni qabul qilamiz: 1) har bir yacheykada ideal aralashtirish bajarilmoqda; 2) yacheykalar orasida qayta aralashtirish mavjud emas. Bo'ylama aralashtirishni miqdoriy tavsiflovchi yacheykali model parametri bo'lib  $JV$  to'la aralashtirish yacheykalarning soni xizmat qiladi.  $N$  oshishi bilan oqimning strukturasi to'la siqib chiqarish modeliga yaqinlashadi,  $N$  kamayishi bilan – ideal aralashtirish modeliga yaqinlashadi.



**2.20-rasm.** Yacheykali model sxemasi:

$v$  – apparat orqali moddaning sarfi;  $C_{kir}$  – kirishdagি konsentratsiya.

Har bir yacheyka uchun moddani saqlashni tenglamalarini yozamiz (soddalashtirish uchun yacheykalar bir xil hajm  $V_{YA}$  ga ega deb faraz qilamiz):

$$\begin{aligned} vC_{kir} - vC &= V_{ya} \frac{dC_1}{dt}, \\ vC_1 - vC_2 &= V_{ya} \frac{dC_2}{dt}, \\ \dots &\dots \dots \dots \dots \\ vC_{j-1} - vC_j &= V_{ya} \frac{dC_j}{dt} \\ \dots &\dots \dots \dots \dots \\ vC_{n-1} - vC_n &= V_{ya} \frac{dC_n}{dt}. \end{aligned} \quad (2.270)$$

(2.270) tenglamalarning chap va o'ng qismlarini  $v$  ga bo'lib, quyidagini olamiz:

$$\begin{aligned}
C_{kir} C_1 &= \bar{t} \frac{dC_1}{dt}, \\
C_1 - C_2 &= \bar{t} \frac{dC_2}{dt}, \\
&\dots \dots \dots \\
C_{j-1} - C_j &= \bar{t} \frac{dC_j}{dt}, \\
&\dots \dots \dots \\
C_{N-1} - C_N &= \bar{t} \frac{dC_N}{dt}.
\end{aligned} \tag{2.271}$$

(2.271) tenglamalar tizimi uchun mos boshlang‘ich shartlar quyidagi ko‘rinishga ega:

$$t = 0 \text{ da } C_1 = C_{1b}, C_2 = C_{2b}, \dots, C_N = C_{Nb} \tag{2.272}$$

(2.271) tenglamalar tizimi (2.272) boshlang‘ich shartlar bilan birga oqimlar strukturasining yacheykali modelini tashkil qiladi. Model xossalarni tahlil qilish uchun yacheykali modelning standart g‘alayonlarga bo‘lgan javoblarini ko‘rib chiqamiz.

**Konsentratsiya sakrash ko‘rinishida nolgacha kamayadigan pog‘onali g‘alayonga modelning javobi (yuvib ketish usuli).** modelning javobini, (2.271) tenglamalar tizimini ketma-ket yechib, birinchi yacheykadan boshlab qidiramiz.

### Birinchi yacheyka.

Yuvib ketish usulida indikatorning konsentratsiyasi kirishda nolga teng. Demak,  $S_{kir}=0$  va boshlang‘ich tenglama quyidagi ko‘rinishga keltiriladi:

$$-C_1 = \bar{t} \frac{dC_1}{dt}, \tag{2.273}$$

o‘zgaruvchilarni bo‘lib, quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$$\frac{dC_1}{C_1} = -\frac{dt}{\bar{t}}. \tag{3.274}$$

(2.274) tenglamani integrallash quyidagini beradi:

$$C_1 = Ke^{-t/\bar{t}}. \tag{2.275}$$

$K$  noma’lum konstantani boshlang‘ich shartdan topamiz:

$$t = 0 \text{ da } C_1 = C_{1b} = C_b \tag{2.276}$$

Bu yerdan

$$K = S_b. \tag{2.277}$$

(2.275) ni (2.277) ga qo‘yib, birinchi yacheykadan chiqishdagi javobning quyidagi ko‘rinishini olamiz:

$$C_1 = C_b e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.278)$$

### **Ikkinchı yacheysə.**

Birinchini yacheysənin chiqishi ikkinchi yacheysənin kirishini hosil qiladi. U vaqt达a muddani saqlanış tenglaması quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$C_1 - C_2 = \bar{t} \frac{dC_2}{dt} \quad (2.279)$$

yoki

$$C_b e^{-t/\bar{t}} - C_2 = \bar{t} \frac{dC_2}{dt}. \quad (2.280)$$

(2.280) tenglama – birinci darajali bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamadir. Uni noma’lum ko‘paytuvchilar usuli bilan yechamiz. Bunga mos keluvchi bir jinsli tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\bar{t} \frac{dC_2}{dt} + C_2 = 0 \quad (2.281)$$

Uning yechimi quyidagiga tengdir:

$$C_2 = A(t) e^{-t/\bar{t}}, \quad (2.282)$$

bu yerda  $A(t)$  – noma’lum ko‘paytuvchi.

(2.282) bir jinsli tenglamaning yechimini (2.280) ga qo‘yamiz:

$$\frac{dC_2}{dt} = A'_t e^{-t/\bar{t}} + A(-\frac{1}{\bar{t}}) e^{-t/\bar{t}}, \quad (2.283)$$

$$\bar{t} \left[ A'_t e^{-t/\bar{t}} - \frac{A(t)}{\bar{t}} e^{-t/\bar{t}} \right] + A(t) e^{-t/\bar{t}} = C_N e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.284)$$

o‘xshash a’zolarini keltirib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{dA}{dt} = \frac{C_b}{\bar{t}}. \quad (2.285)$$

(2.285) differensial tenglamani noma’lum koeffitsiyenga nisbatan yechamiz:

$$A(t) = \frac{C_b}{\bar{t}} t + K. \quad (2.286)$$

Endi (2.282) ga topilgan  $A(t)$  ifodani qo‘yib, quyidagini olamiz:

$$C_2 = \left[ \frac{C_b}{\bar{t}} + K \right] e^{-t/\bar{t}} \quad (2.287)$$

$K$  noma'lum konstantani boshlang'ich shartdan topish mumkin:

$$t=0 \text{ da } S_2=S_{2b}=S_b. \quad (2.288)$$

Bu yerdan

$$K=S_b. \quad (2.289)$$


Shunday qilib, ikkinchi yacheykani chiqishida javob quyidagi ko'rinishga ega:

$$C_2 = C_b \left[ 1 + \left( \frac{t}{\bar{t}} \right) \right] e^{-t/\bar{t}} \quad (2.290)$$

Uchinchi, to'rtinchi, ...,  $N$  – yacheykalar uchun o'xhash fikrni davom ettirib, konsentratsiyani sakrash ko'rinishda nolgacha kamayadigan yacheykali model javobi uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$\frac{C_N}{C_b} = \left[ 1 + \left( \frac{t}{\bar{t}} \right) + \frac{1}{2} \left( \frac{t}{\bar{t}} \right)^2 + \dots + \frac{1}{(N-1)!} \left( \frac{t}{\bar{t}} \right)^{N-1} \right] e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.291)$$

2.21-rasmda yacheykalarning turli soni uchun yuvib ketish usuli bo'yicha chiqish konsentratsiyasining bog'liqligi ko'rsatilgan.



**2.21-rasm.** Yacheykalarning turli soni uchun konsentratsiyaning sakrash ko'rinishli kamayishiga yacheykali modelning javobi:

1 – ideal aralashtirishda; 2, 3, 4 – mos ravishda  $n_1$ ,  $n_3$  va  $n_4$  yacheykalar sonida; 5 – ideal siqib chiqarishda.

(2.291) tenglamani quyidagi o'lchamsiz ko'rinishda yozish qulay:

$$C(\theta) = \left[ 1 + N\theta + \frac{1}{2} N^2 \theta^2 + \dots + \frac{N^{N-1}}{(N-1)!} \theta^{N-1} \right] e^{-N\theta}. \quad (2.292)$$

**Impulsli g'alayonga modelning javobi.** Yacheykali model javob funksiyasini olish uchun oldingi holga o'xhash birinchi, ikkinchi va h.k. yacheykalardagi javoblarni topamiz.

**Birinchi yacheyka.**

Impulsli g'alayon uchun birinchi yacheykaga kirish  $S_{kr}$  konsentratsiyasi nolga teng bo'lganligi uchun, moddaning saqlash tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$-C_1 = \bar{t} \frac{dC_1}{dt}. \quad (2.293)$$

Uning yechimi quyidagiga tengdir:

$$C_1 = K / e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.294)$$

$K$  noma'lum kattalikni boshlang'ich shartdan topamiz:

$$t = 0 \text{ da } C_1 = C_b \quad (2.295)$$

Bu yerdan

$$K = S_b \quad (2.296)$$

va

$$C_1 = C_b e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.297)$$

### *Ikkinci yacheyska.*

Birinchini yacheyskaning chiqishi ikkinchi yacheyskaning kirishini hosil qiladi. Unda ikkinchi yacheyska uchun quyidagiga ega bo'lamiz:

$$C_b e^{-t/\bar{t}} - C_2 = \bar{t} \frac{dC_2}{dt}. \quad (2.298)$$

Avval o'zgaruvchilarini ajratgandan so'ng (2.300) ko'rinishni qabul qiluvchi mos bir jinsli tenglamani yechamiz:

$$\bar{t} \frac{dC_2}{dt} + C_2 = 0, \quad (2.299)$$

$$C_2 = A(t) e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.300)$$

$A(t)$  noma'lum ko'paytuvchini topish uchun (2.300) ning yechimini (2.298) boshlang'ich tenglamaga qo'yamiz:

$$t[A_t^1 e^{-t/\bar{t}} - \frac{A(t)}{\bar{t}}] + A e^{-t/\bar{t}} = C_b e^{-t/\bar{t}} \quad (2.301)$$

(2.301) tenglamadagi o'xshash a'zolarini keltirgandan keyin  $A(t)$  ga nisbatan birinchi tartibli differensial tenglamaga kelamiz:

$$t \frac{dA(t)}{dt} = C_b. \quad (2.302)$$

Uning yechimi quyidagiga teng:

$$A(t) = \frac{C_b}{\bar{t}} t + K. \quad (2.303)$$

(2.303) tenglamani (2.300) ga qo'yib va  $t = 0$  da  $C_2$  boshlang'ich shartni hisobga olib, ikkinchi yacheyka chiqishidagi javob funksiyasini olamiz:

$$C_2 = C_b \frac{\bar{t}}{t} e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.304)$$

Uchinchi, to'rtinchisi ...,  $N$ -Pi yacheykalar uchun o'xhash yechimlar  $N$ -yacheykalarni o'z ichiga olgan quyidagi yacheykali modelning umumiyl javob funksiyasini beradi:

$$C_N = C_b \left(\frac{\bar{t}}{t}\right)^{N-1} \frac{1}{(N-1)!} e^{-t/\bar{t}}. \quad (2.305)$$

$C(\theta) = C_N / C_b$  o'lchamsiz konsentratsiyani va  $\theta = t / \bar{t}$  vaqtini kiritib, (2.305) javob funksiyasini o'lchamsiz ko'rinishda quyidagicha keltirish mumkin:

$$C(\theta) = \frac{N^N \theta^{N-1}}{(N-1)!} e^{-N\theta}. \quad (2.306)$$

**Konsentratsiya sakrash ko'rinishida oshib boruvchi pog'onali g'alayonga yacheykali modelning javoblari.** Har bir yacheykaning chiqishidagi konsentratsiyani aniqlaymiz.

### *Birinchi yacheyka.*

$S_{kr}$  kirish konsentratsiyasi berilgan g'alayon uchun noldan farq qilganligi sababli, modda saqlashni tenglamasi birinchi yacheyka uchun quyidagi tarzda yoziladi:

$$C_{kir} - C_1 = \bar{t} \frac{dC_1}{dt}, \quad (2.307)$$

boshlang'ich shart esa quyidagi ko'rinishga ega:

$$t = 0 \text{ da } C_1 = 0 \quad .(2.308)$$

(2.307) tenglamani quyidagi ko‘rinishda tavsiflash mumkin:

$$\frac{d(C_{kir} - C_1)}{C_{kir} - C_1} = -\frac{dt}{t} \quad (2.309)$$

Oxirgi tenglamani integrallash quyidagini beradi:

$$(C_{kir} - C_1) = Ke^{-t/\bar{t}}. \quad (2.310)$$

$K$  integrallash konstantasini quyidagi boshlang‘ich shartdan topamiz:

$$t = 0 \text{ da } K = C_{kir} \quad (2.311)$$

Unda birinchi yacheyska chiqishida quyidagi javob funksiyasini olamiz:

$$C_1 = C_{kir}(1 - e^{-t/\bar{t}}). \quad (2.312)$$

### *Ikkinci yacheyska.*

Birinchini yacheyskaning chiqishi (2.312) ikkinchi yacheyskaning kirishini hosil qiladi. U vaqtda ikkinchi yacheyska uchun moddani saqlashni tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$C_{kir}(1 - e^{-t/\bar{t}}) - C_2 = \bar{t} \frac{dC_2}{dt}. \quad (2.313)$$

Mos ravishda bir jinsli tenglamaning yechimi quyidagiga teng:

$$C_2 = A(t)e^{-t/\bar{t}} \quad (2.314)$$

$A(t)$  noma’lum ko‘paytuvchini topish uchun (2.314) ning yechimini boshlang‘ich bir jinsli bo‘lmagan (2.313) tenglamaga qo‘yamiz:

$$C_{kir}(1 - e^{-t/\bar{t}}) - A(t)e^{-t/\bar{t}} = \bar{t} \left[ A'_t(t)e^{-t/\bar{t}} - \frac{A(t)}{t} e^{-t/\bar{t}} \right]. \quad (2.315)$$

O‘xshash a’zolarini keltirib,  $A(t)$  noma’lum ko‘paytuvchiga nisbatan quyidagi tenglamani olamiz.

$$\frac{dA(t)}{dt} = \frac{C_{kir}}{t} (e^{-t/\bar{t}} - 1). \quad (2.316)$$

Uning yechimi quyidagiga teng:

$$A(t) = \frac{C_{kir}}{\bar{e}} (\bar{t} e^{t/\bar{t}} - t) + K. \quad (2.317)$$

(2.317) ifodani (2.314) ga qo‘yib, (2.313) bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamaning yechimini olamiz:

$$C_2 = \left[ \frac{C_{kir}}{\bar{t}} (\bar{t} e^{t/\bar{t}} - t) + K \right] e^{t/\bar{t}}. \quad (2.318)$$

$K$  konstantani boshlang‘ich shartdan topamiz

$$t = 0 \text{ da } C_2 = 0, \quad X = C_{kir} \quad (2.319)$$

(2.319) ni (2.318) tenglamaga qo‘yish ikkinchi yacheyka chiqishidagi javobni beradi:

$$C_2 = C_{kir} \left[ 1 - \left( 1 + \left( \frac{t}{\bar{t}} \right) \right) e^{-t/\bar{t}} \right]. \quad (2.320)$$

Uchinchi, to‘rtinchi , ...,  $N$ - li yacheyka uchun o‘xhash fikrni davom etib, quyidagi oxirgi  $N$ - yacheyka chiqishidagi javob funksiyasini olamiz:

$$\frac{C_N}{C_{kir}} = 1 - \left[ 1 + \left( \frac{t}{\bar{t}} \right) + \frac{1}{2} \left( \frac{t}{\bar{t}} \right)^2 + \frac{1}{3!} \left( \frac{t}{\bar{t}} \right)^3 + \dots + \frac{1}{(N-1)!} \left( \frac{t}{\bar{t}} \right)^{N-1} \right] e^{-t/\bar{t}} \quad (2.321)$$

$F(\theta) = C_N / C_{kir}$  o‘lchamsiz konsentratsiyani va  $\theta = t / \bar{t}$  vaqtini kiritib, quyidagini topamiz:

$$C(\theta) = 1 - \left[ 1 + N\theta + \frac{N^2\theta^2}{2} + \frac{N^3\theta^3}{3!} + \dots + \frac{N^{N-1}}{(N-1)!} \theta^{N-1} \right] e^{-N\theta}. \quad (2.322)$$


2.22-rasmda turli yacheykalar soni uchun pog‘onali g‘alayonga chiqish konsentratsiyasining bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Oldin belgilanganidek,  $F(\theta)$  javob funksiyasi  $F$ -egri chiziq deb ataladi va oqim elementlarini bo‘lish vaqtি bo‘yicha taqsimlanishini tavsiflaydi. olingan javob funksiyasi (2.322) ni yuvib ketish usulidagi yacheykali model javobi (2.292) bilan solishtirib, ular orasidagi aloqa bog‘liqligini olamiz:

$$(F(\theta) = 1 - I(\theta)), \quad (2.323)$$

bunda,  $I(\theta)$  – yuvib ketish usulidagi modelning o‘lchamsiz javobi bo‘lib, u quyidagiga teng:

$$I(\theta) = \left[ 1 + N\theta + \frac{1}{2} N^2 \theta^2 + \dots + \frac{N^{N-1} \theta^{N-1}}{(N-1)!} \right] e^{-N\theta}. \quad (3.324)$$



**2.22-rasm.** Pog‘onali g‘alayonga yacheykali modelning javobi:  
1 – ideal siqib chiqarishda; 2, 3 – mos ravishda  $n_2$  va  $n_3$  yacheykalar sonida.

### *Yacheykali model bilan tavsiflanadigan obyektlarning uzatish funksiyasi.*

$W(p)$  obyektning uzatish funksiyasi ta’rifiga muvofiq quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W(p) = \frac{\tilde{C}_{chiq}}{\tilde{C}_{kir}} = \frac{\tilde{C}_N}{\tilde{C}_{kir}}. \quad (2.325)$$

(2.325) tenglamaning o‘ng qismini  $\tilde{C}_{N-1}$  ga ko‘paytiramiz va bo‘lamiz:

$$W(p) = \frac{\tilde{C}_{N-1}}{\tilde{C}_{kir}} \frac{\tilde{C}_N}{\tilde{C}_{N-1}}. \quad (2.326)$$

(2.326) tenglamaning o‘ng qismidagi ikkinchi ko‘paytuvchi  $N$ - $P$  yacheykaning uzatish funksiyasini, ya’ni  $W_N(p)$  ni ifodalaydi. Unda oxirgi tenglamani quyidagi ko‘rinishda qayta yozishimiz mumkin:

$$W(p) = \frac{\tilde{C}_{N-1}}{\tilde{C}_{kir}} W_N(p). \quad (2.327)$$

O‘xshash tarzda, (2.327) tenglamani o‘ng qismini  $\tilde{C}_{N-1}$  ga ko‘paytirib va bo‘lib, quyidagini olamiz:

$$W(p) = \frac{\tilde{C}_{N-2}}{\tilde{C}_{kir}} \frac{\tilde{C}_{N-1}}{\tilde{C}_{N-2}} W_N(p). \quad (2.328)$$

(2.328) tenglamani o‘ng qismidagi ikkinchi ko‘paytuvchi  $(N-1)$  - yacheykaning uzatish funksiyasidir. Unda (2.328) tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozishimiz mumkin:

$$W(p) = \frac{\tilde{C}_{N-2}}{\tilde{C}_{kir}} W_{N-1}(p) W_N(p). \quad (2.329)$$

O‘xshash o‘zgartirishlarni olib borib, yacheykali model bilan tavsiflanadigan obyekt uzatish funksiyasining quyidagi ifodasiga kelamiz:

$$(W(p) = W_1(p)W_2(p)\dots W_N(p) = \prod_{i=1}^N W_i(p)). \quad (2.330)$$

yacheykali modelda har bir yacheyka ideal aralashtirish modeli bilan tavsiflanayotganligi uchun:

$$W_i(p) = \frac{1}{1 + \bar{t}p}. \quad (2.331)$$

bunda,  $\bar{t}$  – yacheykada o‘rtacha bo‘lish vaqt (yacheykalar bir xil hajmga ega deb faraz qilinadi).

(2.331) ifodani hisobga olib, yacheyka modelining uzatish funksiyasi uchun yakuniy ifodani olamiz:

$$W(p) = \frac{1}{(1 + \bar{t}p)^N}. \quad (2.332)$$

Endi quyidagi ayrim holatlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Yacheykali modelda yacheykalar soni  $N=1$  teng. Bu holda uzatish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W(p) = \frac{1}{1 + \bar{t}p}. \quad (2.333)$$

(2.333) ifoda ideal aralashtirish modelining uzatish funksiyasiga mos va yacheykali model ideal aralashtirish modeliga o‘tadi.

2. Yacheykali modelda yacheykalar soni  $N \rightarrow \infty$  ga intiladi. Bu holda quyidagiga egamiz:

$$W(p) = \lim_{N \rightarrow \infty} \frac{1}{(1 + \bar{t}p)^N}. \quad (2.334)$$

Deylik,  $x = \frac{1}{\bar{t}p}$  va  $t_0$  - yacheykali model bilan tavsiflanadigan obyektda o‘rtalish vaqt. Unda

$$N = \bar{t}_y px. \quad (2.335)$$

(2.335) ni (2.334) tenglamaga qo‘yib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$W(p) = \lim_{x \rightarrow \infty} \left[ \frac{1}{\left(1 + \frac{1}{x}\right)^{\bar{t}_y p x}} \right] = \left(1 + \frac{1}{x}\right)^{-x \bar{t}_y p} \quad (2.336)$$

yoki

$$W(p) = \lim_{x \rightarrow \infty} \left[ \left(1 + \frac{1}{x}\right)^{x - \bar{t}_y p} \right] \quad (2.337)$$

Quyidagini inobatga olib, uzatish funksiyasi uchun (2.339) ifodani olamiz:

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{x}\right)^x = e, \quad (2.338)$$

$$W(p) = e^{-\bar{t}_y p} \quad (2.339)$$

(2.339) uzatish funksiyasi ideal siqib chiqarish modeliga mosdir. Demak,  $N \rightarrow \infty$  holda, yacheykali model ideal siqib chiqarish modeliga o'tadi.

***Yacheykali modelning N-parametrini baholash.*** Yacheykali modelning  $N$ -parametrini baholash uchun bu modelning uzatish funksiyasidan foydalanib, impulsli g'alayonga javob funksiyasi uchun ikkinchi tartibli boshlang'ich momenti  $M_2^t$  ni topamiz:

$$\begin{aligned} M_2^t &= W_p''(p=0) = N(N+1)(1+\bar{t}p)^{-N-2}_{|p=0} = \\ &= N(N+1)\bar{t}^{-2} = N^2\bar{t}^{-2} + N\bar{t}^{-2} = \bar{t}_y^{-2} \left(1 + \frac{1}{N}\right). \end{aligned} \quad (2.340)$$

Mos markaziy o'lchamli ikkinchi tartibli moment quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\mu_2^t = M_2^t - \bar{t}_c^{-2} = \frac{\bar{t}_c^{-2}}{N}. \quad (2.341)$$

(2.341) ifodani tizimda o'rta bo'lish vaqtining kvadratiga bo'lib, yacheykali model  $N$  parametri bilan yacheykali modelning impulsli g'alayonga javob funksiyasining o'lchamsiz dispersiyasi  $\sigma_\theta^2$  orasidagi aloqa tenglamasini olamiz:

$$N = \frac{1}{\sigma_\theta^2} \quad (2.342)$$

(2.342) ifoda - impulsli g'alayonga javobning tajribaviy egrini chiziqlari bo'yicha yacheykali modelning  $N$  parametrini baholash uchun asosiyidir. (2.342) va (2.204) ifodalarni solishtirib, diffuziyali va yacheykali modellar orasidagi bog'lanishning quyidagi tenglamasini olamiz:

$$\frac{1}{N} = \frac{2}{Pe^2} (Pe - 1 + e^{-Pe}). \quad (2.343)$$

$Pe > 10$  da oxirgi bog‘lanishni soddalashtirish mumkin. Bu holda bog‘lanish tenglamasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$N \approx \frac{Pe}{2}. \quad (2.344)$$

### **Apparatda oqimlar strukturasining turli modellarini qo‘llashning orientirlangan sohalari**

2.6-jadval

<b>Nº</b>	<b>Modelning nomi</b>	<b>Qo‘llash sohalari</b>
<b>1.</b>	Ideal siqib chiqarish modeli	Uzunligining diametriga nisbati 20 dan katta bo‘lgan quvurli apparatlar
<b>2.</b>	Ideal aralashtirish modeli	Qaytaruvchi devorli jadal aralashtirish usullaridagi sferik taglisilindrik apparatlar; jadal barbotaj sharoitidagi diametr va bo‘yi o‘lchamlari yaqin bo‘lgan barbotaj apparatlari
<b>3.</b>	Yacheykali model	Aralashtirgichli reaktor kaskadlari; tarelkali kolonnalar; soxta suyultirilgan qatlamli apparatlar; nasadkali kolonnalar
<b>4.</b>	Retsirkulatsionli model	Asosiy oqimining yo‘nalishiga teskari tomonga muddani tashlovchi tarelkali, seksiyalangan nasadkali apparatlar (masalan, pulsatsiyali kolonna apparatlari)
<b>5.</b>	Diffuziyalili model	Quvurli apparatlar; muddani o‘q bo‘yicha yoyuvchi nasadkali va nasadkasiz kolonna apparatlari

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari**

1. Oqimlar strukturasining tadqiqot usullarini aytib o‘ting
2. Muvozanat holati usuli yordamida oqimlar strukturasi qanday tadqiq etiladi?
3. Sinusoidal g‘alayonlash usuli yordamida oqimlar strukturasi qanday tadqiq etiladi?
4. Tasodifiy kattalik taqsimlanishining qanday hususiyatlarini bilasiz?
5. Momentlarning fizikaviy mazmunini tushuntiring.
6. Qanday turdag'i mometlar bo‘lishi mumkin?
7. Momentlarning statistik tushunchasi, momentning tartibi, boshlang‘ich moment, markariy moment, taqsimlanishning asimetriyasi deganda nimani tushunasiz?
8. S-egri chiziqning boshlang‘ich momentlari qay tarzda hisoblanadi?
9. S-egri chiziqning markaziy momentlari qay tarzda hisoblanadi?
10. Normallangan S-egri chizig‘i deganda nimani tushunasiz?
11. F- egri chiziqning boshlang‘ich momentlari qay tarzda hisoblanadi?
12. Kanday qilib ob’ektning uzatish funksiyasi orqali momentlarni aniqlash mumkin?
13. Tipik matematik modellarni aytib o‘ting.
14. Tipik modellarga quyiladigan talablarni aytib o‘ting.
15. Ideal aralashtirish modelining tenglamasini yozing
16. Ideal siqib chiqarish modelining tenglamasini yozing
17. Bir parametrli diffiziyyaviy modelning asosiy tenglamasini yozing.
18. Molekulyar diffuziya tenglamasini yozing.
19. Teskari aralashtirish koeffitsientiga tushuncha bering.
20. Turbulent diffuziya koeffitsientiga tushuncha bering.

## **8-Mavzu: Optimallashtirish masalasining qo‘yilishi. Avtomatik boshqarish sistemalarining optimallik mezonlari**

**Reja:**

- 3.1. Optimallashtirish masalasining qo‘yilishi**
- 3.2. Optimallashtiriladigan o‘zgaruvchilarning tavsifi**
- 3.3. Optimallashtirish usullarining tafsiflanishi**
- 3.4. Optimallashtirishning tajribaviy - statistik usuli**
- 3.5. Bir o‘lchovli optimallashtirish usullari**
- 3.6. Ko‘p o‘lchamli optimallashtirish usullari**

### **3.1. Optimallashtirish masalasining qo‘yilishi**

Optimallashtirish – bu kimyoviy jarayonni amalga oshirishning eng yaxshi shartlarini topish protsedurasi.

Optimallashtirish masalasi xuddi ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning ekstremumlarini qidirishning matematik masalasi kabi qaraladi. Ko‘p o‘zgaruvchilar uchun optimallashtirish masalasining ifodalanishi:

Optimallashtirilayotgan  $\bar{u}$  o‘zgaruvchilarning (optimallashtirish resurslari)  $\bar{u}^{rux\ .et.}$  ta’rifining ruxsat etilgan sohasidagi, optimallik mezonining ekstremum (eng katta yoki eng kichik) kattaliklarini ta’minlovchi qiymatini topish lozim.

Natijada optimallashtirish masalasini quyidagi ko‘rinishga keltirish mumkin:

$$opt \ R(\bar{y})$$

$$\bar{u} \in \bar{u}^{rux\ .}$$

Chiqish o‘zgaruvchisi  $\bar{y}$  bilan boshqa o‘zgaruvchilarning bog‘liqligi fizik - kimyoviy operatorli aks ettirish bilan beriladi:  $\bar{y} = \Omega(\bar{x})\Omega(\bar{u}, \bar{x})$

bu yerda modellashtirilayotgan obyektning holatini aniqlovchi kirish o‘zgaruvchisi  $\bar{x}$  ikki guruhdagi o‘zgaruvchilarga ajratiladi:  $\bar{u}$  – nazorat qilish va rostlash mumkin bo‘lgan optimallashtiriluvchi o‘zgaruvchi va  $\bar{x}$  – nazorat qilinadigan, lekin rostlanmaydigan o‘zgaruvchi (xuddi optimallashtirish resurslari kabi ishlatib bo‘lmaydi).

Natijada optimallashtirish masalasi quyidagi ko‘rinishda keltiriladi:

$$opt \ R(\bar{u})$$

$$\bar{u} \in \bar{u}^{rux\ .}$$

Optimallashtirilayotgan  $\bar{u}$  o‘zgaruvchi va  $\bar{y}$  chiqish o‘zgaruvchilariga chegaralanishlar qo‘yish mumkin (o‘zgaruvchilarni faqat ma’lum chegaralarda o‘zgartirish imkonи).

Amaliyotda optimallashtirish masalalarini yechishda  $\bar{y}$  chiqish o‘zgaruvchilari yo tajriba ma’lumotlari – optimallashtirishning tajribaviy – statistika usulidan yo jarayonlarning matematik modellari – optimallashtirishning sonli usuli yordamida aniqlanadi.


Matematik modellar ushbu holda funksional operatorli aks ettirish yordamida ifodalanadi:

$$\bar{y} = \Phi(\bar{u}, \bar{x})$$

$\bar{y}$  chiqish o‘zgaruvchilarining vektorini matematik modellar bo‘yicha hisoblashda olingan  $\bar{y}$  chiqish o‘zgaruvchilari baholarining vektoriga almashtirish optimallashtirish masalasiga xuddi kompyuterda ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarining ekstremumlarini qidirishning matematik masalalari kabi qarash imkonini beradi.


Masala:  $R = R(u)$  funksiyaning maksimumini aniqlash

Yechish natijalari:  $u^{opt}, R^{max}$



**Misol:**

Quyidagi rasmda keltirilgan komponentlar konsentratsiyalarining o‘zgarishini  $A \rightarrow P \rightarrow S$  ketma-ket reaksiyalari uchun quyidagi optimallashtirish masalasini ifodalash mumkin:  $R$  oraliq mahsulotning konsentratsiyasi maksimal bo‘lganda reaksiyaning optimal vaqtini ( $t_{opt}$ ) ni toping.



Optimallashtirish masalasini yechish uchun quyidagilar zarur:

- optimallik mezoni ( $R$ ) ni shakllantirish;
- optimallashtiriladigan o‘zgaruvchilar ( $\bar{u}$ ) ni tanlash;
- optimallik mezoni qiymatini aniqlashning aniq usulini amalga oshirish (sonli yoki tajribaviy – statistik).

Optimallik mezoni jarayon shakllanishi sifatining miqdoriy tavsifi hisoblanadi.

Optimallik mezonlari fizik - kimyoviy (butun mahsulot, aralashma, mahsulot chiqishining konsentratsiyasi) va iqtisodiy (tannarx, foyda, rentabellik) ga farqlanadi.

Optimallik mezonining qiymati matematik model (optimallashtirishning taqrifi usuli) yordamida Optimallashtirishda avvalroq identifikasiyalash masalasi yechilgandagi matematik modellar qo‘llaniladi. Shunga mos ravishda modellarning koeffitsiyentlari quyidagi tenglikda ko‘rsatilgan:  $\bar{y} = \Phi(\bar{u}, \bar{x})$

$$grad \bar{y} = \frac{\partial y}{\partial x_1} \bar{i} + \frac{\partial y}{\partial x_2} \bar{j} + \dots + \frac{\partial y}{\partial x_m} \bar{m},$$

bu yerda,

$\bar{i}, \bar{j}, \dots, \bar{m}$  – koordinata o‘qlari yo‘nalishidagi birlik vektorlar;

$\frac{\partial y}{\partial y_i} (i = 1, \dots, m)$  – gradient vektorining  $(x_1, x_2, \dots, x_m)$  koordinata o‘qlariga proeksiyalari.

$m = 2$  uchun keskin ko‘tarilish usuli bilan yaqinlashishni quyidagicha keltirish mumkin:



**4.22-rasm.** Ekstremumga keskin ko‘tarilish usuli bilan yaqinlashish

$\bar{x}^{(0)}, \bar{x}^{(1)}$  – birinchi tartibli tajriba (TFT – to‘liq faktorli tajriba) rejalarining markazi;

$\bar{x}^{(2)}$  – ikkinchi tartibli tajriba (TOMKR – tajribaning ortogonal markaziy kompozitsion rejasi) rejasining markazi.

Faktorli fazoda ekstremumni qidirishning koordinatalar ketma-ketligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$x_i^{(s+1)} = x_i^{(s)} \pm h \frac{\frac{\partial y^{(s)}}{\partial x_i}}{\sqrt{\sum_{j=1}^m \left(\frac{\partial y^{(s)}}{\partial x_j}\right)^2}}$$

$$s = 0, 1, 2, 3, \dots$$

bu yerda,  $h$  – gradient vektorining yo‘nalishi bo‘yicha qadamning berilgan faktori;

$s$  – tajribalashtirilayotgan nuqtalar raqami;

$\pm$  – maksimumga (+) yoki minimumga (-) ga yaqinlashish.

Bu yerda  $y$  kattalik faktorlari va koeffitsiyentlari nisbatan chiziqli bo‘lgan regressiya tenglamasidan aniqlaniladi:

$$\hat{y} = a_0 + \sum_{j=1}^m a_j x_j$$

Bu tenglama javobning ekstremum qiymatidan uzoqda bo‘lgan sohalarda javob sirtini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Faktorli fazoning bu regressiya tenglamasi haqiqiy bo‘ladigan chegaralangan sohasi ( $x_j^{(0)}$ ,  $j = 1, \dots, m$ ) – tajriba rejasining markazi bo‘lgan sohaning markazi:

$$x_j^{(0)} = \frac{x_j^{\min} + x_j^{\max}}{2}$$

$$j = 1, \dots, m$$

va faktorlarni o‘zgartirish intervali (aniq, yarim interval):

$$\Delta x_j = \frac{x_j^{\max} - x_j^{\min}}{2}$$

$$j = 1, \dots, m$$

bilan beriladi.

Faktorli fazoning mahalliy sohalari uchun regressiya tenglamasi kodlangan faktorlar bilan yoziladi:

$$\hat{y} = \tilde{a}_0 + \sum_{j=1}^m \tilde{a}_j z_j,$$

bu yerda,

$$z_j = \frac{x_j - x_j^{(0)}}{\Delta x_j}$$

$$j = 1, \dots, m$$

Natijada faktorning minimal qiymati  $z_j = -1$  ga, maksimal qiymati  $z_j = 1$  ga, tajriba rejasining markazi esa  $z_j = 0$ ,  $j = 1, \dots, m$  koordinatali nuqta bilan mos keladi.

Kodlangan  $\tilde{a}_j$  faktorli regressiya tenglamasining koeffitsiyentlari natural qiymatli  $x_j$  faktorli regressiya tenglamalarining koeffitsiyetlaridan farq qiladi va ko‘rib chiqilayotgan chegaralangan sohada o‘tkazilgan to‘liq faktorli tajriba (TFT) dan aniqlanadi.

Bunday xossalardan biri reja markazidan bir xil masofaga kodlangan faktorli regressiya tenglamalarini bashorat qilish qobiliyatini tavsiflovchi rotatabellik xossasidir.

Regressiya tenglamalarining bashorat qilish qobiliyatining tavsiflari uchun  $\bar{y}$  chiqish o‘zgaruvchilarining  $\tilde{a}_j$  koeffitsiyentlarning mustaqilligidan kelib chiquvchi dispersiya baholari  $-S^2$  dan foydalaniladi va ularning bir xil dispersiyalari TFT hollarida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S_{\bar{y}}^2 = S_{a_0}^2 + \sum_{j=1}^m z_j^2 S_{a_1}^2 = S_a^2 (1 + p^2)$$

bu yerda,

$S_a^2$  – barcha  $\tilde{a}_j$  koeffitsiyentlar uchun bir xil dispersiya baholari

$$S_a^2 = \frac{S_e^2}{n}$$

bu yerda

$n$  – TFT sinovlarining soni;

$S_e^2$  – u chiqish o‘zgaruvchilarining parallel sinovlar bo‘yicha aniqlanadigan qayta tiklanish dispersiyasi;

$p^2$  – reja markazidan faktorli fazoning ko‘rilayotgan nuqtasigacha bo‘lgan masofaning kvadradi.

$$p^2 = \sum_{j=1}^m z_j^2$$

Teskari  $S_{\bar{y}}^2$  kattalik regressiya tenglamasining aniqlik o‘lchami uchun qabul qilingan.

$S_{\bar{y}}^2$  uchun tenglamaning aniqligi sfera radiusining kvadrati  $p^2$  ga proporsional kamayadi va barcha ekvimasofali nuqtalari uchun bir xil bo‘ladi.

Shuning uchun ham faktorli fazoda birorta ham ustuvorroq yo‘nalishni belgilash mumkin emas va boshqa ixtiyoriy yo‘nalishga qaraganda y o‘zgaruvchisini bashorat qilish jihatidan gradiyent vektori (*grad*  $\bar{y}$ ) yomon emas.

Biroq gradiyent – vektor (*grad*  $\bar{y}$ )  $y$  funksiyaning tezroq ko‘tarilish yo‘nalishini tavsiflaydi va bu jihatdan unga yaqinlashish yanada q taxminiy hisoblanadi.

Gradiyent – vektor (*grad*  $\bar{y}$ ) ning koordinatalarini aniqlash uchun regressiyaning TFT natijalari bo‘yicha olinadigan monand tenglamasi ishlataladi:

$$\hat{\bar{y}} = \tilde{a}_0 + \sum_{j=1}^m \tilde{a}_j z_j$$

h qadamning faktori beriladi va qadam gradiyent bo‘yicha TFT rejasi markazi ( $\bar{x}^{(0)}$ ) – boshlang‘ich yaqinlashish) dan funksiya javobining ekstremum qiymatiga tomon amalga oshiriladi va faktorli fazodagi rejaning yangi markazi  $\bar{x}^{(1)}$  ning koordinatalari aniqlanadi.

Bu yerda yana TFT o‘tkaziladi va uning natijalari qayta ishlanadi hamda gradiyent – vektoring ekstremum tomonga

$$x_i^{(s+1)} = x_i^{(s)} \pm h \frac{\frac{\partial y^{(s)}}{\partial x_i}}{\sqrt{\sum_{j=1}^m \left(\frac{\partial y^{(s)}}{\partial x_j}\right)^2}}$$

$$s = 0, 1, 2, 3, \dots$$

qadam bilan amalga oshiriladigan yangi yo‘nalishi hisoblanadi:

$$grad \bar{y} = \frac{\partial y}{\partial x_1} \bar{i} + \frac{\partial y}{\partial x_2} \bar{j} + \dots + \frac{\partial y}{\partial x_m} \bar{m}$$

Ketma-ket tajribalashtirish protsedurasi soha, javob funksiyaning ekstremum qiymatiga yaqin sohaga erishmaguncha davom ettirilaveradi.

Deyarli statsionar soha bilan yaqinlikni reja markazidagi tajribaviy  $\bar{y}^{(c)}$  va hisobiy  $\bar{y}^{(c)}$  kattaliklar o‘rtasidagi farq qiymatining bahosi bilan amalga oshiriluvchi Styudent mezoni – t yordamida o‘rnatish mumkin.

$$y^{(c)} = \frac{\sum_{i=1}^n y_i^{(c)}}{n}$$

$$\bar{y}^{(c)} = \tilde{a}_0$$

Javob funksiyasi ekstremumining yaqinlik sharti quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\frac{|y^{(c)} - \tilde{a}_0|}{S_e} > t_{\beta(f_e)}^{jad}$$

bu yerda,

$f_e = k - 1$  - erkinlik darajalari soni;  
 $k$  – parallel sinovlar soni;  
 $\beta$  – berilgan ishonchli ehtimollik (odatda 0,95).

### 3.6.9. Deyarli statsionar sohadagi ekstremumning holatini aniqlash

Chiqish o‘zgaruvchisi uning ekstremum qiymatini ta’minlovchi faktorlarning optimal kattaliklarini aniqlash uchun ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar ekstremumining zaruriy shartidan kelib chiqadigan tenglamalar tizimi yechiladi:

$$\frac{\partial \bar{y}}{\partial z_1} = 0; \frac{\partial \bar{y}}{\partial z_2} = 0; \dots \frac{\partial \bar{y}}{\partial z_m} = 0$$

Bunday hollarda kodlangan faktorlar  $z_j$  ni qo‘llash qulayroq.

Ekstremumga yaqin bo‘lgan sohanavi tavsiflash uchun ikki o‘zaro ta’sirlashuvchi faktorli ikkinchi tartibli tenglamadan foydalanish mumkin:

$$\bar{y}'' = \tilde{a}_0 + \sum_{j=1}^m \tilde{a}_{jj} z_j + \sum_{j=1}^{m-1} \sum_{u=2}^m \tilde{a}_{ju} z_j z_u + \sum_{j=1}^m \tilde{a}_{jj} (z_j^2 - S)$$

Kiritilgan kattalik  $S$  bu modellarning koeffitsiyentlari  $(\tilde{a}_{jj}, \tilde{a}_{ju}, \tilde{a}_{jj})$  ni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tajribaning matritsalarini ortogonalligini ta’minlaydi.

$\bar{y}''$  uchun tenglanan koeffitsiyentlarini hisoblashda deyarli statsionar sohadagi tajribaning TOMKR amalga oshiriladi.


Agar quyidagi shart bajarilmasa, ekstremum holatini aniqlash masalasini yechish natijalarini muvaffaqiyatli deb hisoblab bo‘lmaydi:

$$\left| z_j^{opt} \right| \leq 1$$

$$j = 1, \dots, m,$$

shuningdek, regressiya tenglamasi faqatgina tajribada joylashgan ( $-1 \leq z_j \leq 1$ ) kodlangan faktorlar diapazonidagina to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu shart bajarilmaganida tajribaning TOMKR ni rejaning yangi, xususan  $z_j^{opt}$  nuqtadagi markazi bilan qaytadan amalga oshirish tavsija etiladi.



**4.23-rasm.** Optimallashtirishning tajribaviy - statistik usuli algoritmining bloksxemasi.

Ushbu ekstremum atrofidagi ketma-ket tajribalashtirish protsedurasi yuqorida keltirilgan tengsizlik bajarilmaguncha davom ettirilishi tavsiya etiladi.

### O‘z - o‘zini tekshirish uchun topshiriqlar

1. Optimallashtirilayotgan o‘zgaruvchilarga chegaralanishlar qo‘yilgan va chegaralanishlari bo‘limgan optimallashtirish masalalarining ifodalanishiga aniq misollar keltiring.
2. Optimallik mezonlariga bo‘lgan asosiy talablarni sanang.
3. Optimal loyihalash va boshqarish masalalari qanday ifodalandi?
4. Kompyuterda jarayonni optimallashtirish masalasi qanday yechiladi?
5. Sizga optimallashtirishning qanday usullari ma’lum? Ularning qanday ishlashini esga oling.
6. Qachon funksiya ekstremumini qidirishning optimallik mezoni o‘rniga tenglamalar tizimi yechiladi?

7. Optimal tajribalashtirishning qanaqa strategiyasi mavjud? Uning natijalarini qayta ishslash uchun kompyuterdan qanday foydalaniladi?

8. To‘liq faktorli tajriba qanday o‘tkaziladi va uning natijalari qanday qayta ishlanadi?

9. Tajribani ortogonal markaziy kompozitsion rejalashtirish va uning natijalarini qayta ishslash qanday amalga oshiriladi?

10. To‘liq faktorli tajribalarda modellarning koeffitsiyentlari qanday aniqlanadi?

#### 4-Mavzu: **KIMYOVIY TEKNOLOGIYA TIPIK APPARATLARINING KOMPYUTERLI MODELLARINI TUZISH**

**Reja:**

##### **4.1. Issiqlik almashish apparatlarining kompyuterli modellarini tuzish**

##### **4.1.2. Issiqlik almashish jarayonini tavsiflashda qatnashuvchi stoxastik tashkil etuvchilar hisobi**

##### **4.1.3. Rekuperativ issiqlik almashish apparatlarining ishslashini modellashtirish**

##### **4.1.4. Issiqlik almashish apparatlarini hisoblash va algoritmlashtirish**

##### **4.1.5 Quvurli reaktorlarni hisoblash va algoritmlashtirish**

##### **4.1.6.Tarelkali kolonnalardagi ko‘p komponentli uzlusiz rektifikatsiya jarayonini kompyuterli modellashtirish, hisoblash va algoritmlashtirish**

Haroratning fazaviy bir jinsli bo‘lmagan maydonlari ta’siri ostida yuzaga keladigan, issiqliklarni tashishning o‘z - o‘zidan yuz beradigan jarayoniga *issiqlik almashish jarayoni* deyiladi.

Issiqlik tashishning miqdoriy o‘lchami o‘tish yo‘nalishiga perpendikular bo‘lgan birlik yuzadan birlik vaqt ichida o‘tadigan issiqlik miqdoriga teng va o‘tish yo‘nalishini ko‘rsatuvchi  $q$  issiqlik oqimi zichligining vektori hisoblanadi.

Issiqlik almashish apparatlarini hisoblashning muhim masalasi harorat maydonlari  $T(t, x, u, z)$  ni aniqlash, shuningdek, issiqlik oqimlari  $q(t, x, u, z)$  ni topish hisoblanadi. Agar  $q$  oqim maydonining zichligi ma’lum bo‘lsa, unda issiqlik tashishning yig‘indisi  $Q$  ni ixtiyoriy sirt orqali hisoblash qiyin emas:

$$Q = \int (\vec{q}_F \cdot \vec{n}_F) \partial F \quad (5.1)$$

bu yerda,  $\vec{n}_F$  — sirtga perpendikular bo‘lgan birlik vektor. Odatda qattiq devorlar, suyri issiqlik tashuvchilar va fazalar qismlarining yuzalari (kondensatsiya va bug‘lanishda) yuza (sirt) sifatida qaraladi.

Issiqlik almashish masalasining matematik ifodalanishi tashish va saqlanish qonunlariga asoslanadi. Mos chegaraviy shartlar tadqiq etilayotgan obyektning boshlang‘ich holati va uning atrof- muhit bilan o‘zaro ta’sirini belgilaydi.

Issiqlik almashish nazariyasi uzlusiz (tutash) muhitlar modellariga asoslanadi. Bu molekulalar o‘rtasidagi masofa qaralayotgan tizimning, hattoki uning elementar hajmlarining xarakterli o‘lchamlaridan juda kichikligini bildiradi.

Energiya tashish qonunlarini ko'rib chiqamiz. Ko'rsatib o'tganimizdek energiya oqimi turli jinsli harorat maydonlari natijasida yuzaga keladi. Harorat maydonining fazoviy o'lchami haroratning maksimal o'sishi yo'nalishini ko'rsatuvchi harorat gradiyenti gradT hisoblanadi va haroratning shu yo'nalish bo'yicha olingan hosilalariga miqdor jihatidan teng bo'ladi:

$$gradT = \vec{n}_0 \frac{\partial T}{\partial n} = \vec{i} \frac{\partial T}{\partial x} + \vec{j} \frac{\partial T}{\partial y} + \vec{k} \frac{\partial T}{\partial z} \quad (5.2)$$

bu yerda,  $\vec{n}_0$  – izometrik yuza normalining birlik vektori;

$T(t, x, u, z) = const$ , harorat o'sishi tomonga yo'naltirilganlik;

$\frac{\partial T}{\partial x}, \frac{\partial T}{\partial y}, \frac{\partial T}{\partial z}$  – harorat gradientining to'g'ri burchakli koordinata o'qlariga proeksiyaları.

Issiqlik o'tkazuvchanlik nazariyasida o'rganiladigan deformatsiyalanmaydigan bir komponentli muhitlarda issiqlik tashish uchun bir tomonidan issiqlik oqimi boshqa tomonidan harorat gradienti bilan molekulalar o'rtasidagi bog'liqliknini o'rnatadi. Amaliyotda yuzaga keladigan ko'pgina masalalarda ushbu kattaliklar o'rtasida Furyening issiqlik o'tkazuvchanlik qonuni bilan o'rnatiladigan chiziqli munosabat to'g'ri:

$$q_T = -\lambda gradT \quad (5.3)$$

bu yerda,  $\lambda$  — muhitning issiqlik o'tkazuvchanligi.

Harakatlanuvchi gaz va suyuqliklarda konvektiv issiqlik almashish jarayoni yuz beradi. Bu yerda molekular tashishga konveksiya – bir qancha  $i$  tezliklar bilan ko'chuvchi makroskopik hajmli muhitlar energiyasi, impulsi va moddalarining ko'chishi ham qo'shiladi. Bunda tezlik vektori xuddi sarf tavsiflari kabi qo'yiladi: uning miqdoriy qiymati tezlik yo'nalishiga perpendikular bo'lgan birlik yuzadan birlik vaqt ichida tashilgan moddaning hajmiga teng. Tezlik  $i$  ni issiqlik miqdorining zichligi (entalpiya)  $ph$  ga ko'paytirib, issiqlikning konvektiv oqimi  $q_k$  ni olamiz:

$$q_k = phu, \quad (5.4)$$

bu yerda.  $\rho$  — moddaning zichligi;  $h$  — entalpiya.

Shunday qilib, konvektiv issiqlik almashishda issiqlik oqimi  $q$  ning zichligi molekular va konvektiv tashkil etuvchilarining yig'indisi bilan aniqlanadi:

$$q = q_k + q_T = \lambda gradT + phu \quad (5.5)$$

Energiya o'tkazishning ko'rib chiqilgan turlari bilan bir qatorda energiyani elektormagnit to'lqinlar bilan o'tkazish ham mavjud. Bunda issiqlik o'tkazish jismlarga yutilgan nur energiyasi jismning issiqlik holatini o'zgartirishi bilan amalga oshiriladi, shuningdek, nurlanish jismning issiqlik holati (harorati) bilan aniqlanadi. Agar muhit issiqlik nurlanish uchun ochiq bo'lgan turli haroratli yuzalarga ajralsa, unda radiatsion

va konvektiv issiqlik almashishlar bir-biridan mustaqil holda parallel ro'y beradi. Ushbu holda nurlanish energiyasining natijaviy oqimi faqatgina jism yuzasining geometriyasi, harorati va radiatsiyaviy xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Muhit kuchli yutuvchi va nurlanuvchi bo'lgan hollarda energiya oqimining radiatsiyaviy tashkil etuvchisi uchun gradiyent tipidagi ifoda to'g'ri:

$$q_{rad} \approx grad (T^4) \quad (5.6)$$

Energiya o'tkazishning uchta mexanizmi, ya'ni issiqlik o'tkazuvchanlik, konveksiya va nurlanish qatnashadigan qo'shma (kombinatsiyali) issiqlik o'tkazish murakkab issiqlik almashish deb ataladi.

#### **4.1.2. Issiqlik almashish jarayonini tavsiflashda qatnashuvchi stoxastik tashkil etuvchilar hisobi**

Real sharoitlarni hisobga olib issiqlik almashishni hisoblash va tavsiflashning murakkabligi ko'pincha quyidagi dalillar bilan tushuntiriladi, hozirgi vaqtida issiqlik almashish apparatlari issiqlik tashuvchilarning to'la almashishi yoki uning aralashish rejimi bilan amalga oshiriluvchi modellari bo'yicha hisoblanadi. Ushbu oxirgi hollardagi rejimlar davomida issiqlik almashish apparatlarining konstruksiyalari va issiqlik berish turlarini aniqlash uchun issiqlik tashuvchilarga asoslaniladi. Biroq ko'p hollarda issiqlik tashuvchilarni aralashtirish va almashtirishning ideal modellaridan foydalanish hisoblashda xatolik beradi. Shundan kelib chiqib, issiqlik tashuvchilar harakatining yanada realroq va shu bilan bir vaqtida yetarlicha sodda bo'lgan modellaridan foydalanish lozim.

Real issiqlik almashish apparatlarida jarayonning stoxastik tabiatiga ko'ra oqim elementlarining vaqt bo'yicha taqsimlanishi notejisidir. Bunday notejislikning mavjudligini quyidagi manbalar orqali ko'rsatish mumkin: tizimlarning kesimlaridagi tezliklarning turli o'lchamliligi; oqimlarning turbulentlashishi; oqimlarda turg'un sohalarning mavjudligi; tizimda baypas oqimlar va kanallarning vujudga kelishi. Oqimlarning notejisligini baholash uchun bo'lish vaqt bo'yicha taqsimlanish funksiyasi kiritiladi va bu funksiya tizimlarning impulsli, pog'onali yoki chastotali g'alayonlarga javobidan aniqlanadi va real oqimning ideal aralashtirish va almashtirish modellaridan og'ishini miqdoriy baholash imkonini beradi. Tizimlarning g'alayonlarga bo'lgan javobining miqdoriy tavsiflari (o'rtacha qiymat, dispersiya va h.z.) modellarning (diffuziyali va yacheykali) jarayonning stoxastik tabiatida qatnashuvchi parametrlarini hisoblash imkonini beradi. Suyuqliklar oqimidagi uning harakatini yuzaga keltiruvchi haroratning taqsimlanishini oqimlar harakatining ilgari ko'rib chiqilgan modellari yordamida monand tavsiflash mumkin. Bunda oqimdagи muddaning konsentratsiyasi boshqa tavsif – harorat bilan almashtiriladi. «Quvur ichida quvur» apparati tizimida oqimni kondensatsiyalanuvchi bug' bilan  $T_1$  haroratda qizdirishni ko'rib chiqamiz. Issiqlik almashish apparatining sxemasi 5.1 rasmida keltirilgan.

*Ideal o'rinn almashish modeli.* Bu modelning asosida quyidagi farazlar yotadi:

1) ko‘ndalang kesimlarda haroratlar doimiy; 2) bo‘ylama almashinish mavjud emas.


Modellarning matematik tavsiflari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\nu_2 \frac{dt}{dx} = \frac{KP(T_1 - T)}{Sc_{p_2}} \quad (5.7)$$

bu yerda,  $\nu_2$  — qizdirilayotgan sovuq agentning oqish tezligi;  $K$  – issiqlik uzatish koeffitsiyenti;  $P$  va  $S$  – qizdirilayotgan yuza perimetri va ichki quvurning ko‘ndalang kesim yuzasi;  $c_{p_2}$  – sovuq agentning issiqlik sig‘imi;  $\chi$  – issiqlik apparatining kirishigacha bo‘lgan masofa.

(5.7) tenglamani integrallash kirishdan  $\chi$  masofada bo‘lgan sovuq agentning harorati uchun quyidagi ifodani beradi:

$$T = T_1 - (T_1 - T_{2H}) \ell^{-\frac{KP}{Sc_{p_2} \nu_2} \chi} \quad (5.8)$$



**5.1-rasm.** Issiqlik almashish apparatining sxemasi.

Ideal aralashmaning modeli. Bu model sovuq agentning to‘liq aralashishida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham uning temperaturasi issiqlik almashish apparatining uzunligi bo‘yicha o‘zgarmaydi. Sovuq agentni qizdirishgacha bo‘lgan harorat quyidagi issiqlik balans tenglamasidan aniqlanadi:

$$G_2 c_{p_2} (T_{2K} - T_{2H}) = KF (T_1 - T_{2K}) \quad (5.9)$$

*Yacheykali model.* Bu yerda sovuq agent oqimi ideal aralashishning ketma-ket bog‘langan yacheykalari qatorlariga ajratilgan ko‘rinishida keltiriladi. Modellarning matematik tavsifi yacheykalarning har biri uchun issiqlik balans tenglamasini o‘z ichiga oladi:

$$\begin{aligned}
G_2 c_{p_2} \left( T_2^{(1)} - T_{2H} \right) &= \frac{KF}{n} \left( T_1 - T_2^{(1)} \right) \\
G_2 c_{p_2} \left( T_2^{(2)} - T_2^{(1)} \right) &= \frac{KF}{n} \left( T_1 - T_2^{(2)} \right) \quad (5.10) \\
&\dots \dots \dots \dots \dots \\
G_2 c_{p_2} \left( T_{2K} - T_2^{(n-1)} \right) &= \frac{KF}{n} \left( T_1 - T_{2K} \right)
\end{aligned}$$

(5.10) tenglamalar tizimining yechimi yachevkalar bo'yicha harorat o'zgarishini hisoblash imkonini beradi.

*Diffuziyali model.* Matematik modellarni tuzishda murakkab teskari aralashishli ideal o'rin almashish modeli asos bo'lib xizmat qiladi.

$$-D_l \frac{d^2 T}{dx^2} + v_2 \frac{dT}{dx} = \frac{KP(T_1 - T)}{Sc_{p_2}} \quad (5.11)$$

bu yerda,  $D_l$  – issiqlik tashuvchi oqimidagi bo'ylama aralashish koeffitsiyenti. (5.11) tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishga ega:

$$T = C_1 e^{s_1 x} + C_2 e^{s_2 x} + T_1 \quad (5.12)$$

bu yerda,

$$s_{1,2} = \frac{-v \pm \sqrt{v_2^2 + 4D_l \frac{KP}{Sc_{p_2}}}}{-2D_l} \quad (5.13)$$

$C_1, C_2$  o'zgarmaslarni quyidagi  $X = 0$  da  $T = T_{2H}$  chegara shartdan topish mumkin,

$$X = 0 \text{ da } \frac{dT}{dx} = 0 \quad (5.14)$$


Natijada quyidagilarni olamiz

$$C_1 = T_{2H} - T_1 - \frac{s_1 e^{s_1 L} (T_1 - T_{2H})}{s_2 e^{s_2 L} - s_1 e^{s_1 L}} \quad (5.15)$$

$$C_1 = \frac{s_1 e^{s_1 L} (T_1 - T_{2H})}{s_2 e^{s_2 L} - s_1 e^{s_1 L}} \quad (5.16)$$

*Misol.* Endi sovuq agent harakatining turli modellaridan kelib chiqib, suyuqliklar kondensatsiyalanuvchi bug' bilan qizdiriladigan holatlar uchun sovuq agentning kesimlardagi haroratlarini baholaymiz. Issiqlik almashish sharoiti quyidagicha: suyuqlik sarfi  $G_2 = 1000 \text{ kg/soat}$  ni tashkil qiladi; uning issiqlik

sig‘imi  $c_{p_2} = 2520 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ ; zichligi  $\rho = 1200 \text{ kg/m}^3$ . Qizdirish  $T_1 = 120^\circ\text{C}$  haroratlari to‘yingan suv bug‘i bilan amalga oshiriladi. Issiqlik almashishning silindrik yuzasining diametri  $D_T = 0,5 \text{ m}$  ga teng. Issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K = 600 \text{ Vt/(m}^2 \cdot \text{K)}$  ni tashkil etadi. Issiqlik almashish apparatining uzunligi 1,5 m.




**5.2-rasm.** Tizim javobining S egri chizig‘i.

Issiqlik almashish apparatida qizdirilayotgan suyuqlik oqimining strukturasini baholash uchun tajribada tizimlar javobining S egri chizig‘i olindi (5.2-rasm) va bunda, oldin hisoblangan yacheykali va diffuziyali modellarning parametrlaridan foydalanildi:

$$p = 3 \text{ va } D_L = 3.54 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2/\text{s}.$$

Keyin keltirilgan modellar bo‘yicha sovuq agentning issiqlik almashish apparatining uzunligi bo‘yicha haroratlarini taqsimlanishi hisoblandi. Natijalar 5.3-rasmda ko‘rsatilgan.

Ular turli modellar uchun olingan haroratlarning sezilarli tarqalishi haqida ma’lumot beradi. Shunday qilib, ideal o‘rin almashish modeli yuqori haroratlar ( $T_{2K} = 112^\circ\text{C}$ ) ni beradi, to‘liq aralashish modeli esa past haroratlar ( $T_{2K} = 100^\circ\text{C}$ ) ni beradi. Issiqlik almashish apparatidagi harorat o‘zgarishining yanada realroq xarakterini yacheykali va diffuziyali modellar aks ettiradi ( $T_{2K} = 100^\circ\text{C}$ ). Bunda berilgan modellar uchun chekli haroratlar amaliy jihatdan mos keladi, lekin juda kichik kesimlardagi haroratlar farq qiladi. Ideal o‘rin almashish va diffuziyali modellar uchun issiqlik apparatlarini hisoblashda chekli haroratlarning farqi 5° (5% ga yaqin) ni tashkil etadi. Sovuq agentning o‘rin almashish va to‘liq aralashish modellari yanada katta farqni beradi.




**5.3-rasm.** Turli modellar bo‘yicha harorat profilining hisobi:  
1-ideal aralashish; 2-ideal siqib chiqarish; 3-yacheykali model;  
4-difuziyali model.

Keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, issiqlik tashuvchilarining real oqimlarini to‘la o‘rin almashish va aralashish rejimlaridan og‘ishini o‘rganish muhim hisoblanadi.

#### 4.1.3. Rekuperativ issiqlik almashish apparatlarining ishlashini modellashtirish

Umumiy munosabat. Issiqlik almashish apparatlarining berilgan turi kimyo sanoatida keng tarqalgan; unga birinchi navbatda rekuperativ obi quvurli issiqlik almashish apparatlari tegishli (5.4- rasm).

Issiqlik almashish apparatlarining hisobi odatda kerakli miqdordagi issiqlik  $Q$  uzatish uchun lozim bo‘ladigan issiqlik almashish sirti  $F$  ning maydonini aniqlash maqsadida (loyihaviy hisob) yoki berilgan konstruksiyali va issiqlik almashish yuzali issiqlik almashish apparatlaridagi issiqlik tashuvchilarning harorati va issiqlik miqdorini aniqlash maqsadida (tekshiruv hisobi) amalga oshiriladi. Bu variantlarning prinsipial farqlari yo‘q, shuning uchun ham kelgusida loyihaviy hisobni ko‘rib chiqamiz.



**5.4-rasm.** Obi quvurli issiqlik almashish apparatidagi issiqlik tashuvchilar oqimlarining sxemasi.

Devor bilan ajratilgan, turli haroratlari ikki issiqlik tashuvchilar o'rtasidagi issiqlik uzatish jarayonini ko'rib chiqamiz. Elementar df issiqlik almashish maydoni orqali o'tadigan issiqlik miqdori  $dQ$

$$dQ = K(T_1 - T_2)df \quad (5.17)$$

ni tashkil etadi.

Bu yerda  $T_1$  va  $T_2$  – issiqlik tashuvchilarning issiqlik almashish yuzasiga perpendikular bo'lgan o'rtacha haroratlari;  $K$  – termik o'tkazuvchanlik mohiyatiga ega bo'lgan proporsionallik koeffitsiyenti va u issiqlik tashuvchilar haroratlarining farqi  $1^\circ$  bo'lganda birlik issiqlik almashish yuza orqali birlik vaqt ichida o'tuvchi issiqlik miqdoriga teng.

Termik o'tkazuvchanlikka teskari kattalik termik qarshilik bo'lib, issiqlik oqimi yo'nalishidagi bir-biriga bog'liq termik qarshiliklardan, aynan u: qattiq devor yuzasining birinchi issiqlik tashuvchining issiqlik o'tkazishini asosiy massasiga bo'lgan termik qarshiligi  $\frac{1}{\alpha_1}$ ; qattiq devorning xususiy qarshiligi  $\left(\frac{\delta_{CT}}{\lambda_{CT}}\right)$ , devor yuzasining ikkinchi issiqlik tashuvchining asosiy massasiga bo'lgan termik qarshilik ( $\frac{1}{\alpha_2}$ ) lardan tashkil topadi. Termik qarshiliklar qo'shimcha ravishda issiqlik tashuvchilardan issiqlik o'tkazish yuzasiga tushadigan turli jinsli cho'kindilarga ham ega. Bunday qo'shimcha qatlamlarning termik qarshiligi ularning qalinligi  $\delta_i$  va issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti  $\lambda_i$  bilan ifodalanadi.

Yassi issiqlik almashish yuzalari uchun issiqlik uzatish koeffitsiyentining qiymati xususiy termik qarshilik orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$K = \left( \frac{1}{a_1} + \sum \frac{\delta_i}{\lambda_i} + \frac{1}{a_2} \right)^{-1} \quad (5.18)$$

Endi kinetik va issiqliknинг fizik koeffitsiyentlari o'zgarmas bo'lgan hollardagi issiqlik almashish apparatining hisobini ko'rib chiqamiz.

Issiqlik almashish sirtining zaruriy maydoni (5.17) differensial tenglamani izlanayotgan butun  $F$  sirt bo'yicha integrallab aniqlanadi:

$$F = \int_0^F \frac{dQ}{K(T_1 - T_2)} \quad (5.19)$$

Shunday qilib, integral ostidagi funksiya issiqlik tashuvchining harorati va integrallashning noma'lum yuqori chegarasiga bog'liq bo'ladi va (5.19) tenglamani integrallash issiqlik tashuvchilarning o'zgaruvchan haroratlariga nisbatan amalga oshiriladi.  $df$  elementar issiqlik almashish yuzasidagi issiqlik tashuvchilar uchun issiqlik balansining tenglamasini yozib quyidagini olamiz (issiqlik tashuvchilar teskari oqimli bo'lgan hollar uchun):

$$dQ = -c_1 G_1 dT_1 = -c_2 G_2 dT \quad (5.20)$$

bu yerda,  $c_1, c_2, G_1, G_2$  – birinchi va ikkinchi issiqlik tashuvchilarning issiqlik sig‘imlari va massaviy sarflari.

(5.20) munosabat faqatgina molekular issiqlik o‘tkazuvchanlik va turbulent o‘tish tufayli ko‘ndalang o‘tgan issiqlik miqdori konvektiv o‘tishdagi bilan solishtirilganda ahamiyatsiz darajada bo‘lganda to‘g‘ridir. (5.20) tenglamadan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$d(T_1 - T_2) = \left( \frac{1}{\omega_1} - \frac{1}{\omega_2} \right) K (T_1 - T_2) df \quad (5.21)$$

bu yerda  $\omega_1 = c_1 G_1$ ,  $\omega_2 = c_2 G_2$  – issiqlik tashuvchilarning suvdagi ekvivalentlari.

$T_1$  va  $T_2$  haroratlar o‘zgarishining kichik diapazonlarida kattaliklarni o‘zgarmas deb qabul qilish mumkin. Unda (5.21) tenglama integrallansa, issiqlik tashuvchilarning bo‘ylama issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha haroratlarining o‘zgarish farqi eksponensial ko‘rinishga o‘tadi:

$$T_1 - T_2 = \Delta_1 \exp \left[ -K \left( \frac{1}{\omega_1} - \frac{1}{\omega_2} \right) f \right] \quad (5.22)$$

bu yerda,  $\Delta T_1$  – issiqlik tashuvchilarning  $f = 0$  dagi haroratlarining farqi.

(5.22) tenglamadan yuza bo‘yicha haroratlarning o‘rtacha farqi  $\Delta T_{o'r}$  quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta T_{o'r} = \frac{1}{F} \int_0^F \Delta T_1 \exp \left[ K \left( \frac{1}{\omega_1} - \frac{1}{\omega_2} \right) f \right] df = \frac{\Delta T_1 - \Delta T_2}{\ln \frac{\Delta T_1}{\Delta T_2}} \quad (5.23)$$

$\Delta T_2 - f = F$  bo‘lganda issiqlik almashish apparatining ikkinchi oxiridagi issiqlik tashuvchilar haroratlarining farqlari.

Issiqlik sig‘imi va issiqlik berish koeffitsiyentlari o‘zgarmas bo‘lgan hollarni ko‘rib chiqamiz. (5.17) tenglamani  $K = const$  shartga ko‘ra integrallab quyidagini olamiz:

$$Q = \int_0^F K (T_1 - T_2) df = K \Delta T_{o'r} F \quad (5.24)$$

Issiqlik balansi tenglamasi

$$W_1 (T_{1H} - T_1) = W_1 (T_{1K} - T_1) \quad (5.25)$$

ni hisobga olib issiqlik almashish apparatining ixtiyoriy kesimi uchun issiqlik tashuvchilar haroratlarning bog‘liqligini olish qiyin emas:

$$T_1 = T_{2K} + \frac{W_2}{W_1} \left\{ T_{1H} + \Delta T_1 \exp \left[ K \left( \frac{1}{\omega_1} - \frac{1}{\omega_2} \right) f \right] \right\} \quad (5.26)$$

O‘xshash tarzda ikkinchi issiqlik tashuvchilar haroratlarning taqsimlanishi topiladi. Devorlarning tashqi yuzalaridagi harorat  $T_c$  issiqlik harorat tashuvchining devor va termik qarshiliklarning butun tizimi orqali tashiydigan miqdorlarining tengligidan aniqlanadi:

$$a_1(T_1 - T_{c1}) = K(T_1 - T_2) \quad (5.27)$$

Issiqlik almashish apparatidagi ixtiyoriy kesim uchun  $T_{c2}$  yuqoridaqiga o‘xshash tarzda topiladi. Shunday qilib, ushbu holdagi issiqlik apparatining ichidagi barcha haroratlarning taqsimlanishini oson topish mumkin.

Issiqlik almashish apparatini hisoblashning ko‘rib chiqilgan usullarining asosiy kamchiligi devorning  $a_1$  va  $a_2$  haroratlariga bo‘lgan ta’sirning hisobga olinmasligi hisoblanadi.

Amaliyotda issiqlik almashish apparaturalarini hisoblashning butun issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha issiqlik tashuvchilarning issiqlik sig‘imi va issiqlik uzatish koeffitsiyentlari o‘zgarmas deb olingan usullari keng tarqalgan, biroq bu yerda boshlang‘ich usullardan farqli ravishda issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K$  ning qiymati issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha olingan o‘rtacha  $\bar{T}_1, \bar{T}_{c1}, \bar{T}_{c2}, \bar{T}_2$  larning qiymatlariga bog‘liq. Shunday qilib  $\bar{T}_{c1}, \bar{T}_{c2}$  berilmagan bo‘lib, ularning o‘zi issiqlik almashishning o‘rnatilgan jadalligiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni ular interativ usulda aniqlaniladi. Ushbu usul bo‘yicha hisoblash algoritmi quyidagilardan tarkib topadi.

Issiqlik almashish apparatining oxirida issiqlik tashuvchining ma’lum harorati bo‘yicha haroratlarning o‘rtacha farqi  $\Delta T_{o,r}$  hisoblaniladi ((5.23)tenglama). Suv ekvivalenti katta issiqlik tashuvchilar uchun apparaturalarning uzunligi bo‘yicha haroratlarning o‘rtacha yaqinlashish qiymati  $\bar{T}_1 = 0.5(\bar{T}_{1H} + T_{1K})$  hisoblanadi. Ikkinci issiqlik tashuvchi uchun o‘rtacha harorat  $\bar{T}_2 = \bar{T}_1 - \Delta T_{o,r}$  kabi hisoblanadi.

Devorning birinchi issiqlik tashuvchi tomonidagi boshlang‘ich yaqinlashish harorati  $\bar{T}_{c1} - \bar{T}_1 - \bar{T}_2$  diapazonda tanlandi. Keyinchalik birinchi issiqlik tashuvchining devorga issiqlik berish koeffitsiyenti  $\alpha_1$  ni baholash mumkin. Unda birinchi issiqlik tashuvchidan devorga beriluvchi issiqlik oqimi  $q_1$  quyidagini tashkil etadi:

$$q_1 = \alpha_1(\bar{T}_1 - \bar{T}_2) \quad (5.28)$$

Ifloslangan devorning ma'lum termik qarshiligi  $\left( r_T + \frac{\delta_{CT}}{\lambda_{CT}} \right)$  bo'yicha devorning ikkinchi issiqlik tashuvchi tomonidagi yuzasining harorati aniqlanadi, ya'ni

$$\bar{T}_{C2} = \bar{T}_{C1} - q \left( r_T - \frac{\delta_{CT}}{\lambda_{CT}} \right) \quad (5.29)$$

Issiqlik berish koeffitsiyentining qiymati ma'lum  $\bar{T}_{C2}$  va  $\bar{T}_2$  lar bo'yicha hisoblanadi. Nihoyat, devordan ikkinchi issiqlik tashuvchi tomonga beriladigan issiqlik oqimi topiladi:


$$q_2 = \alpha_2 (\bar{T}_{C2} - \bar{T}_2) \quad (5.30)$$

Statsionar issiqlik uzatishda  $q_1$  va  $q_2$  issiqlik oqimlari bir-biriga teng bo'lishi kerak. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich iteratsiyalarda bu shart bajarilmaydi va o'rtacha harorat taxminiy beriladi. Bunday holda devor harorati  $\bar{T}_{c1}$  quyidagi shartdan kelib chiqib aniqlanadi:

$$q_1 = \alpha_1 (\bar{T}_1 - \bar{T}_{C1}) \quad (5.31)$$

$q_1$  va  $q_2$  oqimlar hisobining berilgan aniqligiga erishishda issiqlik almashish sirtining maydoni  $G'$  va issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K$  ning qiymatlari hisoblanadi. Olingan  $G'$  va  $K$  larning qiymatlari birinchi issiqlik tashuvchining ((5.26) tenglamaga asosan) o'rtacha harorati  $\bar{T}_1$  ni aniqlash imkonini beradi. Keyin ikkinchi issiqlik tashuvchining o'rtacha harorati  $\bar{T}_2$  aniqlanadi va iteratsiya jarayoni toki ikkita ketma-ket iteratsiyalardagi o'rtacha haroratlarning farqlari berilgan aniqlikdan kam bo'limguncha davom ettiriladi.

Qaynatgichlar yoki kondensatorlarni hisoblashda issiqlik tashuvchilardan birining harorati o'zgarmas bo'lsa, issiqlik tashuvchilarning bo'ylama issiqlik o'tkazish yuzasidagi o'rtacha harorati bo'yicha amalga oshiriladigan iteratsiya sikli qatnashmaydi, umumiyligida qilib aytganda, masala osonlashtiriladi. 5.5 rasmida bo'ylama issiqlik almashish yuzasining o'rtacha parametrлari bo'yicha hisoblanadigan issiqlik almashish apparatlarini hisoblash algoritmining blok-sxemasi keltirilgan.



**5.5-rasm.** O'rtacha parametrli issiqlik almashishning bo'ylama yuzasi bo'yicha issiqlik almashish apparatini hisoblash algoritmining blok – sxemasi.

Endi issiqlik sig'imi va issiqlik berish koeffitsiyentlari o'zgaruvchan bo'lgan hollarni ko'rib chiqamiz. Ko'pgina amaliy hollarda issiqlik sig'imi va issiqlik berish koeffitsiyentlari issiqlik tashuvchilarining harorati va devor yuzasiga bog'liq bo'ladi. Bularga bog'liq holda ilgari ko'rib o'tilgan issiqlik almashishning o'rtacha parametrlari bo'yicha issiqlik almashish apparatlarini hisoblash algoritmini issiqlik tashuvchilar haroratlarining o'zgarishi katta bo'limgan hollar uchun qo'llab ko'ramiz. Ko'rsatilgan mulohaza issiqlik almashish apparaturalarini hisoblashning intervalli usuli deb ataluvchi usul sifatida o'rganiladi. Usulning mohiyati quyida keltirilgan.

$[T_{1H}, T_{1K}]$  issiqlik tashuvchilardan biri ega bo'lgan harorat o'zgarishining diapazoni bir necha sondagi intervallarga bo'linadi va har bir interval chegaralarida issiqlik tashuvchilar va devorning haroratlarini o'zgarmaydi deb hisoblash mumkin.

Birinchi issiqlik tashuvchining harorati tanlangan intervallarning birinchisini oxirida  $T_1^1$  ni tashkil qilsin. Ushbu issiqlik tashuvchining birinchi interval

chegaralaridagi haroratini doimiy va  $\bar{T}_1 = 0.5(T_{1H} + T_1^1)$  ga teng deb qabul qilish mumkin. Ikkinci issiqlik tashuvchining birinchi interval oxiridagi haroratini (misol to‘g‘ri oqim hollari uchun qaralmoqda) issiqlik balansi tenglamasidan oson aniqlash mumkin

$$T_2^1 = T_{2H} + \frac{c_1 G_1}{c_1 G_1} (T_{1H} - T_1^1) \quad (5.32)$$


va mos ravishda ikkinchi issiqlik tashuvchining birinchi hududdagi harorati quyidagi tenglikni qabul qilishi mumkin

$$\bar{T}_2^1 = 0.5(T_{2H} + T_2^1) \quad (5.33)$$

Endi birinchi intervalga yuqorida ko‘rib o‘tilgan issiqlik almashishni o‘rtacha parametrlar bo‘yicha hisoblash algoritmini qo‘llash mumkin, ya’ni  $\bar{T}_1^1 \div \bar{T}_2^1$  harorat intervalida devorning  $T_{C1}^1$  haroratiga boshlang‘ich yaqinlashish tanlanadi va  $\alpha_1^1, q_1^1, T_{C2}^1, \alpha_2^1, q_2^1$  qiymatlar iteratsion usulda hisoblanadi.

Hisobning berilgan aniqligi ( $|q_1 - q_2| < \xi$ ) ga erishilgandan so‘ng berilgan issiqlik miqdorini o‘tkazishni ta’minlovchi issiqlik almashish yuzasining maydoni aniqlanadi.

Keyin ketma-ket ravishda issiqlik tashuvchi harorati o‘zgarishining ikkinchi va undan keyingi intervallari  $T_{1K}$  gacha hisoblanadi. Har bir interval uchun olingan issiqlik almashish yuzalarining barchasi qo‘siladi va bu yig‘indi issiqlik almashish apparatining oxirlarida issiqlik tashuvchilarning berilgan haroratida talab qilinadigan issiqlik almashish yuzasini beradi. 5.6-rasmda issiqlik almashish apparatini intervalli hisoblashning blok - sxemasi keltirilgan.



**5.6-rasm.** Issiqlik almashish

apparatini intervalli hisoblash algoritmining blok-sxemasi.

**5.7-rasm.** Issiqlik almashish

apparatining tekshiruv o'tkazishdagi intervalli hisoblash algoritmining blok - sxemasi.

Issiqlik apparatlarini intervalli hisoblash algoritmlari yordamida tekshiruv hisoblari (issiqlik almashish yuzasi ma'lum va issiqlik tashuvchining chiqishdagi haroratini topish talab qilinadi) issiqlik almashish yuzalarini intervallarga bo'lish bilan amalga oshiriladi. Keyin issiqlik tashuvchilardan birining interval chiqishidagi haroratining qiymati beriladi va iteratsion yo'l bilan issiqlik tashuvchilarning interval chiqishidagi haroratlari aniqlanadi, shundan so'ng keyingi intervalga o'tiladi. Issiqlik almashish apparatining tekshiruv o'tkazishdagi intervalli hisoblash algoritmi 5.7-rasmda keltirilgan.

Issiqlik tashuvchilarning ikkalasini ham agregat holati o'zgaradigan issiqlik apparatlarining hisobi. Qaralayotgan issiqlik almashish apparatlarida odatda bir issiqlik tashuvchi bug'larining kondensatsiyalanishi va ikkinchi suyuq issiqlik tashuvchining qaynashi amalga oshiriladi (masalan, rektifikatsiya kolonnalarining qaynatgichlari, bug'latish apparatlarining yonish kameralari). Ushbu issiqlik almashish jarayonlarining asosiy xususiyati issiqlik tashuvchilarning bo'ylama

issiqlik almashish yuzasi bo'yicha harorati o'zgarmas va buning natijasida issiqlik tashuvchilarning xossalari va issiqlik uzatish koeffitsiyenti ham o'zgarmasdir.

Issiqlik almashish apparatlari bir yo'lli obi quvurli bo'lgan hollarda issiqlik almashish yuzasini hisoblash algoritmini ko'rib chiqamiz.

Quvur devoridan qaynaydigan suyuqlik quvuriga issiqlik uzatish koeffitsiyenti

$\alpha_{quv}$

$$\alpha_{quv} = 780 \frac{\lambda_j^{1.3} \rho_j^{0.5} \rho_p^{0.06} q^{0.6}}{\sigma_j^{0.5} r_j^{0.6} \rho_0^{0.6} c_j^{0.3} \mu_j^{0.3}} = Aq^{0.6} \quad (5.34)$$

formula bo'yicha aniqlanadi,

bu yerda,  $q$  – solishtirma issiqlik oqimi,  $Vt/m^2$ ;  $\rho_0$  – suyuqlik bug'larining atmosfera bosimidagi zichligi; – bug' hosil bo'lishining solishtirma issiqligi;  $\sigma_j$  – sirt tarangligi;  $c_j$  – issiqlik sig'imi;  $\mu_j$  – qovushqoqlik;  $\lambda_j$  – issiqlik o'tkazuvchanlik. (5.34) formuladagi barcha kattaliklar qaynash haroratida berilgan.

Quvurning tashqi yuzasida kondensatsiyalanuvchi bug'ning issiqlik berish koeffitsiyenti solishtirma issiqlik yuklamasining bog'liqligi ko'rinishida ifodalanishi mumkin:

$$\alpha_{M,quv} = 1.2 \lambda_k \left( \frac{\rho_k^2 r_k g}{\mu_k H q} \right)^{1/3} = B q^{-1/3} \quad (5.35)$$

bu yerda,  $g_k$  – kondensatsiyalanishning solishtirma issiqligi;  $\lambda_k, \rho_k, \mu_k$  mos ravishda kondensatning issiqlik o'tkazuvchanligi, zichligi va qovushqoqligi;  $N$  – quvurning balandligi.

Solishtirma issiqlik oqimi  $q$  ni topish uchun issiqlik uzatish yuzasi

$$F = Q/q \quad (5.36)$$

va issiqlik uzatishning asosiy tenglamasi

$$q = K \Delta T \quad (5.37)$$

dan foydalanib uni quyidagi ko'rinishga keltiramiz,

$$\frac{1}{K} = \frac{\Delta T}{q} = \frac{1}{\alpha_{quv}} + \sum \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_{quv.or}} \quad (5.38)$$

bu yerda,  $K$  – issiqlik uzatish koeffitsiyenti;  $\Delta T$  – issiqlik tashuvchilar haroratlarining farqi;  $\sum \frac{\delta}{\lambda} = \frac{\delta_{CT}}{\lambda_{CT}} + r_{z1} + r_{z2}$  – quvur devori va iflos cho'kmalarning termik qarshiliklari yig'indisi;  $Q$  – apparatning issiqlik balansidan aniqlanadigan issiqlik yuklamasi.

(5.38) tenglamaga (5.34) va (5.35) ifodalar qo'yilgandan so'ng u quyidagi ko'rinishga keladi:

$$f(q) = \frac{1}{A} q^{0.4} + \left( \sum \frac{\delta}{\lambda} \right) q + \frac{1}{B} q^{4/3} - \Delta T = 0 \quad (5.39)$$

Oxirgi tenglamani solishtirma issiqlik yuklamasi  $q$  ga nisbatan yechishni yarmiga bo‘lish usuli bilan amalga oshirish mumkin (5.11 rasm). Usulning g‘oyasi  $[a_i, b_i]$  kesmani ketma-ket qisqartirishdan iborat bo‘lib, qisqartirish izlanayotgan  $q^*$  ildizga olib boruvchi bu kesmani ikkiga bo‘lish yordamida amalga oshiriladi:

$$c_i = \frac{a_i + b_i}{2} \quad (5.40)$$


tekshirish sharti quyidagicha

$$f(a_i) f(c_i) < 0 \quad (5.41)$$

Agar (5.41) shart bajarilsa,  $[a_i, c_i]$  kesma tanlanadi; aks holda  $[a_i, c_i]$  kesma tanlanib izlanish amali takrorlanadi. Kesmani bo‘lish uning uzunligi  $b_i - a_i$  berilgan aniqlikdan kichik bo‘lmaguncha davom ettiriladi.

Izlanish intervalining quyi chegarasi  $a_1$  nolga yaqin qilib, yuqori chegarasi  $b_1$  esa solishtirma issiqlik yuklamasining kritik qiymati  $q_{KP}$  ga yaqin qilib qabul izlanadi.

Topilgan solishtirma issiqlik yuklamasi  $q$  uchun talab qilinadigan issiqlik almashish apparatining yuzasi (5.36) tenglikdan aniqlanadi.



**5.8-rasm.** Oraliqni teng ikkiga bo‘lish usulining grafik tasviri.

**1-misol.** Kondensatning kondensatsiyalanish haroratidagi fizik xossalari: issiqlik o‘tkazuvchanligi  $\lambda_k = 0.683 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot \text{K})$ , zichligi  $\rho_k = 908 \text{ kg/m}^3$ , solishtirma bug‘lanish issiqligi  $r_k = 2095000 \text{ J/kg}$ , qovushqoqligi  $\mu_k = 0,000177 \text{ Pa} \cdot \text{s}$ . Suyuqligining qaynash haroratidagi fizik xossalari: issiqlik

o‘tkazuvchanligi  $\lambda_j = 0,686 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot \text{K})$ , zichligi  $\rho_j = 957 \text{ kg}/\text{m}^3$ , issiqlik sig‘imi  $c_j = 4190 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , qovushqoqligi  $\mu_j = 0,00024 \text{ Pa} \cdot \text{s}$ , sirt tarangligi  $\sigma_j = 0,0583 \text{ N}/\text{m}$ , qaynash haroratidagi bug‘larning zichligi  $\rho_p = 0,65 \text{ kg}/\text{m}^3$ , solishtirma bug‘lanish issiqligi  $r_j = 2253900 \text{ J/kg}$  bo‘lgan suv bug‘i bilan qizdiriladigan qaynatgich berilgan. Haroratlar farqi  $\Delta T = 55,6^\circ\text{C}$ , quvur devori va iflos cho‘kmalar termik qarshiliklarining yig‘indisi

$$\sum \frac{\delta_i}{\lambda_i} = 0,0004787 \text{ m}^2 \text{XK/Vt}$$

Umumiy issiqlik yuklamasi  $Q = 1005000 \text{ Vt}$  bo‘lsa, berilgan rektifikatsiya kolonnasining qaynatgichini hisoblash talab qilinadi.

*Yechim*—rektifikatsiya kolonnalarining qaynatgichlari sifatida odatda vertikal bir yo‘lli obi quvurli issiqlik almashish apparatlaridan foydalaniladi va quvurning tashqi yuzasini kondensatsiyalovchi, qizdiruvchi bug‘ning issiqlik berish koeffitsiyenti quvurning balandligiga bog‘liq, shuning uchun ham avval quvurning balandligi  $H = 2 \text{ m}$  ni beramiz. Boshlang‘ich ma’lumotlar asosida talab qilingan issiqlik almashish yuzasi  $F$  ni hisoblaymiz. Hisoblash natijalari quyidagicha:  $\alpha_{quv} = 10478,2 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 7073,6 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ,  $K = 1395,9 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ,  $F = 12,9 \text{ m}^2$ .

Balandligi  $H = 2 \text{ m}$  bo‘lgan bir yo‘lli obi quvurli issiqlik almashish apparatlar yuzasining Davlat standartidagi (Dav.ST) qiymatga yaqin qiymati  $18 \text{ m}^2$ . Shundan kelib chiqib, issiqlik almashish apparatining zaxira yuzasi talab qilingani bilan solishtirilganda quyidagini tashkil etadi:  $\Delta = \frac{18 - 12,9}{12,9} 100 \% = 39,5\%$

Issiqlik almashish apparatini Dav.ST bo‘yicha yanada aniqroq tanlashga harakat qilamiz. Buning uchun quvurning balandligini  $N = 1,5 \text{ m}$  deb qilamiz. Ushbu holda issiqlik apparatining hisobi quyidagilarni beradi:  $a_{quv} = 10596,5 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ,  $a_{quv.or} = 7698,1 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ,  $K = 1422,3 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{K})$ ,  $F = 12,7 \text{ m}^2$ .

Dav.ST 15122—79 dagi issiqlik almashish apparatiga yaqin,  $14 \text{ m}^2$  yuzali issiqlik almashish apparati yuza bo‘yicha quyidagi to‘la qanoatlantiruvchi zaxirani ta’minlaydi.

Shunday qilib, ikkinchi holatda hisoblangan qaynatgich afzal bo‘lib, u issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha ko‘proq asoslangan zaxirani ta’minlaydi va kichik issiqlik almashish yuzasiga ega.

Issiqlik tashuvchilardan birining agregat holati o‘zgaradigan issiqlik almashish apparatlarining hisobi. Issiqlik almashish apparatlarining ushbu sinfiga qizdiruvchi agent sifatida kondensatsiyaluvchi bug‘ ishlataladigan suyuqlik bug‘larining kondensatorlari va qizdirgichlarni kiritish mumkin. Bunday issiqlik almashish apparatlarida agregat holati o‘zgaruvchi issiqlik tashuvchining harorati issiqlik

uzatish yuzasi bo‘yicha o‘zgarmas bo‘ladi va fazaviy o‘tish haroratiga mos keladi, ikkinchi issiqlik tashuvchining harorati esa monoton ravishda o‘zgaradi. Shunday qilib, issiqlik uzatishni harakatga keltiruvchi kuch va issiqlik uzatish koeffitsiyenti yuza bo‘yicha o‘zgaradi. Bu holatda issiqlik apparatlarini hisoblash yo yuza bo‘yicha olingan o‘rtacha issiqlik almashish parametrleri asosida yo intervalli bo‘lsin, butun issiqlik almashish yuzasi hududlarga bo‘linadi va ularning har biri doimiy issiqlik almashish parametrga ega deb hisoblanadi. Keyinroq o‘rtacha parametrli butun issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha issiqlik almashish apparatlarini hisoblashni ko‘rib chiqamiz. Hisoblashning taklif qilinadigan algoritmlari bir va ko‘p yo‘lli obi quvurli issiqlik almashish apparatlariga tegishli bo‘lib, quvurlar orasidagi fazoda suyuqlik bug‘lari kondensatsiyalanadi, kondensatsiyalanish issiqligi yordamida quvurlarning ichidagi suyuqlik yoki gazlar qizdirilishi amalga oshiriladi.

Quvurlardagi issiqlik tashuvchilarning issiqlik uzatish koeffitsiyenti quyidagi ko‘rinishda keltirilishi mumkin:

$$\alpha_{quv} = \frac{\lambda_{quv}}{d} x \operatorname{Re}_{quv}^Y \operatorname{Pr}_{quv}^{0.43} = CN^{-Y} \quad (5.42)$$

bu yerda

$$\operatorname{Re}_{quv} = \frac{u_{quv} d \rho_{quv}}{\mu_{quv}} = \frac{4 G_{quv} z}{\pi \mu_{quv} d N}; \quad \operatorname{Pr}_{quv} = \frac{c_{quv} \mu_{quv}}{\lambda_{quv}}$$

agar  $\operatorname{Re}_{quv} > 10^4$  bo‘lsa,  $x = 0,023$ ,  $u = 0,8$ ; agar  $2300 < \operatorname{Re}_{quv} < 10^4$  bo‘lsa,  $x = 0,008$   $u = 0,9$ .  $G_{quv}$  – quvurlardagi issiqlik tashuvchilarning massa sarfi;  $d = d_H - 2\delta_{CT}$  – quvurlarning ichki diametri;  $N$  – quvurlar soni;  $Z$  – quvurlar fazosidagi yo‘llar soni.

Diametri  $d_H$  va balandligi  $N$  bo‘lgan vertikal quvurning tashqi yuzasida kondensatsiyalanuvchi bug‘ning issiqlik berish koeffitsiyentiga muvofiq

$$\alpha_{quv.or} = DN^{1/3} \quad (5.43)$$

bu yerda,

$$D = 3.78 \lambda_k^3 \sqrt{\frac{\rho_K^2 D_h}{\mu_k G_P}} \quad (5.44)$$

Quvurlar gorizontal bo‘lgan hollarda, o‘xshash tarzda quyidagi nisbatga ega bo‘lamiz:

$$\alpha_{quv.or} = DN^{1/3} \quad (5.45)$$

lekin

$$D = 2.02 \lambda_k^3 \sqrt{\frac{\rho^2 L}{\mu_k G_p}} \quad (5.46)$$

Bu yerda,  $L$  – quvur uzunligi;  $R$  – issiqlik almashish apparatining diametrik kesimida vertikal quvurlar qatorining joylashish koeffitsiyenti.

Issiqlik almashish yuzasi  $G'$  ning kattaligi quvurlar soni  $N$  bilan bog‘liqligi quyidagi munosabat bilan ifodalanadi:

$$F = \pi \left( \frac{d_H + d}{2} \right) H N \quad (5.47)$$

Unda issiqlik almashish yuzasini aniqlash masalasi berilgan uzunlik (balandlik) va diametrli quvurlar soni  $N$  ni qidirish bilan olib borilishi mumkin. Buning uchun issiqlik uzatish tenglamasi

$$K F \Delta T_{quv} = G_p r_k \quad (5.48)$$

yoki

$$\frac{1}{K} = \frac{1}{a_{quv}} + \sum \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{a_{quv.or}} = \frac{\pi d_{o'r} H N \Delta T_{o'r}}{G_p r_k} \quad (5.49)$$

dan foydalanamiz. Bu yerda,  $\Delta T_{o'r}$  – o‘rtacha logarifmik harakatlantiruvchi kuch;  $G_p r_k$  – umumiyl issiqlik yuklamasi;  $\sum \frac{\delta}{\lambda} = \frac{\delta_{CT}}{\lambda_{CT}} + r_{z1} + r_{z2}$  – quvur devorlari va iflos cho‘kma termik qarshiliklarining yig‘indisi.

(5.49) tenglamaga (5.42) va (5.43) ifodalarni qo‘ygach u quyidagi ko‘rinishga o‘tadi:

$$f(N) = \frac{1}{D} N^{-4/3} + \left( \sum \frac{\delta}{\lambda} \right) N^{-1} + \frac{1}{C} N^{(Y-1)} - \frac{\pi d_{o'r} H \Delta T_{o'r}}{G_p r_k} = 0 \quad (5.50)$$


Oxirgi tenglamani issiqlik almashish apparatidagi quvurlar soni  $N$  ga nisbatan mohiyati oldinroq ko‘rib o‘tilgan oraliqni teng ikkiga bo‘lish usuli bilan yechish mumkin. Quvurlar soni  $N$  aniqlangandan so‘ng (5.47) tenglamadan zaruriy issiqlik almashish yuzasi  $G'$  aniqlanadi.

Issiqlik almashish yuzasini (5.47) tenglama bo‘yicha hisoblash uchun oldindan bir qator konstruktiv parmetrlar berilgan bo‘lishi lozim, aynan: issiqlik almashish apparatining tipi (gorizontal, vertikal), quvurlarning diametri  $d_H$ , yo‘llar soni  $Z$  va quvurlarning balandligi (uzunligi)  $N$ . 5.9-rasmida issiqlik almashish apparatini hisoblash algoritmining blok - sxemasi keltirilgan.

Formula bo‘yicha  $\alpha_{quv}$  hisob issiqlik tashuvchilarning quvur ichidagi harakatining turbulent rejimini kuchaytirish uchun zarur ( $x = 0,023$ ,  $u = 0,8$ ). Agar tanlangan diametr va balandliklarda quvurlar sonining hisobi natijasida o‘lchamsiz Reynolds soni  $2300 \leq Re_{quv} \leq 10^4$  diapazonda yotsa,  $x = 0,008$ ,  $u = 0,9$  yangi qiymatlarida xuddi shu diametr va balandlikka ega quvurlar soni uchun issiqlik uzatishni qaytadan hisoblash zarur. Dasturda laminar rejim uchun  $\alpha_{quv}$  hisob nazarda tutilmagan, shuning uchun ham issiqlik almashish apparatining konstruktiv tavsiflari ( $Z$  sondagi quvurlarning diametri  $d_H$  va quvurning balanligi  $N$ ) ni tanlashda quvurlar soni  $N$  ning hisob natijalari  $Re_{quv} > 2300$  shartni bajarilishini ta’minlay olishi kerak degan shartga duch kelinadi.

2-misol. rektifikatsiya kolonnalarining boshlang‘ich aralashmalarining qobiq – quvurli qizdirgichlarini hisoblash. Qizdirish suv bug‘i bilan olib boriladi. Kondensatsiyalanish haroratidagi kondensatning fizik xossalari: issiqlik o‘tkazuvchanligi  $\lambda_k = 0,683 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot \text{K})$ , zichligi  $f(\mathbf{q})$ , solishtirma bug‘lanish issiqligi  $r_k = 2095000 \text{ J/kg}$ , qovushqoqligi  $\mu_k = 0,000177 \text{ Pa} \cdot \text{s}$ , bug‘ sarfi  $G_p = 0,170 \text{ kg/s}$ . Quvurdagi o‘rtacha haroratlari suyuqliklarning fizik xossalari: issiqlik o‘tkazuvchanligi  $\lambda_{quv} = 0,458 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot \text{K})$ , qovushqoqligi  $\mu_{quv} = 0,000534 \text{ Pa} \cdot \text{s}$ , issiqlik sig‘imi  $c_{quv} = 3730 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ . Quvur devorlari va ifloslanishning termik qarshiliklari yig‘indisi  $\sum \frac{\delta}{\lambda} = 0,000479 \text{ m}^2 \text{K/Vt}$ .

Haroratlarning o‘rtacha farqi  $\Delta T_{cp} = 106^\circ \text{C}$ . Suyuqlik sarfi  $G_{tp} = 0,973 \text{ kg/s}$ .



**5.9-rasm.** Issiqlik tashuvchilaridan birining agregat holati o'zgaradigan obi - quvurli issiqlik almashish apparatini hisoblash algoritmining blok - sxemasi.

*Echim.* Quvurining tashqi diametri  $d_H = 0.02$ , yo'llari  $Z = 1$  va quvur uzunligi  $L = 3$  m bo'lgan gorizontal issiqlik almashish apparati ( $T=1$ ) keltirilgan variantni ko'rib chiqamiz. **COND** bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni kiritgandan so'ng  $\alpha_{quv} = 865,1 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 13118,3 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $K = 584,5 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $Re_{quv} = 4674,4$ ,  $N = 31$  larni olamiz.

Ko'rsatilgan konstruktiv tavsifli issiqlik almashish apparatining Dav.ST ga mos keladiganining quvurlari soni  $N=61$ , ya'ni quvurlar soni bo'yicha zaxira yuza deyarli ikki marta:

$$\Delta = \frac{61 - 31}{31} \cdot 100 \% = 96.8\%$$

Issiqlik almashish apparatining uzunligini 2 m gacha kamaytiramiz va qolgan konstruktiv tavsiflarni o'zgarishsiz qoldiramiz. Hisoblash natijasida  $\alpha_{quv} = 247,0 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 15625,8 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $K = 217,2 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $Re_{quv} = 1161,1$ ,  $N=124$  larni olamiz.

Shunday qilib, quvurlar uzunligining kamayishi ularning sonini oshishi va  $Re_{quv}$  sonini kamayishi (shuningdek  $\alpha_{quv}$  ham) ga olib keladi,  $Re$  soni 2300 dan kam bo‘ladi. Ushbu variant maqsadga to‘g‘ri kelmaydi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki yo‘lli issiqlik almashish apparatlarini hisoblashlarni quvur uzunligini 2 m qilib olish maqsadga muvofiqdir. Tashqi diametri  $d_H = 0,025$  m bo‘lgan quvurli issiqlik almashish apparatini hisoblaymiz. Hisoblash natijalari quyidagicha:  $\alpha_{quv} = 740,9 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 12628,1 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $K = 524,2 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$ ,  $Re_{quv} = 5323,3$ ,  $N = 41$ .

Dav.STga mos keluvchi issiqlik almashish apparatining quvurlari soni  $N = 52$ .

Shunday qilib, quvurlar soni bo‘yicha zaxira  $\Delta = \frac{52 - 41}{41} \cdot 100 \% = 26.8\%$  ni tashkil etadi. Bu natijani qoniqarli deb hisoblash mumkin. Tanlangan gorizontal issiqlik almashish apparatining qobig‘i diametri 0,325 m,  $d_H = 0,025$  m, yo‘llar soni 2, quvurlar soni 52, quvurlar uzunligi 2 m va issiqlik almashish yuzasi  $8\text{m}^2$ .

**Issiqlik tashuvchilarining agregat holati o‘zgarmaydigan issiqlik almashish apparatlarini hisoblash.** Issiqlik almashish apparatlarining ushbu guruhiga issiqlik tashuvchilarining birortasi ham agregat holatini o‘zgartirmaydigan issiqlik uzatish jarayonlaridagi qizdirgichlar va sovutgichlar kiradi.

Qizdirish va sovitishda issiqlik tashuvchilarning har birining harorati issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha uzlusiz va monoton ravishda almashinadi. Issiqlik uzatish parametrlari (issiqlik uzatish koeffitsiyenti, harakatlantiruvchi kuch) ga muvofiq o‘zgaradi. Barcha issiqlik almashish yuzasi bo‘yicha issiqlik uzatish koeffitsiyenti va issiqlik tashuvchilar haroratlari farqining o‘rtacha qiymatlari asosida issiqlik almashish apparatlarini hisoblashni ko‘rib chiqamiz. Bunda issiqlik tashuvchilarning o‘rtacha haroratlardagi xossalari beriladi. Issiqlik almashishdagi issiqlik tashuvchilar fazaviy aralashishlarda ishtirok etmaydi, issiqlik tashuvchidan devorga, devordan sovuq issiqlik tashuvchiga issiqlik berish jarayoni o‘lchamsiz Reynolds soni bilan aniqlanuvchi issiqlik oqimining rejimi, o‘lchamsiz Prandtl soni bilan aniqlanuvchi issiqlik tashuvchilarning xossalari va devorning haroratlariga bog‘liq.

Segmentli pardevorga ega issiqlik almashish apparatlarining quvurlari orasidagi fazo  $a_{quv.or}$  da harakatlanuvchi ikki issiqlik tashuvchining issiqlik berish koeffitsiyentlari quyidagi ifodalar bilan aniqlaniladi:

$$a_{quv.or} = \frac{\lambda_{quv.or}}{d_e} \varepsilon_\varphi 0.4 Re_{quv.or}^{0.36} Pr_{quv.or}^{0.36}, \quad Re_{quv.or} > 1000 \quad (5.51)$$

$$a_{quv.or} = \frac{\lambda_{quv.or}}{d_e} \varepsilon_\varphi 0.56 Re_{quv.or}^{0.5} Pr_{quv.or}^{0.36}, \quad agar \quad Re_{quv.or} < 1000 \quad (5.52)$$

( $quv.or$  – quvurlar orasidagi fazo)

bu yerda,  $Pe_{quv.or.} = \frac{G_{quv.or.} d_e}{\mu_{quv.or.} S_{quv.or.}}$ ;  $\Pr_{quv.or.} = \frac{c_{quv.or.} \mu_{quv.or.}}{\lambda_{quv.or.}}$  – quvurlar orasidagi fazodagi issiqlik tashuvchilar uchun o'lchamsiz Reynolds va Prandtli sonlari;  $\varepsilon_\phi = 0,6$  – quvurlar to'plamiga oqimlarning bostirib kirish burchagiga ta'sir qiluvchi koeffitsiyent;  $S_{quv.or.}$  – segmentli pardevorli issiqlik almashish apparatining quvurlari orasidagi fazodagi oqimning normal bilan aniqlanuvchi eng tor kesimining maydoni. Taxminan uni quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\text{agar } D \leq 0.3 \text{ bo'lsa, } S_{quv.or.} \approx 0.3S,$$

$$\text{agar } D > 0.3m \text{ bo'lsa, } S_{quv.or.} \approx 0.16S,$$

bu yerda,  $S = \frac{\pi D^2}{4}$  – issiqlik almashish apparatining kesim yuzasi;  $D$  – qobiqning diametri.

(5.51), (5.52) tenglamalarda aniqlovchi o'lcham sifatida ekvivalent diametr  $d_e$  qabul qilingan.

Quvurlar orasida harakatlanuvchi issiqlik tashuvchilar uchun issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$\text{agar } Pe_{quv} \geq 10^4 \text{ bo'lsa, } \alpha_{quv} = 0.023 \frac{\lambda_{quv}}{d} Re_{quv}^{0.8} Pr_{quv}^{0.43}, \quad (5.53)$$

$$\text{agar } 2300 \leq Pe_{quv} < 10^4 \text{ bo'lsa, } \alpha_{quv} = 0.008 \frac{\lambda_{quv}}{d} Re_{quv}^{0.9} Pr_{quv}^{0.43}, \quad (5.54)$$

$$\text{agar } Re_{quv} < 2300 \text{ bo'lsa, } \alpha_{quv} = 0.008 \frac{\lambda_{quv}}{d} Re_{quv}^{0.33} Pr_{quv}^{0.43} Gr_{quv}^{0.1}, \quad (5.55)$$

bu yerda,

$$Re_{quv} = \frac{4G_{quv} z}{\pi \mu_{quv} dN}; \Pr_{quv} = \frac{c_{quv} \mu_{quv}}{\lambda_{quv}}; Gr_{quv} = \frac{gd^3 \beta_{quv} \rho_{quv}^2}{\mu_{quv}^2} \Delta T$$

quvurlardagi issiqlik tashuvchilar uchun o'lchamsiz Reynolds, Prandtli va Grasgof sonlari;  $\beta_{quv}$  – hajmiy kengayish koeffitsiyenti;  $Z$  – quvurli sohadagi yo'llar soni. (5.53) - (5.55) tenglamalarda aniqlovchi o'lcham sifatida quvurning ichki diametri  $d = d_H - 2\delta_{CT}$  qabul qilingan.

Quvurlardagi issiqlik tashuvchilar uchun issiqlik berish koeffitsiyenti  $\alpha_{quv}$  quvurning ichki yuzasi va quvurdagi issiqlik tashuvchi haroratlarining oldin noma'lum bo'lgan farqi  $\Delta T$  ga bog'liq. Shuning uchun  $\Delta T$  kattalik issiqlik almashish apparatlarida issiqlik berishning quyidagi statsionarlik shartidan foydalananib, iteratsiya usulida aniqlanadi:

$$a_{quv} \Delta T = K \Delta T_{o'r} \quad (5.56)$$

yoki

$$\Delta T = \frac{K \Delta T_{quv}}{a_{quv}} \quad (5.57)$$

Haroratlarning o‘rtacha farqi  $\Delta T_{cp}$  issiqlik tashuvchilar harakati sxemasining quyidagi formulasi bo‘yicha aniqlanadi:


$$\Delta T_{o'r} = \varepsilon_{\Delta T} \Delta T_{o'r \log} \quad (5.58)$$

bu yerda  $\Delta T_{o'r \log}$  – haroratlarning o‘rtacha logarifmik farqi;  $\varepsilon_{\Delta T} < 1$  – teskari oqim( $z=1$ da  $\varepsilon_{\Delta T}=1$ ) bilan solishtirish bo‘yicha aralash oqim ( $Z = 2, 4, 6$ ) da o‘rtacha harakatlantiruvchi kuchning kamayishida qatnashuvchi koeffitsiyent. Issqlik uzatish koeffitsiyenti  $K$  va o‘rtacha harakatlantiruvchi kuch  $\Delta T_{o'r}$  lar aniqlangandan so‘ng, ma’lum umumiyl issiqlik yuklamasi  $Q$  da issiqlik uzatish tenglamasidan issiqlik uzatish yuzasi hisoblanadi:

$$F = \frac{Q}{K \Delta T_{o'r}} \quad (5.59)$$

Shuningdek issiqlik uzatish jarayoni issiqlik almashish apparatining konstruktiv tavsiflariga bog‘liq va hisoblash boshlanishidan oldin quyidagi konstruktiv parametrlarni berish lozim: quvurning tashqi diametri  $d_H$ , yo‘llar soni  $z$ , koeffitsiyent  $\varepsilon_{\Delta T}$ ,  $N$  to‘plamdagil quvurlar soni va quvurlar orasidagi fazoni eng tor kesimining maydoni  $S_{quv.or}$  5.10 - rasmida ko‘rilayotgan hol uchun issiqlik almashish apparatini hisoblash algoritmini blok-sxemasi keltirilgan.

*Misol.* 3-rektifikatsiya kolonnalarining kub qoldiqlari sovitgichini hisoblash. Umumiyl issiqlik yuklamasi  $Q = 402\ 980$  Vt. Quvur bo‘yicha harakatlanuvchi kub qoldiqlari  $G_{quv} = 1,24$  kg/s, uning issiqlik o‘tkazuvchanligi  $\lambda_{quv} = 0,662$  Vt/(m·K), zichligi  $\rho_{quv} = 986$  kg/m<sup>3</sup>, qovushqoqligi  $\mu_{quv} = 0,00054$  Pa · s, issiqlik sig‘imi  $c_{quv} = 4190$  J/(kg · K), hajmiy kengayish koeffitsiyenti  $\beta_{quv} = 0,00048$  K<sup>-1</sup>. Sovituvchi suv quvurlar orasidagi fazoda  $G_{quv.or} = 4,36$  kg/s sarf bilan harakatlanadi va o‘zining o‘rtacha



**5.10-rasm.** Issiqlik tashuvchilarning fazaviy o'tishi mavjud bo'lmagan issiqlik almashish apparatlarini hisoblash algoritmining blok-sxemasi.

haroratida issiqlik o'tkazuvchanlik  $\lambda_{quv.or} = 0,61 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot \text{K})$ , qovushqoqlik  $\mu_{quv.or} = 0,00085 \text{ Pa} \cdot \text{s}$ , issiqlik sig'im  $c_{quv.or} = 4190 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$  ga ega. Issiqlik tashuvchilar haroratlarining o'rtacha logarifmik farqi  $\Delta T_{o.r \log} = 25,4^\circ\text{C}$  ga teng. Quvur devorlari va ifloslanishning termik qarshiliklari yig'indisi  $\sum \delta/\lambda = 0,00042 \text{ m}^2 \text{ K/Vt}$ .

*Yechim.* obi - quvurli sovitgichlarning ikki variantini tanlaymiz. Birinchi variant:  $d_H = 0,02 \text{ m}$ ,  $Z=2$ ,  $N=166$  va ushbu holda agar obining diametri(0.4 m) uchun quvurning maksimal uzunligi (6 m) kamlik qilsa, uni so'nggi 600 mm gacha uzaytiramiz. Ikkinci variant:

0,020 m, Z=2, N=314. Issiqlik almashish apparatining hisoblanayotgan variantlari uchun  $\varepsilon_{\Delta T} = 0.9$ .

Normal bo'yicha birinchi variant uchun  $S_{quv.or} = 0,021 \text{ m}^2$  va ikkinchi variant uchun  $S_{quv.or} = 0,047 \text{ m}^2$  ni aniqlaymiz.

Boshlang'ich axborotlarni kiritgach **COOLER** dasturi bo'yicha birinchi variantdagi holat uchun:  $\alpha_{quv} = 531,9 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 2257,9 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $K = 364,6 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $F = 48,3 \text{ m}^2$ ,  $Re_{quv} = 2205,1$ ,  $Re_{quv.or} = 4885,1$  larni olamiz.

Normal bo'yicha uzunligi 6 m quvurli va yuzasi  $F = 62 \text{ m}^2$  bo'lgan issiqlik almashish apparati mos keladi. Yuza zaxirasi 62-48,3ni tashkil qiladi:

$$\Delta = \frac{62 - 48.3}{48.3} \cdot 100 \% = 28.4\%$$

*Ikkinci variant:*  $\alpha_{quv} = 406,7 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 1392,4 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot \text{K})$ ,  $K = 278,0 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $F = 63,4 \text{ m}^2$ ,  $Re_{quv} = 978,7$ ,  $Re_{quv.or} = 2182,7$ .

Bu issiqlik almashish apparatlari ikkala oqim uchun olingan bo'ylama kesimning kattaligi, Reynolds sonining qiymati kichikligi, issiqlik berish va uzatish koeffitsiyentlarining kichikligi tufayli katta yuzaga ega, biroq uning afzalligi kichik gidravlik qarshilik va obining diametri 0,6 m bo'lganda quvurning zaruriy uzunligining kichikligi: L=3 m hisoblanadi. Yuza zaxirasi

$$\Delta = \frac{70 - 63.4}{63.4} \cdot 100 \% = 10.4\% \text{ ni tashkil etadi.}$$

Zaruriy yuzani kamaytirish, shuningdek, ular bilan birgalikda quvurlar uzunligini ham kamaytirish uchun quvurli sohadagi yo'llar sonining teng shartlarda Z = 4 (N = 338,  $S_{quv.or} = 0,047$ ) va Z = 6 (N = 320,  $S_{quv.or} = 0,047$ ) gacha oshadigan yana ikkita variantni ko'rib chiqamiz.

Z=4 yo'llar soniga ega issiqlik almashish apparatlarini hisoblash natijasida  $\alpha_{quv} = 524,0 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 1392,4 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $K = 328,2 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $F = 53,7 \text{ m}^2$ ,  $Re_{quv} = 2166,0$ ,  $Re_{quv.or} = 2182,7$  larni olamiz.

Yuza zaxirasi  $\Delta = \frac{64 - 53.7}{53.7} \cdot 100 \% = 19.2\%$  ni tashkil etadi. Uzunligi 3 m

ga teng bo'lgan issiqlik almashish apparatining ushbu varianti issiqlik berish koefitsiyentining oshishi va talab qilingan issiqlik almashish yuzasining mos kamayishi tufayli ikkinchi variant oldida uncha katta afzallikkha ega emas.

To'rtinchi variantning (Z = 6) hisob natijalari;  $\alpha_{quv} = 853,7 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $\alpha_{quv.or} = 1392,4 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $K = 432,9 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ ,  $F = 40,7 \text{ m}^2$ ,

$$Re_{quv} = 3431,7, Re_{quv.or} = 2182,7.$$

Bu variantdagi issiqlik almashish apparatlarining afzalligi shundaki, u kichik uzunlikdagi quvur  $L = 2$  m va obi diametri  $D = 0,6$  m ga ega. Yuza zaxirasi  $\Delta = \frac{41 - 40,7}{40,7} \cdot 100\% = 0,7\%$  ni tashkil etadi.

Biroq ko‘rilayotgan issiqlik almashish apparatining variantida ikkinchi variantdagiga qaraganda gidravlik qarshilik katta.

Shunday qilib, ikkita: ikkinchi va to‘rtinchi variantlarni qabul qilishimiz mumkin. Ular gidravlik hisobdan keyin iqtisodiy mezon asosida tanlanishi mumkin.

#### 4.1.4. Issiqlik almashish apparatlarini hisoblash va algoritmlashtirish

##### 4.1.4.1 «Aralashtirish – aralashtirish» tipidagi issiqlik almashish apparatlari

Yuzali issiqlik almashish apparatlarining tiplari:

obi - quvurli;

quvurli;

havoli sovitish apparatlari;

plastinkali;


zmeevikli va h.z.

Kompyuterli modellarni tuzish quyidagi bosqichlardan iborat:

VA/YOKI ni o‘rganish, nazariya bilan tanishuv;

jarayonning matematik tavsifi (MT) ni tuzish;

MT tenglamalarini yechish algoritm (MA –modellash algoritmi) larini tanlash va amalga oshirish.



##### Asosiy qo‘yimlar:

1. Statsionar rejimni ko‘rib chiqamiz.
2. Ikkala oqimlar uchun ham ideal aralashish modeli qabul qilinadi.
3. Faqat issiqlik uzatish jarayoni amalga oshiriladi.
4. Fizik-kimyoviy o‘zgaruvchilar – oqimlarning issiqlik. sig‘imlari  $\Delta q_1^T$  doimiy kattalik hisoblanadi.

##### Matematik tavsifning tenglamasi:

- A)  $v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^0 - v_1 C_{P_1} T_1 + F^T \Delta q_1^T = 0$   
 – issiqlik uzatishning lokal tezligi  
 B)  $\Delta q_1^T = K^T (T_2 - T_1)$   
 C)  $v_2^{(0)} C_{P_2}^{(0)} T_2^0 - v_2 C_{P_2} T_2 + F^T \Delta q_2^T = 0$   
 D)  $\Delta q_2^T = K^T (T_1 - T_2)$   
 $\Delta q^T = \Delta q_1^T - \Delta q_2^T$

Chiziqli algebraik tenglamalar tizimi (CHATT)

- 1)  $v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^0 - v_1 C_{P_1} T_1 + F^T \Delta q_1^T = 0$   
 2)  $v_2^{(0)} C_{P_2}^{(0)} T_2^0 - v_2 C_{P_2} T_2 + F^T \Delta q_2^T = 0$   
 3)  $\Delta q^T = K^T (T_1 - T_2)$

**Birinchi xususiy holni ko‘rib chiqamiz:**  $K^T = const$  bo‘lsin - bu ham faraz.  
 $T_1, T_2, \Delta q^T$  larni topamiz.

1) va 2) tenglamalarga  $\Delta q^T$  ni qo‘yish yo‘li bilan tenglamalar tizimini o‘zgartiramiz:

$$\underbrace{(v_1 C_{P_1} T_1 - F^T K^T) T_1}_{a_{11}} + \underbrace{(-F^T K^T) T_2}_{a_{12}} = \underbrace{v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^{(0)}}_{b_1}$$

$$\underbrace{(-F^T K^T) T_1}_{a_{21}} + \underbrace{(v_2 C_{P_2} T_2 + F^T K^T) T_2}_{a_{22}} = \underbrace{v_2^{(0)} C_{P_2}^{(0)} T_2^{(0)}}_{b_2}$$

CHATT matritsa shaklida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\bar{A} \cdot \bar{x} = \bar{b} \Rightarrow \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} * \begin{vmatrix} T_1 \\ T_2 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} b_1 \\ b_2 \end{vmatrix}$$

**Ikkinchi xususiy hol:**

- $K^T = const$  ning 1), 2), 3) tenglamalariga 4), 5), 6) tenglamalar qo‘shiladi  
 4)  $K^T = K^T (T_1, T_2, v_1, v_2, C_{P_1}, C_{P_2})$   
 5)  $C_{P_1} = a_1 + b_1 T_1 + c_1 T_1^2 + d_1 T_1^3$   
 6)  $C_{P_2} = a_2 + b_2 T_2 + c_2 T_2^2 + d_2 T_2^3$   
 $a, b, c, d - const$

(ma’lumlar)

$$T_1 - ? \quad T_2 - ? \quad \Delta q^T - ? \quad K^T = ? \quad C_{P_1} - ? \quad C_{P_2} - ?$$

larni aniqlash zarur.

Nochiziqli tenglamalar tizimi (NCHTT):

$$\bar{f}(x) = 0$$

$$\begin{cases} f_i(x_1, \dots, x_n) = 0 \\ i = 1, \dots, n \end{cases}$$

Bu yerda  $f - x$  ning nochiziqli funksiyasi.

Nochiziqli tenglamalar quyidagi usullar bilan yechilishi mumkin:

Nyuton-Rafson usuli;

Oddiy iteratsiyalar usuli;

Matematik dekompozitsiya usuli.

Birinchi va ikkinchi usullardan foydalanilganda bir vaqtida 6 o‘zgaruvchilar ketma-ket yaqinlashish usuli bilan (iteratsiyaviy) aniqlanadi. Uchinchi usuldan foydalanilganda iteratsiya yo‘li bilan kam sonli o‘zgaruvchilarni qidirish imkonini beruvchi shunday algoritm tanlanadiki (matematik tavsif tenglamalarini axborot matritsalarini tahlil qilish yo‘li bilan), bunda, qolgan o‘zgaruvchilar keyingi (oxirgi) iteratsiyalar (iteratsiya) da olingan hisoblash natijalari bo‘yicha avtomatik tarzda aniqlanadi.


### Axborot matritsasi

MT- matematik tavsif – tenglamalari tizimining axborot matritsasi qatorlari tenglamalar raqamlariga, ustunlari esa aniqlanayotgan o‘zgaruvchilarga mos keluvchi kvadrat matritsanı namoyon etadi. Axborot matritsasi quyidagicha shakllantiriladi: agar i- tenglamada aniqlanayotgan j- o‘zgaruvchi kirda, i- tenlamaga mos keluvchi i- qator bilan j- ustunning kesishishiga plus belgisi qo‘yiladi. Bu amal barcha mustaqil tenglamalar va tizimning aniqlanayotgan o‘zgaruvchilari uchun takrorlanadi.

Axborot matritsaga mos keluvchi jadvalning o‘ng tomoniga raqam belgisi (№) ga ega ustun qo‘shilgan. Ushbu ustunda tanlangan hisoblash algoritmiga mos keluvchi hisoblashlar ketma- ketligi aks ettiriladi:

$n \setminus p$	$T_1$	$T_2$	$\Delta q^T$	$K^T$	$C_{p1}$	$C_{p2}$	$N^o$
1	+		+		+		2
2 Kop.yp.		+				+	4
3 Kop.yp.	+	+	+	+			6
4	+	+		+	+	+	5
5	+				+		1
6		+				+	3

Belgilanishi:



- 1 – Boshlang‘ich yaqinlashish topshirig‘i
- 2 – o‘zgaruvchi qiymatini aniqlash
- 3 – o‘zgaruvchining qiymati ma’lum
- 4 – o‘zgaruvchi qiymatiga to‘g‘rilash kiritish(korreksiyalash)
- 5 – o‘zgaruvchi qiymatini aniqlashtirish

4- qadamda berilgan kattaliklardan ixtiyoriy birortasiga to‘g‘rilash kiritish mumkin.

Axborot matritsasidagi bиринчи ustun – tenglamalarning tartib raqami.

Axborot matritsasidagi oxirgi ustun – tenglamani yechish tartibini ko‘rsatadi.


Ichki iteratsiya sikli:

$$v_2^{(0)} C_{P_2}^{(0)} T_2^{(0)} - v_2 C_{P_2} \{T_2\} + F^T (\Delta q^T \{T_2\}) = 0 \rightarrow T_2^*$$


Tashqi iteratsiya sikli:

$$\Delta q^T \{T_1\} - K^T \{T_1\} (T_2 \{T_1\} - T_1) = 0 \rightarrow T_1^*$$

### Algoritmning blok-sxemasi



**5. 1.4.2. Zmeevikli issiqlik almashish apparatlari**



$L$  – zmeevikning uzunligi.

### Asosiy qo‘yimlar:

Oqim ideal aralashish modeli (IAM) – rezervuarlar orqali oqib o‘tadi deb qabul qilamiz

Oqim ideal o‘rin almashish modeli (IO‘AM) – zmeevikda

Ish rejimini statsionar deb qaraymiz

Issiqlik uzatish koeffitsiyenti = const

Issiqlik uzatishdan boshqa hech qanday jarayon yuz bermaydi

Issiqlik sig‘imlari bir xil va harorat bilan almashmaydi

$$a) v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^0 - v_1 C_{P_1} T_1 + F^T \Delta q_1^T = 0$$

$$b) \Delta q_1^T = K^T (T_2 - T_1)$$

$$c) v_2 C_{P_2} \frac{dT_2}{d\ell} = \frac{F^T}{L} \Delta q_2^T$$


$$d) \Delta q_2^T = K^T (T_1 - T_2)$$

$$\Delta q_1^T = K^T (T_2 - T_1)$$

Umumiy issiqlik balansi tenglamasining natijasi:

$$v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^0 - v_1 C_{P_1} T_1 + [F^T \Delta q_1^T]_{o.r} = 0$$

$$\frac{F^T}{L} (-\Delta q_2^T) = v_2 C_{P_2} \frac{dT_2}{d\ell}$$



Issiqlik o'tkazish yuzasi shtrixlangan maydonga teng

$$T_2(\ell) = ?$$

$$0 \leq \ell \leq L$$

$$\left[ F^T \Delta q^T \right]_{o'r} = \frac{1}{L} \int_0^L F^T \Delta q^T d\ell$$

$$\left[ F^T \Delta q^T \right]_{o'r} = -v_2 C_{P_2} \int_0^L \frac{dT_2}{d\ell} d\ell = -v_2 C_{P_2} [T_2(L) - T_2(0)]$$

### **Matematik tavsifning tenglamalar tizimi:**

$$1) -v_2 C_{P_2} [T_2(L) - T_2(0)] + v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^{(0)} - v_1 C_{P_1} T_1 = 0$$

Yaqqol ko'rinishdagи oddiy differensial tenglama:

$$2) \frac{dT_2}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_2 C_{P_2}} (-\Delta q^T)$$


$$3) \Delta q^T = K^T (T_2 - T_1)$$

$$2') T_2(0) = T_2^{(0)}$$

Integral-differensial tenglamalar tizimi

$$T_2 = T_2(\ell) - ? \quad T_1 - ? \quad \Delta q^T - ?$$

Kompyutyerda faqat xususiy yechimlarni hisoblash mumkin, buning uchun Koshi masalasining boshlang'ich sharti (barcha qo'shimcha shartlar mustaqil o'zgaruvchining bitta qiymatida beriladi) ni berish lozim.



$$2) \frac{T_2(L) - T_2(0)}{\Delta l} \equiv \frac{F^T}{L v_2 C_{P_2}} (-\Delta q^T)$$

$$3) \Delta q^T = K^T (T_2 - T_1)$$

### Axborot matritsasi

$n \setminus p$	$T_1$	$T_2(0)$	$T_2(L)$	$\Delta q^T$	$N^o$
1. Кор.ур.	◆	+ +	+ +		4
2. Диф. ур.		+ + ◆ +		+ +	3
3.	+ +	+ +		◆ +	2
2'.		◆			1

1 – aniqlik kirituvchi (korrektlovchi) tenglamalar – masala yechimining tashqi sikli;


2 – differensial tenglamalarni yechish sikli – masala yechimining ichki sikli.  
To‘g‘rilovchi tenglamalar:

$$v_1^{(0)} C_{P_1}^{(0)} T_1^0 - v_1 C_{P_1} T_1 + v_2 C_{P_2} [T_2(L) \{T_1\} - T_2(0)] = 0$$


Tashqi siklda – yarmini bo‘lish usuli.

Ichki siklda har bir yaqinlashish  $T_1$  da differensial 2 tenglama (Eyler usuli) yechiladi.

### Algoritmning blok-sxemasi



#### 4. 1.4.3. To‘g‘ri (bir xil yo‘nalishli) oqimli «quvur ichida quvur» issiqlik almashish apparatlari. Koshi masalasini yechish



Statsionar rejim

Faqat issiqlik uzatish yuz beradi

Issiqlik uzatish koeffitsiyenti = const

Oqimlarning issiqlik sig‘imi = const

Bo‘ylama soha bir xil taqsimlangan

$$\Pi = \frac{F^T}{L}$$

Birinchi oqim uchun tenglama:

$$1) v_1 C_{P_1} \frac{dT_1}{d\ell} = \frac{F^T}{L} \Delta q_1^T$$

$$2) \Delta q_1^T = K^T (T_2 - T_1)$$

Ikkinchisi oqim uchun tenglama:

$$1) v_2 C_{P_2} \frac{dT_2}{d\ell} = \frac{F^T}{L} \Delta q_2^T$$

$$2) \Delta q_2^T = K^T (T_1 - T_2)$$

$$\Delta q^T = \Delta q_1^T = -\Delta q_2^T$$

### Matematik tavsifning tenglamalar tizimi:

(oddiy differensial tenglamalar tizimi)

$$1) \frac{dT_1}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_1 C_{P_1}} \Delta q_1^T \quad \left. \right\}$$

$$2) \frac{dT_2}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_2 C_{P_2}} (-\Delta q^T) \quad \left. \right\}$$


$$3) \Delta q^T = K^T (T_2 - T_1) \quad \left. \right\}$$

Boshlang‘ich shart:

$$\left. \begin{array}{l} 1) T_1(0) = T_1^{(0)} \\ 2) T_2(0) = T_2^{(0)} \end{array} \right\} \ell = 0$$



Xususiy yechimi olinadigan masala, qachonki masalaning qo‘shimcha shartlari mustaqil o‘zgaruvchining bitta qiymatida berilsa, Koshi masalasi deb ataladi.

Bu tizimni tahliliga asoslangan aniqlikda yechish mumkin.



## Axborot matritsasi

$n \setminus P$	$T_1(0)$	$T_1(L)$	$T_2(0)$	$T_2(L)$	$\Delta q^T$	$N^o$
1 Диф. ур.	⊕	+			⊕	4
2 Диф. ур.			⊕	+	⊕	5
3	⊕		⊕		+	3
1'	+					1
2'			+			2



$$\left. \begin{array}{l} T_{1(0)} \\ T_{2(0)} \end{array} \right\} \ell = 0$$

$$\ell' = L - l$$

$$d\ell' = -d\ell$$

$$1) \frac{dT_1}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_1 C_{P_1}} \Delta q_1^T$$

$$2) \Delta q_1^T = K^T (T_2 - T_1)$$

..... .....

$$3) \frac{dT_2}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_2 C_{P_2}} \Delta q_2^T$$

$$4) \Delta q_2^T = K^T (T_1 - T_2)$$

$$\Delta q^T = \Delta q_1^T = -\Delta q_2^T$$

### Matematik tavsifning tenglamalar tizimi:

$$1) \frac{dT_1}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_1 C_{P_1}} \Delta q_1^T$$


$$2) \frac{dT_2}{d\ell} = \frac{F^T}{Lv_2 C_{P_2}} \Delta q_2^T$$

$$3) \Delta q^T = K^T (T_2 - T_1)$$

$$T_1(0) = T_{1(0)}$$

$$T_2(0) = T_{2(0)}$$

Chegaraviy shart – mustaqil o‘zgaruvchi  $L$  ning turli qiymatlarida berilgan qo‘sishimcha shart. Bunday shartlarda oddiy differensial tenglamalar tizimlarining xususiy yechimlarini olish masalasi chegaraviy masala deb ataladi.



1-qadam – mustaqil o‘zgaruvchining bitta qiymatida barcha qo‘sishimcha shartlari beriladi, masalan,

$$\ell \tilde{T}_2(0) = 0,$$

shu jumladan masalaning boshlang‘ich berilishida qatnashmaganlari ham. Oxirgisi xuddi boshlang‘ich yaqinlashish kabi beriladi:

2- qadam – oddiy differensial tenglamalar tizimlarini yechish. Biroq olingan echim noaniq bo‘ladi, xuddi qo‘srimcha shartlardan biri kabi –  $\tilde{T}_2(0)$

– yaqinlashish sifatida berilagan bo‘ladi.

3-qadam – 2) chegara shart bajarilishi tekshiriladi.

$$T_2(L)\{\tilde{T}_2(0)\} - T_{2(0)} = 0$$

Agar bajarilmasa, unda 4 - qadam bajariladi.

4-qadam 2) chegaraviy shart xuddi

$$T_{2(0)}$$

yangi yaqinlashishni tanlash uchun to‘g‘rilovchi tenglama sifatida qaraladi, ya’ni tenglamani yechish amali quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi:

$$T_2(L)\{\tilde{T}_2(0)\} - T_{2(0)} = 0$$

Masalani yechishning tashqi siklida yechim aniqlanadi:


$$T_{2(0)} = ?$$

5-qadam – faqat tenglamaning oxirgi yechimi olingan bo‘lib, masalani yechishning tashqi siklida masala yechilgan bo‘ladi va masalani yechishning ichki siklida 1) va 2) ODTT (oddiy differensial tenglamalar tizimi) yechimining natijalari to‘g‘rilangan bo‘ladi.

## Axborot matritsasi

$n \setminus p$	$T_1(0)$	$T_1(L)$	$T_2(0)$	$T_2(L)$	$\Delta q^T$	$N^o$
1 Диф. ур.	+	+			+	3
2 Диф. ур.			+	+	+	4
3	+		+		+	2
1'	+					1
2' Кор.ур.			+	+		5

## Algoritmning blok-sxemasi



### O‘z - o‘zini tekshirish uchun topshiriq:

Issiqlik almashish apparatida statsionar issiqlik uzatish rejimining matematik tavsifini qurish va ikkala issiqlik tashuvchilar oqimlarining harakatlari ideal aralashish modellari bilan keltirilishi mumkin bo‘lgan shartlarda uning tekshiruv (baholash) hisoblash algoritmining blok - sxemasini tuzish.

Zmeevikli issiqlik almashish apparatlarida statsionar issiqlik uzatish rejimining matematik tavsifini qurish va rezervuardagi issiqlik tashuvchilar oqimining harakatini ideal aralashish modeli bilan, zmeevikdagisini esa ideal o‘rin almashish modeli bilan keltirish mumkin bo‘lgan shartlarda uning tekshiruv (baholash) hisoblash algoritmining blok - sxemasini tuzish.

Issiqlik almashish apparatlaridagi statsionar issiqlik uzatish rejimining matematik tavsifini qurish va ikkala issiqlik tashuvchilar oqimlarining harakati (issiqlik tashuvchilar harakatining rejimi – to‘g‘ri oqim) ni ideal o‘rin almashish modeli bilan keltirish mumkin bo‘lgan shartlarda uning tekshiruv (baholash) hisoblash algoritmining blok - sxemasini tuzish.

Issiqlik almashish apparatlaridagi statsionar issiqlik uzatish rejimining matematik tavsifini qurish va ikkala issiqlik tashuvchilar oqimlarining harakati (issiqlik tashuvchilar harakatining rejimi – teskari oqim) ni ideal o‘rin almashish modeli bilan keltirish mumkin bo‘lgan shartlarda uning tekshiruv (baholash) hisoblash algoritmining blok - sxemasini tuzish.

#### 4.1.5 Quvurli reaktorlarni hisoblash va algoritmlashtirish

##### 4.1.5.1. Politropik reaktorning statsionar rejimi

a) Issiqlik tashuvchi to‘g‘ri oqim rejimida harakatlanadi (Koshi masalasi va boshlang‘ich shartli masala).




b) Issiqlik tashuvchi teskari oqim rejimida harakatlanadi (Chegaraviy masala).



### Asosiy qo'yimlar:

– mikrokinetika: reaksiya



$$(-\Delta H_1) \quad (-\Delta H_2)$$


– oqimlar harakati ideal o'rin almashishning gidrodinamik modellari bilan keltiriladi;

– bosqichlarning issiqlik samaralari haroratlarga bog'liq emas;

– asosiy oqim va qobiqdagi oqimlar o'rtasidagi issiqlik almashuvida faqat issiqlik uzatish ishtirok etadi;

– issiqlik uzatish koeffitsiyenti = const.

### Jarayonning mikrokinetikasi



Aniqlanadi:

$$g_A^R, g_B^R, g_C^R, \Delta q^R,$$

$$\begin{bmatrix} g_A^R \\ g_B^R \\ g_C^R \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} -2 & 0 \\ 3 & -3 \\ 0 & 1 \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} k_1 x_A^2 \\ k_2 x_B^3 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} -2k_1 x_A^2 \\ 3k_1 x_A^2 + 3k_2 x_B^3 \\ k_2 x_B^3 \end{bmatrix}$$

$$\bar{g}^R = \bar{\alpha} \cdot \bar{r}$$

$$g_A^R = -2 \cdot r_1$$

$$g_B^R = 3 \cdot r_1 - 3 \cdot r_2$$

$$rang(\bar{a}) = 2$$

2 ta hal qiluvchi A va V komponentalarni tanlaymiz

$$g_C^R = -\frac{1}{2}g_A^R - \frac{1}{3}g_B^R$$

Muhim bo‘lmagan S komponenta uchun stexiometrik munosabat:

$$x_C = x_C^{(0)} - \frac{1}{2}(x_A - x_A^{(0)}) - \frac{1}{3}(x_B - x_B^{(0)})$$

$$\Delta q^R = \sum_{j=1}^2 |\alpha_{p_j}| (-\Delta H_{p_j}) \cdot r_j = 3(\Delta H_{B1}) \cdot r_1 + 1(-\Delta H_{C2}) \cdot r_2$$

### **Jarayonning matematik tavsifi (to‘g‘ri oqim).**

$$1.1) x_A \frac{dv}{d\ell} + v \frac{dx_A}{d\ell} = \frac{V_R}{L} g_A^R \Rightarrow \frac{dx_A}{d\ell} = \frac{V_R}{vL} g_A^R - \frac{x_A}{v} \frac{dv}{d\ell}$$

$$1.2) \frac{dx_B}{d\ell} = \frac{V_R}{L} g_B^R - \frac{x_B}{v} \frac{dv}{d\ell}$$

$$1.3) x_C = x_C^{(0)} - \frac{1}{2}(x_A - x_A^{(0)}) - \frac{1}{3}(x_B - x_B^{(0)})$$

$$2.1) g_A^R = -2 \cdot r_1$$

$$2.2) g_B^R = 3 \cdot r_1 - 3 \cdot r_2$$

$$2.3) g_C^R = r_2$$

$$3.1) r_1 = k_1 x_A^2$$

$$3.2) r_2 = k_2 x_B^3$$

$$4.1) k_1 = A_1 \exp(-E_1/RT)$$

$$4.2) k_2 = A_2 \exp(-E_2/RT)$$

$$5) \frac{dv}{d\ell} = \frac{V_R}{L} (g_A^R + g_B^R + g_C^R)$$

$$6) \frac{d(vT)}{d\ell} = \frac{V_R}{C_p L} \Delta q^R + \frac{F_T}{C_p L} \Delta q^T \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \frac{dT}{d\ell} = \frac{V_R}{v C_p L} \Delta q^R + \frac{F_T}{v C_p L} \Delta q^T - \frac{T}{v} \cdot \frac{dv}{dl}$$

$$7) \Delta q^R = 3(-\Delta H_{B1})r_1 + (-\Delta H_{C1})r_2$$

$$8) \Delta q^T = K^T (T_T - T)$$

$$9) C_p = C_{p_A}^{ind} x_A + C_{p_B}^{ind} x_B + C_{p_C}^{ind} x_C$$

$$10.1) C_{p_A}^{ind} = a_A + b_A T + c_A T^2 + d_A T^3$$

$$10.2) C_{p_B}^{ind} = a_B + b_B T + c_B T^2 + d_B T^3$$

$$10.3) C_{p_C}^{ind} = a_C + b_C T + c_C T^2 + d_C T^3$$

Issiqlik tashuvchilarning oqimlari uchun tenglama:

$$11) \frac{dT_T}{d\ell} = \frac{F^T}{C_{P_T} L v_T} (-\Delta q^T)$$

$n+3$  differensial tenglama.

### Boshlang'ich shart:

$$(1.1') x_A(0) = x_A^{(0)}$$


$$(1.2') x_B(0) = x_B^{(0)}$$

$$(5') v(0) = v^{(0)}$$

$$(6') T(0) = T^{(0)}$$

$$(11') T_T(0) = T_T^{(0)}$$


Kompyuterda xususiy yechimni aniqlash uchun Koshi masalasi yoki boshlang'ich shartli masala yechiladi – «o'rin almashish – urin almashish» issiqlik almashish apparatiga qarang (to'g'ri oqim).



**Axborot matritsasi (to‘g‘ri oqim)**

$n$	$P$	$\bar{x}_{(A)}(0)$	$\bar{x}_{(A)}(L)$	$\bar{x}_{(B)}(0)$	$\bar{x}_{(B)}(L)$	$\bar{x}_{(C)}(0)$	$\bar{x}_{(C)}(L)$	$\bar{g}_{(n)}^R$	$\bar{r}_{(m)}$	$\bar{k}_{(m)}$	$T(0)$	$T(L)$	$\Delta q^T$	$\Delta q^R$	$C_p$	$v(0)$	$v(L)$	$f_5$	$\bar{C}_{p(n)}^{ind}$	$T_r(0)$	$T_r(L)$	$N^o$	
$\bar{1}_{(n)}^*$ Диф. ур.	$\oplus$	$\ominus$	$\oplus$	$\ominus$	$\oplus$	$\ominus$	$\oplus$								$\oplus$		$\oplus$					14	
$\bar{2}_{(n)}$								$\ominus$	$\oplus$														8
$\bar{3}_{(m)}$	$\oplus$		$\oplus$		$\oplus$				$\ominus$	$\oplus$													7
$\bar{4}_{(m)}$									$\ominus$	$\oplus$													5
$5^*$ Диф. ур.															$\oplus$		$\ominus$	$\oplus$					13
$5^*]$								$\oplus$						$\oplus$		$\ominus$	$\oplus$						12
$6^*$ Диф. ур.									$\oplus$	$\ominus$	$\oplus$	$\oplus$	$\oplus$	$\oplus$	$\oplus$	$\oplus$	$\oplus$						15
7								$\oplus$															10
8								$\oplus$															9
9	$\oplus$		$\oplus$		$\oplus$																		11
$\bar{10}_{(n)}$								$\oplus$															6
$11^*$ Диф. ур.										$\oplus$	$\oplus$							$\oplus$	$\ominus$				16
$\bar{1}_{(n)}$	$\ominus$	$\ominus$	$\ominus$																				1
5'																							2
6'									$\ominus$														3
11'																		$\ominus$					4

### Hisoblash algoritmining blok-sxemasi (to‘g‘ri oqim)



### Jarayonning matematik tavsifi (teskari oqim).

Ideal o‘rin almashish modelining komponentli balansi:

$$1.1) \quad x_A \frac{dv}{d\ell} + v \frac{dx_A}{d\ell} = \frac{V_R}{L} g_A^R \Rightarrow \frac{dx_A}{d\ell} = \frac{V_R}{vL} g_A^R - \frac{x_A}{v} \frac{dv}{d\ell}$$

$$1.2) \quad \frac{dx_B}{d\ell} = \frac{V_R}{L} g_B^R - \frac{x_B}{v} \frac{dv}{d\ell}$$

$$1.3) \quad x_C = x_C^{(0)} - \frac{1}{2} (x_A - x_A^{(0)}) - \frac{1}{3} (x_B - x_B^{(0)})$$

$$2.1) \quad g_A^R = -2 \cdot r_1$$

$$2.2) \quad g_B^R = 3 \cdot r_1 - 3 \cdot r_2$$

$$2.3) \quad g_C^R = r_2$$

$$3.1) \quad r_1 = k_1 x_A^2$$

$$3.2) \quad r_2 = k_2 x_B^3$$

$$4.1) \quad k_1 = A_1 \exp(-E_1/RT)$$

$$4.2) \quad k_2 = A_2 \exp(-E_2/RT)$$

$$5) \quad \frac{dv}{d\ell} = \frac{V_R}{L} (g_A^R + g_B^R + g_C^R)$$

$$\frac{d(vT)}{d\ell} = \frac{V_R}{C_p L} \Delta q^R + \frac{F_T}{C_p L} \Delta q^T \Rightarrow$$

$$6) \quad \Rightarrow \frac{dT}{d\ell} = \frac{V_R}{v C_p L} \Delta q^R + \frac{F_T}{v C_p L} \Delta q^T - \frac{T}{v} \cdot \frac{dv}{d\ell}$$

$$7) \quad \Delta q^R = 3(-\Delta H_{B1})r_1 + (-\Delta H_{C1})r_2$$

$$8) \quad \Delta q^T = K^T (T_T - T)$$

$$9) \quad C_p = C_{p_A}^{ind} x_A + C_{p_B}^{ind} x_B + C_{p_C}^{ind} x_C$$

$$10.1) \quad C_{p_A}^{ind} = a_A + b_A T + c_A T^2 + d_A T^3$$

$$10.2) \quad C_{p_B}^{ind} = a_B + b_B T + c_B T^2 + d_B T^3$$

$$10.3) \quad C_{p_C}^{ind} = a_C + b_C T + c_C T^2 + d_C T^3$$

Issiqlik tashuvchilarning oqimi uchun tenglama:

$$11) \quad \frac{dT_T}{d\ell} = \frac{F^T}{C_{P_T} L v_T} (-\Delta q^T)$$

$n+3$  differensial tenglama, to‘g‘ri oqim bilan solishtirilganda faqat (11) tenglama o‘zgaradi.

### Boshlang‘ich shartlar tizimi:

$$(1.1') \quad x_A(0) = x_A^{(0)}$$



$$(1.2') \quad x_B(0) = x_B^{(0)}$$

$$(5') \quad v(0) = v^{(0)}$$


$$(6') \quad T(0) = T^{(0)}$$

$$(11') \quad T_T(0) = T_T^{(0)}$$

Kompyuterda xususiy yechimni aniqlash uchun chegara shartli chegaraviy masala yechiladi – «o‘rin almashish – o‘rin almashish» issiqlik apparatiga qarang (teskari oqim).



Boshlang‘ich yaqinlashish:




Tenglamada chegaraviy shart quyidagi kattalikka aylantiriladi:  $\tilde{T}_r(0)$ , ya’ni kirishga issiqlik tashuvchi haroratining kattaliklari.

## Axborot matritsasi (teskari oqim)

$n$	$p$	$\bar{x}_{(s)}(0)$	$\bar{x}_{(s)}(L)$	$\bar{x}_{(s)}(0)$	$\bar{x}_{(s)}(L)$	$\bar{x}_{(r)}(0)$	$\bar{x}_{(r)}(L)$	$\bar{g}_{(n)}^R$	$\bar{r}_{(m)}$	$\bar{k}_{(m)}$	$T(0)$	$T(L)$	$\Delta q^T$	$\Delta q^R$	$C_p$	$v(0)$	$v(L)$	$f_5$	$\bar{C}_{p(n)}^{ind}$	$T_r(0)$	$T_r(L)$	$N^o$
$\bar{l}_{(n)}^*$ Диф. ур.		⊕	◆	⊕	◆	⊕	◆	⊕								⊕	⊕	⊕				14
$\bar{2}_{(n)}$								◆	⊕													8
$\bar{3}_{(m)}$		⊕		⊕		⊕		◆	⊕													7
$\bar{4}_{(m)}$								◆	⊕													5
$\bar{5}^*$ Диф. ур.																⊕	◆	⊕				13
$5^*$																⊕	⊕	◆				12
$\bar{6}^*$ Диф. ур.																⊕	◆	⊕	⊕			15
7									⊕													10
8									⊕													9
9		⊕		⊕		⊕											⊕					11
$\bar{10}_{(n)}$									⊕									◆				6
$\bar{11}^*$ Диф. ур.		◆	◆	◆													⊕	⊕	◆			16
$\bar{l}_{(n)}$		◆	◆	◆																		1
5'																		◆				2
6'																						3
$11^t$ Кон. ур.																		◆	⊕			4

## Hisoblash algoritmining blok-sxemasi (teskari oqim)




$$T_T(\ell = 0) \Rightarrow T_T(0)$$

11.) tenglamaning yechimi:

$$T_T(0)^*$$

$$f_{11^+} = T_T(L)\{T_T(0)\} - T_T^{(0)} = 0$$

#### 4.1.5.2. Nostatsionar rejimdagi quvurli reaktorlar



$$A \xrightarrow{k} P$$

#### Asosiy qo'yimlar:

Izotermik rejim;

Bir parametrli diffuziyali model.

#### Matematik tavsifning tenglamasi:

$$\frac{V^R}{L} \frac{\partial x}{\partial t} = \frac{DV^R}{L} \frac{\partial^2 x}{\partial \ell^2} - v \frac{\partial x}{\partial \ell} + G_{A(\ell)}^R$$

$$x = [A]; \quad S = \frac{V^R}{L}; \quad G_{A(\ell)}^R = \frac{V^R}{L} g_A = -kx, \quad V = S \cdot W$$

$$1) \quad \frac{\partial x}{\partial t} = D \frac{\partial^2 x}{\partial \ell^2} - W \frac{\partial x}{\partial \ell} - kx$$

1) tenglama ikki mustaqil o'zgaruvchi  $t$  va  $\ell$  ga ega parabolik tipdagи ikkinchi tartibli xususiy hosilalari differensial tenglama hisoblanadi va agar oqim uchun bir parametrli diffuziyali model qabul qilingan bo'lsa, yagona oddiy reaksiya oqib o'tuvchi reaktorning nostatsionar rejimini tavsiflaydi.

Topish lozim:

$$x = x(t, \ell)$$

$$t^{(0)} \leq t \leq t^{(k)}$$

$$0 \leq \ell \leq L$$

Boshlang'ich shart:

$$1') \quad x(t^{(0)}, \ell) = x^{(0)}(\ell), \quad 0 \leq \ell \leq L$$

Chegaraviy shart:

$$1'') \quad \begin{cases} x(t, 0) = x_0(t) & t^{(0)} \leq t \leq t^{(k)} \\ x(t, L) = x_L(t) & \end{cases}$$

Xususiy hosilalarda differensial tenglamalar tizimi (XHDTT) ni yechish uchun hosilasi ma'lum  $[t^{(0)}, t^{(k)}]$  va/yoki  $[0, L]$  intervaldagi chekli – farqli shaklda

namoyon bo‘luvchi diskretlashtirish usulidan foydalanish mumkin, natijada 1’) va 1’’) chegara shartli 1) tenglama chekli tenglamalar tizimi (CHTT) dagi va/yoki oddiy differential tenglamalar tizimi (ODTT) ga aylanib qoladi.

Bu tenglamalar uchun diskretlashtirishning uchta variantdan foydalanish mumkin:

1)  $\ell$  mustaqil o‘zgaruvchi bo‘yicha:

$$\frac{\partial x}{\partial \ell} \cong \frac{x_{i+1} - x_i}{\Delta \ell}$$

$$i = 1, \dots, n - 1$$

Natijada  $t$  mustaqil o‘zgaruvchili 1 – tartibli oddiy differential tenglamalar tizimi olinadi.

2) Mustaqil  $t$  o‘zgaruvchi bo‘yicha:

$$\frac{\partial x}{\partial t} \cong \frac{x_{j+1} - x_j}{\Delta \ell}$$

$$j = 1, \dots, m - 1$$

Natijada  $\ell$  mustaqil o‘zgaruvchili 2 – tartibli oddiy differential tenglamalar tizimi olinadi.

3)  $\ell$  va  $t$  mustaqil o‘zgaruvchilar bo‘yicha:

$$\frac{\partial x}{\partial \ell} \cong \frac{x_{i+1} - x_i}{\Delta \ell}$$

$$i = 1, \dots, n - 1$$

$$\frac{\partial x}{\partial t} \cong \frac{x_{j+1} - x_j}{\Delta \ell}$$

$$j = 1, \dots, m - 1$$

Natijada chekli tenglamalar tizimi olinadi.

Mustaqil o‘zgaruvchi bo‘yicha diskretlashtirishning 1 - variantini batafsil ko‘rib chiqamiz:



$0 \leq \ell \leq L$  da hosilalarning chekli - ayirmali keltirilishi quyidagi ko‘rinishga ega:

– «Kamchiliklar bo‘yicha» hosila:

$$\left. \frac{\partial x_i}{\partial t} \right|_{\ell - \Delta \ell} \cong \frac{x_i - x_{i-1}}{\Delta \ell}$$

– «Ortiqchalik bo‘yicha» hosila:

$$\left. \frac{\partial x_i}{\partial t} \right|_{\ell + \Delta \ell} \cong \frac{x_{i+1} - x_i}{\Delta \ell}$$

– Ikkinchi hosila:

$$\frac{\partial^2 x_i}{\partial \ell^2} \cong \frac{\frac{\partial x_i}{\partial \ell} \Big|_{\ell+\Delta \ell} - \frac{\partial x_i}{\partial \ell} \Big|_{\ell-\Delta \ell}}{\Delta \ell} = \frac{x_{i+1} - 2x_i + x_{i-1}}{\Delta \ell}$$

Ushbu holda 1'') chegaraviy shart quyidagiga teng:

$$x(t,0) = x_0(t) = x_0$$

$$x(t,L) = x_L(t) = x_n$$

Natijada xususiy hosilalarda tenglamalardan birini diskretlashtirish oqibatida  $t$  mustaqil o‘zgaruvchili va 1') boshlang‘ich shartli, quyidagi diskret ko‘rinishga keltirilgan oddiy differensial tenglamalarning ( $n-1$ ) tizimi olinadi:

$$x_i(t^{(0)}) = x_i^{(0)}$$

$$i = 1, \dots, n-1$$

Agar chekli - ayirmali keltirishlarda «ortiqchalik bo‘yicha hosila» hosilasidan foydalanilsa, unda boshlang‘ich shartli oddiy differensial tenglamalar tizimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\bar{1}) \quad \frac{\partial x_i}{\partial t} = D \frac{x_{i+1} - 2x_i + x_{i-1}}{(\Delta \ell)^2} - W \frac{x_{i+1} - x_i}{\Delta \ell} - kx_i$$

$$i = 1, \dots, n-1$$

$$\bar{1}') \quad x_i(t^{(0)}) = x_i^{(0)}$$

$$i = 1, \dots, n-1$$

$\bar{1})$  tenglamani o‘zgartirib va uning parametrlari ( $D$ ,  $W$  va  $k$ ) ni o‘zgarmas hisoblanishini ko‘rsatib, quyidagi oddiy differensial tenglamalar tizimini olish mumkin:

$$\frac{dx_i}{dt} = \frac{D}{(\Delta \ell)^2} x_{i-1} + \left[ \frac{W}{\Delta \ell} - k - \frac{2D}{(\Delta \ell)^2} \right] x_i + \left[ \frac{D}{(\Delta \ell)^2} - \frac{W}{\Delta \ell} \right] x_{i+1}$$

$$i = 1, \dots, n-1$$

yoki

$$\begin{bmatrix} \frac{dx_1}{dt} \\ \frac{dx_2}{dt} \\ \vdots \\ \frac{dx_{n-2}}{dt} \\ \frac{dx_{n-1}}{dt} \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} b & c & 0 & \cdots & 0 & 0 & 0 \\ a & b & c & \cdots & 0 & 0 & 0 \\ \vdots & \vdots & \ddots & \ddots & \ddots & \vdots & \vdots \\ 0 & 0 & 0 & \cdots & a & b & c \\ 0 & 0 & 0 & \cdots & 0 & a & b \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \vdots \\ x_{n-2} \\ x_{n-1} \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} ax_0 \\ 0 \\ \vdots \\ 0 \\ cx_n \end{bmatrix},$$

bu yerda,

$$a = \frac{D}{(\Delta \ell)^2}; \quad b = \frac{W}{\Delta \ell} - k - \frac{2D}{(\Delta \ell)^2}; \quad c = \frac{D}{(\Delta \ell)^2} - \frac{W}{\Delta \ell}$$

Ifodalanganligidan kelib chiqib  $\bar{1})$  tenglama  $\bar{1}')$  chegaraviy shartni o‘z ichiga oladi va matritsa ko‘rinishida quyidagicha ko‘rsatilishi mumkin:

$$\begin{aligned} \bar{1}) \quad & \frac{\overline{dx}}{dt} = \bar{A} \bar{x} + \bar{S} \\ \bar{1}') \quad & \bar{x}(t^{(0)}) = \bar{x}^{(0)}, \end{aligned}$$

bu yerda,  $\bar{S}$  – chegaraviy shartli vektor,  $\bar{1}')$  boshlang‘ich shart esa quyidagi boshlang‘ich shart bilan diskret holga keltirilgan hisoblanadi:

$$\bar{1}') \quad - \quad x^{(0)}(\ell) \quad - \quad 0 \leq \ell \leq L$$

Olingan bir jinsli bo‘lmagan oddiy differensial tenglamalar tizimi ixtiyoriy ma’lum usullar (masalan, Eyler usuli yoki Runge– Kutt usuli) bilan oson yechilishi mumkin, chunki uning  $\bar{A}$  koeffitsiyentlari matritsasi uch diagonallidir.

### **O‘z - o‘zini tekshirish uchun topshiriq**

To‘g‘ri oqim rejimida (issiqlik tashuvchining asosiy oqimi va oqimi ideal o‘rin almashish modeli bilan ifodalanuvchi) harakatlanuvchi statsionar rejimdagi issiqlik tashuvchilarning murakkab ko‘p bosqichli kinetik reaksiyalari sxemalariga ega gomogen uzlusiz suyuq fazali izotermik quvurli reaktorlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri masalalarni yechishning matematik tavsifi va algoritmining blok - sxemasini tuzish.

Teskari oqim rejimida (issiqlik tashuvchining asosiy oqimi va oqimi ideal o‘rin almashish modeli bilan ifodalanuvchi) harakatlanuvchi statsionar rejimdagi issiqlik tashuvchilarning murakkab ko‘p bosqichli kinetik reaksiyalari sxemalariga ega gomogen uzlusiz suyuq fazali izotermik quvurli reaktorlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri masalalarni yechishning matematik tavsifi va algoritmining blok - sxemasini tuzish.

Asosiy oqimning harakati bir parametri diffuziyali model bilan ifodalanuvchi nostatsionar rejimdagi oddiy kinetik A→V reaksiyalar sxemasiga ega gomogen uzlusiz suyuq fazali izotermik quvurli reaktorlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri masalalarni yechishning matematik tavsifi va algoritmining blok - sxemasini tuzish.


#### **4.1.6.Tarelkali kolonnalardagi ko‘p komponentli uzlusiz rektifikatsiya jarayonini kompyuterli modellashtirish, hisoblash va algoritmlashtirish**

*Rektifikatsiya* – o‘zaro to‘la yoki qisman erigan suyuqlik aralashmalarini teskari oqim bo‘yicha harakatlanuvchi suyuqlik bug‘lari o‘rtasida issiqlik massasining almashish yo‘li bilan ajratish jarayoni bo‘lib, natijada yengil uchuvchi komponentlar yuqoriga (deflegmatorga) ko‘tariladi, og‘ir uchuvchi komponentlar esa pastga (kollonna kubiga) tushadi.

Rektifikatsiya qurilmasi kub, N tarelkadan iborat kolonna va deflegmatordan tashkil topadi.

Rektifikatsiya kolonnasining matematik modeli balans munosabatlari, bug‘ - suyuqlik muvozanati, massa uzatish kinetikasi va oqimlarning gidrodinamikasini hisobga olishi kerak.

Modellarning asosini kolonnaning material va issiqlik balanslari tashkil etadi. Bug‘ - suyuqlik muvozanati, massa uzatish kinematikasi va oqimlar gidrodinamikasi o‘zida mustaqil murakkab masalalarni namoyon qiladi. Fazaviy muvozanat, kinetika va gidrodinamikani hisoblashning turli usullaridan foydalanish balans munosabatlaridagi alohida koeffitsiyentlar yoki bog‘liqliklarni o‘zgarishiga olib keladi, biroq yechimning umumiyligi algoritmini o‘zgartirmaydi.



Belgilash:

tarelkalar yuqorida pastga tomon raqamlanadi;

1 tarelka kondensator yoki deflegmator;

$N$  tarelka kubning qaynatgichi.

### Asosiy qo‘yimlar:

kolonnada faqat ikki fazalar – suyuqlik va bug‘ bor;

oraliq tarelkali oqimlarda, kub va kondensatordan tashqari,

qo‘shimcha tanlab olishlar amalga oshirilmaydi;

tarelkalar orasidagi sohada fazalar o‘rtasida kontakt yo‘q;

tarelkalar orasidan suyuqliknini olib ketib bo‘lmaydi;

kolonnaning tarelkalarga faqat massa uzatish jarayoni oqib keladi.

$$x_{ij} \quad (i = 1, \dots, N; j = 1, \dots, n);$$

### Modellarning afzalliklari:

$n$ -komponentli aralashma nazarda tutiladi, masalan,  $i$  tarelkadagi suyuqlikning konsentratsyasi quyidagicha keltirilishi mumkin:

har bir tarelkaga quyidagi konsentratsiyali suyuqlik manbai  $F_i$  ning oqimi kelishi mumkin:

$$x_{ij}^F \quad (i = 1, \dots, N; j = 1, \dots, n)$$

har bir tarelkaga  $\Delta Q^o$  issiqlik oqimi kelishi yoki ketishi mumkin ( $\Delta Q^o$  – issiqlik kelsa, musbat;  $\Delta Q^o$  – issiqlik ketsa, manfiy); tarelkalardagi massa uzatish samaradorligini ko‘p komponentli aralashmalar uchun Merfining modifikatsiyalangan FIK idan foydalanib baholash mumkin:

$$E_{ij} = \frac{y_{ij} - y_{i+1,j}}{y_{ij}^* - y_{i+1,j}} \quad (1)$$

bu yerda,  $y_{ij}$  –  $i$ -tarelkadan ketayotgan bug‘ fazalarining ulushlardagi tarkibi;  $y_{i+1,j}$  –  $i + 1$  – tarelkadan kelayotgan bug‘ fazalarining ulushlardagi tarkibi;  $y_{ij}^*$  –  $i$  – tarelkadagi bug‘ fazalarining ulushlardagi muvozanat tarkibi.

$$(i = 1, \dots, N; j = 1, \dots, n)$$

$i$  – tarelkadagi bug‘ fazalarining muvozanat tarkibi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$y_{ij}^* = K_{ij} x_{ij} \quad (2)$$

$$(i = 1, \dots, N; j = 1, \dots, n)$$

bu yerda,  $K_{ij}$  – dlya  $j$  – komponent uchun  $i$  – tarelkadagi fazaviy muvozanat konstantasi;

$x_{ij}$  –  $i$  – tarelka ulushidagi suyuq fazanining tarkibi.

**Shunday qilib, modellarni qurish uchun quyidagilar bo‘lishi lozim:**

suyuqlik – bug‘ fazaviy muvozanatining modelini qurish;


tarelkadagi ajralish jarayonining modelini uning samaradorligini hisobga olib (2), ya’ni ko‘p komponentli massa uzatishni hisobga olib qurish;

tarelkali rektifikatsiya kolonnasining modelini qurish, ya’ni  $F_i$  oqim manbai va oqim bilan keluvchi (ketuvchi) issiqlik  $\Delta Q_i^{\Pi}$ .

## Uzluksiz rektifikatsiya kolonnalarining modellarini qurish bosqichlari

### 1. Suyuqlik – bug‘ fazaviy muvozanati.

Binar tizimida suyuqlik – bug‘ muvozanati ma’lumotlarining tasvirlanishi:



Masala: bitta tajriba nuqtasi – suyuqlikdagi komponent ulushi ( $x$ ) va umumiyl bosim ( $R$ ) da muvozanat shartlarini aniqlash.

Berilgan:  $x, R$

Aniqlanadi:  $y, T$  - muvozanat shartlarida.

Umumiyl hollarda ushbu model binar ( $n = 2$ ) tizimlar uchun emas, ko‘p komponentli tizimlar uchun tuziladi va o‘zida: jarayonning MT, axborot matritsasi va yechish algoritmining blok - sxemasini mujassamlashtiradi.

### Ko‘p komponentli tizimlar uchun jarayonning matematik tavsifi

1) Koeffitsiyentlar faolligi  $\gamma_j$  ( $j = 1, \dots, n$ ) yordamida ideal bo‘lmagan suyuq fazalarini hisobga olib Dalton - Raoulning birlashish qonuni:

$$\bar{1}n) \quad Py_j = P_j^0 x_i \gamma_j$$

$$(j = 1, \dots, n)$$

2) Antuan tenglamasi bo‘yicha individual  $j$  ( $P_j^0$ ) modda to‘yingan bug‘ining ( $T$ ) harorat bilan bog‘liqligi:

$$\bar{2}n) \quad P_j^0 = \exp \left( A_j + \frac{B_j}{C_j + T} \right)$$

$$(j = 1, \dots, n)$$

bu yerda,  $A_j, B_j, C_j$  ( $j = 1, \dots, n$ ) – ma’lum konstantalar;

$P_j^0$  ( $j = 1, \dots, n$ ) –  $j$  individual modda to‘yingan bug‘ining bosimi.

2) Suyuq faza  $(\bar{x})$  tarkibi, harorat ( $T$ ) va binar o‘zaro ta’sir ( $\bar{a}$ ) larning ma’lum konstantasi tizimi komponentlari faolligi koeffitsiyentlarining ma’lum bog‘liqligi:

$$3) \quad \bar{3}n) \quad \gamma_j = \gamma_j(\bar{x}, T, \bar{a})$$

$$(j = 1, \dots, n)$$

4) Bug‘ fazalari muvozanatining molli ulushlari uchun stexiometrik nisbat:

$$4) \sum_{j=1}^n y_j = 1$$

Natijada  $3n + 1$  tenglamalar tizimi olinadi va aniqlovchilar sifatida quyidagilarni tanlaymiz:

- bug‘ fazasining molli ulushi;
  - individual moddalar to‘yingan bug‘larining bosimi;
  - aralashma komponentlarining faollik koeffitsiyentlari;
- $T$  – harorat.

Qolgan o‘zgaruvchilar va konstantalar berilgan bo‘lishi kerak.

### **Matematik tavsif tenglamalari tizimining axborot matritsasi.**

$n \setminus p$	$\bar{y}_n$	$\bar{P}_n^0$	$\bar{\gamma}_n$	$T$	$N^o$
$\bar{1}_n$					3
$\bar{2}_n$					1
$\bar{3}_n$					2
4 Kop. yп.					4

$$4) \sum_{j=1}^n y_j \{T\} - 1 = 0$$

$$f(T) \equiv \sum_{j=1}^n y_j \{T\} - 1 = 0$$

Tenglamani yechish natijasi:  $T^*$  – muvozanat harorati yoki aralashmaning qaynash harorati.

Bu haroratda (1) tenglamadan  $\bar{y}^*$  konsentratsiyalar muvozanati aniqlanadi:

$$y_j^* = \frac{P_j^0 x_j \gamma_j}{P} \\ (j = 1, \dots, n)$$

Ideal suyuqlik fazasi  $\gamma_j = 1$ , ( $j = 1, \dots, n$ ), uchun

$$y_j^* = \frac{P_j^0}{P} x_j$$

$$(j = 1, \dots n)$$

Ideal suyuqlik va bug‘ fazalari uchun fazaviy munosabat doimiysi quyidagicha aniqlanadi:


$$K_j = \frac{P_j^0}{P}$$

$$(j = 1, \dots n)$$

va faqatgina haroratga bog‘liq, xuddi shunday Antuan tenglamasi  $P_j^0$  faqat haroratga bog‘liq.

Natijada bug‘ fazasining muvozanat tarkibi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$y_j^* = K_j x_j \quad (j = 1, \dots, n)$$



## 2.1. Asosiy qo‘yimlar:

statsionar rejim;

suyuqlik oqimining harakati ideal aralashish modeli bilan, bug‘niki esa ideal o‘rin almashish modeli bilan keltirilishi mumkin;

tarelkada faqat ko‘p komponentli massa uzatish yuz beradi;

massa uzatish koeffitsiyentlari matritsasining samarali kesishishlarini e'tiborga olmasa ham bo'ldi:

tarelkadagi suyuqlik ( $L$ ) va bug‘ ( $V$ ) oqimlari – doimiy.

## Tarelkadagi massa uzatish jarayonining matematik tavsifi.

Suyuqlik fazalar uchun tenglamalar:

$$1) \quad \begin{cases} Lx_j^{(0)} - Lx_j + [F^M g_j^{M(L)}]_{o'r} = 0 \\ j = 1, \dots, n \end{cases}$$

$$2) \quad \begin{cases} g_j^{M(L)} = \sum_{s=1}^n K_{js}^{M(L)} (x_s^* - x_s) \\ j = 1, \dots, n \end{cases}$$

Bug‘ fazalar uchun teglamalar:

$$\bar{3}) \quad V \frac{dy_j}{dh} = \frac{F^M}{H} g_j^{H(V)}$$

$$j = 1, \dots, n$$

$$4) \quad g_j^{M(V)} = \sum_{s=1}^n$$

$$4) \quad g_j^{M(V)} = \sum_{s=1}^n K_{js}^{M(V)} (y_s^* - y_s)$$

$$j = 1, \dots, n$$

Rektifikatsiya uchun quyidagi tenglama to‘g‘ri:

$$\begin{cases} -g_j^{M(L)} = g_j^{M(V)} \\ j = 1, \dots, n \end{cases}$$

(1) tenglamadagi  $[F^M g_j^{M(L)}]_{o'r}$  ni aniqlash uchun quyidagi nisbatdan foydalanamiz:

$$(2) \quad [F^M g_j^{M(L)}]_{o'r} = F^M \frac{\int_0^H g_j^{M(L)} dh}{H} = -F^M \frac{\int_0^H g_j^{M(V)} dh}{H} =$$

$$= - \int_0^H V \frac{dy_j}{dh} dh = -V (y_j^{(k)} - y_j^{(0)})$$

$$j = 1, \dots, n$$

(1) tenglamadagi almashtirish komponentli balans tenglamasiga olib keladi:

$$\bar{1}n) \quad Lx_j^{(0)} - Lx_j + Vy_j^{(0)} Vy_j^{(0)}$$

$$j = 1, \dots, n$$

Keyin bug‘ fazalari (4) atamasidagi massa va issiqlik manbalarining jadalligi jadvallaridan ko‘p komponentli massa uzatishning lokal tezliklari tenglamalaridan foydalanamiz:

$$g_j^{M(V)} = \bar{K}^{M(V)} (\bar{y}^* - \bar{y})$$

bu yerda  $\bar{y}^*$  – bug‘li fazaning muvozanat tarkibi, va uni matritsa shaklida keltiramiz:

$$\begin{bmatrix} g_1^{M(V)} \\ \vdots \\ g_n^{M(V)} \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} K_{11}^{M(V)} & K_{12}^{M(V)} & \dots & K_{1n}^{M(V)} \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ K_{n1}^{M(V)} & K_{n2}^{M(V)} & \dots & K_{nn}^{M(V)} \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} y_n^* - y_1 \\ \vdots \\ y_n^* - y_n \end{bmatrix}$$

Massa uzatish koeffitsiyentlari matritsasining diagonal bo‘lmagan elementlari uning kesishish samaralari deb ataladi va ular diagonal elementlaridan 2 – 3 tartibga kichik bo‘ladi.

Shuning uchun ham ular e’tiborga olinmaydi (tashlab yuborilishi mumkin). Massa uzatish koeffitsiyentlarining matritsasi diagonal bo‘lib qoladi:

$$\bar{K}^{M(V)} = \begin{bmatrix} \bar{K}_{11}^{M(V)} & 0 & \dots & 0 \\ 0 & \bar{K}_{22}^{M(V)} & \dots & 0 \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ 0 & 0 & \dots & \bar{K}_{nn}^{M(V)} \end{bmatrix}$$

Natijada massa uzatishning lokal tezliklari uchun (4) tenglama quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\hat{y} = 35.4 + 4.51x_3 - 1.3x_5 - 1.5x_1^2 + 2.66x_2^2 - 1.47x_3^2 + 1.61x_1x_4$$

Fisher mezoni bo'yicha tenglamani teshirish, uning tajribaga monandligini ko'rsatadi:

$$s_{muk}^2 = 4,466 \quad S_{kol}^2 = 15.35 \quad F = 3.43 \quad F_{P=0.05}(25.5) = 4.5.$$

Natural masshtabdagi tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned}
\hat{y} = & 44.04 + 0.086z_1 - 13.8z_2 + 10.39z_3 - 10.9z_4 - 5.2z_5 - \\
& - 0.00375z_1^2 + 3.28z_2^2 - 1.4z_3^2 + 0.217z_1z_4
\end{aligned}$$

Olingan tenglama turli haroratlarda berilgan xomashyoning parchalanish darajasining kislotadagi aralashmalar tarkibining o'zgarishiga bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Parchalanishning maksimal darjasи  $u_{max}$  ga erishish shartini

aniqlash uchun o‘zgaruvchilarning qiymatlarini o‘zgarmas  $x_2 = +2$  va  $x_5 = -2$  deb qabul qilamiz.

Fosfor kislotadagi  $SO_3$  aralashma konsentratsiyasiga bo‘lgan ta’sir, bu aralashmalarning optimal tashkil etuvchilarining musbat chiziqli va manfiy kvadratik tenglamalarida keltirilgan bo‘lib, 1,533% ga teng va uni  $x_3$  bo‘yicha u ekstremum qiymat shartidan aniqlaymiz.  $x_2$ ,  $x_3$  va  $x_5$  faktorlarning ushbu qiymatlarida regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\hat{y} = 52.12 - 1.5x_1^2 + 1.61x_1x_4.$$

Harorat  $x_1$  ning optimal qiymatlari va  $Al_2O_3x_4$  aralashmaning konsentratsiyasini aniqlash uchun oxirgi tenglama kanonik ko‘rinishga keltiriladi:

$$\hat{y} = 52.12 = 0.35 X_1^2 - 1.85 X_4^2$$


bu yerda 52,12 — S yuza markazidagi parchalanish darajasi.

Javob yuzasi – giperbolik paraboloid. Javob tekisligi yuzasining kesimlarida  $y = \text{const}$  —giperbola (3-rasm); markazda — minimaks. X dan  $x_{4S}$  ga o‘tish formulasi:

$$x_1 = (X + x_{1S}) \cos \varphi - (X_4 + x_{4S}) \sin \varphi$$

$$x_2 = (X_1 + x_{1S}) \sin \varphi + (X_4 + x_{4S}) \cos \varphi$$

$$\tg 2\varphi = \frac{b_{14}}{b_{11} - b_{44}}$$



**3-rasm.**

Maksimal parchalanish darajasini aniqlash uchun  $X_4$  ni nol deb qabul qilib,  $X_1$  (kanonik shakli musbat koeffitsiyent) o‘q bo‘yicha minimaksdan chiqamiz:

$$X_1 = \pm \sqrt{\frac{\hat{y} - 52.12}{0.35}} \quad X_4 = 0$$

$u$  ni oshirib, bunda,  $x_1 = x_4 \leq 2$  shart bajarilishini tekshiramiz. 53,5% ( $x_1 = \pm 1,82$ ;  $x_4 = \pm 0,795$ ) ga teng parchalanish darajasining maksimal kattaligi olindi. ukattalik 54% gacha oshirilganda qiymat  $x_1 > 2$  bo‘ladi. Olingan ( $x_1 = +1,82$ ;  $x_2 = +2$ ;  $x_3 = +1,533$ ;  $x_4 = +0,795$ ;  $x_5 = -2$ ) va ( $x_1 = -1,82$ ;  $x_2 = +2$ ;  $x_3 = 1,533$ ;  $x_4 = -0,795$ ;  $x_5 = -2$ ) ptimal shartlarda nazorat sinovlari o‘tkazilgan. Bunda, parchalanish darjasini mos ravishda 55,8% va 53,7% larni tashkil qiladi. Demak, hisobiy ( $\hat{y} = 53,5\%$ ) va sinov ma’lumoti ( $\bar{y} = 54,7\%$ ) lar orasidagi ayirma (farq) tajriba xatoligi  $s_y = \sqrt{4.466} = 2.1$  chegarasida yotadi.

**6-misol.** Suv – spirt eritmasida  $A + V + S \rightarrow$  sxema bo‘yicha amalgama oshuvchi reaksiya o‘rganilgan. Mahsulot  $D(y)$  ning sifati va miqdoriga torlar ta’sir ko‘rsatadi:  $z_1$  – reaksiya vaqtis, soat;  $z_2$  – eritmada spirtning miqdori, mol.ulush;  $z_3$  – S moddaning konsentratsiyasi, mol.ulush;  $z_4$  – D moddaning konsentratsiyasi, mol.ulush;  $z_5$  – [B/A]. Faktorlarning asosiy sathi va variatsiyalash interallari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

	$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$	$z_5$
$z_i^0$ .....	2.0	0.65	0.10	0.25	1.20
$\Delta z_i$ .....	0.20	0.15	0.025	0.05	0.20

Mahsulotning maksimal miqdori  $D(y_{\max})$  ni olish shartini aniqlash talab qilinadi.

**Yechim.** Rejalashtirishning simpleks usulidan foydalanamiz.  $k = 5$  uchun  $X$

$$\text{matritsadan } X = \begin{bmatrix} 0.5 & 0.289 & 0.204 & 0.158 & 0.129 & 0.109 \\ -0.5 & 0.289 & 0.204 & 0.158 & 0.129 & 0.109 \\ 0 & -0.578 & 0.204 & 0.158 & 0.129 & 0.109 \\ 0 & 0 & -0.612 & 0.158 & 0.129 & 0.109 \\ 0 & 0 & 0 & -0.632 & 0.129 & 0.109 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -0.645 & 0.109 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -0.655 \end{bmatrix}$$

matritsaga

qarang) beshta ustun va olti qator ( $N = k + 1$ ) dan tuzilgan nimmatritsani ajratamiz. Kodlashning  $x_j = \frac{z_j - z_j^0}{\Delta z_j}$  formulasidan foydalanib quyidagilarni olamiz:

$$x_1 = \frac{z_1 - 2.0}{0.20} \quad x_3 = \frac{z_3 - 0.10}{0.10} \\ x_2 = \frac{z_2 - 0.65}{0.15} \quad x_4 = \frac{z_4 - 0.25}{0.05} \quad x_5 = \frac{z_5 - 1.20}{0.20}$$

Unda boshlang'ich simpleks matritsasi natural masshtabda quyidagi 4-jadval ko'rinishiga ega:

4-jadval

.N	$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$	$z_5$	$U$
1	2,10	0,693	0,105	0,258	1,225	0,760
2	1,90	0,693	0,105	0,258	1,225	0,491
3	2,00	0,564	0,105	0,258	1,225	0513
4	2,00	0,650	0,085	0,258	1,225	0,675
5	2,00	0,650	0,100	0,218	1,225	0,693
6	2,00	0,650	0,100	0,250	1,075	0,666

Jadvaldan 2-sinovning eng yomonligi kelib chiqadi. 2-nuqtani uning kuzguli aksi bo'lgan 7-nuqtarga almashtiramiz. Yangi nuqtalarning koordinitalarini aniqlash zarur. Avval 1,3,4,5,6 nuqtalar bilan ifodalanuvchi S nuqtalar - qizdirish markazining koordinatasini topamiz:

$$z_1^{(c)} = \frac{4 \cdot 2.00 + 2.1}{5} = 2.02 \quad z_2^{(c)} = \frac{3 \cdot 0.65 + 0.504 + 0.693}{5} = 0.641$$

$$z_3^{(c)} = \frac{2 \cdot 0.105 + 0.0805 + 20.100}{5} = 0.099 \quad z_4^{(c)} = \frac{3 \cdot 0.258 + 0.218 + 0.250}{5} = 0.298$$

$$z_5^{(c)} = \frac{4 \cdot 1.225 + 1.075}{5} = 1.195$$

Unda yettinchi nuqtaning koordinatalari quyidagicha ifodalanadi:

$$z_1^{(7)} = 2 \cdot 2.02 - 1.90 = 2.14 \quad z_2^{(7)} = 2 \cdot 0.641 - 0.693 = 0.589$$

$$z_3^{(7)} = 2 \cdot 0.099 - 0.105 = 0.093 \quad z_4^{(7)} = 2 \cdot 0.248 - 0.258 = 0.238$$

$$z_5^{(7)} = 2 \cdot 1.195 - 1.225 = 1.165$$

Yangi, yettinchi nuqta qolganlari bilan 134567 simpleksni hosil qiladi 5-jadval).

5-jadval

.N	$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$	$z_5$	$y$
1	2,10	0,693	0,105	0,278	1,225	0,760
3	2,00	0,569	0,105	0,258	1,225	0,513
4	2,00 "	0,650	0,085	0,258	1,225	0,675
5	2,00	0,650	0,100	0,218	1,225	0,693
6	2,00	0,650	0,100	0,250	1,075	0,666
7	2,14	0,589	0,093	0,238	1,165	0,810

7-nuqtada sinov o'tkazilgandan so'ng 134567 simpleksning eng yomon nuqtasi 3-nuqta bo'lib qoldi. Uning 14567 qirralarga nisbatan akslanishi keyingi sinov shartini beradi va h.k. Yettinchi sinov o'tkazilgandan so'ng yana bitta  $z_6$  faktor – aralashtirgichlarning aylanishlar soni ham qo'shiladi. Haligacha  $z_6$  faktor doimiy sath  $z_6^0 = 800 \text{ min}^{-1}$  da ushlab turiladi. Unda sakkizinchu nuqtaning koordinatasi o'lchamsiz ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

$$x_1^{(0)}, x_2^{(0)}, \dots, x_{k+1}^{(0)} + h_{k+1}$$

Variatsiyalash birligi uchun  $\Delta z_6 = 100 \text{ min}^{-1}$ , asosiy sath uchun  $z_6^0 = 800 \text{ min}^{-1}$  qabul qilinadi. Unda  $z_6$  uchun kodlash formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$x_6 = \frac{z_6 - 800}{100} \quad x_6^{(0)} = 0.$$

Olti o‘lchamli simpleksning balandligini  $h_i = \frac{j+1}{\sqrt{2j(j+1)}}$  formula bo‘yicha olamiz:

$$h_6 = 0.764 .$$

№ 8 sinov uchun parametrarning qiymatlarini aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} z_1^{(0)} = z_1^{(8)} &= \frac{2.10 + 4.2.0 + 2.14}{6} = 2.04 & z_2^{(0)} = 0.633 & z_3^{(0)} = z_2^{(8)} = 0.098 \\ z_4^{(0)} = z_4^{(8)} &= 0.247 & z_5^{(0)} = z_5^{(8)} &= 1.19 & z_6^{(8)} = 800 + 100 x_6^{(8)} = \\ &= 800 + 100 (x_6^0 + h_3) = 877 \text{ min}^{-1} \end{aligned}$$

Birinchi beshta parametrning qiymatlari besh o‘lchamli 134567 simpleks og‘irlilik markazining koordinatalarini aks ettiradi (5-jadvalga qarang):

№8 sinov 1, 3, 4, 5, 6, 7 nuqtalar bilan birgalikda olti o‘lchamli 134567 simpleksni hosil qiladi(6-jadval).

*6-jadval*  
**SH-25**

N	$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$	$z_5$	$z_6$	$U$
1	2,10	0,693	0,105	0,258	1,225	800	0,760
3	2,00	0,564	0,105	0,258	1,225	800	0,513
4	2,00	0,650	0,085	0,258	1,225	800	0,675
5	2,00	0,650	0,100	0,258	1,225	800	0,693
6	2,00	0,650	0,100	0,250	1,225	800	0,666
7	2,14	0,589	0,083	0,238	1,165	800	0,810
3	2,04	0,633	0,098	0,247	1,190	877	

Sakkizinch sinov amalga oshirilgandan so‘ng, natijalar tahlili va oltita faktorlarni inobatga olib aks ettirish jarayonini qaytadan o‘tkazish lozim.

4-amaliy mashg‘ulot: **O‘lchash va o‘lchov asboblarining xatoliklari haqida asosiy TUSHUNCHALAR**

**1.1.** Termostatdagi harorat  $0\text{--}500^{\circ}\text{S}$  shkalali, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan asosiy xatoligi  $\pm 4^{\circ}$  S chegarasida bo‘lgan texnik termometr bilan o‘lchanar edi. Termometr ko‘rsatmasi  $346^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etdi. Texnik termometr bilan bir vaqtida termostatga tekshiruvdan o‘tganligi haqida guvohnomaga ega bo‘lgan laboratoriya termometri tushirildi. Laboratoriya termometrining ko‘rsatmasi  $352^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etdi. Guvohnoma bo‘yicha tuzatish –  $1^{\circ}\text{Sni}$ . Chiqib turgan ustun uchun tuzatish  $+0,5^{\circ}$  S ni tashkil qiladi. Texnik termometr ko‘rsatmasidagi xatolikning amaldagi qiymati yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan asosiy xatolikning chegarasidan oshadimi, shuni aniqlang.

**1.2.** Millivoltmetr 50 intervalga ajratilgan bir hil tenglikdagi shkalalarga bo‘lingan o‘lchovning quyi chegarasi  $U_k = -10 \text{ mV}$ , yuqori chegarasi  $U_k = +10 \text{ mV}$  ni tashkil qiladi. Millivoltmetrning sezuvchanligi va shkalalari bo‘linishining bahosini aniqlang.

**1.3.** Mis yoki platina termometrining o‘zgarish koeffitsiyentlari haroratga bog‘liqmi, agarida uning qarshiligi quyidagi ifodalarning harorati bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘lsa:

$$R_t = R_0(1 + at) \text{ - mis termometri uchun,}$$

$$R_t = R_0(1 + At + Bt^2) \text{ - platina termometri uchun.}$$

**1.4.**  $0\text{--}500^{\circ}\text{S}$  shkalali graduirovka XK avtomatik potensiometri tekshirilganda shu narsa aniqlandi, asbob strelkasi va perosi nol belgiga nisbatan yuqorilash tomonga  $10^{\circ}\text{S}$  siljigan. Qog‘oz diagrammasi qayta ishlanganda harorat o‘lchashdagi bu sistematik xatolik qanday hisobga olinishi zarur? Masalan,  $430^{\circ}\text{S}$  belgisida.

**1.6.** Barometrik bosimi 760dan 723,3 gacha mm.simob.ust.ni tashkil etgan o‘zgarish tufayli sodir bo‘lgan gazli manometrik termometr ko‘rsatkichidagi absolyut va nisbiy o‘zgarishlarni aniqlang. Asbob shkalasi  $0\text{--}100^{\circ}\text{S}$ , bu bosimning 6,825 dan 9,325 gacha  $\text{kgs/sm}^2$  ga teng. Asbob  $80^{\circ}\text{S}$  ni ko‘rsatmoqda. Asbob shkalasi bir me’yorda.

**1.7.** 1,5 sinfdagi texnik manometr uchun atrof-muhitning normal harorati  $20\pm 5^{\circ}\text{S}$ , ishchi harorat esa  $+5$  dan  $+50^{\circ}\text{S}$  gacha.

Agarda atrof-muxit harorati  $t = 24^{\circ}\text{S}$ ,  $t = 10^{\circ}\text{S}$  va  $t = 55^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etgan holda qolgan ta’sir etuvchi kattaliklar normal qiymatga ega bo‘lsa, bunday sharoitda asbobning ko‘rsatkichlari xatoliklari bir hilda bo‘ladimi?

**1.8.** Avtomatik potensiometr shkalasining barcha nuqtalaridagi o‘lchovlarning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan nisbiy xatoliklari chegarasi bir hildami?

**1.9.**  $200\text{--}600^{\circ}\text{S}$  shkalali 0,5 graduirovka sinfli XK avtomatik potensiometri bilan termo e.yu.kning bir marotabalik o‘lchovi o‘tkazildi. Ko‘rsatkich  $550^{\circ}\text{S}$  belgisida turibdi.  $550^{\circ}\text{S}$  belgida turgan potensiometr bilan termo e.yu.k. o‘lchangandagi maksimal nisbiy xatolikni baholang. Ishlash sharoiti normal xolatda nisbiy xatolik asbobning ko‘rsatkichi bilan bog‘liqmi?

## YECHIMLAR VA JAVOBLAR

**O1.1.** Texnik termometr uchun faqatgina temperaturaning haqiqiy qiymati ( $346\pm 4$ )  $^{\circ}\text{S}$  yoki  $34\div 350^{\circ}\text{S}$  bo‘lgan intervalni aniqlash mumkin. Laboratoriya termometri uchun tuzatishlar qiymati ma’lum, shuning uchun uning qo‘rsatmalari bo‘yicha temperaturaning haqiqiy qiymatini aniqlash mumkin

$$t_{\Delta} = 352 + (-1) + (+0,5) = 351,5^{\circ}\text{C}.$$

Bundan osonlikcha payqash mumkinki, texnik termometrning amaldagi xatoligi yo‘l qo‘yilgan chegaralardan oshadi

**O1.2.** Ko‘rib chiqilayotgan xolatda strelka shkalaning bir belgisidan boshqasiga kirish kuchlanishi  $\Delta U$ :

$$\Delta U = \frac{U_K - U_B}{N} = \frac{10 - (-10)}{50} = 0,4 \text{ mB},$$

O‘zgarganda siljiydi, bundan kelib chiqadiki, bo‘linish bahosi –  $k=0,4$  mv

Agar asbobning chiqish kattaligi o‘zgarishi deb strelkaning bir intervalga siljishini qabul qilsak, osonlikcha bilish mumkinki sezgirlik  $S$  va bo‘linishi bahosi  $K$  teskari kattaliklar ekan:

$$S = 1/K = 1/0,4 = 2,5 \text{ 1/mB}.$$

**O1.3.** O‘zgarish koefitsiyenti  $S$  sezgirlikka o‘xshash, ammo sezuvchanlik – o‘lchov asbobining xarakteristikasidir, o‘zgarish koefitsiyenti esa – o‘lchov o‘zgartirgichining xarakteristikasidir.

Termometrning kirish signali temperaturadir, chiqish signali esa termometrning elektrik qarshiligidir. Mis termometri uchun o‘zgarish koefitsiyenti

$$S_m = \frac{\Delta R}{\Delta t} = R_0' \alpha.$$

Platinali termometr uchun

$$S_n = \frac{\Delta R}{\Delta t} = R_0 (A + Bt).$$

Bundan kelib chiqadiki, mis termometrning o‘zgarish koefitsiyenti temperaturaga bog‘liq emas, platinali termometr esa – temperaturaga qarab o‘zgaradi.

**O1.4.** Sistematik xatolikni hisoblash uchun diagrammali qog‘ozda graduslarda hisoblangan barcha natijalarni graduirovka jadvallari bo‘yicha millivoltlarga o‘tkazish, millivoltlarda tuzatish kiritish, so‘ngra natijalarni yana graduslarga o‘tkazish zarur.

Strelka va peroning 0 dan  $10^0\text{S}$  gacha siljishi XK graduirovkasi uchun termo e.yu.k. ini 0,65 mv ga o‘zgarishiga mos keladi. Diagrammali qog‘ozda  $430^0\text{S}$  hisoblangan XK graduirovka uchun  $430^0\text{S}$  termo e.yu.k. ining 34,12mv ga teng, tuzatishni qo‘shib hisoblasak

$$34,12 + (-0,65) = 33,47 \text{ mB}.$$

Temperatura qiymatini aniqlaymiz

$$t = 422,75^{\circ}\text{S}.$$

**O1.6.** Barometrik bosim o‘zgarishi  $36,7\text{mm sim.ust}$  yoki  $0,05 \text{ kgs/sm}^2$  ni tashkil qiladi. Manometrik termometrlar oshiqcha bosimni o‘lchaganligi sababli asbobning ko‘rsatishi  $0,05 \text{ kgs/sm}^2$  oshadi. Gazni manometrik termometr shkalasi bir tekisda va bosim bo‘yicha shkala diapazoni  $2,5 \text{ kgs/sm}^2$  ni tashkil qiladi. Shunday qilib, termometr ko‘rsatishlari  $100 \cdot \frac{0,05}{2,5} = 2^{\circ}\text{S}$  ga oshadi. Absolyut xatolik  $+2^{\circ}\text{S}$  ni tashkil qiladi, nisbiy xatolik esa  $80^0\text{S}$  belgida:

$$\delta = \frac{+2}{80} \cdot 100 = +2,5\%.$$

ni tashkil etadi.

**O1.7.** Asbobning normal ishlash sharoiti  $20\pm5^\circ$  S bo‘lsa, temperatura  $+24^\circ$  S da asosiy xatolik bo‘ladi.  $+10^\circ$ S da asosiy xatolikdan tashqari asbobning ko‘rsatishi unga ta’sir etuvchi kattaliklar sababli ham o‘zgarishi mumkin.

**O1.8.** Yo‘q. Shkalaning barcha nuqtalari uchun o‘lchov diapazoni va o‘lchov vositasingin aniqlik sinfi bilan aniqlanadigan absolyut xatolik  $\Delta_0$  ning yo‘l qo‘yiladigan chegarasi bir hildir. Yo‘l qo‘yiladigan nisbiy xatolik  $\delta_0 = \Delta_0/\chi_i$  shkalaning  $\chi_i$  belgisiga bog‘liq. Asbobning shkala bo‘yicha ko‘rsatishi qanchalik kam bo‘lsa, nisbiy xatolik shunchalik ko‘p bo‘ladi. Shu sababli asbobning o‘lchov diapazonini shunday tanlash kerakki, o‘lchanayotgan kattalik shkalaning oxirida bo‘lsin.

**O1.9.** Agarda, potensiometrning sinfidan boshqa hech qanday metrologik xarakteristikasi bo‘lmasa, unda faqatgina yo‘l qo‘yiladigan xatolikning chegarasini baxolash mumkin. Bizning xolatda yo‘l qo‘yiladigan xatolik K sinfi va potensiometrning o‘lchov diapazoni ( $\chi_k - \chi_n$ ) orqali aniqlanadi:

$$\Delta_0 = \frac{\chi_k - \chi_n}{100} \cdot K.$$

Potensiometrlar uchun xatolik millivoltmetrlarda ifodalanadi [12]:

$$\chi_k = E(600^\circ C, 0^\circ C) = 49,11 \text{ mB};$$

$$\chi_n = E(200^\circ C, 0^\circ C) = 14,59 \text{ mB};$$

$$\Delta_0 = \frac{49,11 - 14,59}{100} \cdot 0,5 = 0,1726 \text{ mB}.$$

$550^\circ$  S belgida nisbiy xatolik chegarasi quyidagiga teng:

$$\delta_0 = \frac{\Delta_0}{E(550^\circ C, 0^\circ C)} \cdot 100 = \frac{0,1726}{44,71} \cdot 100 = 0,386\%.$$

Yo‘l qo‘yiladigan absolyut xatolik chegarasi shkalaning barcha belgilari uchun bir xil. Masalan,  $300^\circ$ S belgisida u teng bo‘ladi:

$$\delta_0 = \frac{0,1726}{22,88} \cdot 100 = 0,754\%.$$

5-amaliy mashg‘ulot: **M** Yuqorigi o‘lchash chegarasi  $300^\circ$ S bo‘lgan potensiometrning ko‘rsatishi  $X_p = 240^\circ$ S va o‘lchanayotgan temperaturaning haqiqiy qiymati  $X_{ph} = 241,2^\circ$ S bo‘lganidagi absolyut, nisbiy, keltirilgan xatoliklari topilsin.

Absolyut xatolik (2.2) formula bo‘yicha:  $\Delta X = -1.2^\circ$ S, nisbiy xatolik (2.4) formula bo‘yicha  $b = -0,5\%$ , keltirilgan xato (2.6) formula bo‘yicha  $j = -0,4\%$ .

**1.13.** Oqim sarfini kalorimetrik sarf o‘lchagich bilan o‘lchashda isitgich quvvati ampermetr va voltmetrning ko‘rsatishiga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu ikkala qurilma ham  $K=0,5$  aniqlik sinfiga mansub hamda ular normal sharoitda mos ravishda 0-5 A va 0-30 V oralig‘ida bo‘lgan shkala bo‘yicha ishlaydilar. Elektr tarmoqdagi tok kuchi va kuchlanishning nominal qiymatlari 3,5 A va 24 V ga teng. Qurilma ishlab chiqarayotgan quvvatni o‘lchashdagi xatoni aniqlang va u qanday nomlanadi?

**J 1.13:** Bu yerda bilvosita o‘lchov xatoligi yuzaga keladi, chunki qurilma xatoligi 2 ta parametrga: ampermestr va voltmetr ko’rsatishiga bog’liqdir. Bu xatolik  $\Delta W$  ni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\Delta W = \sqrt{\left(\frac{\partial W}{\partial U} \Delta U\right)^2 + \left(\frac{\partial W}{\partial I} \Delta I\right)^2}$$

O’lchov asboblari haqida aniqlik sinfidan boshqa metrologik tavsiflarning yo’qligi sababli, qo’shimcha ravishda, biz faqat ruxsat etilgan xato qiymatlari chegaralarini asboblar sinfi va shkalasiga asoslangan holda baholay olamiz.

$$\Delta U_0 = \frac{U_y - U_q}{100} * K = \frac{30 - 0}{100} * 0.5 = \pm 0.15 \text{ V}$$

$$\Delta I_0 = \frac{I_y - I_q}{100} * K = \frac{5 - 0}{100} * 0.5 = \pm 0.025 \text{ A}$$

Quvvatni o’lchashning ruxsat etilgan mutlaq xatosi chegarasi:

$$\Delta W = \sqrt{(3.5 * 0.15)^2 + (24 * 0.025)^2} = \pm 0.795 \text{ Vt}$$

Quvvatni o’lchashning ruxsat etilgan nisbiy xatosi chegarasi:

$$\frac{\Delta W}{W} = \frac{\Delta W}{I * U} = \frac{\pm 0.795}{3.5 * 24} = \pm 0.95\%$$

**1.12.** Agar mis qarshilik termometrida  $R_0^* = 49,95 \Omega$  va  $\alpha^* = 4.25 \cdot 10^{-3} K^{-1}$

Kalibrlash jadvallari  $R_0 = 50 \Omega$  va  $\alpha = 4.28 \cdot 10^{-3} K^{-1}$  uchun tuzilgan?

Kalibrlash jadvallari  $R_0 = 50 \Omega$  va  $\alpha = 4.28 \cdot 10^{-3} K^{-1}$  uchun tuzilgan.

**J 1.12.**  $R_0^* = 49,95 \Omega$  va  $\alpha^* = 4.25 \cdot 10^{-3} K^{-1}$  ning sistematik bo’lishidan kelib chiqadigan xatolik hosil bo’ladi. Xatolik muntazam bo’ladi va shuning uchun biz o’lchangan harorat qiymatiga tuzatish kiritish orqali haqiqiy haroratni hisoblaymiz.

Kalibrlash jadvallari bo'yicha aniqlanadigan harorat:  $t^* = \frac{R_t^* - R_0}{R_0 \alpha}$

Haqiqiy harorat:  $t = \frac{R_t^* - R_0}{R_0 \alpha^*}$

Bu yerda:  $R_t^* = 71.4 \Omega$  va  $t^* = 100 ^\circ\text{C}$ , kalibrlash jadvallaridan olinadi.

$$\Delta t = t - t^* = \frac{71.4 - 49.95}{49.95 \cdot 4.25 \cdot 10^{-3}} - \frac{71.4 - 50}{50 \cdot 4.28 \cdot 10^{-3}} = 1.04 ^\circ\text{C}$$

**1.14** Mis termometr qarshiligining harorat bilan bog’liqligi  $R_t = R_0 (1 + \alpha^* \Delta t)$  ifoda orqali aniqlanadi. 100 va  $150 ^\circ\text{C}$  haroratda  $\Delta R_0$  va  $\Delta \alpha$  ning chetga chiqishi sababli

haroratni o'lhashdagi mumkin bo'lgan xatolarni III darajali  $50 \text{ M}$  kalibrlash klassiga ega bo'lgan termoo'zgartgich orqali baholang?

**J 1.14.** Termoo'zgartgichning o'zgartirish koeffitsientini aniqlaymiz :

$$S = \frac{\Delta R_t}{\Delta t} = R_0 \alpha = 50 * 4.28 \cdot 10^{-3} = 0.214 \frac{\Omega}{K}$$

Bu yerda  $R_0 = 50 \Omega$  -  $0^\circ\text{C}$  dagi mis termometr qarshiligi, 21-ilovadan olinadi.

Mumkin bo'lgan haroratni o'lhash xatoligi quyidagi formula bo'yicha bilvosita o'lhash xatosi sifatida baholanadi:

$$\Delta y = \sqrt{\sum_{i=1}^n \left( \frac{\partial y}{\partial x_i} * \delta_{x_i} \right)^2}$$

$$\Delta R_t = \sqrt{\left( \frac{\partial R_t}{\partial R_0} \Delta R_0 \right)^2 + \left( \frac{\partial R_t}{\partial \alpha} \Delta \alpha \right)^2} = \sqrt{(1 + \alpha * t)^2 * \Delta R_0^2 + (R_0 * t * \Delta \alpha)^2}$$

$\Delta R_0 = \pm 0.2 \Omega$ ,  $\Delta \alpha = 0.03 * 10^{-3} K^{-1}$  16-ilovadan olinadi va ruxsat etilgan chetlanish kattaliklari hisoblanadi.

$100^\circ\text{C}$  uchun:

$$\Delta R_t = \sqrt{(1 + 4.28 \cdot 10^{-3} * 100)^2 * 0.2^2 + (50 * 100 * 0.03 * 10^{-3})^2} = \pm 0.316 \Omega$$

$$\Delta t = \frac{\Delta R_t}{S} = \frac{\pm 0.316}{0.214} = \pm 1.48^\circ\text{C}$$

$150^\circ\text{C}$  uchun:

$$\Delta R_t = \sqrt{(1 + 4.28 \cdot 10^{-3} * 150)^2 * 0.2^2 + (50 * 150 * 0.03 * 10^{-3})^2} = \pm 0.4 \Omega$$

$$\Delta t = \frac{\Delta R_t}{S} = \frac{\pm 0.4}{0.214} = \pm 1.86^\circ\text{C}$$

**1.5** O'lchov tizimini sinovdan o'tkazishda differensial bosim o'lchagich – difmanometrdan ikkilamchi o'lhash asbobi sifatida foydalanilgan, normal ishlash sharoitida o'lchov asbobining o'lhash qismida quyidagi  $\Delta P_i$  differentsial bosim qiymatlari olindi:

i , ta	1	2	3	4	5	6	7	8
$\Delta P_i$ , kPa:	84,15	84,06	83,8	83,9	83,94	84,1	84,02	84,03

Keyin, o'lchash tizimining ta'minot manbaida kuchlanish darajasi + 10%  $U_{nom}$  ga o'zgartirildi, bu holda o'lchov asbobining oxirgi nuqtasida quyidagi  $\Delta P_i^*$  differentsial bosim qiymatlari hosil bo'ldi:

i , ta	1	2	3	4	5	6	7	8
$\Delta P_i^*$ , kPa:	83,85	83,75	83,82	83,76	83,84	83,82	83,83	83,75

Ta'minot kuchlanishining o'zgarishidan kelib chiqqan o'lchov tizimidagi ko'rsatishlar xatosini aniqlang va bu xatolikning nomi nima?

**J 1.5.** Normal sharoitda asbob o'lchovining oxirgi nuqtasiga to'g'ri keladigan bosimning o'rtacha qiymatini  $\Delta \bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i$  formulaga asosan aniqlaymiz:

$$\Delta \bar{P} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n P_i = \frac{84,15+84,06+83,8+83,9+83,94+84,1+84,02+84,03}{8} = 84 \text{ kPa}$$

O'lchash tizimining ta'minot manbaida kuchlanish darajasi + 10%  $U_{nom}$  ga o'zgargandagi asbob o'lchovining oxirgi nuqtasiga to'g'ri keladigan bosimning o'rtacha qiymatini topamiz:

$$\Delta \bar{P}_l^* = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \Delta P_i^* = \frac{83,85+83,75+83,82+83,76+83,84+83,82+83,83+83,75}{8} = 83,8 \text{ kPa}$$

Shunday qilib, o'lchov tizimining ta'minot kuchlanishining o'zgarishi natijasida kelib chiqqan o'lchovning oxirgi nuqtasidagi xato qiymatini topish mumkin:

$$\Delta P = \Delta \bar{P}_l^* - \Delta \bar{P} = 83,8 - 84 = -0.2 \text{ kPa}$$

Ushbu xato qo'shimcha xatolik deb ataladi, chunki u ta'sir qiluvchi miqdorlardan birining (ta'minot kuchlanishida) normal qiymatdan og'ishi natijasida yuzaga keladi.

2.4 Pentan bilan to'ldirilgan laboratoriya shisha termometri shkala bo'yicha  $-40^{\circ}\text{C}$  ni ko'rsatmoqda. Termometr o'lchanadigan muhitga  $-100^{\circ}\text{C}$  li belgigacha tushirildi. Chiqib turgan ustunning harorati  $20^{\circ}\text{C}$  ga teng. Shisha ichidagi pentanning ko'rindigan issiqlikdan hajmiy kengayish koeffitsienti  $\gamma=0.0012 \text{ K}^{-1}$  ga teng.

Haroratning haqiqiy qiymatini aniqlang?

J 2.4. Termometr ko'rsatkichlari chiqib turgan ustun tufayli haqiqiy haroratdan farq qiladi. Chiqib turgan ustun uchun tuzatma quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta t = (t_{\text{y}_{\text{ЛЧ}}} - t_{\text{y}_{\text{CT}}}) * \gamma * n$$

Bu yerda:  $t_{\text{y}_{\text{ЛЧ}}}$  – o'lchanayotgan (termometr ko'rsatayotgan) harorat, °C;  $t_{\text{y}_{\text{CT}}}$  – chiqib turgan ustun (atrof-muhit) harorati, °C;  $\gamma$  – ishchi muhitning shisha ichida ko'rindigan issiqlikdan hajmiy kengayish koeffitsienti,  $K^{-1}$ ;  $n$  – termometrning o'lchanayotgan muhitdan chiqib turgan hamda ishchi suyuqligi bor qismining balandligi, ya'ni darajalar soni.

$$\Delta t = (-40 - 20) * 0.0012 * (-40 - (-100)) = -4.32 \text{ } ^\circ\text{C}$$

$$t_x = t_{\text{y}_{\text{ЛЧ}}} + \Delta t = -40 - 4.32 = -44.32 \text{ } ^\circ\text{C}$$

2.5. Termometrik moddalarning issiqlikdan hajmiy kengayish koeffitsienti bilan ko'rindigan issiqlikdan hajmiy kengayish koeffitsienti qiymatlari bir-biriga mos keladimi?

J 2.5. Yo'q. Ko'rindigan kengayish koeffitsienti kamroq. Ushbu farqni quyidagi misolda tushuntirish mumkin. Aytaylik, ma'lum miqdordagi simob qizdirilganda diametri o'zgarmaydigan kapillyarni va shuncha miqdordagi simob avvalgisi bilan bir xil o'lchamdagি. ammo isitish bilan uning diametri oshadigan shisha kapillyarni to'ldiradi,. Agar ikkala kapillyar ham bir xil haroratga qizdirilsa, ikkala kapillyar ichidagi simob miqdori bir xil qiymatga ko'payadi, ammo ikkinchi shisha kapillyardagi simob ustuning uzunligi birinchi kapillyarnikiga qaraganda kamroq bo'ladi, chunki simob hajmi ko'paygan sari shisha kapillyar hajmi ham oshadi.

Bir vaqtning o'zida simob hajmining ko'payishi va shisha kapillyarining diametrining ko'payishini hisobga oladigan kengaytirish koeffitsienti shisha ichidagi simobning ko'rindigan issiqlikdan hajmiy kengayish koeffitsienti deb ataladi.

2.7 Gazli manometrik termometr ko'rsatishini kapillyar haroratining 40 °C ga va prujina harorati 10 °C ga ko'tarilganligi sababli kalibrlash qiymatiga nisbatan o'zgarishini 20 °C da quyidagi shartlarda aniqlang: kapillyar hajmi  $V_k = 1,9 \text{ sm}^3$ , manometrik prujinaning hajmi  $V_n = 1,5 \text{ sm}^3$ , termoballon hajmi  $V_6 = 140 \text{ sm}^3$ .

J 2.7 Termometr ko'rsatishining o'zgarishi kapillyar va prujinada gazning kengayishi natijasida hosil bo'lgan tizimdagи bosimning nisbiy o'zgarishi bilan belgilanadi.

Sharl qonunini hisobga olgan holda  $p_t=p_0(1+\beta^*\Delta t)$  ko'rsatishining o'zgarishini quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$\Delta t = \frac{V_K \Delta t_K + V_{\Pi} \Delta t_{\Pi}}{V_K + V_{\Pi} + V_6}$$

bu erda  $\Delta t_K$  va  $\Delta t_{\Pi}$  mos ravishda kapillyar va prujina haroratining kalibrashdan og'ishi hisoblanadi.

Shunday qilib,

$$\Delta t = \frac{1.9*40+1.5*10}{140+1.9+1.5} = 0.63 \text{ } ^\circ\text{C}$$

Ushbu taxminiy hisoblash kapillyar va prujinaning kengayishini hisobga olmaydi. O'qishdagi haqiqiy o'zgarish biroz kamroq bo'ladi.

2.8 Atrof muhit harorati  $30 \text{ } ^\circ\text{C}$  ga o'zgarishi sababli manometrik gaz termometrining ko'rsatkichlarini o'zgarishini baholang, agarda kapillyarlar  $V_K$ , prujina  $V_{\Pi}$  va termoballon hajmlari  $V_6$  ning nisbati  $\frac{V_K + V_{\Pi}}{V_6} = 0.01$  ma'lum bo'lsa.

J 2.8 Oldingi 2.7 misolni javobida bo'lgani kabi ko'rsatish o'zgarishi o'sha formulaga muvofiq hisoblanadi:

$$\Delta t = \frac{(V_K + V_{\Pi}) \Delta t_{\Pi}}{V_K + V_{\Pi} + V_6}$$

bu erda  $\Delta t_{\Pi}$  - kapillyar va prujina haroratining o'zgarishi.

Shuning uchun,

$$\Delta t = \frac{0.01*30}{1.01} = 0.297 \text{ } ^\circ\text{C}$$

2.10 2.9-topshiriqning shartlariga muvofiq, ko'rsatishdagi qanday nisbiy o'zgarish 0 va  $500 \text{ } ^\circ\text{C}$  shkalalardagi barometrik bosim  $p_6$  ning 0,005 MPa ga o'zgarishiga olib kelishini aniqlang?

J 2.10 Masalani yechish uchun  $0 \text{ } ^\circ\text{C}$  dagi nisbiy o'zgarishlarni aniqlaymiz:

$$\delta = \frac{0.005}{5.46} * 100\% = 0.092\%$$

Xuddi shunday,  $500 \text{ } ^\circ\text{C}$  da ham:

$$\delta = \frac{0.005}{15.46} * 100\% = 0.032\%$$

6-amaliy mashg'ulot: **Xaroratni o'chash**

**2.1.** Qaysi harorat diapazoni uchun xalqaro amaliy harorat shkalasi 1968 (MPTSH-68) joriy etiladi?

**2.2.** MPTSH-68 ning amaliy ishga kiritish qanday amalga oshiriladi?

**2.3.** Simobning qaynash darajasi  $+356,6^{\circ}\text{S}$  bo‘lgan holda  $+500^{\circ}\text{S}$  haroratni simobli shisha termometr bilan o‘lhash mumkinmi? Qanday qilib simobli termometrlarning o‘lchovini yuqori chegarasini ko‘tarish mumkin?

**2.6.** Manometrik simobli termometrning ko‘rsatmalari o‘zgarishini aniqlang, agarda graduirovka paytida termoballon va ko‘rsatuvchi asbob bir sathda turgan bo‘lib, real sharoitda esa – ko‘rsatuvchi asbob termoballondan  $7,37\text{ m}$  baland joylashgan bo‘lsa, termometr shkalasi  $0-500^{\circ}\text{S}$ . Xarorat  $0$  dan  $500^{\circ}\text{S}$  gacha o‘zgarganda sistemadagi bosim  $4,47$  dan  $14,28\text{ mPa}$  gacha o‘zgaradi. Simobning zichligi  $r=13595\text{ kg/m}^3$ .

**2.9.** Harorat  $0$  dan  $500^{\circ}\text{S}$  ga o‘zgarganda sistemadagi bosim  $100\text{ kgs/sm}^2$  ga o‘zgarishi uchun  $0^{\circ}\text{S}$  dagi manometrik gaz termometri sistemasida qanday boshlang‘ich bosim xosil qilinishi zarurligini aniqlang. Gaz kengayishining termik koeffitsiyenti  $\beta = 0,00366\text{ K}^{-1}$

**2.11.** TXK tipdagi termoelektrik termometrning termo e.yu.ki ishchi uchidagi harorat o‘zgargan, ammo ishchi uchi va erkin uchlaringin haroratini farqi saqlanib qolganda o‘zgaradimi? Masalan,  $Ye(300, 50^{\circ}\text{S})$  va  $Ye(600, 350^{\circ}\text{S})$ ?

**2.16.** Termoelektrik termometr ko‘rsatmalariga tuzatishlar kiriting va ishchi uchining haroratini aniqlang, agarda TPP tipidagi termometrning termo e.yu.ki  $3,75\text{mV}$  ni, erkin uchlari harorati  $32^{\circ}\text{S}$  ni tashkil qilsa.

**2.18.** TPP tipidagi termoelektrik termometr o‘lchov asbobiga mis simlar yordamida ulandi. Termometrning ishchi uchi harorati  $700^{\circ}\text{S}$ , erkin uchlaringi esa  $20^{\circ}\text{S}$ .

Mis simning platinarodiyli elektrodga ulangan joyidagi harorat  $100^{\circ}\text{S}$  gacha oshsa, mis simning platinali elektrodga ulangan joyining harorati esa  $20^{\circ}\text{S}$  ga teng bo‘lsa termo e.yu.ki o‘zgaradimi?

TPP tipdagi termoelektrik termometr uchun boshlang‘ich qiymatlar  $Ye(700, 0^{\circ}\text{S})=6,256\text{ mV}$ ,  $Ye(20, 0^{\circ}<\text{S})=0,112\text{ mV}$  platinorodiy – mis termoelektrik termometrning termo e.yu.ki ishchi va erkin uchlaringin harorati  $100^{\circ}\text{S}$  va  $20^{\circ}\text{S}$  bo‘lganda quyidagiga teng:  $Ye'(100, 20^{\circ}\text{S}) = 0,077\text{ mV}$ .

**2.24.** 2-23 masalasidagi shart uchun quyidagilarni tahmin qilamiz, ishchi uchi temperaturasi  $t=400^{\circ}\text{S}$ , 1 va 2 nuqtalari temperaturasi  $t'=40^{\circ}\text{S}$  va 3 va 4 nuqtalari temperaturasi  $t''=20^{\circ}\text{C}$  (2-7rasm).

Millifoltmetrning ko‘rsatmalari qay tarzda o‘zgaradi, agarda termoelektroli uzaytiruvchi simlarni xuddi shunday summar qarshilikli mis simlar bilan almashtirilsa? Termoelektrik termometr xarakteristikasini liniyalı deb hisoblaymiz. O‘lchov asbobining kirish qarshiligidini cheksiz katta deb tahmin qilamiz.

**2.25.** 2-23 masalasidagi shart uchun tahmin qilamiz: 1,2,3,4 nuqtalari doimo bir hil, faqatgina vaqt bo‘yicha o‘zgarishi mumkin. Agarda termoelektroli uzaytiruvchi simlarni mis simlar bilan almashtirilsa bu holatda asbobning ko‘rsatmalari o‘zgaradimi?

**2.26.** 2-23 masalasi sharti uchun KT-54 kompensatoridan (2-7rasm) dagi millivolmetrga keluvchi mis simlarni xuddi shunday qarshilikka ega alyuminiy simlarga almashtirilsa millivoltmetrning ko‘rsatmalari o‘zgaradimi?

**2.27.** 2-23 masalasi sharti uchun termoelektrik termometrning yo‘l qo‘yiladigan o‘zgarishlari diapazonida erkin uchlarining barcha temperaturalarida termo e.yu.k. ning o‘zgarish to‘liq kompensatsiyalanadimi?

**2.28.** Millivoltmetrning sezuvchanligi o‘zgaradimi, agar prujinaning o‘zgarmas qattiqligida uning o‘ramlari soni oshirilsa?

**2.39.** Ichki qarshiligi juda katta bo‘lgan manbaning e.yu.kni o‘lchash lozim. Masalan  $R_N$  – metr elektrod sistemasining e.yu.kni.

Qanday potensiometr, kichikomlimi yoki yuqoriomli va nima uchun bu maqsadda foydalanish kerak?

**2.40.** KSP-4 tipidagi 0-400 $^{\circ}$ S shkalali XK graduirovkali avtomatik potensiometrning o‘lchov sxemasi quyidagi qarshiliklar va tok qiymati bilan xarakterlanadi.  $R_k = 509,5 \text{ Om}$ ;  $R_b = 330 \text{ Om}$ ;  $R_p = 12 \text{ Om}$ ;  $R_e = 90 \text{ Om}$ ;  $I_1 = 3 \text{ mA}$ ;  $I_2 = 2 \text{ mA}$ .

Reoxordning  $s$  yoki  $d$  nuqtasidan qaysi biri o‘lchovning yuqori chegarasiga mos kelishini aniqlang?

**2.53.** Mis qarshilik termometrlari 20 $^{\circ}$ S da quyidagi qarshilikka ega:

$$R_{20} = 1,75 \text{ Om}$$

Uning 100 va 150 $^{\circ}$  S dagi qarshiligini aniqlang. Temperatura koeffitsiyenti  $\alpha = 4,26 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}$ .

**2.57.** 23-24 graduirovkali mis qarshilik termometrlari 0-150 $^{\circ}$ S intervaldagi o‘zgarishlar koeffitsiyenti qiymati bir hilmi?

## YECHIMLAR VA JAVOBLAR

**O2.1.** Gost 8.157-75 ga ko‘ra [8] MPTSH-68 temperaturani 13,81 dan 6300 K gacha oraliqda o‘lchashni ta’minlaydi. Boshqa temperatura diapazonlari uchun boshqa temperatura shkalalari o‘rnatalib, ular 0,01 dan 100000 K chegarada bir xil o‘lchashni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Turli amoliy temperatura shkalalari turli metodlar bilan realizatsiya qilindi.

**O2.2.** MPTSH-68 o‘zgarmas, aniq tiklanadigan turg‘unlik temperaturalari sistemasiga asoslangan bo‘ladi. Ularning son qiymatlari berilgan bo‘ladi. MPTSH-68 reper tochkalari temperaturasi orasidagi intervallarda interrolyatsiya etalon asboblari va temperatura ko‘rsatishlari o‘rtasida bog‘liqlikni o‘rnatadigan formulalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Asosiy reper nuqtalari ba’zi bir sof moddalarning ma’lum bir fazaviy muvozanat holatlari sifatida realizatsiyalanadi.

13,81 dan 903,89 K gacha temperatura uchun etalon asbob sifatida platinali qarshilik termometri ishlatiladi. 630,74 dan 1064,43 $^{\circ}$ S gacha bo‘lgan temperaturalari uchun etalon asbob sifatida platinali va platinarodiyli (10% rodiyli) elektrodi bo‘lgan termoelektrik termometr ishlatiladi. 1064,43 $^{\circ}$ S dan yuqori bo‘lgan temperaturalarda temperaturani Plank nurlanishi qonuniga muvofiq aniqlaydilar.

**O2.3.** Simobli shisha termometrlarining ishlatilish chegaralari simobning suyuq holatidagi temperaturaviy chegarasi va shishaning yo‘l qo‘yiladigan isishi chegarasi bilan aniqlanadi. Simobning qotish temperaturasi -38,9 $^{\circ}$ S, qaynash temperaturasi esa 356,6 $^{\circ}$ S. Shu sababli simobli termometr qo‘llanilishining quyi chegarasi -35 $^{\circ}$ S ni tashkil qiladi. Simobning qaynash chegarasi termometr kapillyaridagi bosim uning inert gaz bilan to‘lishi tufayli oshishi hisobiga oshishi mumkin. Shu sababli simobli

termometrlarning yuqori o'lchash chegarasi simobning qaynash chegarasidan yuqori bo'lishi mumkin va shisha kapilyar ishlatalganida  $600^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. Bunda kapilyardagi inert gazning bosimi 2,0 MPa ( $\sim 20 \text{ kg/sm}^2$ ) dan oshadi.

Kvars kapillyarlardan foydalanilganda simobli termometrlarning yuqori o'lchash chegarasi birmuncha baland bo'lishi mumkin.

**O2.6.** Ko'rsatadigan asbobga olib boradigan bosim termoballondagi bosimdan suyuqlik ustuni bosimi ayirmasi sifatida aniqlanadi. Suyuqlik ustuni bosimi ko'rsatuvchi asbob va termoballon joylashishi sathining farqi bilan aniqlanadi:

$$\Delta p = \Delta H \rho g = 7,37 \cdot 13595 \cdot 9,81 = 0,98 \text{ MPa.}$$

Shunday qilib, asbobning ko'rsatishi termoballondagi bosimning haqiqiy qiymatiga nisbatan 0,98 MPa ga kamayadi. Manometrik termometrning

$$S = \frac{p_K - p_H}{t_K - t_H} = \frac{14,28 - 4,47}{500 - 0} = 0,0196 \text{ MPa/}^{\circ}\text{C.}$$

sezuvchanligini aniqlaymiz

Termometr ko'rsatishining termoballon va o'lchov apparatining o'zaro joylashuvidagi farqi tufayli o'zgarishini aniqlaymiz:

$$\Delta t = \frac{\Delta p}{S} = \frac{0,98}{0,0196} = 50^{\circ}\text{C.}$$

Demak, manometrik termometrning ko'rsatiishlari  $50^{\circ}\text{S}$  ga kam bo'ladi.

**O2.9.** Sistemada bosim o'zgarishi quyidagi qonun bo'yicha bo'lib o'tadi:

$$p_t = p_0 [1 + \beta (t - t_0)],$$

bu yerda  $\beta$  – gaz kengayishining termik koeffitsiyenti;  $t_0$  va  $t$  – temperaturaning boshlang'ich va xozirgi paytdagi temperaturalari;  $p_0$  – ishchi moddaning  $t_0$  temperaturadagi bosim.

Shunday qilib, bosimning o'zgarishi

$$\Delta p = p_0 \beta \Delta t.$$

Bundan boshlang'ich bosimni aniqlaymiz.

$$p_0 = \frac{\Delta p}{\beta \Delta t} = \frac{100}{0,00366 \cdot 500} = 54,6 \text{ ktc/cm}^3.$$

**O2.11.** Termoelektrik termometrning ishchi va erkin uchlarining temperaturalari farqi bir hilda bo'lsa, termoelektrik termometr rivojlantirayotgan termo e.yu.k. bir xil bo'lishi mumkin, agarda termometrning xarakteristikasi liniyalı bo'lsa




Рис. О2-1.




Рис. О2-2.

TXK tipidagi termoelektrik termometr xarakteristikasi noliniyalı termo e.yu.k. ham turlicha bo'ladi buni [2, 11] jadvallari yoki O2-1 rasm orqali osonlikcha tushuntirish mumkin.

$$\begin{aligned} E(300^{\circ}\text{C}, 50^{\circ}\text{C}) &= E(300^{\circ}\text{C}, 0^{\circ}\text{C}) - E(50^{\circ}\text{C}, 0^{\circ}\text{C}) = \\ &= 22,88 - 3,35 = 19,53 \text{ мВ;} \\ E(600^{\circ}\text{C}, 350^{\circ}\text{C}) &= 21,97 \text{ мВ.} \end{aligned}$$

**O2.12.** Termoelektrik termometrning termo e.yu.ki Ye ( $t_0, 0$ ) ga kamayadi. Bu uning barcha xarakteristikasini Ye o'qidan pastga Ye ( $t_0, 0$ ) ga ekvidistant aralishuviga mos keladi.

**O2.15.** Har ikkala termometr hosil qiladigan e.yu.ki bir hil bo'ladi. Termoelektrik termometrlarining teoriyasining asosiy xolatlaridan ma'lumki, termometr zanjiriga uchinchi o'tkazgichning ulanishi termo e.yu.ki ni o'zgartirmaydi, agarda bu o'tkazgich ulanadigan joyning temperaturasi bir hil bo'lisa.

**O2.16.** [2, 11]  $E(32^\circ\text{S}, 0^\circ\text{S}) = 0,186\text{mV}$  tablitsa bo'yicha aniqlaymiz. Termoelektrik termometrning termo e.yu.kini, tuzatishni hisobga olib aniqlaymiz.

$$E(t, 0) = E(t^\circ, \text{C}, 32^\circ \text{C}) + E(32^\circ \text{C}, 0^\circ \text{C}) = 3,75 + 0,186 = 3,936 \text{ mB}.$$

Jadvaldan  $E(t, 0) = 3,936 \text{ mV}$  ga mos keladigan t ni aniqlaymiz:  $t = 471,3^\circ \text{S}$ .

**O2.17.** Uchinchi o'tkazgich haqidagi teoremaga muvofiq, termoelektrik termometrning termo e.yu.ki erkin uchlarga ulangan o'tkazgichning materialiga bog'liq bo'lmaydi, agarda erkin uchlarining temperaturasi bir xilda bo'lisa.

**O2.18.** Zanjirda xarakatlanuvchi Ye" termo e.yu.k. Ye' ga o'zgaradi:

$$\begin{aligned} E'' &= E(700^\circ \text{C}, 20^\circ \text{C}) - E'(100^\circ \text{C}, 20^\circ \text{C}) = \\ &= 6,256 - 0,112 + 0,077 = 6,221 \text{ mB}. \end{aligned}$$

**O2.24.** O'lchov asbobi IP ning kirish kuchlanishi shunchalik kattaki, tashqi liniyasidagi kuchlanishni yo'qotilishini e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Bunda o'lchov asbobining kirishidagi kuchlanish  $U_n$  quyidagiga teng bo'ladi:

$$U_n = E(t, t_0) + U_{cd}(t'_0),$$

bu yerda  $E(t, t_0)$  – termoelektrik termometrning ishchi va erkin uchlaridagi temperatura t va  $t_0$  larda xosil bo'ladi termo e.yu.k;  $U_{cd}$  – kompensatorning cd diaganalidagi kuchlanishi rezistorning qarshiligi  $R_b$  (2-7r.ga qarang) shunday tanlanadiki,  $t_0 = t''$  bo'lsin (ko'prik  $0^\circ\text{S}$  da muvozanatlashgan hisoblanadi)

$$E(t_0, 0) = U_{cd}(t_0).$$

Bundan kelib chiqadigan to'g'ri tuzatish kiritish uchun termometr erkin uchlarining va ko'prikning mis rezistori temperaturalari teng bo'lishiga rioya qilish kerak. Bunga erishish uchun erkin uchlardan termoelektrondi uzaytiruvchi simlar yordamida ko'prikning mis rezistori yonida joylashtiriladi.

Bunda o'lchov asbobining kirishidagi kuchlanish quyidagicha teng bo'ladi:

$$U_n = E(t, t_0) + U_{cd}(t_0) = E(t, 0)$$

qiyatiga bog'liq bo'lmaydi.

Termoelektrondi simlarni mis simlarga almashtirilsa termometrning erkin uchlari 1 va 2 nuqtalarda bo'ladi, ya'ni  $t_0 = t'' = 40^\circ \text{S}$ ,  $t = 20^\circ \text{S}$ .

Bundan kelib chiqadiki, bu xolatda

$$U'_n = E(t, t'_0) + U_{cd}(t''),$$

shu bilan birga  $U'_n < U_p$  chunki  $E(t_0', 0) > U_{cd}(t'')$ . Boshqacha aytganda, ko'prik erkin uchlardan temperaturasini  $40^\circ\text{S}$  ga oshirishga tuzatish kiritish lozim, u esa faqatgina  $20^\circ\text{S}$  ga tuzatish kiritadi. Termoelektrik termometrning liniyasi xarakteristikasida bu asbob ko'rsatishini  $20^\circ\text{S}$  ga kamayishiga tengdir

**O2.25.** O2.24. asosida osonlikga shunday xulosaga kelish mumkinki, bu xolatda simlarni almashtirish asbobning ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

**O2.26.** Millivoltmetrning ko'rsatishi o'zgarmaydi, chunki termoelektrik termometr zanjiriga istalgan o'tkazgichning ulanishi termo-e.yu.k. ini o'zgartirmaydi, agarda bu o'tkazgich ulanadigan joyning temperaturasi bir hil bo'lsa.

**O2.27.** Termo-e.yu.k. ini o'zgartirish kompensatori muvozanatlangan ko'prik bo'lib, u  $cd$  o'lchov diaganalida  $R_M$  qarshilik yelkasidan  $U$  kuchlanishining nochizqli bog'liqlikka ega.

Barcha standart termoelektrik termometrlar u yoki bu darajada nochiziqli. Ammo, ko'prikning va termometrning nochiziqligi turlichadir. Shu sababli termo-e.yu.k. ning to'liq kompensatsiyasiga faqat erkin uchlarning ikkidan ortiq bo'limgan temperaturasida erishishi mumkin.

**O2.28.** Millivoltmetr ramkasining aylantiruvchi momenti

$$M_1 = 2rlnBI,$$

bu yerda  $r$  – ramka radiusi;  $l$  – ramkaning faol uzunligi;  $p$  – ramkaning cho'lg'amlari soni;  $V$  – tirkishdagi magnit induksiyasi;  $I$  – ramkadagi tok kuchi.

Prujinalar xosil qiladigan teskari ta'sir etuvchi moment,

$$M_2 = c\varphi,$$

bu yerda  $s$  – teskari ta'sir etuvchi prujinaning tarangligini hisobga oluvchi koefitsiyent;  $\varphi$  – ramka aylanishi burchagi (prujinaning buralishi).

$M_1 = M_2$  bo'lgan xolatda ramkaning aylanishi burchagi Hamdamov Anvar Maxmudovich teng bo'ladi:

$$\varphi = \frac{2rlnBI}{c}.$$

Sezgirlik S (1) ifoda bilan aniqlanadi

$$S = \frac{\Delta\varphi}{\Delta I}.$$

$\varphi = f(I)$  bog'liqligi millivoltmetr uchun chiziqli bo'lganligi bois quyidagicha ifodani yozish mumkin:

$$S = \frac{2rlnB}{c}.$$

Shunday qilib, cho'lg'amlar  $p$  soni oshishi bilan sezgirlik S ham oshishi mumkin, bir shart bilan, koefitsiyent o'zgarmagan holda

**O2.39.** Yuqori omma. Birinchi daqiqada rasm ommadan foydalanish mumkinday ko'rindi, chunki bu narsa sxema muvozanati buzilganda pul-indikator orqali o'tadigan tokni oshirishi mumkin. Ammo shuni yodda tutmoq zarurki, ichki qarshiliqi katta bo'lgan manbaning e.yu.k ni o'lchayotganda undan minimal darajada tok o'tishi kerak, chunki uning chiqishidagi kuchlanish e.yu.k dan farq qilmasligi uchun.

**O2.40.** Potensiometrlarda kompensatsiyalovchi kuchlanish o'lchanadigan kuchlanishga teng bo'lishi lozim.  $s$  va  $a$ , hamda  $d$  va  $a$  nuqtalar orasidagi potensiallar farqi qiymatini xisoblab chiqamiz (2-9r).  $s$  va  $a$ , o'rtasidagi potensiallari farqi

$$U_{ca} = -I_1(R_b + R_{ap}) + I_2R_k = -3(330 + 10,59) + \\ + 2 \cdot 509,5 = -2,77 \text{ mB},$$

$$\text{bu yerda } R_{np} = \frac{R_n R_s}{R_n + R_s}.$$

*d* va *a* nuqtalari o‘rtasidagi potensiallar farqi.

$$U_{da} = -I_1 R_s + I_2 R_n = 3 \cdot 330 + 2 \cdot 509,5 = 29 \text{ mB}.$$

KSPI potensiometrining o‘lchov sxemasi hisobi termoelektrik termometr erkin uchlarining qabul qilingan temperaturasidan kelib chiqib qilinadi, ya’ni shkalaning boshlang‘ich belgisi kirish kuchlanishiga mos keladi  $E(0^\circ\text{S}, 30^\circ\text{ S}) = -1,98 \text{ mV}$ , oxirgisiga esa  $Ye(400^\circ\text{ S}, 30^\circ\text{ S}) = 29,51 \text{ mV}$ .

Kuchlanishlarni taqqoslab shuni aniqlash mumkinki, *d* nuqtasi shkalaning oxirgi belgisiga mos keladi.

Real sharoitlarda tenglikka riox qilish mumkin,  $U_{ca} = E(0^\circ\text{C}, 30^\circ\text{C})$  va  $U_{da} = E(400^\circ\text{C}, 30^\circ\text{S})$ . Olingan farq reoxordning ishlamaydigan uchastkalarini xisobga olmaslikdan kelib chiqadi.

**O2.57.** Mis termometrlar uchun qarshilikning temperaturaga bog‘liqligi

$$R_t = R_0 (1 + \alpha t).$$

Intervaldagagi o‘zgartirish koeffitsiyenti quyidagi ifodaga muvofiq aniqlanadi.

$$S = \Delta R_t / \Delta t.$$

Shu bois, barcha temperatura intervallarida o‘zgartirish koeffitsiyenti

$$S = R_0 \alpha.$$

23 va 24 graduirovkalar temperaturasi  $R_0$  qiymati Bilan farqlanadi, *a* qiymati har ikkala graduirovkalar uchun bir hildir. Shu sababli 23 graduirovka uchun  $23 \text{ S} = 0,2258 \text{ Om/K}$ , 24 graduirovkasi uchun  $S = 0,426 \text{ Om/K}$ .

## **VI. GLOSSARY**

Model - obyekt yoki sistemaning real mavjudligidan farqli ravishda boshka bir qancha ko‘rinishdagi tasvirlanishidir

Matematik model - tadqiq etilayotgan obyektda bo‘layotgan jarayonni qo‘yilgan aniqlik bo‘yicha ko‘rsatib beruvchi matematik ifoda ko‘rinishida bo‘ladi

grafik model - Obyekt va sistemalarning xususiyatlarini ifodalash uchun sonli tablitsa va grafikalardan xam foydalilanildi

analitik model - Bir muncha murakkabroq xollarda matematik model obyekt kirish va chiqish o‘zgaruvchilari orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi va aniq tenglama ko‘rinishida beriladi

Fizik model –real obyektning xususiyatlarining yoki xarakterini o‘zida mujassam etgan fizik qurilma yoki maketga aytiladi

Fizik birlik-fizik kattalikning

bir xil tabiatli fizik kattaliklarni miqdoriy baxolash uchun asos sifatida qabul qilingan o’lchami.

Areometr –qattiq jismlar va suyuqlikning zichligini o‘lchashda ishlataladi.

Qurilma Arximed qonuniga asoslangan

O‘lchovchi asbob-o‘lhash asbobi, fizik kattalikni qiymatini belgilangan diapazonni o‘lhash uchun mo‘ljallangan

O‘lchanayotgan fizik kattalik –o‘lhashga mo‘ljallangan, asosiy o‘lhash maqsadi, o‘lchanayotgan yoki o‘lchangan bilan solishtirish

O‘lchovchi asbob-o‘lhash asbobi, fizik kattalikni qiymatini belgilangan diapazonni o‘lhash uchun mo‘ljallangan.

Metrologik elementlar-xavo va atmosfera xolatlarini ifodalovchi proses. -xarorat, bosim, namlik,

shamol, tuman, yog‘ingarchilik va boshqalar.

O‘lchov-maxsus texnik vositalar yordamida fizik miqdorning qiymathii tajriba yo‘li bilan aniqlashdir. O‘lhash – o‘lchanayotgan miqdorni birlik sifatida qabul qilingan miqdor bilan taqqoslashdan iboratdir

Metrologiya- o'lhashlar to'g'risidagi fan demakdir, metr so'zi fransuzcha bo'lib metre, grekcha metron o'lhashni anglatadi.

To'g'ri o'lhash-to'g'ridan – to'g'ri o'lhash usuli  
O'lchov asbobi-texnik asbob, o'lhashda ishlatiladigan va metrologik xususiyatga ega.

Shkala bo'limining qiymati deb, o'lchanadigan miqdorning shkaladagi bir bo'limiga mos qiymatga aytildi. Masalan, soat tipidagi indikator shkalasidagi bir bo'limning qiymati 0,01 mm ga teng.

O'lchanayotgan fizik kattalik –o'lhashga mo'ljallangan, asosiy o'lhash maqsadi, o'lchanayotgan yoki o'lchanayotgan bilan solishtirish

Fizik kattaliklarning birligi- fizik kattalikning bir xil  
tabiatli fizik kattaliklarni miqdoriy baxolash uchun asos  
sifatida qabul qilingan o'lchami.

Aniqlik, qurilmaning ekspluatatsiya davrida son yoki miqdorga asoslangan holda chegaralarni aniqlash.

Tasodifiy xatolik-faqyat bitta kattalikni qayta o'lhash mobaynida tasodifiy o'zgaruvchi o'lhash xatoligi tushuniladi.

O'lhash xatoligi-o'lhash natijasi bilan o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatidan orasidagi farq

## VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. 2-chi nashr: qayta ishlangan va to‘ldirilgan. –T.: Fan va texnologiya, 2019.
2. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2015.
3. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va identifikatsiyalash. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2019.
4. Luigi Bocola Identifying Neutral Technology Shocks. University of Pennsylvania, 2014
5. Gartman T.N., Klushin D.V. Osnovы kompyuternogo modelirovaniya ximiko-texnologicheskix protsessov: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M.:IKS “Akademkniga”, 2006. 416s.
6. Kafarov V.V. Matematicheskoe modelirovanie osnovnyx protsessov ximicheskoy texnologii. - M.: Vysshaya shkola. 1999.
7. Kafarov V.V., Glebov M.B. Matematicheskoe modelirovanie osnovnyx protsessov ximicheskix proizvodstv. – M.: Vysshaya shkola, 1991.– 400
8. Dvoreskiy S.I., Yegorov A.F., Dvoreskiy D.S. Kompyuternoe modelirovanie i optimizatsiya texnologicheskix protsessov i oborudovaniya: Ucheb. posobie. Tambov: Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2003. 224 s
9. Komissarov M.A., Glebov M.B., Gordeev L.S. Ximiko-texnologicheskie protsessy. Teoriya i eksperimenty. – M.: Ximiya, 1999. – 358 s.
10. Yusupbekov N.R. Matematicheskoe modelirovanie texnologicheskix protsessov. O‘quv qo‘llanma. - ToshDU.: 1989.
11. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P., Bazarov M.B., Xalilov J.A. Boshqarish sistemalarini kompyuterli modellashtirish asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. –N.: Navoiy-Gold-Serves, 2009.
12. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P., Gulyamov Sh.M. Osnovы protsessov razdeleniya mnogokomponentnyx smesey. – T: “Universitet”, 2017.
13. Yusupbekov N.R., Gulyamov Sh.M., Muxitdinov D.P., Avazov Yu.Sh. Matematicheskoe modelirovanie protsessov rektifikatsii mnogokomponentnyx smesey. –T.: TashGTU, 2014.
14. Yusupbekov N.R., Gulyamov Sh.M., Mannanov U.V. Modelirovanie sovmestennых reaksinno-razdelitelnyx protsessov. –T.: TashGTU,1999.
15. Alan S. Moris, Reza Langari. Measurement and Instrumentation.- UK:Academic Press, 2016-697p.
16. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G’ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlami nazorat qilish va avtomatlashtirish. -Toshkent: 0’qituvchi, 2011. -576 b.
17. Yusupbekov H.P., Muxamedov B.E., Gulomov Sh.M. Texnologik jaraenlarni boshkarish sistemalari. -Toshkent: Ukituvchi. 1997. -704 b.

18. Zaysev C.A., Gribanov D.D., Tolstov A.H., Merkulov R.V. Kontrolno izmeritelnye pribory i instrumenty. -M.: Akademiya, 2002. -464s.
19. Ivanova G.M., Kuznetsov N.D., Chistyakov B.C. Teplotexnicheskiye izmereniya i pribory. -M.:MEI, 2005.-460s.
20. Gulyayev A.K. Vizualnoye modelirovaniye v srede MATLAB. Uchebnyu kurs. -SPb.: Piter.2000. -432s.
21. SIMULINK-modelirovaniye v srede MATLAB.Uchebnoye posobiye. -M.: MGUIE. 2002. -128s.
22. KalinichenkoA.V. Spravochnik injenera po KIPiA. -M.: Infra Injeneriya, 2008. -564s.
23. P.Kuznetsov N.D., Chistyakov B.C. Sbornik zadach i voprosov po «Teplotexnicheskiye izmereniya i pribory». -M.: MEI, 2005.
24. Beldeyeva J.I.H. Texnologicheskiye izmereniya na predpriyatiyah ximicheskoy promyshlennosti. Chast 1. -Altay: AltGTU, 2002. -70s.
25. Beldeyeva L.N. Texnologicheskiye izmereniya na predpriyatiyah ximicheskoy promyshlennosti. Chast 2. -Altay: AltGTU, 2002. -100s.